

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI

O'ZBEKISTON TARIXI

fanidan

ma'ruzalar matni

Tuzuvchilar: katta o'qituvchi Z.Haydarov  
o'qituvchi A.Isoqboyev

NAMANGAN - 2006 YIL

## SO'Z BOSHI

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, uni mustahkamlash va shuning asosida yangi huquqiy-demokratik jamiyat qurish yo'lga o'tdi. Mustaqillik tufayli respublikamiz ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy hayotida juda katta tub o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekistonda tarixiy jihatdan qisqa bir davr ichida milliy davlatchilikni barpo qilish, bozor iqtisodiga o'tish, xalqaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish bobida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, istiqloq xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov o'zining bir qator risola va nutqlarida kishilar dunyoqarashi va jamiyat mafkurasi shakllanishida ijtimoiy fanlarning xususidan, tarix fanining o'rni beqiyosligini ta'kidlab o'tdi. Jumladan, Prezidentimiz milliy mafkurani shakllanish jarayonida tarix fanining o'rni g'oyat yuksak baho berib: «Milliy mafkurani shakllantirishdagi eng katta manba-bu haqqoniy yoritilgan tarixdir», -deb ko'rsatdi.

Darhaqiqat, o'zbek halqi mustaqillikka tinch yo'l bilan erishgan bo'lsa-da, istiqloq uchun olib borilgan kurashlarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Mustaqillik sharofati bilangina bu kurashlar tarixini xolisona o'rganishga imkoniyat yaratildi va milliy tariximiz, ma'naviy boyliklarimizni sinfiy, partiyaviy to'siqlar bilan xalqdan ajratib qo'yishdek illatga barham berildi.

Mustabidchilik davrida hukmron kommunistik mafkura ta'sirida o'tmishimizdagi talaygina tarixiy jarayonlar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar kommunistik, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo'ysundirilgan holda soxtalashtirildi, noto'g'ri talqin etildi.

Buning uchun juda ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin. Masalan, o'zbek millatining shakllanish jarayoni, o'zbek davlatchiligi tarixi muammolariga yuzaki tarzda yondoshildi. Yurtimiz tarixida muhim o'rin tutgan ijtimoiy-siyosiy harakatlar, voqealar soxtalashtirildi. Buyuk tarixiy shaxslarimizning Vatan va millat oldidagi xizmatlari kamsitildi yoki umuman inobatga olinmadi. Amir Temur tarixi, jadidchilik harakati tarixi, istiqloqlolchilik harakati tarixi noxolis o'rganildi yoki o'rganilmadi.

Tarixchilarimizning hozirgi kundagi dolzarb vazifalaridan biri, o'tmishimizdagi har bir hodisa va voqea ma'lum ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy muhit ta'sirida yuz berganligini hisobga olgan holda, asosli hujjatlarga tayanib, ushbu voqea, hodisalarni har tomonlama chuqur o'rganish hamda tahlil qilishdan iboratdir.

«...O'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur...»-ligini I.A.Karimov, alohida ta'kidlab o'tdi.

Shu bois Namangan Davlat Universiteti «O'zbekiston tarixi» kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan ushbu ma'ruzalar matni chop etilmoqda. Asosiy maqsad bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, talabalar, tadqiqotchilar va O'zbekiston tarixi fani bilan qiziquvchilarga tariximiz haqidagi bilimlarini yanada boyitish uchun yaqindan yordam berish.

Albatta, mazkur ma'ruzalar matnida ham ayrim kamchiliklar bo'lishi mumkin. Shu sababli ushbu kitob mualliflari bildirilgan tanqid, taklif va mulohazalarni samimiyat bilan qabul qiladilar.

**MUALLIFLAR**

### **1-MAVZU: O'ZBEKISTON TARIXI FANI PREDMETI, NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI VA UNI O'RGANISHNING AHAMIYATI.**

**MAQSAD:** O'zbekiston tarixi fanini o'qitilishining dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalari haqida tushunchalar berish ushbu mavzuning asosiy maqsadidir. Biz nima uchun bugun o'tmish tariximizga ko'proq e'tibor berib qoldik? Sovet tuzumi sharoitida xalqimiz tarixi nima sababdan soxtalashtirildi? Buning zamirida nimalar yotar edi? Umuman, tarixiy xotira deganda biz nimalarni tushunamiz? Mazkur mavzuda shu kabi savollarga javob berishga harakat qilamiz.

#### **R E J A:**

1. O'zbekiston tarixi fanining predmeti va uning dolzarb masalalari.
2. O'zbekiston tarixi fanini yoritishning nazariy metodologik asoslari.
3. Komil insonni tarbiyalashda O'zbekiston tarixi fanining o'rni.

Milliy istiqloq o'zbek xalqining asriy orzusi, armoni edi. Bu yo'lda ming-minglab vatan yurt fidoylari aziz jonlarini qurbon qildilar. Milliy mustaqillikni qo'lga kiritilishi katta yutuq, uning qadriga yetish, mustahkamlash, avaylab saqlab qolish, mushkul vazifa. Har qanday mamlakatning qudrati, uning milliy mustaqilligi, davlat chegaralarini daxlsizligi-o'sha mamlakat fuqarolarini o'z yurtiga, mehr-muhabbatli qilib tarbiyalanganliklari vatan mustaqilligi va milliy istiqloq uchun kurashda zarur bo'lsa, jon fido qilishga ham tayyor bo'lishdek oliyjanob fazilatga ega bo'lishlariga bog'liqdir. Bu fazilatlarini yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlar ongida qaror toptirish va shakllantirishda Vatan tarixining o'rni va imkoniyatlari cheksizdir.

Tariximiz ildizlari necha-necha ming yillarga borib taqaladi. O'zbekiston xalqining boy va qadimiy davlatchilik tajribasi bor. Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzilmalari miloddan avvalgi birinchi ming yillik boshlaridayoq paydo bo'lib, qariyb 3000 yil davomida takomillashib borgani va dunyo davlatchiligi rivojida eng yuksak darajaga ko'tarilgani jahonga ma'lum.

Vatanimiz tarixi O'zbekiston xalqining jahon tarixi va madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shganligidan guvohlik beradi. Buyuk bobolarimiz-Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu nasr Farobiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa yuzlab avlodlarimiz bilan nafaqat o'zbeklar, butun turk dunyosi, qolaversa, butun yer yuzi xalqlari faxrlanmoqdalar.

Tarix-arabcha so'z bo'lib, «tadqiq etish», «tekshirish», «voqealar haqida aniq hikoya qilish» ma'nolarini anglatadi. Tarix insonlar haqidagi, ularning uzoq o'tmishdan bizgacha yetib kelgan hayotiy tajribasi haqidagi fandir.

«O'zbekiston tarixi» fanining predmeti xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlarga bosib o'tgan uzoq va murakkab tarixiy yo'lini, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotini xolisona o'rganishdan, tushintirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qo'lga kiritilishi natijasida Vatan tarixini hech qanday bo'yoqlarsiz xolisona o'rganish imkoniyatlariga ega bo'ldik. Sovet hokimiyati yillarida kommunistik partiya yurgizgan «ulug' rus saltanati» mafkurasi siyosatini natijasi sifatida maktablarda, Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixini o'qitish masalasiga umuman e'tibor berilmadi. Asosiy diqqat e'tibor Rusiya tarixi va jahon va xalqlari tarixini o'rganishga sarflandi. Sho'rolar hokimiyati yillarida mamlakatimizning haqiqiy, tom ma'nodagi Vatan tarixi xolisona yaratilmadi. Maktablar va o'quv yurtlarida o'qitilgan darslik va adabiyotlarda esa ona tariximiz soxtalashtirildi. Masalan: O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishi va uning «progressiv» ahamiyati, «bosmachilik» harakati va hokazolalar. Xuddi shunday sobiq ittifoq tarixiy kitoblarning ko'pchiligida o'zbek xalqining milliy manfaatlarini oyoq osti qilindi, ulug' rus millatchiligi katta va ulug' og'a manfaatlarini yetakchi mavqeiga ega bo'lib hamma voqea va hodisalar unga bo'ysundirildi. Natijada o'zbek xalqining ma'naviy hayotiga putur yetdi. Xalqning siyosiy ongi o'tmaslashdi, ijtimoiy-siyosiy voqealarga befarqlik loqaydlik hissi kuchaydi. Albatta kommunistik partiya mafkuraviy kurash maydonida yurgizgan ustasi farang siyosatining aks sadosi edi. Chunki mustamlaka asoratiga solingan xalqlarni siyosiy qorong'ulik va zulmatda saqlash yo'li bilangina ular ustidan hukmronlik o'rnatish mumkin. G'oyaviy siyosiy dunyoqarashi uyg'oq imoni-e'tiqodi mustahkam xalqni milliy zulm asoratida saqlash mumkin emas. Shuning uchun ham rus mustamlakachilari qariyb 135 yillik hukmronligi davomida o'lkamiz xalqlari o'rtasida

ruslashirish siyosatini olib bordilar, xalqimizning tarixidan, o'z ona tilidan dinidan judo qilish yo'lini tutdilar. O'zbekistonni markazning xom-ashyo yetkazib beruvchi bazasiga aylantirildi. Bunday siyosat sobiq SSSR hududidagi barcha respublikalarda va sosialistik mamlakatlarda ham yurgizilgan.

Sovetlar hukmronligi davrida tarixiy tadqiqotlar, uni o'qitish va o'rganish ishlari markscha-lenincha metodologiyaga bo'sundirildi. Har qanday voqeani yoritishga sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazarlaridan yondoshildi. Mamlakat, butun bir xalq tarixi ikkiga- ekspluatator va ekspluatasiya qilinuvchilari quldorlar va qullar, feodallar va qaram dehqonlar, burjuaziya va yollanma ishchilar, boylar va kambag'allar, mulkdorlar va yo'qsillar tarixiga bo'linadi. Boylar va mulkdorlar, ular orasidan chiqqan beklar, amirlar, xonlar, davlat arboblari qoralanadi, nomlari badnom qilinadi. Tarixiy voqea va hodisalar kambag'allarni va yo'qsillarni «himoya» qilgani tarzda, ularning manfaatiga bo'sundirilgan holda yoritildi.

Din, diniy qadriyatlar qoralandi, insonlarning e'tiqodlari oyoq osti qilindi, ruhoniylar quvg'in qilindi. Buyuk odamlar, allomalar, ma'rifatparvar shoiru-allomalar, yozuvchilar ikkiga-materialistlar va idealistlarga bo'lindi. Dinga e'tiqod qilganlar idealistlar deb ataldi, ularning ijodiy faoliyatini o'rganish chegaralanadi, asarlarni xalqdan yashirildi. Oqibatda ko'pgina tarixiy voqealar soxtalashtirildi, ma'naviy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz kamsitildi. Yosh avlodga ularni xurofot, eskilik sarqitlari deb o'rgatildi. Tarix faqat jangu jadal urushlardan iboratdek qilib ko'rsatildi.

Xalqimiz tarixining bu qadar soxtalashtirilishiga faqat marksistik metodologiyaning yaroqsizligi aybdor deyish kifoya qilmaydi, albatta. Bu borada mamlakatda hukmron bo'lgan totalitar tuzumning salbiy roli katta bo'ldi. Tarix fani totalitar tuzum tashviqotchisiga, himoyachisiga, kommunistik mafkura xizmatkoriga aylantirilgan edi.

O'zbekiston tarixi fani ajdodlarimizning yashash uchun kurash, uzluksiz mehnat tufayli takomillashib borish va hozirgi odamlar darajasiga ko'tarilish jarayonini, dini, yozuvi, ilm-fani, adabiyot va san'atini yoritadi. Vatanimiz tarixi o'zbeklarning xalq, millat bo'lib shakllanish jarayonini, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni, davlatlarning tashkil topishi va ularning ichki va tashqi siyosatini o'rgatadi. Vatanimiz tarixi xalqimizning ma'lum bir davrlarda boshqa davrlarga qaram bo'lib qolganligini, qaramlik azobining naqadar ayanchli, mashaqqatli bo'lganligini, ajdodlarimizning ajnabiy bosqinchilarga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashini va davlat arboblari faoliyatlarini o'rgatadi.

«O'zbekiston tarixi» fani xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'lga kirishi, mustaqillik yillarida milliy, huquqiy davlatchilik qurilishi, demokratik, fuqarolik jamiyat qurish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish jabhalaridagi faoliyatini o'rgatadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston tarixi avvalo Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bilan, qolaversa, butun jahon xalqlari tarixi bilan chambarchas bog'langan. Qadim zamonlardan buyon Vatanimiz Markaziy Osiy mintaqasidagi ko'pgina davlatlar bilan yagona iqtisodiy va madaniy makonda bo'lib kelgan. Bu katta hududda yashovchi urug', qabila, qavm, elatlar etnik jihatdan doimo o'zaro ta'sirda va aloqada bo'lganlar, qo'shilish jarayonini boshidan kechirganlar. Ularni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti bir-birlari bilan uzviy bog'liq o'tgan. Shu sababdan O'zbekiston tarixini qo'shni mamlakatlari tarixi bilan bog'liq holda, bir xalqni ikkinchi bir xalqqa qarama-qarshi qo'ymagan holda o'rganish taqozo etiladi. Qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, tojik, fors, afg'on, hind, arab va boshqa xalqlar, mamlakatlar tarixini qanchalik yaxshi bilsak, O'zbekiston xalqlari tarixini ham shunchalik chuqur, har tomonlama o'rganishga imkon yaratadi, ko'maklashadi.

Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil qilish va yoritishda ularga xolisona, haqqoniy, ilmiy yondoshuv muhim metodologik tamoyillardir.

Xolislik qoidasi tarixiy voqea, hodisalarni o'rganayotganda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha faktlarning hech bir istisnosiz butun majmuini birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishni talab kiladi. Tarixiy hodisalarni bir butun holda, o'zaro aloqada va munosabatda deb o'rganish darkor.

Tarixiy voqealar, xalqlar hayoti nom-nishonsiz yo'q bo'lib ketmaydi, ulardan tarixiy manbalar guvoh bo'lib qoladi. Tarixiy manbalar ikkiga-moddiy va yozma manbalarga bo'linadi.

Qadimgi odamlardan bizgacha yetib kelgan mehnat qurollari, idish-tovoqlar, tanga pullar, harbiy qurol-yaroqlar, uy-joylari, qal'alar, shaharlar, qabrlar, rasmlar va boshqa narsalar moddiy tarixiy manbalar deb ataladi. Vatanimiz hududida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida topilgan moddiy topilmalar, ularning tahliliy xulosalari odamlar hayotini bilishga imkoniyat yaratadi.

Qadimgi davrlardayoq odamlar o'z fikrlarini yozma bayon etish uchun yozuv belgilari ixtiro qilganlar. Savodxon kishilar o'zlari yashab turgan yoki borib ko'rgan mamlakatlari haqida, ko'rgan-kechirganlarini daraxtlarning po'stlog'iga, toshga, teriga, keyinchalik qog'ozga yozib qoldirganlar. Xalqlarning hayoti, yuz bergan voqea va hodisalar haqida yozilgan kitoblari mavjud. Yer va qimmatbaho narsalarni in'om qilish, meros qoldirish, sotib olish hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Podshoh va hokimlarning yozma shakldagi qonunlari va farmonlari saqlanib qolgan. Bular yozma manbaalar deyiladi.

Ajdodlarimizning miloddan avvalgi VII-VIII asrlardagi hayotini o'rganishda «Avesto» kitobi qimmatli yozma manba hisoblanadi. Mazkur nodir kitobda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, dastlabki davlat tuzilmalarining shakllanish jarayonlari o'z ifodasini topgan.

«G'afatda yotgan xalqni uyg'otish uchun, avvalo uning tarixini uyg'otish zarur»- degan edi xristian ilohiyotchisi Avgustin.

Tarix odamlarni uylantiradi, bo'lib o'tgan tarixiy voqea va hodisalarni tahlil qilish, fikrlash va ulardan amaliy hayotiy xulosalar chiqarish asosida dasturiy harakatlar yo'llanmasini belgilashga yordam beradi.

Vatan tarixi mustaqil davlatimiz ijtimoiy hayotida faol qatnasha oladigan idrokli va qobiliyatli, o'zining tarixiy ildizlarini anglashga qodir, yurtiga, Vatanga, ona xalqiga yuksak mehr muhabbat, his-tuyg'ulari bilan to'lib tushgan avlodni kamol toptirish, ularning ongida milliy istiqloq tafakkuri va harbiy vatanparvarlik g'oyalarini shakllantirish qurolidir. Vatan ostonadan, inson yashab turgan insonning kindik qoni to'kilgan xonadon tuprog'idan boshlanadi. Shu bois inson ilk bor nafas olib, ulg'ayib voyaga yetgan mehr-muhabbat va sadoqatda bo'lishi uning uchun ham qarz ham farzdir. Miloddan avval yashagan yunon adibi Lukyaning «Vatan sha'niga» nomli asarida shunday so'zlar bor: «Mening bu gaplarim g'oyat eski gaplardir. Lekin haqiqat shundaki, o'z otasini sevmagan farzand o'zganing otasini ham hurmat qila olmaydi. O'z Vatani sevmagan kishi o'z g'alar Vatani ham qadrlay olmaydi».

Ulug' mutafakkirlar va donolar hamisha Vatanni ulug'lab, ardoqlab kelganlar. Vatan va millat xoinlariga, sotqinlarga qarshi kurashganlar. Haqiqatdan ham Vatandan tashqarida baxt bo'lmagan va bo'lmaydi ham. «O'zga yurtda shoh bo'lgandan o'z yurtningda gado bo'lgan afzal», degan naql bejiz aytilmagan. Haqiqiy vatanparvar og'ir kunida ham yengil kunida ham Vatanni tark etmaydi. U bilan birga bo'ladi. Barcha jinoyatlar orasida eng tubani, eng og'iri Vatanga, millatga hiyonat va sotqinlikdir.

Sobiq ittifoq davrida Rossiya, Angliya, Fransiya, Amerika tarixini o'rgatishga asosiy diqqat e'tiborni qaratildi. Ammo o'z Ona tariximizni o'rganishdan mahrum etdilar. Shuning uchun ham mustabid tuzum davrida ko'pchilik yurtodoshlarimiz Yuliy Sezar, Chingizxon, Napoleon, Ivan Grozniy, Yekaterina, Pyotr I, Boris Godunov, Nikolay II ni yaxshi bilganlar. Ammo buyuk Amur Temurni, Shohruh va Boburni esa bilmas edilar. Hurlik va erk uchun xalq baxt-saodati yo'lida jabr-zulmga qarshi kurashgan Spartak, Janna d' Ark, Ivan Bolotnikov, Stepan Razin, Yemelyan Pugachyovlarni, lashkarboshilardan Suvorov, Kutuzovlarni yaxshi bilganlar. Ammo To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Mahmud Tarobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Qurbonjon Dodxoh singari milliy kahramonlarimiz bo'lganligini ham bilmas edilar.

Albatta, sho'rolar hokimiyati yillarida ham O'zbekiston tarixiga oid asarlar, darsliklar, ko'llanmalar chop etildi. Biroq, bu asar va darsliklarda tarixiy jarayonlar buzib talqin qilindi.

Vatan tarixi fanini yaratish va uni yosh avlodga o'qitish va o'rgatish bo'yicha birdan-bir to'g'ri nazariy, ilmiy-uslubiy asoslarni ishlab chiqish nafaqat tarixiy, balki amaliy, hayotiy ahamiyatga egadir. Sho'rolar hukmronligi davrida barcha fanlarda bo'lgani singari tarix fanining ham nazariy ilmiy uslubiy asosi qilib, marksizm-leninizm metodologiyasi olindi, natijada tarixiy jarayonga baho berishda xolislik, ilmiylik o'rnini shaxsiyatparastlik va bir tomonlama baho berishlik egalladi. Kommunistik mafkura qolipiga tushmagan har qanday voqea-hodisa va qarashlar tanqid qilindi. Bu hol tarix fanining fan sifatida ahamiyatini so'nishiga olib keldi va u siyosiy arboblarda hamda kommunistik mafkura targ'ibotchilarining ko'g'ircho'g'iga aylanib qoldi.

Vatan tarixi fani yoshlarimizning g'oyaviy-siyosiy dunyoqarashini shakllantirishda quyidagi nazariy, ilmiy asoslarga suyanmog'i kerak:

1. Vatan tarixini o'qitish va o'rganish jarayonida tarixiy bilimlar ilmiy-nazariy tushunchalar va tasavvurlar shakllanmog'i lozim. Chunki voqea va hodisalarni bilmasdan ular haqida tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lmasdan turib, g'oyaviy-siyosiy dunyoqarash haqida gap yuritish mumkin emas.

2. Vatan tarixini yoritish o'qitish va o'rganish jarayonida chuqur ilmiylik xolislik tarixiy haqiqatning ustivorligi asosiy va bosh yunalish bo'lmog'i lozim.

3. Vatan tarixining har bir satri, har bir varag'i milliy qadriyatlarga hurmat ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi va milliy istiqloq tafakkuri va mafkurasining kamol topishiga xizmat qilishi dardor.

4. Vatan tarixining o'rganilishi boshidan oxiriga qadar asosiy g'oya-otashin vatanparvarlik, baynalminalchilik, insonparvarlik va rostgo'ylik, mehnatsevarlik va kamtarlik, iymonlilik va e'tiqodlilik ruhida tarbiyalash uchun xizmat qilmog'i kerak. Kishilarda Vatan va xalq oldidagi burchga sadoqatni qaror toptirmog'i dardor.

5. Vatan tarixi fani-yoshlarimizni baynalminalchilik ruhida tarbiyalash qurolidir. Yoshlarimiz bu fanni o'qish, o'rganish va mutolaa qilish jarayonida O'zbekiston jahon hamjamiyatining ajralmas tarkibiy qismi va bir bo'lagi ekanligini tushunib oladilar. O'zbekiston ko'p millatli mamlakat ekanligi, o'zbek xalqi va buyuk allomalarimiz fan va madaniyat arboblariimizning jahon taraqqiyotiga qo'shgan munosib hisssasi bilan qonuniy sur'atda faxrlanadilar.

Vatan tarixini o'rganishda uning manbalarini bilish g'oyatda muhim. Bu manbaalar nimalardan iborat. Bu eng avvalo o'tmish ota-bobolarimiz qoldirib ketgan va dunyodagi juda ko'p xorijiy mamlakatlar ya'ni Hindiston, Xitoy, Afg'oniston, Eron, Turkiya, Angliya, Fransiya, Misr kabi davlatlarning hamda sobiq ittifoq va O'zbekistonning kutubxonalarida saqlanayotgan boy qo'lyozma asarlaridir. Biz hali xalqimizning ana shu o'tmish tarixini o'rganishga yetarli darajada e'tibor berganimiz yo'q. Chet elga qo'lyozma izlab borgan olimlarimizning ilk qaldirg'ochi Hamid Sulaymon bo'ldi. U Hindiston, Angliya va Fransiya bir necha bor safar qildi. U nafaqat Navoiy, Xofiz Xorazmiy devonlarini, shuningdek O'rta Osiyo tarixiga oid mikrofilmlar va fotonusxalarni olib keldi. Respublikamiz kutubxonalarida ham hali qo'l urilmagan qo'lyozmalar ham navbat kutib turibdi. O'zbekiston FA qoshidagi sharqshunoslik instituti fondida xalqimizning boy o'tmish merosi bor. Ammo eski o'zbek tilida-arab alifbosida yozilgan bu noyob asarlarni hozirgi tilimizga ko'chirib, ulam xalqni bahramand qilishdek xayrli ish masalasi muammoligicha qolayotir. Ana shu qo'lyozmalar orasida xon, amirlar saroyida yashagan solnomachilarning yozib qoldirgan asarlari g'oyat qimmatlidir. Ular mazkur hukmdorlar yoki ularning keyingi vorislari hukmronlik qilgan keyingi yillarda mamlakatda yuz bergan voqealarni kunma-kun, oyma-oy va yilma-yil yozib borganlar. Shuning uchun ham solnomachilar yaratgan asarlar hukmdorlarning nomi bilan atalgan. «Zafarnoma», «Temurnoma», «Shayboniyнома», «Ubaydullanova» va shu kabilar, ikkinchi va g'oyatda muhim manbaalardan yana biri shoirlar, yozuvchilar, olimulomlarni qoldirgan asarlari ham O'zbekiston tarixi fani bo'yicha ajoyib ma'lumotlar beradi. Al-Xorazmiy, Ali Qushchi, A.Farg'oni, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy, Bobur, Furqat, Muqimiy va boshqa allomalarning ijodlarida ular yaratgan tarixiy va madaniy muhitga oid qimmatli fikr va xulosalari mavjud. O'zbekiston tarixini o'rganishda tarixiy obidalar, arxeologik qazilma yodgorliklari ham muhim ahamiyatga egadir. Bunday tarixiy yodgorliklar hozirda 7 000 ta qoldi xolos. O'zbekiston tarixini o'rganishda tarixshunoslik, sharqshunoslik, adabiyotshunoslik, madaniyatshunos va boshqa kasbdagi fan olimlari va mutaxassislarining O'zbekiston tarixining u yoki bu davriga oida asarlari ham diqqatga sazovordir.

Tarixni o'rganishda tarixiylik prinsipi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik voqea, hodisalarni o'z davrining aniq tarixiy sharoitidan, o'sha davr muhitidan, tarixiy rivojlanish jarayonidan kelib chiqqan holda o'rganishni taqozo etadi. Har bir voqea, hodisani boshqa voqealar, hodisalar bilan bog'lab o'rgangandagina mazkur voqea hodisaning umumiy tarixiy jarayondagi o'rnini to'g'ri aniqlash, belgilash mumkin buladi. Har bir voqea, hodisaga umumiy tarixiy jarayonning bir qismi, bo'lagi deb qaramoq zarur.

Har bir hodisa, jarayon qanday tarixiy muhitda, nima uchun aynan shu paytda, shu shaklda sodir bo'lganligini, bu hodisa o'z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni bosib o'tganligini, keyinchalik u qanday bo'lib qolganligini bilish tarixiylik qoidasining talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai-nazaridan turib baho bermoqchi bo'lsak, u, birinchidan, qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo'ldi, ikkinchidan, u o'z taraqqiyotida qanday bosqichlarni bosib o'tdi, uchinchidan, uning tarixiy o'rni, mavqei qanday, degan savollarga aniq javob berish zarur bo'ladi.

Tarixiylik tamoyili xalqning o'tmishini yagona tabiiy-tarixiy jarayon deb, o'tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon esa kelajakni yaratadi deb qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiy yo'ldan borayotgan ekan, istiqbolda porloq hayot, farovon turmush qurmoqchi bo'lgan avlod tarix fani orqali o'tmishni yaxshi bilmog'i lozim. O'tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak, hozirgi zamonni shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz.

O'zbekistonning, o'zbek xalqining boy, betakror tarixi bo'lib, uning o'ziga xos tarixiy taraqqiyot davrlari bor. Uni quyidagi yirik davrlarga bo'lish mumkin:

1. Ibtidoiy jamiyat. Qadimgi davr.
2. O'rta asrlar davri.
3. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri.
4. Sovetlar istibdodi davri.
5. Milliy istiqloq davri.

Hozirgi qadar O'zbekiston tarixini yaratishda rus olimlari salmoqli ishlarni amalga oshirdilar. V.Bartold, A.Yakubovskiy, YE.E.Bertels, Kastelskaya va boshqalar shular jumlasidandir. O'rta Osiyolik va O'zbekistonlik olimlardan Muhammad Narshahiy, Ahmad Donish, Po'lat Soliyev, Musojon Saidjonov, Yahyo G'ulomov, Ibrohim Mo'minov, Qori Niyoziy, Bo'ribov Ahmedov va boshqalar ham bu borada muayyan salmoqli ish olib bordilar. Lekin O'zbekiston tarixining ayrim muammolari jumladan o'zbek xalqining etnik tarkibi va etnik tarixi yaxshi o'rganilmagan. Bu sohada 1941 yilda mashhur sharqshunos olim A.Yakubovskiyning o'zbek xalqining etnogenezig doir kitobi, 1954 yilda professor A.A.Semenovning Shayboniyxon va uning Temuriylar imperiyasining istilo etilishi maqolasi, 1962-1965 yillarda professor B.Ahmedovning o'zbeklarning kelib chiqishi tarixidan va ko'chmanchi o'zbeklar davlati kitoblari nashr qilindi xolos. Lekin bu masala O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng asta-sekin muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. Jumladan A.Asqarovning, O'zbekiston xalqlari tarixi 1 va 2 jild, O'zbekiston tarixi: SH.Karimov va R.Shamsutdinovning 1996-1997 yillarda nashr qilingan Vatan tarixi o'quv qo'llanmasi, A.Sa'dullayev tahriri ostida ToshDU da-1997 yilda O'zbekiston tarixining 1 qismi hamda O'zbekiston FA Tarix instituti tomonidan «Istoriya Uzbekistan» kitoblari nashr qilindi. Bundan tashqari mustaqillik sharofati bilan o'rta maktablarning 5-6-7-8-9-10-11sinflari uchun ham O'zbekiston tarixi darsliklari chop etildi.

Mustaqillik tarixni xolisona yoritish imkoniyatini yaratdi. «O'zbek olimlarining kuch g'ayratlari bilan,-deb yozadi I.A.Karimov,- tariximizning ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo, temuriylar davri, XIX asr oxiri, XX asr boshlari tarixi yangidan kashf etildi. Shuni esda tutish muhimki, o'tmishimizni «oqlash» vazifasi umuman olganda bajarib bo'ldi, hozir esa asosiy vazifa, tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan holisona va halol amalga oshirishdan iboratdir».

O'zbekiston tarixi yoshlarga xalqimizning o'tmishi, tarixi haqida bilim berish bilan chegaralanib qolmaydi, u yoshlarni vatanparvar, ma'naviy jihatdan komil fuqaro etib shakllantiradi.

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi ma'naviyat va ma'rifatdadir. Ma'naviy barkamollikni tarbiyalashda Vatan tarixi muhim omildir. «Ma'naviyat,-deb yozadi Islom Karimov,-o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi», «tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yurishi uchun insonga, albatta, tarixiy xotira kerak.. Tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson».

Mustaqillik sharofati bilan Vatanimiz tarixi o'z o'rnini topdi. Barcha o'quv maskanlarida talaba o'quvchilarga Vatan tarixini o'qitish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Vatan tarixini o'qitish yo'lga qo'yildi. Vatanimiz tarixi millatning, yoshlarning xaqiqiy tarbiyachisiga aylanmoqda. Bu borada Prezident Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi», «Tarix-xalq ma'naviyatining asosidir», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi», «Inson uchun tarixdan judo bo'lish-hayotdan judo bo'lish demakdir» degan metodologik ahamiyatga molik so'zlari dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu boisdan Vatan tarixini har tomonlama, chuqur o'rganish muhim ahamiyatga molik vazifadir. Mamlakatimizda mustaqillik sharofati tufayli bog'chalardan tortib oliy o'quv yurtlarigacha bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimlarida O'zbekiston tarixi fanini o'qitishga davlat darajasiga ko'tarilgan vazifa sifatida katta e'tibor berilmoqda, g'amxo'rlik qilinmoqda. «Tarix millatning xaqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Ahloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda...».

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston tarixi-ToshDU-1997 yil (A.Sa'dullayev
- 2.Vatan tarixi-SH.Karimov, Shamsuddinov.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Ensiklopediyasi
- 4.I.A.Karimov O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li.
- 5.O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishining o'ziga xos yo'li.
- 6.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. I.A.Karimov. Toshkent 1998 yil.

#### 2-MAVZU: O'ZBEKISTON INSON YASHAB KELAYOTGAN ENG QADIMIY O'LKA, JAHON SIVILIZASIYASINING O'CHOQLARIDAN BIRI.

**MAQSAD:** Dars jarayonida sivilizasiya atamasiga kengroq to'xtalgan holda, o'lkamiz hududi insoniyat sivilizasiyasining o'choqlaridan biri ekanligiga e'tiborni qaratish asosiy maqsadimizdir. Shuningdek, yurtimizdan topib o'rganilgan arxeologik yodgorliklar haqida talabalarga kengroq ma'lumotlar berish.

#### REJA:

1. Vatanimiz qadimdan odamzod yashab kelayotgan o'lka. Ibtidoiy jamiyat, uning davrlari.
2. Mamlakatimizda odamlarning tosh davri manzilgohlari.
3. O'lkamiz hududidan topilgan eneolit va bronza davri yodgorliklari.

Insoniyat qadim-qadimdan o'z davriga xos turmush tarziga, moddiy va ma'naviy madaniyatga, ya'ni ma'lum darajadagi sivilizasiyaga ega bo'lgan. Davrlar o'tishi bilan insoniyat sivilizasiyasi darajasi ham o'sib, rivojlanib, takomillashib borgan. Bu jarayon odamlarning mehnat qilish usuli, qanchalik darajada moddiy va ma'naviy boyluklarni yaratish va ko'paytirib borishi bilan bog'liq kechgan.

U yoki bu sivilizasiya haqida so'z borganda insoniyatning tinimsiz mehnat, ma'naviyat va ma'rifatga intilishi tufayli doimo o'sib, takomillashib borishi nazarda tutiladi. Masalan, antik sivilizasiya, Sharq sivilizasiyasi, G'arb sivilizasiyasi, Islom sivilizasiyasi, hozirgi zamon sivilizasiyasi kabi tushunchalarda insonlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayoti, turmush tarzi, ma'naviy qiyofasi, ahloqi, bilim saviyasi, mehnat qurollari va hokazo jihatlari mujassamlashgan bo'ladi.

Har bir mintaqada sivilizasiya davriy nuqtai nazardan ertaroq yoki kechroq, o'ziga xos tarzda shakllanib, rivojlanib borgan. Tarixiy ilmiy tadqiqotlar bizning vatanimiz O'zbekiston insoniyat sivilizasiyasining qadimgi o'choqlaridan biri ekanligidan dalolat bermoqda.

O'zbekiston hududida ilk paleolit davri odamlari yashagan manzilgohlar Farg'ona vodiysining So'h tumanidagi Selung'ur g'oridan va Toshkent viloyatining Angren shahri yaqinidagi Ko'lbuloq makonidan topilgan va o'rganilgan.

Selung'ur g'ori 1958 yilda arxeolog A.P.Okladnikov, 1980 yildan boshlab arxeolog O'tkir Islomov tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotlar Selung'ur manzilgohida odamlar paleolit davrining barcha bosqichlarida yashaganligini ko'rsatadi. Bu manzilgohdan ajdodlarimizning suyak qoldiqlari, ularning toshdan yasalgan mehnat qurollari hamda ular ovlab tirikchilik qilgan ayiq, qoplon, karkidon, sirtlon, ohu va boshqa hayvonlarning suyaklari topildi. Olimlar Selung'ur g'orida bundan 700-100 ming yillar ilgari odamlar yashagan, degan xulosaga keldilar. Selung'ur tadqiqotlarining ahamiyati shundaki, u mamlakatimiz odamzod ilk bor paydo bo'lgan mintaqalardan biri ekanligini isbotlab berdi.

Ilk paleolit davri odamlarining manzilgohlaridan yana biri Toshkent viloyati Chotqol tog'ining janubiy-sharqiy yonbag'ridagi Jarsoyning qirg'og'idagi Ko'lbuloq makonidir. 1963-1970 yillarda arxeolog M.R.Qosimov rahbarligidagi guruh Ko'lbuloq makonida 10 dan ortiq qatlamni o'rgandilar. 730-830 sm chuqurlikda joylashgan ikki quyi qatlam ilk paleolit bosqichiga to'g'ri keladi. Bu qatlamlardan yirik, dag'al ishlangan tosh qurollar va hayvon suyaklari topildi. Ko'lbuloq makonining yuqoriroq qismidan topib o'rganilgan boshqa madaniy qatlamlar bu yerda odamlar paleolit davrining o'rta va so'nggi barcha bosqichlarida ham ictiqomat qilganliklarini isbotladi.

Ilk paleolit davrida odamlar to'da-to'da bo'lib asosan g'orlarda yashaganlar, tabiatdagi tayyor narsalarni-daraxtlarning mevalarini, o'simlik ildizlarini kovlab yeb tirikchilik qilganlar. Ular birgalashib yirik hayvonlarni ovlab ushlab yeganlar, shuningdek, mayda jonivorlarni, ularning tuxumlarini ham iste'mol qilganlar.

Shunday qilib, qadimgi odamlarning mashg'ulotlari terib-termachalab ozuqa topish, hayvonlarni ovlash, tosh qurollari yasash va ularni mukammallashtirishdan iborat bo'lgan. Mana shunday mehnat jarayonida odamlarning o'zlari ham o'zgarib, takomillashib borgan.

Mamlakatimiz hududida o'rta paleolit yoki mustye davri, avvalo, odamlarning o'zgarishi, ikkinchi tur odamlar-neandertallarning vujudga kelishi bilan farqlanadi. Ularning peshonasi va jag' tishlari bo'rtib chiqmagan, miyasi kattaroq bo'lgan, tik yura olgan. Surxondaryo viloyatining Boysun tog'idagi Teshiktosh g'ori o'rta paleolit odamlarining manzilgohi ekanligidan dalolat beradi. G'ordan 8-9 yashar bolaning qabri, kalla suyagi, odam suyaklarining qoldiqlari, ular ovlab tirikchilik qilgan hayvon suyaklari, toshdan yasalgan o'choq, kul qatlamlari, hayvon va qushlarning suyaklari topilgan.

1970-1980 yillarda O'tkir Islomov boshchiligidagi arxeologlar guruhi Farg'ona viloyati So'x yaqinidagi Obishir soyining ungurlarida qidiruv ishlari olib borib, Obishir-1 va Obishir-5 deb atalgan makonlarda mezolit davri odamlar jamoalarining izlarini topdi. Bu guruh 1967 yilda Toshkent shahriga yaqin bo'lgan Bo'zsu soyining ikki tarmog'i qo'shilgan joyida mezolit davriga oid manzilgohni topdi, bu yodgorlikning yoshi miloddan avvalgi o'n mingginchi yilliklarga to'g'ri keladi. Bu manzilgoh Qo'shilish nomi bilan ataladi. Bu makondan tosh qurollari, mezolit davri jamoalari qoldiqlari topildi. Surxondaryo viloyatidagi Kuhitongning Machay soyi qirg'og'idagi g'orda olib borilgan tadqiqotlar natijasida bu g'orda mezolit davri odamlari uzoq yillar davomida yashaganligidan dalolat beruvchi madaniy qatlam ochildi. Machay manzilgohidan odam skeletlari, turli xil tosh va suyak qurollari, o'choq va kul qatlamlari topilgan. Machayliklarning ov hayvonlari asosan tog' arxari va jayronlar bo'lganligi aniqlandi. Machayliklar shohli va mayda hayvonlarni xonakilashtirishni o'zlashtira boshlaganlari ham ma'lum bo'ladi.

Mamlakatimizning boshqa hududlaridan topilgan mezolit davriga oid manzilgohlarda olib borilgan tadqiqotlar odamlarning mayda, tez harakat qiluvchi hayvonlarni ham tuta olganliklarini ko'rsatadi. Bu odamlarning o'q-yoy qurolini kashf etganligidan dalolat beradi. O'q-yoydan foydalanish insoniyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ovchilikni insonlarning hayot manbaiga aylantirdi, ovdan keladigan daromad va zahiralarni ko'payib borgan. O'q-yoy quroli odamning yolg'iz o'zi hayvonlarni ovlash, jamoadan ajralib hayot kechirishga imkoniyat yaratadi.

Neolit davri qurollar ishlash texnikasining o'zgarishi-silliqlash, pardozlash, parmalash, arralash usullarining ixtiro etilishi bilan ajralib turadi. Tosh qurollari orasida tosh boltalar, ponalar, iskanalar, tosh teshalar paydo bo'ldi. Neolit davri «toshboltalar asri» ham deyiladi. Hunarmandchilikning sopol buyumlar yasash tarmog'i vujudga keladi. Shuning uchun bu davrni «sopol asri» ham deyishadi.

Mezolit davrida odamlar yovvoyi hayvonlarni to'lg'a o'rgatishni o'rgangan, boshqoqli o'simliklarning urug'ini yerga ekib don olishni o'rgangan bo'lsalar, neolit davrida bu jarayon yanada takomillashdi. Endi odamlar hayotida chorvachilik va dehqonchilik vujudga keladi va xo'jalikda asosiy o'rinni egallaydi. Urug' jamoalari echki, qo'y va qoramollardan iborat qo'ra-qo'ra chorva mollariga, don-dun zahiralari ega bo'ladilar. Shu tariqa neolit davrida ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllanib bo'ladi. Bu insoniyat erishgan katta yutuq bo'lib, odamlar tabiatga qaramlikdan butunlay qutiladilar. Urug' jamoalari ozuqa izlab ko'chib, daydib yurishdan o'troq hayot kechirishga o'tadilar. Doimiy yashaydigan kulbalar, uylar yasash odamlarning turmush tarziga aylanadi, qishloqlar vujudga keladi.

Neolit davrida odamlar hayvon terisidan tikilgan kiyimlar o'rmiga jun va o'simlik tolasidan to'qilgan matolardan tikilgan kiyimlar kiyadigan bo'ladilar. Hunarmandchilikda to'qimachilik, tikuvchilik tarmog'i ham paydo bo'ladi.

Mamlakatimiz hududidan neolit davriga doir ko'plab arxeologik yodgorliklar, odamlar yashagan manzilgohlar topilgan. Amudaryoning qadimgi Oqchadaryo deltasi yonidagi Kaltaminor kanali yaqinidan neolit davriga doir odamlar manzilgohi, Amudaryoning Yuqori Uzboy irmog'i va Orol dengizining shimoliy-sharqiy bo'ylaridan yana ko'plab makonlar topib o'rganildi. Bularning hammasiga Kaltaminor madaniyati degan nom berildi. Kaltaminorliklar hayoti, xo'jalik mashg'ulotlari va turmush tarzini o'rganish, uning miloddan avvalgi 5-3 ming yilliklarga doir arxeologik madaniyat ekanligini ko'rsatdi.

Ajdodlarimiz miloddan avvalgi 3 minginchi yillarda misga qalay aralashtirib bronza, ya'ni qattiq metall qotishmasi olishni, undan pishiq va qattiq mehnat qurollari, qilich, xanjar, uy-ro'zg'or buyumlari, zeb-ziyinat bezaklari yasashni o'zlashtirib oladilar. Bu davr bronza davri deb nom oldi. Bronzaning kashf etilishi metallurg hunarmandlarni, metallurgiya ustaxonalari va zargarlik korxonalarini vujudga keltirdi. Hunarmandchilikning bu tariqa ixtisoslashuvi turli hududlar o'rtasida mahsulot ayriboshlashga, ularni iqtisodiy jihatdan bog'laydigan aloqa yo'llarining paydo bo'lishiga olib keladi. Bronza davrida yashagan ajdodlarimiz ho'kiz, ot, eshak va tuyadan transport sifatida foydalanganlar. Hayvonlar qo'shilgan g'ildirakli aravalarni vujudga keladi. O'zbekiston hududidan eneolit va bronza davri odamlari hayotini tasvirlovchi ko'plab manzilgohlar topib o'rganilgan. Buxoro viloyati Qorako'l tumani markazidan 15 km shimoli sharqdagi Zamonbobo ko'li atrofida 1950 yillarda Ya.G'.G'ulomov, 1960 yillarda A.Asqarov tadqiqot ishlari olib borib eneolit va bronza davri odamlarining makoni va qabristonini topib o'rganadilar. Bu Zamonbobo madaniyati deb ataladi. Zamonbobo makonidan maydoni 170 kv.m bo'lgan yerto'la turidagi uy, ikki chayla, kulolchilik xumdoni va boshqa ashyolar topildi. Makonning sharqiy janubiy tomoni suv toshqinidan himoyalash maqsadida dambaga o'xshash devor bilan o'ralganligi ma'lum bo'ldi. Qazishlar vaqtida yerto'la va uning atrofidan o'choq o'rni, ustunlar o'rnatilgan chuqurchalar, qoramol, echki va yovvoyi hayvonlarning suyaklari, qorayib ketgan bug'doy va arpa donlari, qamish va poxol qoldiqlari, toshdan yasalgan yorg'uchoq siniqlari, chaqmoq toshdan yasalgan o'roq parchalari, toshdan yasalgan munchoqlar topildi. Topilmalar zamonboboliklarning dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganini ko'rsatadi.

Eneolit va bronza davriga xos yana bir yodgorlik Zarafshon vodiysida Tojikiston Respublikasining O'zbekiston bilan chegaradosh qishlog'i-Sarazmdan topildi. Bu makonning maydoni 90 gektar bo'lib, odamlar uzoq yillar davomida istiqomat qilganlar, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Sarazmda bir xonali va xom g'ishtdan yasalgan ko'p xonali uylar, ikkita ibodatxona va qishloq ko'chalari ochildi. Qazishmalar natijasida uylar o'rtasida oilaviy e'tiqod joyi, dumaloq shaklda ishlangan olovxona (altar), tarozi toshlari, to'qimachilik dastgohining qismlari, urchuq toshlar, pichoq, xanjar, qarmoq, igna va bigizlar, sopol idish parchalari, mis, oyna, taqinchoqlar topiladi. Metall buyumlar yasash keng tarqalganligi aniqlandi. Kulolchilikda charx dastgohi kashf etilgan.

Shunday qilib, So'g'd o'lkasining Zamonbobo va Sarazm yodgorliklari bobodehqonlarimizning soy va daryo etaklaridagi zaxkash yerlarda yuritgan dehqonchilik xo'jaligi haqida qimmatli ma'lumot beruvchi makonlardir.

1969-1974 yillarda A.Asqarov rahbarligida arxeologlar guruhi Surxondaryo viloyati Sherobod cho'lida qidiruv ishlari olib borib, Sopollitepa yodgorligini topib o'rgandilar. Sopollitepa 4 gektar chamasidagi tepalikdan iborat bo'lib, uning markaziy qismini baland qal'a tashkil etadi. Sopollitepaning markaziy qismi kvadrat shaklida bo'lib, (82x82), atrofi yirik xom g'ishtlardan qilingan uch qator mudofaa devorlari bilan o'rab olingan, devorning qalinligi o'rtacha 1,6 m, ba'zi joylarda 2 m bo'lgan. Qal'aning o'rta qismi bo'sh maydondan iboratligi, qal'a ichkarisidagi uylarni 8 kvartalga bo'lib turuvchi 6 ta ko'cha borligi ma'lum bo'ladi. Qal'a darvozasi uning janubiy tomoniga joylashganligi, uylarning devorlari va poli bir necha bor somon suvoq qilinganligi, har bir uyda mo'rili o'choq, o'choq yonida supa, ba'zi xonalarda sandal o'txonalar borligi aniqlandi.

Sopollitepadan 150 dan ortiq qabr ochildigan, ulardan sopol idishlar, bronza, kumush, oltin va qimmatbaho toshlardan yasalgan bezaklar, bronza mehnat qurollari topilgan. Sopollitepadan 20 ga yaqin sopol pishiradigan xumdon, vaza, ko'za, xurmacha, choynak, piyola, kosa, tog'ara, xum, lagan va boshqa 40 ga yaqin xildagi yaxshi pishirilgan nafis, jarangdor, yengil idishlar topilgan. Xonalardan tosh yorg'uchoqlar, o'g'irlar, urchuqlar va paykonlar, arpa, bug'doy va tariq donlari topilgan.

Sopollitepadagi tadqiqotlar odamlarning bug'doy go'ja, umoch, qaynatma sho'rva kabi ovqatlar pishirib iste'mol qilganini, ipakdan va paxtadan kiyimlar tikib kiyishganini ko'rsatadi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi mehnat taqsimoti haqida ma'lumotlar olindi, erkaklar o'troq dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, binokorlik bilan shug'ullangan, ayollar esa uy ishlari, bola tarbiyasi bilan band bo'lgan. Urug' jamoasiga erkaklar boshchilik qilgan.

Sopollitepa madaniyati odamlarning sug'orma dehqonchilikni o'zlashtirganini, o'troq dehqonchilik madaniyati barpo bo'lganligini isbotlab berdi. Kulolchilik rivojlanib, nafis idishlar kulolchilik charxida tayyorlangan. To'qimachilikda paxta va tabiiy

ipakdan foydalanilgan. Shuningdek, metall bilan ishlash hunarmandchiligi ham rivojlanganligi aniqlandi. Sopollitepa madaniyati o'lkamizda shaharlarning vujudga kelishi uchun ilk zaminlar bronza davridayoq mavjud bo'lganligini ko'rsatdi.

1953-1961 yillarda M.E. Vorones boshliq arxeologlar guruhi Namangan viloyatining Chust shahri yaqinidagi Buvanamor deb atalgan buloq yoqasidan mil.av.2 minginchi yillar oxiriga oid makonni topib o'rgandilar. Izlanish natijasida yana Dalvarzintepa, Qoraqo'rg'on, To'raqo'rg'on, Chimboy, Ashqoltepa va boshqa o'ndan ortiq yodgorliklar topib o'rganildi. Ularning barchasi Chust madaniyati nomi bilan tarix faniga kirdi. Chust madaniyati odamlarning qishloq-qishloq bo'lib yashaganligidan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi bir minginchi yillarning boshlarida ajdodlarimiz temirdan mehnat qurollari, qurol-yaroqlar, bezak buyumlar yasashni o'zlashtiradilar va mamlakatimizda temirdan foydalanish keng tarqaladi. Odamlar hayotida temir davri boshlanadi.

Temirdan yasalgan omoq, ketmon, belkurak va boshqa mehnat qurollari ancha keng maydonlarni haydash, to'g'onlar qurish, kanal va ariqlar qazib suv chiqarish imkonini beradi. Bular dehqonchilikning yuksalishiga olib keladi.

Temirning kashf etilishi hunarmandchilikni yanada yuqori pog'onaga ko'tardi. Temirdan qattiq va o'tkir pichoqlar, o'roqlar yasalishi mehnat umumdorligini oshirishga yordam beradi.

Temir davrida kulolchilik charxi, naqsh bilan bezatilgan sopol buyumlar keng tarqaldi. Temirchilik bosqoni, qo'l tegmirmoni vujudga keldi, metallga ishlov berish rivojlandi. Xonadonlarda ip yigirish va matolar to'qish, kiyim tikish tobora kengayib bordi.

Sug'orma dehqonchilikning kashf etilishi natijasida o'troq dehqonchilik madaniyati shakllandi. Chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi. Vatanimizning ko'pgina hududlari-Xorazm, Surxondaryo, Zarafshon, Farg'ona va boshqa vohalari sivilizasiya taraqqiyotining markazlariga aylandi. Cho'l va dashtlarda yashovchi chorvador qabilalar ko'chmanchilik turmush tarziga o'ta bordilar va ko'chmanchilarga aylandilar. O'troq dehqon jamoalari bilan chorvador qabilalar o'rtasida aloqalar, mahsulot ayirboshlash jarayoni o'sib, etnik aralashuvga aylanadi. Shu tariqa bir-birini tushanadigan yagona tilga ega bo'lgan, iqtisodiy jihatdan bog'langan elatlar shakllanadi, hozirgi zamon o'zbek va tojiklarining dastlabki etnik qatlami shakllana boshlaydi. Ishlab chiqarish xo'jaligining vujudga kelishi, mehnat umumdorligining ortishi urug'doshlar o'rtasida ijtimoiy tengsizlikning, mulkiy tabaqalarning vujudga kelishi, urug'chilik jamoasining yemirilishi uchun zamin tayyorladi.

### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Karimov I.A. Milliy mafkura-mamlakat poydevori (( Xalq so'zi.-2000.-7 yanv.
- 2.Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.:O'zbekiston, 1998y.
- 3.Asqarov A., Abdullayev B. Djarkutan probleme protogorodskoy sivilizatsii na yuge Uzbekistana.-T.: 1983 g.
- 4.Askarov A. Sapallitepa.-T.: 1973 g.
- 5.Bichurin N.YA. Sobraniye svedeniy o narodax, obitavhix v Sredney Azii v drevniye vremena. V 3-x t. T.2.-M-L, 1950 g.
- 6.Zadneprovskiy YU.A. Drevnezemledelcheskaya kultura Fergano'.-M-L, 1962 g.
- 7.Isomiddinov M.X. Sopolga bitilgan tarix.-T.:1993 y.
- 8.Islamov U. Pervaya nijnepaleoliticheskaya stoyanka v Ferganskoy doline ((ONU.-1984.-№8.
- 9.Kabirov J, Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi.-T.: 1990 g.
10. Mahmudov T. «Avesto» haqida.-T.: Sharq, 2000 y.

### 3-MAVZU: O'ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI.

**MAQSAD:** Talabalarga xalqimizning etnogenezini va etnik tarixini chuqur o'rgatish va yetkazish. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni haqida, eng qadimgi o'zbek elatlari, urug'lari to'g'risida ma'lumotlarni yetkazish. O'zbek xalqining etnik shakllanishining tarixiy bosqichlariga alohida to'xtalib o'tish.

#### REJA:

- 1.O'zbekiston hududa yashsgan qadimgi urug' va qabilalar.
- 2.O'zbek xalqining etnik shakllanishidagi uch muhim bosqich.
- 3.Shakllanishdan keyingi jarayonlar .

O'zbek ajdodlari elat bo'lib O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari Movarounnahrda (Farg'ona vodiysi bilan), Xorazmda, Toshkent vohasida, Yettisuvda, Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalarida shakllangan. Bu mintaqalar insoniyatning qadimgi madaniyat markazlaridan hisoblangan.

Jez davrida O'rta Osiyo va Qozog'istonda bir-biridan farq qiluvchi ikki tarixiy-madaniy region mavjud bo'lgan: sug'orish usuli bilan dehqonchilik qiladigan Old Osiyoda keng tarqalgan o'troq aholi madaniyati va cho'l joylarida yashovchi qabilalarga taalluqli madaniyat.

Arxeologlar tomonidan aniqlangan O'rta Osiyoning Markaziy viloyatlaridagi arxeologik madaniyat, jez davridagi kelgindi yog'och dahmali va Andronovolik qabilalarning hamda qisman Old Osiyodan kelib, tub yerli aholi bilan yaqinlashib, qo'shilib ketishi natijasida vujudga kelgan. Antropologik manbalarga ko'ra, O'rta Osiyoda neolit davrida qadimgi yevropoid irqining ikki ilk turi mavjud bo'lgan.

O'zbekistonning ilk temir davridagi etnik tarixida ilk davlatlar aholisi so'g'dilar, xorazmliklar, baqtriyaliklar, marg'iyonaliklar va ko'chmanchi sak-massaget qabilalari muhim o'rin tutgan. Aholining o'troq va ko'chmanchi qismi ham Eron tilli qardosh xalqlar bo'lgan, ammo madaniyat jihatdan ular bir-birlaridan batamom farq qilgan. O'sha davrda yaratilgan «Avesto»da tilga olingan «tur» atamasi esa saklarga yohud O'rta Osiyodagi yashovchi Eron tilida gapiruvchi xalqlar hisoblanadi. Milloddan avvalgi 312-250 yillardagi Salavkiylar imperiyasi, Yunon-Baqtriya davlati (milloddan avvalgi 250-140 yillar) yerli aholining etnik tarkibiga katta o'zgarish kiritma olmagan.

Mil.avv. III asr boshida vujudga kelgan Qang' davlati (bu davlatga xunlar va usunlar kelib o'rtnashgan), Farg'ona davlati (mil. avv I asrdan turklashish jarayoni boshlangan) va milodiy I asrda vujudga kelgan Kushon davlati (yuechjilar-toxarlar) o'zbek etnik tarixida asosiy bosqichlardandir.

II-IV asrlarda O'rta Osiyoga Janubiy Sibirdan, Yettisuv va Eftali etnoslari kelib o'rtnashgan. Biroq, etnik tariximizning eng muhim davri Oltoyda vujudga kelib, O'rta Osiyoda tashkil topgan Turk xoqonligi davri hisoblanadi.

Movarounnahr turklar tomonidan 555 yilda egallanadi. Bu davrda O'rta Osiyoda turkiyzabon aholining salmoqli qismi yashagan. Ularning turmush tarzi o'troq, yarim o'troq va ko'chmanchi bo'lgan. Bundan tashqari, fors-eron tilli aholi ham bo'lgan. Ikki til turkumidagi aholi bir-biriga singib borgan bu aralashuv natijasida o'zbek va tojik elatlari vujudga kelgan. Xoqonlik davrida vujudga kelgan etnik uyushmalar (o'g'uz, uyg'ur, qipchoq, qirg'iz) o'rta asrlar davomida vujudga kelgan bir qancha elatlarning shakllanishiga asos bo'ladilar. G'arbiy turk xoqonligida salmoqqa ega bo'lgan dulu qabilalari G'arbiy Jung'oriya va Yettisuvda (Ili bo'yida), Kushubiy qabilasi esa Sirdaryo bilan Farg'ona vodiysining g'arbiy mintaqalari bilan chegaradosh hududlarda yashagan.

Turk xoqonligi inqirozidan keyin tashkil topgan turk xoqonligi Uyg'ur xoqonligi, Qarluqlar davlati, Kamon xoqonligi, O'g'uzlar davlati etnogenezga hissa qo'shgan. IX-X asrlarda o'g'uzlarning asosiy qismi Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida, Orol dengizining janubiy-sharqiy va shimoliy-sharqidagi cho'llarda yashagan. O'g'uz yabg'ularining qarorgohi Yangikent bo'lgan.

VIII asr 30 yillarigacha Movarounnahrning katta qismi arab xalifaligi tomonidan zabt etilgan.

O'zbek xalqining shakllanishi jarayonida Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida, unga tutash cho'llarda yashagan etnoslarning ham o'rni katta bo'lgan. IX-X asrlarda Markaziy Osiyo hududlarining etnik tarkibi bir tekisda bo'lmagan. Aholining katta qismi turkiyzabon bo'lgan. Vohalarda tojik xalqi ham yashagan. Arablar istilosidan keyin ayrim viloyatlarda arablar va boshqa etnik guruhlar ham joylashib olgan. Chorvador va o'troq xalqlar doimo bir-biri bilan iqtisodiy va madaniy aloqa qilib kelgan. Bu davrdagi etnik tarixni bayon etuvchi arab, fors va boshqi tildagi manbaalar juda ko'p (Istaxriy, Maqdisiy, ibn Xavqal, Al-Ya'qubiy va x.k).

IX-X asrlar O'zbekiston tarixida Somoniylar va Qoraxoniylar hukmronlik qilgan davrdir. Unda Farg'ona, Sug'diyona, Toxariston, Xorazm kabi tarixiy-geografik hududlar bo'lgan. Melodiy I-II asrlarda Xorazm vohasiga Amudaryo shimoli va Orol dengizining janubidagi cho'larga turkiyzabon qabilalar, masalan, xunlar kelib o'rtnashgan. Bundan tashqari, keyinchalik hokimiyat tepasiga turkiy sulolalar G'aznaviylar va Saljuqiylar keladi. Bu davrda turklashish jarayoni kuchaygan.

Turkiylar bilan sug'diylar yonma-yon yashab, bir-birlarining tillarini baravar bilishgan. Mahmud Qoshg'ariyning «Totsiz (so'g'diysiz) turk bo'lmas, bolesiz bo'rk bo'lmas» degan maqoli bunga isbotdir. Keyinroq so'g'diylar, xorazmiylar atroflaridagi turkiy qabilalar ta'sirida turk tiliga o'ta boshlashgan. XI asrda etnik jarayon bir necha yo'nalishda borgan:

1. XI asr birinchi yarmida va undan keyin Movarounnahrda kelib qolgan, ham batamom o'troqlashib ketmagan etnik guruhlar bir-birlari bilan yaqinlashib borgan.

2. Chorvador qabilalarning turg'un turkiyzabon aholi bilan yaqinlashib borishi etnik jarayonning muhim yo'nalish hisoblangan.

3. Turkiy tilli aholi Movarounnahrda yashovchi tojik va arab tilli xalqlar bilan yaqinlashib, aralashib borishi ham etnik jarayonning muhim yo'nalishidir.

Qarluq-chigil dialekti VIII-X asrlarda Yettisuv, Sharqiy Turkistonning g'arbi, Sirdaryoning o'rta oqimlarida, Movarounnahrda keng tarqalgan til dialekti bo'lgan. XI-XII asrlarda Qoraxoniylar davlati hududida turkiy tilning uch yirik dialekti (Qarluq-chigil, o'g'uz va qipchoq) mavjud bo'lgan. Ularning ta'sir doirasi keng va kuchli bo'lgan. Markaziy Osiyoda turkiy tilda yozilgan birinchi yirik asar XI asrda Yusuf Xos Xojib tomonidan yaratilgan «Qutadg'u bilik» asari edi. XI-XII asrlar Markaziy Osiyoning madaniy yuksalish davri bo'lgan.

O'zbek elatining alohida etnik birlik bo'lib shakllanishi uning ajdodlari ikki til (turkiy va eron turkumidagi xalqlarning aralashuvi jarayonida vujudga kelgan Qang' davlati tashkil topgach, xalqlarning bir-biri bilan yaqinlashish va aralashish jarayoni kuchaygan. Milodiy II-III asrlarda qang'ar elati shakllandi. Markaziy Osiyoda feodalizm bosqichida elat bo'lib shakllangan xalqlarning (turkman, qirg'iz, qoraqalpoq, qozoq, tojik) o'ziga xos etnik nomi bo'lgan. Keyinchalik bu nomlar ularning millat nomi bo'lib qolgan. Ilk o'rta asrlarda shakllangan o'zbek xalqi ajdodlari qat'iy bir nomga ega bo'lmagan. Ular elat bo'lib shakllangan kezlarda (IX-Xasr) uning etnik nomi vaqti-vaqti bilan o'zgarib turgan: turk, qarluq turklari, qoraxonlar, xoqoniylar va x.k. Ashina boshliq turklar Oltoy tog'larida xunlar bilan aralashadi. Turk xoqonligi inqirozidan keyin «turk atamasi ko'pchilik qabilalar uchun etnik nom emas, til umumiyligini anglatuvchi so'z bo'lib kelgan. Mahmud Qoshg'ariy Xitoydan Rum chegaralarigacha bo'lgan katta hududda yashovchi pecheneg, o'g'uz, qipchoq, chigil, stomak, boshqirt, basmil, qay, stabalu, tatar, qirg'iz, to'xsin, yag'mo, iqroq, styurub, stamul, uyg'ur qabilalarining ko'pchiligini turk deb atagan. Qoraxoniylar davrida xalqlar ongida umumturk tushunchasi kuchayadi. Bunda Afrosiyob, O'g'uzxon kabi afsonalar katta rol o'ynagan. Qarluq davlati chegarasida shakllangan o'zbek halqi ajdodlari «Qarluq turklari» yoki «xoqonliklar» deb nomlanganlar. XI-XII asrlar o'zbek elatining tarkibiga kirgan yarim ko'chmanchi va yarim o'troq etnik komponent izlari kuchli bo'lgan, o'sha davrda ajdodlarimizda o'zligini anglash hissiyot kuchli bo'lgan. Bundan tashqari ma'lum bir xalqning etnik birlik (elat) bo'lib yetishish darajasini belgilovchi yana bir qancha boshqa ko'rsatkichlar (iqtisodiy, madaniy, siyosiy, til, hudud birligi va x.k) ham mavjud. Qarluqlardan keyingi yirik etnos chigillar bo'lgan.

O'zbek elatining shakllanish jarayonida qatnashgan asosiy komponentlar quyidagilardir:

1. Asosiy negiz Movarounnahr, Xorazm va Toshkent vohasida va ularga tutash hududlarda qadimdan yashab kelgan turg'un turkiyzabon aholi.

2. Qorluqlar va ularning davlati.

3. Chigil va xalach qabilalari.

4. O'g'uzlar tarkibiga kirgan yag'molar.

5. G'arbiy turk xoqonligida dulu va kunshi qabilalari.

6. Bundan tashqari dug'lat, arg'u, tuxsi, az, uz va boshqa etnoslar.

7. Dulu qabila ittifoqlari tarkibidagi turkashlar.

8. O'zbek xalqining tarkibidagi yirik etnik guruhlardan biri- qang'lilar.

9. Qang'lilarga qarindosh qabila-pecheneglar.

10. O'zbek xalqining etnogenetik jarayonida faol qatnashgan etnik guruhlardan biri qipchoqlar. Ularning salmoqli qismi qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman, boshqird va boshqa turkiy xalqlarning tarkibiga ham kirib ularning elat bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynagan.

11. XIII-XIV asrlarda ro'y bergan etnik jarayon tufayli Dashti qipchoqda yashagan turkiy qabilalar bir-birlari bilan yaqinlashadilar. Natijada turk tilida so'zlovchi turk-mo'g'ul qorishmasidan tashkil topgan yangi etnos vujudga kelgan.

12. Ilk ajdodlari Mo'g'ulistonning shimoliy g'arbida, hozirgi Tuva yerida yashab tele qabila ittifoqining tarkibida bo'lgan az qabilasi.

13. VIII-IX asrlarda Sirdaryo bo'ylarida yashab, IX asr oxiri X asr boshlarida yirik davlat tuzgan o'g'uzlar.

14. Ilk o'rta asrlarda Janubiy Sibir, Yettisuv va Sirdaryo sohillarida yashagan usun, obdal, sariq, qay, kun kabi bir qator etnoslar.

Shakllangan o'zbek elatining keyingi tarixi xorazmshohlar va mo'g'ullar istilosi bilan davom etadi. Mo'g'ul istilosi tufayli Movarounnahr va unga qo'shni viloyatlar aholisi qariyb yarim asr davomida etnik tarkibini tiklay olmagan. XII asr ikkinchi yarmidan boshlab bu yerga etnik guruhlar kela boshlaydi. Bu davrda jaloyir, barlos, qavchin va arlot etnik guruhlar birinchilardan bo'lib kela boshlaydi. Shu bilan birga mo'g'ul qabilalari (Chig'atoy ulusining g'arbida yashovchilari turkiylashib, XIV asrning o'rtalarida o'z tillarini batamom unutib turkiy tilda so'zlashar edilar.

XIV-XV va undan keyingi asrlarda muhim yashovchi o'zbek aholisi turkiy etnoslarning so'g'd-tojik va boshqa xalqlar bilan aralashib, qorishib borish jarayoni borgan. Bu davrda xalq tili ko'p dialektli bo'lib, adabiy tildan birmuncha farq qilgan. Adabiy til tarkibida aynan shu asrlarda tojik va arab so'zlari ko'paygan xalqning jonli tilida uchta asosiy sheva-qarluq, qipchoq va o'g'uz dialektlari mavjud bo'lgan Amir Temur davrida Movarounnahrda Old Osiyo mamlakatlaridan bir guruh aholi (100 ming) ko'chirib keltirilgan.

XVI-XVIII asrlardagi xalqimizning etnik tarixi o'ziga xosdir. Chunki shu davrda xalqimiz «o'zbek» degan nom bilan atala boshlanadi. Bu shayboniylar sulolasi nomi bilan bog'liq edi. Shu asrlar va undan keyingi davrlarda O'zbekiston hududida rasmiy til o'zbek tili edi. Buxoro vohasida tojik tili ikkinchi til hisoblangan. O'zbek xalqi o'z qo'shinlari qardoshlari bilan etnik, iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lgan. Qozoqlar va qoraqalpoqlar asosiy xalq bo'lgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, IX-X asrlar davomida shakllangan o'zbek elatining o'zagi turkiy etnoslarning fors-tojik tilli aholi bilan asrlar davomida aralashib ketishdan hosil bo'lgan. XI-XII asrlar o'zbek elati tarkibida turkiy komponentlar ko'payadi. Shu asrlar mobaynida barcha etnik ko'rsatkichlar mujassamlashadi, o'zbek ajdodlarining alohida elat bo'lib shakllanishi nihoyasiga yetadi.

#### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. Sharq-1998.
2. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. T. Sharq-2001.
3. Mahmud Qoshg'ariy. Devoni lug'otut turk. 1-jild. T-1963.
4. Asqarov A.A. O'zbekiston tarixi. T: O'qituvchi 1994.
5. Ahmedov B.A. O'zbek ulusi. T. Meros. 1992.
6. Ahmedov B.A. Tarixdan saboqlar. T. O'qituvchi. 1993.
7. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar 2-jild Hindiston tarixi. T-1965.

#### **4-MAVZU: O'ZBEK DAVLATCHILIGI, UNING POYDEVORI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI.**

**MAQSAD:** Talabalarga davlatchilik tushunchasini kengroq yoritib berish. O'zbek davlatchiligi, uning taraqqiyot bosqichlari haqida, ilk davlat uyushmalari, ularning boshqaruv tizimi haqida, mustaqil O'zbekistonning davlat boshqaruv tizimi to'g'risida xolis, ilmiy tushunchalarni yetkazish.

#### **REJA:**

1. Davlatchiligimizning eng qadimgi davrlari. Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya, mil.avv. III-II asrlarda Xorazm va Davan davlatlari.
2. O'zbek davlatchiligi Kushonlar davrida.
3. Arab xalifaligidan mustaqil tarzda tashkil topgan davlatlar va ularning tariximizda tutgan o'rni. Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar hamda Xorazmshohlar saltanati.
4. Temuriylar davrida davlatchiligimizning sifat jihatidan takomillashuvi.

Barcha dalili ashyolar miloddan avvalgi so'nggi ming yillik boshlarida, aniqrog'i VIII-VII asrlarda ajdodlarimizning Vatanimiz hududlarida Xorazm va Baqtriya nomi bilan mashhur bo'lgan dastlabki davlatlarni barpo etganidan, bu davlatlar o'ziga xos rivojlanish jarayonini bosib o'tganligidan guvohlik beradi.

Xorazm davlati egallagan hududlar hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubga, ya'ni Marv (Turkmaniston), Hirot (Afg'oniston shimoli) atroflariga qadar ham yoyilgan.

Miloddan avvalgi so'nggi ming yillikning boshlariga tegishli «Amirobod madaniyati», quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o'ziga xos sun'iy sug'orish inshooti tizimi hamda dastlabki shaharsozlik timsoli bo'lgan shahar-qal'alar-Qal'aliqir, Ko'zaliqir va boshqalar bular Xorazm vohasida davlat tuzilmalari mavjudligidan dalolat beradi.

Qadimshunos olim Yahyo G'ulomov tomonidan Xorazmda aniqlangan 200 km uzunlikdagi, eni bir necha o'nlab metr dan iborat bo'lgan kanal o'zani, obod dehqonchilik madaniyati Xorazm davlati qadimdan insoniyatning yirik madaniy maskanlaridan biri sifatida shuhrat topganligidan guvohlik beradi. «Avesto»da Xorazm Markaziy Osiyodagi rivoj topgan, o'z hududi, chegaralariga ega bo'lgan o'lka (davlat)lardan biri sifatida tilga olinishi ham bejiz emas. Gerodot ma'lumoticha qadimda Oks daryosi bo'ylab 360 dan ziyod sun'iy sug'orish kanallari, suv inshootlari barpo etilib, cho'lli, sahroli yerlarga suv chiqazilib dehqonchilik uchun ekin maydonlari kengaytirib borilgan. Gerodot taasurotlarida Xorazm o'lkasida yashagan aholi dehqonchilikda katta tajribaga ega bo'lib, ular donli, dukkakli ekinlar, chunonchi, bug'doy, suli, arpa, meva-sabzavotchilik mahsulotlarini mo'l-ko'l yetishtirganliklari qayd etib o'tiladi. Xorazm shaharsozligida xom g'isht, paxsalardan keng foydalanilgan, binolarning tashqi va ichki ko'rinishlariga maxsus ishlav berilib, ularning mustahkamligi, o'ziga xos ko'rkamligi ta'minlangan. Bu qo'hna hudud bag'rida ming yillar davomida zamonlar silsilasidan o'tib, saqlanib kelayotgan ko'plab asori-antiqalar, shahar-qal'alar xarobalari, qoldiqlari ham buni isbot etadi. Xorazm vohasida hunarmandchilik, tog'-kon ishlari ancha rivojlangan. Bu yerdan qazib olingan qimmatbaho zumrad toshlar ishlav berilib, yuksak sifat ko'rsatkichiga yetganidan keyingina u muhim tayyor mahsulot sifatida foydalanishga chiqarilgan. Xorazm zumradi Sharqning bir qator, jumladan Eron, Xitoy, Hindiston, Misr singari mamlakatlariga ham yuborilgan.

Xorazmda aholisining bir qismi chorvachilik bilan shug'ullangan, ularning tuya, ot, qo'y-echkildan iborat suruvlari bo'lgan. Savdo bozorlarida g'alla, meva, chorvachilik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari ayirbosh qilingan.

Afsuski, Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to'g'risida ma'lumotlar hozircha aniq emas. Rivoyatlarga ko'ra, Xorazmning qadimiy siyosiy sulolasi Siyovushiylar bo'lganligi zikr etiladi. «Avesto»da ta'kidlanishicha, Siyovarshon Kaykovusning o'g'li bo'lgan. Siyovarshon o'limidan so'ng uning nabirasi Kova Xisrav bobosi qotilidan o'ch olib, hokimiyatni egallab Xorazmda Siyovushiylar sulolasiga asos solgan.

O'zbek davlatchiligining yana bir asosi-Baqtriya podsholigidir. Uning tarkibiga hozirgi Surxondaryo, Tojikiston janubi, Afg'onistonning shimoli-sharqiy qismi, shuningdek, Sug'diyona va Marg'iyona yerlari ham kirgan.

Baqtriyadagi ko'pdan-ko'p yirik shaharlar orasida Baqtra mashhur shahar bo'lib, mamlakatning poytaxti hisoblangan. Baqtra baland va mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan, unda hukmdor qal'asi alohida joylashgan.

Rim tarixchisi Rufning guvohlik berishicha, «Baqtra daryosi nomidan shahar, viloyatning nomi kelib chiqqan». Umuman tarixiy ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, qadimgi davlatlar nomlari ko'pincha daryo, qabila, xalq yoki shaharlar nomiga qiyosan kelib chiqqan bo'ladi.

Binobarin, «baqtriyaliklar», «Baqtriya xalqi» iboralari juda qadimgi manbalarda tilga olinib, bitta xalqni yoki bir necha qarindosh qabilalarni birlashtirgan tushunchani anglatadi.

«Avesto» kitobida ham Baqtriya «Eng yaxshi mamlakatlar va o'lkalardan biri bo'lgan, baland bayroqli, go'zal o'lka» sifatida ta'riflangan, Bu xildagi fikr-mulohazalar Baqtriyaning o'z davrining yirik davlatlaridan biri bo'lganligidan dalolat beradi.

Ktesey ma'lumoticha, Baqtriyaga qarashli Vaxsh-Oks vodiysi obi-hayotga mo'l-ko'lligi, unumdor yerlari ko'p bo'lganligidan, bu hududda dehqonchilik madaniyati taraqqiy topgan, aholi bog'dorchilik, mevachilik mahsulotlari yetishtirishda omilkor bo'lgan. Qashqadaryo vohasining miloddan avvalgi VIII-VII asrlarga oid Sangirtepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on, Zarafshon vodiysida Afrosiyob, Ko'ktepa singari aholi manzilgohlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu joylarda o'troq turmush kechirgan qavm, elatlar dehqonchilik bilan faol shug'ullanganlar. Xuddi shunday fikrni So'g'diyona hududlariga nisbatan ham aytish mumkin.

Shunday qilib, Xorazm va Baqtriya davlatlarida kechgan siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy madaniy jarayonlar ajdodlarimizning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot yo'lidani ilgarilab borib, o'z davlatchilik tuzilmalarini vujudga keltirib, boshqaruv usullarini takomillashtirib borganligidan guvohlik beradi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, shaharsozlik, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish qurollarining takomillashib borishi ulug' bobokalonlarimiz o'lmas dahosi, salohiyatining yorqin ifodasidir. Bular qadimgi o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribasining muhim jihatlari, namunalari sifatida alohida qimmatga egadir.

Xorazm salavkiylar davrida ham o'z mustaqilligini saqlab qoldi va yuksalib bordi. Mil.av.II asrda So'g'diyona va Shosh (Toshkent) Xorazm tasarrufiga olinadi. Bu davrda Xorazm davlati tarixiga, rivojlanish jarayoniga oid bo'lgan eng ko'p ma'lumotlar Xitoy manbalarida uchraydi. Xitoy manbalarida Xorazm Qang'a davlati degan nom bilan tilga olinadi. Aftidan, Xitoyning Xan sulolasi hukmdorlari O'rta Osiyo xalqlari hayotiga va hududning muhim jo'g'rofiy mavqei, tabiiy boyliklariga alohida qiziqish bildirib, o'z elchilarini yuborganlar hamda ular bilan yaqindan bog'lanishga harakat qilganlar. Bugina emas, hatto mil.av II asr boshlarida bu hududni qo'lga kiritish maqsadida katta qo'shin tortib bostirib kelganlar ham.

Xorazm mil.av. II asr boshlarida yanada kengayib, sharqda Farg'ona, shimoliy-sharqda usun, yuechji qabilalari bilan, shimoliy g'arbda Sarusi daryosi bo'ylab chegaralangan. Janubda Baqtriya va Parfiya chegaralari yetib borgan. Boshqacha qilib aytganda, Amu va Sirdaryo oralig'idagi katta hududlar shu davlat tarixiga kirgan. Uning yirik shaharlari sirasiga mil.av. II-I asrlarda Aris daryosi sohilidagi O'tror va hozirgi Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumani hududida joylashgan Qanqa shaharlari ham kirgan. Bu shaharlar o'sha davr shaharsozligining yuksak namunalari o'zida mujassamlashtirgan. Davlatni boshqarishda podshohning roli va o'rni katta bo'lgan. Shu bilan birgalikda davlat va jamiyat hayotiga oid ko'plab muhim masalalarni hal etishda urug' va qabila oqsaqollaridan iborat Oliy Maslahat kengashining mavqei ham alohida o'rin tutgan. Binobarin, podshoh o'z ichki va tashqi siyosatini yuritishda mazkur kengash bilan maslahatlashgan. Viloyat boshliqlari turkiy maqomda jobu yoki yobular deb atalganlar. Ular o'z hududlarini boshqarishda bir muncha mustaqillikka ega bo'lib, markaziy hokimiyatga boj to'lab turganlar. Davlat hukmdorlari mintaqadagi siyosiy vaziyatga ham faol aralashib, undagi muvozanatni saqlash bobida izchil siyosat olib borganlar. Ayniqsa, ular Xitoyga nisbatan mustaqil siyosat yuritganlar. O'z qo'shnilari-Dovon, Qashg'ar, Yorkent singari mustaqil hududlarga nisbatan Xitoyning da'vosi va istilochilik yurishlariga keskin qarshi chiqqan va lozim bo'lganda o'z harbiy kuchlari bilan ularga yordamga kelgan. Mamlakat aholisining asosiy tarkibini turkiy etnoslar tashkil etgan. Ular asosan o'troq hayot kechirganlar. Aholining ma'lum qismi ko'chmanchilik bilan shug'ullangan. Daryo va soylarga tutash vohalarda dehqonchilik madaniyati rivojlangan. Chunonchi, Toshkent vohasida boshqoqli, dukkakli o'simliklar ko'p miqdorda o'stirilgan, shirin-sharbat mevalar yetishtirilgan. Shaharlarda savdo-sotiq, hunarmandchilik rivoj topgan. Mahalliy hunarmandlar tayyorlagan urush qurollari (qilich, xanjar, oybolta, o'tkir uchli nayzalar va boshq.), xo'jalik asbob-uskunalari talab talab-ehtiyoj katta bo'lgan. Qoramozor, Qurama va Chotqol tog'larida temirchilik, miskarlik hunarini rivojlantirish uchun kerak miqdordagi mis, temir, kumush, qo'rg'oshin singari ma'danlar qazib olingan. Toshkent atrofidagi Oqtepa 1, Oqtepa 2, Choshepa, Qovunchitepa, shuningdek, O'tror, Sirdaryo havzasida topilgan ko'plab noyob dalillar yuksak moddiy va madaniy hayot tarzi mavjud bulganligidan dalolat beradi. Buni «Qovuntepa madaniyati» nomi bilan tarixga kirgan qadimgi madaniyat namunalari ham isbot etadi. Chorvachilik va yilqichilik to'g'risida ham alohida fikr aytish mumkin. Xitoyliklarni maftun etgan zotdor, tulpor otlar xuddi mana shu hudud va qo'shni Davan yaylovlarida boqilgan. Xitoy solnomachilari chorva mollarining mo'l-ko'lligini, sut-qatiqlarning g'oyatda mazali va to'yimligini ta'rif etganlar. Xorazm davlatining xalqaro karvon savdosidagi mavqei ham baland bo'lganki, bunda Buyuk ipak yo'lining roli katta bo'lgan.

Davan yoki Parkana nomi bilan mashhur bo'lgan, ajdodlarimiz tomonidan Farg'ona vodiysida barpo etilgan yana bir davlat Vatanimiz hududidagi qadimgi davlatlardan sanalsa-da, biroq uning haqqoniy tarixi xususida hozirgacha to'la ma'lumotlar topilmagan. Xitoylik elchi Chjan Syan yozma manbalarida Farg'ona vodiysidagi davlatni Davan (ulug' Van) deb atalgan. Vaholanki, Farg'ona vodiysi ham ajdodlarimizning madaniy, o'troq hayot kechgan, o'z davlatchiligiga ega mustaqil hudud sifatida Xorazm, Baqtriya singari qadimgi davlatlar bilan tenglasha olishga hech bir shubha yo'q. Buni mil.av. II asr boshlarida tashrif buyurgan. Xitoy elchisi Chjan Syan yozib qoldirgan esdaliklar ham isbot etadi. Manbalarda aytilishicha, bu davrda Farg'onada 300 ming nafar aholi yashagan. Uning 70 dan ziyod katta-kichik shaharlari bo'lib, ularda savdo-sotiq, hunarmandchilik yuksak darajada rivojlangan. Mamlakat poytaxti Ershi (hozirgi Andijon viloyatining Marhamat tumanida joylashgan) o'z davrining obod, ko'rkam va aholisi gavjum shaharlaridan sanalgan. Qadimgi O'zgan, Koson ham davanning eng mashhur shaharlari sirasiga kirgan. Davan hududida 10 dan ortiq yirik dehqonchilik manzilgohlari mavjud bo'lib, ularda yerli mirishkor aholi sholi, bug'doy, paxta va boshqa dehqonchilik ekinlari yetishtirish bilan shug'ullangan. Bularga Aravonsoy, Oqbo'ra, Sultonobod, Qo'rg'ontepa, Andijonsoy, Maylisoy, Ulug'nor, Yilg'insoy, Shahrixonsoy kabi dehqonchilik makonlarini aytish mumkin. Xitoy sayyohi vodiya uzumchilik nihoyatda rivojlanganiga, shu bilan birga undan noyob sharbat va uzoq muddat saqlanadigan, quvvati o'tkir vinolar tayyorlash yuksak darajada yo'lga qo'yilganligi alohida urg'u beradi. Davandagi ijtimoiy-siyosiy hayotning yana bir muhim jihati-bu ayollarning jamiyatda tutgan mavqeyining alohidaligidadir. Chjan Syanning e'tiroficha, bu yerning erkaklari ayollarga alohida hurmat ko'rsatganlar. Boshqacha qilib aytganda, xotin-qizlarning har qanday topshirig'i erlar tomonidan bajarilishi shart hisoblangan. Davlat hukmdori mamlakat hayotiga oid har qanday ichki va tashqi masalalarni hal etishda Oqsoqollar kengashiga, ularning maslahatlari va yo'l-yo'riqlariga suyangan. Ayniqsa, urush va tinchlik, elchilik aloqalari masalalasida Oqsoqollardan iborat oliy kengash alohida vakolatlariga ega bo'lgan. Hukmdor buni e'tirof etishga majbur bo'lgan.

Xitoy Farg'ona davlatining boy-badavlat turmushiga, uning boyliklariga ko'z olaytirib, unga qarshi bir necha bor katta qo'shin tortib bostirib kelgan. Chunonchi, mil.av. II asr oxirlarida (104 yilda) va milodiy I asrning 80-yillarida xitoyliklar Davan davlatini o'zlariga bo'ysindirish uchun u bilan shiddatli urush olib borganlar. Davanliklar o'z qo'shnilari-Xorazm va Kushonlarning harbiy yordami bilan yurt mustaqilligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ladilar. O'rta Osiyo hududlarini kuch bilan egallash mumkin emasligini tushungan Xitoy tomoni shundan so'ng Davan davlati bilan shartnoma tuzadi. Bunga ko'ra ikkala davlat o'rtasida diplomatik va savdo-sotiq munosabatlarini yo'lga qo'yish, jumladan Farg'onaning uchqur arg'umoqlarini xitoyga sotishga kelishib olinadi. Farg'ona hududi O'rta Osiyo ijtimoiy siyosiy hayotida sodir etilgan keyingi muhim o'zgarishlar jarayonida ham o'zining nisbiy mustaqilligini bir muncha saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan.

Mil.av. II asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi turkiy qavmlar qo'shnisi xunlar tazyiqiga uchrab, ularning siquviga bardosh berolmay G'arbg'a tomon siljiydilar. Xitoy manbalarida ular yuyechjilar deb atalgan. Yuyechjilar Issiqko'l atrofida sak qabilalari bilan to'qnashib, ularni janubiy-g'arb tomonga suradilar. Biroq. Yuyechjilar usun qabilalari zarbasiga uchrab janubga siljib, mil.av. 130 yillarda So'g'diyona hududiga kirib keladilar. Yuyechjilar, Xitoy tarixchisi Chjan Syan ta'kidlashicha, Sug'diyonadan Baqtriyaga yuradilar va Baqtriyadagi yunonlar hukmronligini ag'daradilar. Yuyechjilar Farg'ona vodiysini ham egallaydilar.

Xitoy manbalarida ta'kidlanganidek, yuyechjilar beshta siyosiy xonadonga mansub edilar. Go'yshuan, (Kushon). Xyumi, Shuanmi, Xise, Xuanmi. Ularning har biri qariyb yuz yilgacha alohida-alohida siyosiy kuch hokimlik bo'lib, yagona hukmdorga bo'ysunmagan holda faoliyat yuritadilar. Milodning I asrida Kushonlar xonadoni boshlig'i Kujula Kadfiz (Kioszyukyu) barcha yuyechji qabilalarini birlashtiradi va butun Baqtriyada siyosiy hokimiyatni egallaydi.

Kujula Kadfiz qo'shni hududlarga yurish uyushtirib, So'g'diyona, Marg'iyona, Hindistonning Shimoliy G'arbiy qismini zabt etadi. Kujula Kadfiz keyinchalik Amudaryo bo'ylari, Qobul va Qandahor hududlarini ham egallaydi. Bu davrda mamlakat poytaxti

Dalvarzintepa (Hozirgi Surxondaryo viloyatida) shahri bo'lgan. Shu tariqa, Kushonlar sulolasi davrida O'zbek davlatchiligi salatanatlik bosqichiga ko'tariladi.

Kushon hukmdorlari to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, bunda bu davlatga asos solgan Kujula Kadfiz (milodning I asri boshlari), uning o'g'li Vima Kadfiz (Milodning I asri o'rtalari), Kanishka (78-123 y.y.) va ularning avlodlari-Vasishka, Xuvishka, Kanishka II, Vasudeva, Kanishka III, Vasudeva II nomlarini tilga olib o'tmoq joiz bo'ladi.

Kadfiz I davrida zarb etilgan tangalarda «Kujula Kadfiz Yabg'u» degan so'zlar uchraydi. Uning o'g'li Vima Kadfiz davri ham muhim o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu davrga kelib Shimoliy Hindistonning bir qator muhim hududlari egallanadi. Vima Kadfiz mamlakatda pul islohoti o'tkazib, vazni 8 gr og'irlikdagi oltin tangalarni zarb qildirib muomilaga chiqartiradi. Bu esa xalqaro savdoda davlat obro'sining ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Xuddi shu vaqtda Rim imperiyasi bilan savdo-sotiq aloqalari kuchayadi. Kushonlar mavqeining kuchayishi Kanishka davriga to'g'ri keladi. Bu paytga kelib Hindistonning Peshovor, Panjop, Kashmir va boshqa markaziy hududlari, shuningdek, Sharqiy Turkistonning ancha qismi saltant tarkibiga kiritiladi. Bu davrda mamlakat poytaxti ham Peshovorga ko'chirilgan. Usta siyosatchi, yetuk sarkarda bo'lgan Kanishka mamlakat ichki hayotida muhim ijtimoiy siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarni amalga oshirish barobarida tashqi siyosatda ham g'oyatda uddaburonlik bilan faoliyat yuritadi. Uning din sohasida o'tkazgan siyosati muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Garchand uning davrida Budda dini davlatning rasmiy dini darajasiga ko'tarilsada, biroq mamlakatning turli hududlarida mahalliy aholi oldindan e'tiqod qilib kelgan boshqa dinlar erkinligi va daxlsizligi saqlanib qoldi. Hatto zarb etilgan oltin va kumush tanga pullarda budda xudosi bilan bir qatorda mahalliy xalqlar e'tiqod qo'yib kelgan xudolar-Anaxita, Mitra, Veretragna, Vaxsh va boshqalarning ham tasvirlari tushirilganligi bunga yorqin dalildir. Bu davrda zarb etilgan tangalar avvalgidek yunon tilida emas, balki mahalliy Kushon-Baqtriy tilida chiqarilganligi alohida e'tiborga loyiqdir. Bunday uzoqni ko'zlab oqilona yuritilgan siyosat turli aholi qavmlari, ijtimoiy guruhlari o'rtasida tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Biroq Kanishkadan so'ng hokimiyatga kelgan Vasishka, Xuvishka, Vasudevalar davriga kelib Kushonlar sulolasi bir qator ob'yektiv va sub'yektiv sabablar orqasida asta-sekin inqirozga uchrar boshlagan. Ayniqsa, III asr o'rtalariga kelib qo'shni davlat-Parfiya o'rnida yangidan vujudga kelib, tobora kuchayib borgan Eron Sosoniylari hukmdorlarining to'xtovsiz olib borgan urush harakatlari natijasida Kushonlar mavqei zaiflashib, hududlari kichrayib bordi. Janubda Hind yerlarining Kushonlar tasarrufidan mustaqil bo'lib ajralib chiqish jarayoni kuchaydi. Keyinchalik Xorazm, So'g'diyona sarhadlari ham o'z mustaqilliklarini qo'lga kiritadi. Buning oqibatida Kushonlar sulolasi oxir-oqibatda haloqatga uchradi.

Kushonlar sulolasi hukmronligi davri ko'hna tariximizda katta iz qoldirgan ekan, buni uning tarkibiga kirgan har bir hudud yohud elatlar misolida yaqqol ko'rsa bo'ladi. Uning dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryo), unga tutash Xalchayon (Denovda), Zartepa, Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom (Termiz atroflari) va boshqalar Kushonlarning eng rivoj topgan savdo-sotiq, hunarmandchilik sohalar o'sgan gavjum shaharlari hisoblangan. O'lkamizda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati nihoyatda taraqqiy etgan, ko'plab sug'orish inshootlari barpo etilgan. Surxondaryo vohasida Eski Angor, Zang, Sug'ddagi Darg'on kanallari shular jumlasidandir. Vatanimiz hududida shaharsozlik, me'morchilik xaykaltaroshlik, kulolchilik singari hunarmandchilik turlari yuksak darajada taraqqiy etgan. Buni ko'xna Tuproq qal'a, Ayritom, Termiz, Axsikent shaharlari o'rnida olib borilgan tarixiy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi.

Turkiy elatlarning keng hududlarda qadim-qadim davrlardan buyon yashab, o'zlaridan munosib madaniy iz qoldirib kelganligini juda ko'p tarixiy manbalar tasdiq etadi. Mo'tabar Xitoy manbalari mashhur «O'g'iznoma» Urxun-Enasoy yozuvlari, Kulteğin bitiklari bunga ishonchli guvohdir. Oltoy, Tuva hamda ularga tutash hududlarda turli turkiy qabilalar, chunonchi Ashin, Arg'u, O'g'iz, To'qqiz o'g'iz, O'ttiz tatar, Karluq, Kitan, Toliz, Turk, Uyg'ur, To'qri, «Toxarlar», Quriqan, Duba «Tuba-Tuva» va boshqalar yashardilar.

VI asr boshlarida Oltoyda siyosiy jarayonlar faollashadi. O'sha paytda hozirgi Mug'uliston va qisman Xitoyning shimoliy hududlari ustidan Jujon xonligi hukmronlik qilardi. Sharqiy Turkiston, Farg'ona, So'g'diyona, Xorazm, Baqtriya, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Eron hududlarida esa Eftaliylar hukmronlik qilardi. Manbalarda ta'kidlanishicha Xitoyning shimoliy qismida hukmronlik qiluvchi Vey sulolasi (386-558) xonadonlarining kelib chiqishi ham Turkiy tili xalqlarga borib taqalarda shunday qilib, VI asr boshlarida Uzoq Sharqdan Kaspiy dengizgacha bo'lgan hududlarda hokimiyat tepasida turkiy sulolalar turgan.

VI asr boshlarida Oltoydagi turkiy qavmlar orasida Ashin urug'ining mavqei o'tariladi. Ashin urug'idan Asan va Tuu-460-545 yillarda boshqa urug'larni o'zlariga bo'ysundiradilar va Oltoyda Turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuu o'g'li Bumin Tele qabilasini ham bo'ysindiradi. Bumin Jujon xonligi tobeligidan chiqish uchun kurashadi va 551 yilda Jujon xoni qo'shinlarini yengib ularni o'ziga bo'ysundiradi. Bumin 551 yilda yangi davlat-Turk Xoqonligiga asos soladi. Uning poytaxti Oltoydagi O'tukan shahri edi. Xoqonlik tez orada kuchayib, uning dovrug'i ortib borgan. U ko'p bor Xitoyga yurishlar qilib, uning bir qancha hududlarini bosib olgan. Xitoy podshohligi Turk Xoqonligiga har yili o'lpon tariqasida yiliga yuz ming bo'lak ipak mato berib turishga majbur bo'lgan. 552 yilda Buminxon vafot etgach hokimiyatga uning o'g'li Mug'anxon (553-572) o'tiradi. Mug'anxon 558 yilda jujonlarga so'nggi bor qaqshatqich zarba berib o'z davlati hukmronligini Tinch Okeanigacha bo'lgan hududlarda mustahkamlaydi. (Uning amakisi Istami unga «Yag'bu»-boxodir unvoni berilgan edi) bo'lsa, bu davrda hoqonlik hududini g'arbga tomon kengaytirib, Yettisuv, Qashg'ar, Ural, Volga bo'ylari va boshqa hududlarni egallaydi.

563-567 yillar davomida Istami Yag'bu qo'shinlari Eftaliylarga ketma-ket zarbalar berib uning hududlarini ya'ni hozirgi O'rta Osiyo va Kaspiy dengizigacha bo'lgan yerlarni egallashga muvaffaq bo'ladi. Buning oqibatida Eftaliylar hokimiyati qulaydi. Turk hoqonligi O'rta Osiyo yerlarini ishg'ol etgach, uning hududlari bevosita Eron chegarasiga tutashadi. Dastlab xoqonlik Eron bilan yaxshi qo'shnichilik, savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intiladi. Eron shoxi Xusrav I Anushirvonga turk malikasi uzatiladi. Eronga elchilar yuboriladi. Biroq, turk xoqonining Eronga ikki bor yuborgan elchilari faoliyati muvaffaqiyatsiz chiqqach, Eroning Turklar bilan murosaga bormasligi, uning qat'iy dushmanligi ro'y-rost ma'lum bo'ladi. Buning boisi Eron shoxining O'rta Osiyo hududlariga da'vogarligida edi. Bu esa, shubxasiz bir necha bor xoqonlikning Eron urushlar olib borishiga sabab bo'ladi. Istami qo'shinlari Eron shoxi Xisrav I ni yengadi. Eron shoxlari Turk hoqonligiga 400 ming vizantiya tillasi hajmida tovon to'lash majburiyatini olishga majbur bo'ladi. Mug'anxon va uning avlodlari G'arbda Qora dengizgacha bo'lgan hududlarni zabt etib, o'zlariga bo'ysundiradilar.

Turk hoqonligida boshqaruv tartiblari haqida gap borganda shuni ta'kidlash kerakki Turk hoqonlari O'rta Osiyo hududlarida hukmronlik qilsa- da biroq o'zlari bu hududga ko'chib kelmadilar. Ular Yettisu va boshqa hududlardagi markaziy qarorgohlarida qolib, bo'ysungan hududlarni mahalliy hukmdorlar orqali boshqarib, ulrdan olinadigan soliq-ulponlar va to'lovlar bilan kifoyalananglar. Bundan ko'rinadiki, Turk hoqonligi davrida bu hududdagi mavjud mahalliy davlat tuzilmalari, ularning boshqaruv tizimlari saqlanib, ichki siyosat bobidagi mustaqil faoliyatlari davom etgan. Xoqonlik istisno xollardagini o'lkaning ijtimoiy siyosiy hayotiga aralashardi. Bu narsa ko'proq taqi siyosat, xalqaro savdo-sotiq masalalariga daxl etardi. Xitoy Manbalarida ta'kidlanganidek, Zarafshon, Amudaryo va Qashqadaryo vohalarida bu davrda 9 ta mustaqil hokimlik-davlatlar mavjud bo'lgan: Samarqand, Ishtixon, Maymurg', Kesh, Naxshab, Kushon, Buxoro, Amur va Anxoy shular jumlasidandir. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Choch (Toshkent) hokimliklari o'zlariga ancha mustaqil bo'lganlar. Buxorxudodlar zarb etgan tanga pullar keng muomilada bo'lgan shu bilan birgalikda bu davlat hokimliklari o'rtasida o'zaro adovat, kurash, ichki ziddiyatlar to'xtovsiz bo'lib turgan. Bu esa mahalliy aholi hayoti, turmushini nochor ahvolga duchor etgan. 585-586 yillarda Buxoroda zadogon dehqon va boy savdogarlarga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Unga Obro'y boshchilik qiladi. Hoqon Qora Churin qo'shinlari qo'zg'olonni bostirib, qo'zg'olonchilarni qattiq. Turk hoqonligini g'arbiy (O'rta Osiyoning katta qismini o'z ichiga olgan) va sharqiy (Yettisu, Sharqiy Turkiston, Oltoy) hududlari tobora bir-biridan uzoqlashib

aloqalari uzilib borganki, Arslon To'ba xoqon davrida-581 yilda Turk xoqonligi ikki qismga-G'arbiy va Sharqiy Turk xoqonliklariga bo'linib ketgan. G'arbiy xoqonlik hukmdori Qorachurinning 588-yilda Eron bilan boshlagan urushi kutilmaganda uning o'limi va mag'lubiyati bilan yakun topadi. Bu xol G'arbiy Turk xoqonligining keskin zaiflashuviga sabab bo'ladi. Faqat VII asr boshlariga kelibgina G'arbiy xoqonlik yana yangidan rivojlanish sari yuz tutadi.

Endi xoqonlik davrida Turon zaminida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga nazar tashlar ekanmiz, shu narsa ayon bo'ladiki, Turk xoqonligining Sharqiy yerlaridan farqli o'laroq, bu hududda aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarzi, madaniy darajasi nisbatan yuqori bo'lgan. Gap shundaki, Sharqiy hududlarda yashagan ko'pchilik ko'chmanchi Turklarda urug'-qabilachilik munosabatlari hamon kuchli saqlangan. Aholining quyi tabaqasi budun yoki qora budunlar deb atalgan. Urug' qabilaning nomdor vakillari «Beklar» deb yuritilgan. Jamoani xoqon va zodagonlar kengashi-«Qurultoy» boshqargan. Katta Patriarxal oilalar-xo'jaliklarning boshliqlari «Kad xudolar» deb atalgan. O'rta So'iyo yerlarida esa bu dehqonchilik, bog'dorchilik va uzumchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. O'lkaning Farg'ona, Xorazm va Zarafshon vohalarida ko'plab suv ayrig'ichlar, kanallar, suv havzalari bunyod etilgan. Farg'ona va So'g'dda aholining bir qismi tog'-kon ishlari bilan ham mashg'ul bo'lgan. Bu yerlarda oltin, mis, temir eritish, ulardan kerakli asbob-anjomlar ishlash yaxshi yo'lga ko'yilgan. Shuningdek, Iloqda qo'rg'oshin, kumush, Shahrisabzda esa qizil tuz qazib olingan.

Shunday qilib, Turk xoqonligi o'z davrida eng yirik davlat edi. Turon xonlari Xitoy, Eron va Vizantiya bilan munosabatlarda uzoq yillar o'z hukmini o'tkazganlar. Xoqonlik davri moddiy va ma'naviy madaniyati, uning nodir namunalari Turonzamin xalqlarining to'laqonli turmush tarzini o'ziga xos yo'sinda aks ettirib qolmasdan, ulug' bobokolonlarimiz dahosining teranligidan, ularning yuksak ijodkorligi, izlanuvchanligidan ham shahodat beradi.

Darxaqiqat, IX asr boshlariga kelib arab xalifaligida yuzaga kelgan buhronli vaziyat, siyosiy tanglik Xuroson va Movarounahrda kechayotgan ziddiyatli jarayonlar, eng muhimi, bu hududda yuz bergan Rofe ibn Lays qo'zg'oloni (806-810) mazkur o'lka xalqlari uchun xalifalik tobeligidan qutulish yurt mustaqilligini qo'lga kiritish yo'lida qulay imkoniyatlarni vujudga keltirgan. Gap shundaki, mashhur xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) vafotidan so'ng xalifalik taxtini egallash uchun uning o'g'illari-Amin va Ma'mun o'rtasida qizg'in kurash boshlangan edi. Bir necha yilga cho'zilgan bu siyosiy mojaro nafaqat xalifalik markazini tang ahvolga solib qolmasdan balki unga tob'ye bo'lgan hududlardagi voqealar rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Xuroson noibi Ma'mun o'z kurashida Xuroson va Movarounahrning nufuzli kuchlariga tayanib, nihoyat, 813 yilda xalifalik hokimiyatini egallaydi. Bundan avvalroq Ma'mun bu o'lkada xila uzoq davom etgan Rofe ibn Lays qo'zg'olonini bostirishda mahalliy feodal kuchlar madadidan foydalangandi. Ma'munning xalifalik taxtiga chiqishga katta harbiy yordam ko'rsatgan Xuroson nufuzli doiralarning yirik nomoyondasi Tohir ibn Xusayn bir qancha muddat Bag'dodda xalifalik qo'shinlariga ham boshchilik qilgan edi.

Xalifa Ma'mun Xuroson va Movarounahrda davom etayotgan arablarga qarshi kuchli muxolifatchilik harakatlarini bartaraf etish qiyinligini anglab yetganidan, bu hududlarni boshqarish huquqini mahalliy zodogonlar vakillari ixtiyoriga berishga majbur bo'ladi. Shu yo'l bilan u mazkur o'lkalarning xalifalikka tobeligini saqlab qolmoqqa intiladi.

Mahalliy hukmdorlar esa uddaburonlik bilan, halifalikning zaiflashganligidan, shuningdek, yangi xalifa ma'munning "iltifoti" dan foydalanib, boshqaruv jilovini qo'lga kiritgach, undan yurt mustaqilligi, uning ravnaqi va qudratini oshirish yo'lida foydalanishga qat'iyon yo'l tutdilar.

Xurosonda Tohir ibn Xusayn va uning avlodlari, Movarounahrda esa Samon Xudot va uning vorislari tomonidan siyosiy hokimiyatni qo'lga kiritilishi mana shu tarzda amalga oshdi.

Tohiriylar sulolasining asoschisi Tohir ibn Xusayn 821 yildan etiboran Xuroson noibligini qo'lga kiritadi. Dastlab Movarounahrning ko'pgina viloyatlari ham uning tasarrufida edi. Buning boisi, ikkala o'lkaning noiblik markazi Xurosonning Nishopur shahri bo'lgan. Tohir ibn Xusayn davlat ishlarini mustaqil idora etish maqsadida 822 yilda xalifa nomini xutba namozidan chiqarib tashlashga amr qiladi. Biroq tez orada uning sirl o'limi bu borada katta ishlar qilinishiga imkon bermaydi. Uning vorislari Talha (822-828), Abul Abbas Abdulloh (830-844), Tohir ibn Abdulloh (844-862), Muhammad ibn Tohir (862-873) davrida Tohiriylar sulolasining mustaqilligi xiyla ta'minlandi. Tohiriylar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni, mulkiy munosabatlarni rivojlantirish, qishloq xo'jaligini tartibga keltirish, suv resurslaridan foydalanishni yaxshilash, suv inshootlarini barpo etish, shuningdek, Fuqarolardan olinadigan soliqlarni mo'tadillashirishga ahamiyat beradilar.

Movarounahrda Somoniylar sulolasi hukmronligining yuzaga kelish jarayoni ham IX asr boshlariga to'g'ri keladi. Bunda ham xalifa Ma'mun o'ziga sodiq xizmat qilgan mahalliy hukmdorlardan Somonxudot avlodlari (uning nabiralari)ga Movarounahr hududlarini boshqarish huquqini topshiradi. Chunonchi, Asad ibn Somon o'g'illaridan-Nuh Samarqandga, Ahmad Farg'onaga, Yah'yo Shosh va Ustrushonaga, Ilyos Chog'aniyon va Hirotga hokimlik qiladilar.

IX asr o'rtalariga kelib Ahmad va uning katta o'g'li Nasr Somoniylar Movarounahrning ko'pchilik hududlarini birlashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Nasr Somoniy (856-888) davrida Movarounahr mavqei yanada kuchayib bordi. Xurosonda Tohiriylar sulolasi ag'darilgach (873 y), uning tarkibiga kirgan Buxoro yerlari Somoniylar tasarrufiga olinadi. Nasr ukasi Ismoilni Buxoroga noib etib tayinlaydi (874 y) va Somoniylar hukmronligi deyarli Movarounahrning barcha hududlariga yoyiladi. Ammo, ko'p o'tmay Ismoil o'z hokimiyatini kuchaytirib borgach, u o'zining vassallik mavqeini tan olmay, Nasr hokimiyati xazinasiga to'laydigan yillik daromad miqdorini keskin kamaytiradi. Buning natijasida aka-ukalar o'rtasida uzoq muddatli o'zaro kurash boshlanadi. Oqibatda 888 yilda ular o'rtasida katta urush bo'lib unda Ismoil g'olib chiqadi va hokimiyatni o'z qo'lga oladi. Akasi Nasr vafotidan so'ng (892 y) Ismoil Somoniy Movarounahrning yagona hukmdoriga aylanadi. Shu tariqa, o'zbek davlatchiligi qayta tiklanadi va yuksalib boradi. Mamlakat aholisining mutloq ko'pchiligi turkiy qavmlardan iborat bo'lib, davlat ishlarini yuritishda turkiy qo'shinlar va lashkarboshi larning mavqei yuqori bo'lgan.

Ismoilning 893 yilda Sharqdagi turkiy qabilalarga qarshi qilgan muvaffaqiyatli yurishi, Tarozni egallab, katta o'lja, asirlar bilan qaytishi ham Somoniylar qudrati yuksakligidan yaqqol dalolat beradi. Ismoil Somoniy qudratining o'sib borishidan cho'chigan va uni zaiflashtirishni ko'zlagan Bag'dod xalifasi Mu'tazit (892-902) Xurosondagi Safforiylar hukmdori Amr ibn Laysga Xuroson bilan birga Movarounahr ustidan hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqardi va uni Ismoilga qarshi gij-gijlaydi. Bu esa 900 yilda ular o'rtasida katta urushga sabab bo'ladi. Urush natijasi Ismoil Somoniy foydasiga xal bo'lib, buning oqibatida Xuroson yerlari Somoniylar qo'l ostiga o'tadi. Xalifalikning esa bu yerdagi ta'siri keskin pasayadi. Ismoil Somoniy uzoq yillik davlatchiligimiz tajribasiga suyanib, markaziy boshqaruv tizimini va shunga muvofiq keladigan mahalliy idora organlarini vujudga keltiradi. Bu tizim uning o'g'li Nasr II davrida (914-943) davrida ham takomillashib bordi.

Bunga ko'ra davlat boshqaruvi oliy dargoh va devonlar (vazirliklar) ga bo'linadi. Bunda eng asosiy siyosiy-ma'muriy va xo'jalik boshqaruvi vazir devoni tasarrufida bo'lgan. Boshqa devonlar esa unga bo'ysungan.

Markaziy Osiyoning o'rta asrlar tarixida muhim o'rin tutgan va xiyla uzoq davr hukm surgan (X-XII asrlar) Qoraxoniylar sulolasi to'g'risida so'z yuritir ekanmiz, bunda shu narsani chuqurroq anglamoq joizki, hozirgi Markaziy Osiyo mintaqasining Yettisuv va Qoshg'ar qismida yangi bir siyosiy sulola kuchayib bordi. Bular Turkiy qabilalar elatlar orasidan yetishib chiqqan Qoraxoniylardir. Mintaqaning sharqiy qismida yashagan bu elatlar Movarounahrda xalqlar bilan doimo yonma-yon yashab, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hamkorlik va aloqalarda bo'lib birgalashib tarix yaratganlar. Ijtimoiy taraqqiyot jarayoni tezlashuviga munosib ta'sir ko'rsatganlar.

Bu davlatning tayanch negizining yaratilishida ayniqsa, qorluq, chigil va yag'mo elatlarining roli va ta'siri katta bo'lgan. Mazkur davlatga asos solgan siymo Satuq Abdulkarim Bug'ro'xon (Qoraxon) yag'molar qavmiga mansub bo'lgan. Qoraxon so'zining lug'aviy ma'nosi esa turkiy qabilalalarda «Ulug'», «Buyuk» degan tushunchani anglatgan.

Bu davlatning qudrati yuksalib u tez orada katta hududlarni o'z qo'l ostiga kirita boradi. Uning poytaxti Sharqiy Turkistonning Bolasog'un shahri bo'lgan. Abdulkarim Bug'ro'xon vafotidan keyin (955 y) uning vorislari davrida Markaziy Tyanshan va Yettisuv o'lkalari egallandi. Endilikda Qoraxoniylar Somoniylar hukmronlik qilayotgan Movarounnahr yerlarini butunlay egallashga kirishdilar. Bu davrda Somoniylar sulolasi chuqur ichki ziddichtlar girdobiga tushib qolgan edi. Mahalliy hukmdorlar va oliy ruhoniylar tabaqasi orasida ham somoniylar siyosatidan norozilik kuchaygan edi. Mahalliy hukmdorlar hayrixohligidan foydalangan Qoraxoniylar sulolasining hukmdorlari-Xasan va Nasr Bug'ro'xonlar yetakchiligidagi qo'shin somoniylar qarshiligini qiyinchiliksiz yengib, ikki bor (992-999 yillarda) poytaxt Buxoroni egallaydi. Oqibatda butun Movarounnahr hududlari Qoraxoniylar tasarrufiga o'tadi. Bu voqea XI asr boshlarida sodir bo'ladi. Bu jarayonni xalq hokimiyat tepasiga bir sulola o'rniga ikkinchi bir sulolaning kelishi qabilida e'tirof etadi. Shu tariqa, Qoraxoniylar hukmronligi Amudaryogacha bo'lgan katta hududlarga yoyiladi. 1041 yilga kelib qoraxoniylar hokimiyati ikkiga: markazi Buxoro bo'lgan g'arbiy xonlikka va markazi Bolasog'un bulgan sharqiy xonlikka bo'linib ketadi. Keyingi xonlik tarkibiga Talas, Isfijob, Shosh, Sharqiy Farg'ona, Yettisuv va Qoshg'ar yerlari kirgan.

Qoraxoniylar davlatining boshqaruv, idora qilish tizimini ko'zdan kechirarkanmiz, ularda somoniylardan farqli o'laroq, markaziy boshqaruv tizimiga qaraganda hududiy boshqarish tartibi ko'proq o'rin tutgan. Buning asosiy sababi shuki, har bir yirik hudud yoki viloyat iloqxonlar tomonidan nisbatan mustaqil idora qilingan (masalan, Samarqand, Buxoro, Yettisuv va boshq). Iloqxonlar tegishli miqdordagi yillik xiroj yoki to'lovlarni markaziy hokimiyat hukmdori-Tamg'ochxonga yuborib, amalda o'z mulklarini mustaqil boshqarganlar.

Qoraxoniylarning Movarounnahrda hukmronligi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatda, turli sulolaviy urushlar, ziddiyatli jarayonlarda kechganligini ta'kidlash joizdir. Ayniqsa, xonlikning muqim hayotiy markazlari hisoblangan Samarqand, Buxoro, Balx va Termiz kabi joylarni qo'lga kiritish uchun G'aznaviylar, Saljuqiylar bilan ko'p bor urush harakatlari olib borishga to'g'ri kelgan.

Xususan Saljuqiylarning so'nggi podshohi Sulton Sanjar (1118-1157) Qoraxoniylarning Movarounnahrda hukmdori Arslonxon (1102-1130) ning zaiflashib qolganligidanva mahalliy ruhoniylar fitnasidan foydalanib, Samarqand va uning atrofini bosib oladi. Shundan so'ng Qoraxoniylar sulolasiga mansub mahalliy xonlar amalda Sulton Sanjarga tobe bo'lib qoladilar. Biroq ko'p o'tmay bu hududlar yangidan sharqdan bostirib kelgan Qoraxitoylar ta'siriga tushib qoladi.

Faqat 1011 yilga kelib, ya'ni so'nggi Xorazmshoh-Alouddin Muhammad (1200-1220) davrida Qoraxoniylarning Movarounnahrda rasmiy boshqaruvi butunlay barham topadi.

Xorazm vohasi o'zining qulay strategik va jug'rofiy mavqei hamda qadimdan rivojlangan hudud bo'lganligidan, u Markaziy Osiyo mintaqasida turli davrlarda kechgan muhim tarixiy jarayonlarda alohida o'rin tutib, o'z muayyan ta'sirini o'tkazib borgan. Vatanimiz hududida miloddan avvalgi so'nggi ming yillik boshlaridagi ilk o'zbek davlatchilik tuzilmalari ham shu hududda vujudga kelgan. Tariximizning turli bosqichlarida ham Xorazmshohlar sulolasi nomi bilan hukmronlik qilgan hukmdorlar xonadoni tarixda ma'lum. Bular IV-X asrlarda afriqiyalar xonadoni, 995-1017 yillarda ma'muniylar (Ma'mun I, Abdulxasan Ali, Ma'mun II), 1017-1041 yillarda esa oltintoshiylar (Oltintosh, Horun, Handon) sulolalari Xorazmshohlar unvonini bilan davlat boshqaruvinu amalga oshirganlar.

Xususan Saljuqiy hukmdorlardan Malikshoh (1071-1092) davrida katta obro'-martabaga erishgan harbiy lashkarboshi Anushtaginning Xorazm hukmdori etib tayinlanishi (1077-1097) hamda ko'p o'tmay uning Xorazmshoh unvoniga sozovor bo'lishi-bu Xorazmning mustaqillikka erishishida jiddiy qadam bo'lgan edi. 1097 yilda Xorazm hokimi bo'lgan va Xorazmshoh unvonini olgan Qutbiddin Muhammad o'lka mustaqilligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Qutbiddin Muhammad ham Saljuqiylar hukmronligini tan olgan holda Xorazmni idora qildi. Biroq, shunga qaramay o'lkaning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy yuksalishi uchun ham muhim imkoniyatlar topa bildi.

Xorazm mustakilligini ta'minlash, uning sarhadlarini kengaytirishda Qutbiddin Muhammadning o'g'li Jaloliddin otsizning (1127-1156) roli alohidadir. Negaki u Qoraxniylar kuchsizligidan va Saljuqiylar zaifligidan foydalanib o'z qudratini yuksaltira bordi. Uning 1141 yilda oltin tangalar zarb ettirib, muomilaga chikarilishi ham Xorazm mustakilligini muhim belgisi bo'lgan.

U Qoraxitoylar bilan kelishib, ularga har yili 30 ming darham miqdorda to'lov to'lash sharti bilan amalda o'z davlatining ichki mustaqilligini ta'minlaydi.

Xorazmning mustaqil davlat sifatidagi ravnaqi, hududlarning benuhoya kengayib borishida Alouddin Takashning o'rni va roli katta bo'lgan. Uning hukmronlik davrida (1172-1200) Xorazm vohasida katta ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Yangidan qad rostlagan o'nlab shaharlarning obodonlashuvidan tashqari ularning savdo-sotiq hunarmandchilik karvon savdosi bobidagi dovrug'i yanada ortdi. Qishloq xo'jaligi ziroatchilik tarmoqlar rivojlandi. Ko'plab kanallar suv inshootlari barpo etildi. Bunday tarzda ijobiy jarayonlar Alouddin Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) davrida ham davom ettirildi. Ayni zamonda o'ziga xos markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi tizimi vujudga keltirib takomillashtirib borildi. Bu esa mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotini mustahkamlash, uning ichki taraqqiyotini ta'minlash hamda izchil tashqi siyosat olib borishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Anushteginlarning davlat boshqaruvi ham ikki tizimdan: dargoh va devonlar majmuidan iborat bo'lgan.

Devonlar ham o'z vakolat doirasida faoliyat yuritganlar. Masalan insho yoki tug'ro devoni rasmiy hujjatlar, yozishmalarni tuzish bilan shug'ullangan. Shuningdek moliya ishlari bilan istefo devoni, davlat nazorati tadbirlari bilan ishrof devoni, harbiy ishlar bilan devoni Arz yoki Jaysh shug'ullangan. Sulton xonadoni hayotiga, iqtisodiyotiga tegishli yana bir muhim devon mavjud bo'lib, u devoni xos nomi bilan atalgan.

So'nggi Xorazmshohlar davrida harbiy sohaga alohida ahamiyat berilgan. Bunda bir necha yuz minglik qo'shindan tashqari oliy hukmdorning maxsus shaxsiy gvardiyasi (Xaros) katta mavqeiga ega bo'lgan. Sulton Muhammadning shaxsiy gvardiyasi 10 ming kishidan tashkil topgan. Xarbiy qismlarda harbiy nazoratchi sinoh-salot, sohibi-jaysh (viloyat qo'shini boshlig'i), amir ul-umaro, malik (10 ming qo'shin boshlig'i), chovush (chopar), josus (razvedkachi) askar qozisi kabi mansablar ham mavjud bo'lgan.

Takash vafotidan so'ng davlat hukmdori bo'lgan Alouddin Muhammad Xorazmshoh davrida ham mamlakat hududlari kengayishda davom etadi. Bu vaqtga kelib Eron, Ozarbayjon, Xurosondan Hindistongacha bo'lgan yerlar Xorazmshohlarga bo'ysundirilgan edi. Uning tarkibiga 400 dan ziyod shaharlar kirardi. Orolardan Hind okeanigacha, Sharqiy Turkistondan Iroqgacha bo'lgan hududdagi xalqlar taqdiri Xorazmda hal etilardi. Xorazmshoh Bog'dod xalifaligini qo'lga kiritish uchun ham intilgan bu esa butun musulmon olamining unga nisbatan qaxri g'azabiga sabab bo'lgan.

Muhammad Xorazmshoh 1211 yilda Qoraxitoylarni uzil-kesil quvib Xorazm dovrug'ini ko'targanidan so'ng, u o'ziga ortiqcha bino qo'yib o'zini «skandari Soniy», «Ollohning yerdagi soyasi» deb ulug'lashni buyuradi. Garchand Xorazmshoh o'zini ko'klarga ko'tarmasin, biroq bundan mamlakatning chuqur ichki ziddiyatlar va tanazzulliklarga duchor bo'lganligini istisno etib bo'lmaydi. Shohning katta qo'shin tuzib to'xtovsiz olib borgan besamar urushlari, uning asoratli oqibatlari, eng avvalo mamlakat xalqining tinkasini qurita yozgandi. Buning ustiga mahalliy hokimlar, bek-amaldorlarning o'zboshimchalik bilan xalq boshiga solayotgan behad jabr-zulmi, bunga javoban yuz berayotgan xalq g'alayonlari (masalan 1206-1207 yillarda Buxoroda 1212 yilda Samarqandda ko'tarilgan qo'zg'olonlar) saltanatning ichidan yemirilishiga sabab bo'lmoqda edi. So'ngra oliy hokimiyat ichidagi kuchli muxolifatchilik harakati,

xususan Xorazmshoh bilan uning onasi Turkon xotun tarafdorlari o'rtasidagi ochiq-oshkor tarzidagi siyosiy kurash ham Xorazm davlatining beqarorlik xolatini yaqqol ko'rsatdi.

Qo'shni Xorazmshohlar davlatida kechayotgan bu xildagi chuqur tanazzullik holatlaridan to'la xabardor bo'lgan undagi barcha jarayonlarni o'zining maxsus josuslik mahkamasi orqali sinchikovlik bilan kuzatib turgan Sharqdagi boshqa bir qudratli Mo'g'ul davlati hukmdori Chingizxon esa katta harbiy tayyorgarlik ko'rib tez orada Movarounnahr sarhadlari tomon istilochilik urushlarini boshlashga chog'lanayotgandi.

Darhaqiqat XIII asrning birinchi choragida amalga oshirilgan mug'ul-tatar galalarining shavqatsiz bosqini nafaqat Xorazmshohlar davlati tarixida, balki shu bilan birga unda yashagan barcha ulug' ajdodlarimiz qismatida ham misilsiz fojia bo'ldi.

Amir Temur Vatanimiz tarixida, o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida beqiyos xizmat ko'rsatgan shaxs. Amir Temur jahon xalqlari tarixida buyuk davlat arbobi, mashhur sarkarda sifatida e'tirof etilgan yorqin siymodir.

Temur Tarag'aybek o'g'li siyosiy kurash maydoniga kirib kelgan XIV asrning 60-yillari mug'ullarning Chig'atoy ulusida bir yarim asrlik hukmronligi davom etayotgan, ularning mahalliy xalqlarga zug'umi tufayli tushkunlik, parokandalik jarayoni yuz berayotgan edi.

Temurbek uddaburonlik bilan o'ziga xos taktika qo'llab o'zining bosh orzu-maqсадlaridan voz kechmagan holda, vaziyat taqozosi bilan, vaqtdan yutish, ishonchli kuch topish uchun vaqtincha 1361 yilda Tug'luq Temur xizmatiga kiradi. Biroq bir yil muddat o'tar-o'tmay, Balx hokimi Amir Xusayn bilan do'stlashib u bilan birgalikda mug'ullardan Ona yurtini ozod qilishga kirishadi va 1362-1364 yillarda mug'ul qo'shinlariga bir necha marta zarba beradi.

Tug'luq Temurning o'g'li Ilyosxo'ja 1365 yil bahorida Movarounnahrda yurish qiladi. Chinoz atrofida, Sirdaryo bo'yidagi (Loy jangi) da Amir Temur va Amir Xusayn qo'shinining Ilyosxo'ja boshliq mug'ul qo'shinidan yengilishi Amir Temur uchun juda katta saboq bo'ldi. Ilyosxo'ja qo'shinlari Samarqandga tomon yurdi. Hokimiyatsiz qolgan mahalliy aholi mudofaaga ko'tarildi, bu harakat Sarbadorlar harakati bilan mashhurdir.

Vaziyat taqozosi bilan Amir Temur Amir Xusayn o'rnamshib olgan Balxga 1370 yilning bahorida qo'shin tortib bordi va uni mahv etdi. Shundan so'ng Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib qoldi. Samarqand mamlakat poytaxtiga aylandi. Endilikda yurtni boshqarish jilovini qo'lga kiritgan Amir Temur oldida hali g'oyatda katta, murakkab vazifalar ko'ndalang bo'lib turardi. Eng asosiysi mamlakat hududlarini birlashtirish yagona markazlashgan davlat tuzishdan iborat bosh vazifani hal etish kerak edi. Buningsiz mamlakat taraqqiyotini olg'a bostirish, uning dovru'g'ini jahon miqyosiga ko'tarish mumkin emasdi.

Amir Temur qudratli saltanatni vujudga keltirar ekan uni omilkorlik bilan idora qilish boshqaruv tizimini yanada tkomillashtirib borishga ham katta ahamiyat berdi. U o'zbek davlatchiligining Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davrida tarkib topib rivojlanib borgan tizimi, tartib qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy davrning talab, ehtiyojlariga moslab yanada takomillashtirdi, ularga yangicha ruh, mazmun va sayqal berdi.

Uning davrida boshqaruv ikki idoradan, ya'ni dargoh va vazirliklardan iborat bo'lgan. Dargoh tepasida oliy hukmdorning o'zi turgan. Mamlakat va davlat ahamiyatiga molik masalalar uning ko'rsatmasi bilan hal etilgan.

Dargoh faoliyatini boshqarish uning vazirliklari mahalliy hokimiyat idoralari va umuman saltanatda kechayotgan jarayonlar bilan bog'liq ishlar oliy devon zimmasida bo'lgan. Oliy devonda har kuni 4 vazir, ya'ni ijroiya idoralaridan bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri hozir bo'lib o'ziga xos ravishda hisob berib turganlar.

Shayhulislom, Qoziyi al-quzzat (Oliy sudya), Qoziyi ahdas (axloq-odob bo'yicha), Qoziyi askar (harbiy sudya), Sadri a'zam (vaqf mulklari vaziri), Muxtasif (shariyat qoidalari, bozorlardagi narx-navolar nazorati bilan shug'ullanuvchi vazir), Saroy vaziri, Yassavul, Eshik og'a singari yuqori lavozimlar ham davlat hokimiyati tizimining eng asosiy bo'g'inlari hisoblangan. Amir Temurning davlat boshqaruviga xos eng muhim ustunliklaridan biri unda adolat me'zoniga, qonun ustivorligiga alohida ahamiyat berilganligidir. U har doim «Kuch-adolatda» deb ta'kidlab va unga amal qilardi. Uning davlat boshqaruvi tizimi masalalariga bag'ishlangan mashhur tuzuklarida ham har bir ishda adolat mezoniga amal qilishlik, noxaqlik, adolatsizlikka nisbatan murosasizlik g'oyasi chuqur ifodalanganligi bejiz emasdir. Zero, xoh moliya soliq tizimida, xoh savdo tijorat sohasida yohud mulkiy masalalarda bo'lsin hamma narsada adolat ko'zi bilan, qonunchilik qoidalari, talablariga asoslanib ish yuritish, qatiyat va izchillik Amir Temur davlatchilik siyosatining asosiy me'zoni bo'lgan. O'z amali mansabini suiste'mol qilishlik, poraxo'rlik, maishiy buzuqlik qabilar og'ir jinoyatlar sanalib, ular ni sodir etuvchilar qattiq jazolanganlar.

Amir Temur tuzuklariga asos qilib olingan davlatchilik siyosatining muhim jihati yana shundan iboratki, uning davrida har bir sohaga kadrlar tanlash, lavozimlarga tayinlashda ularning iqtidori qobiliyatiga, bilimi iste'dodiga, nasl-nasabiga alohida e'tibor berilgan. Davlatga sadoqat bilan xizmat qilgan xodimlar doimo rag'batlantirilib martabalarini oshirib borilgan.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: O'zbekiston, 1998 y.
2. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.:Sharq, 2000 y.
3. Buniyatov Z.M. Gosudarstvo Xorezmshaxov Anushteginidov.-M.: Nauka, 1986 g.
4. Vamberi Herman. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi.-T.:Adabiyot va san'at, 1990
5. Jaloliddin Mirzo. Termiz Saljuqiylar davrida. O'zbekiston tarixi.-2001.-№1.-B 20-25
6. Karayev O. Gosudarstvo Karaxanidov.-Frunze: 1983 g.
7. Nabiyev A. Mustaqillik uchun kurash yohud parchalangan Turkiston tarixi.-T.,1998
8. Narshahiy. Buxoro tarixi. «Meros».-T.: Kamalak, 1991 y.
9. Shoniyo'zov K.SH. Qang' davlati va qang'lilar.-T.: Fan,1990y.
10. O'zbekiston tarixi. 1-qism.-T.: O'qituvchi, 1994 y.

#### 5-MAVZU: BUYUK IPAK YO'LINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

**MAQSAD:** Tarixda mavjud bo'lgan savdo yo'llari va uning insoniyat tarixida tutgan o'rni, savdo yo'llarining bugungi kundagi ahvoli va ularni rivojlantirishning ahamiyati haqida ma'lumotlar berish. Buyuk ipak yo'li, uning o'lkamiz hududidan o'tgan tarmoqlari haqida kengroq ma'lumotlarni yetkazish.

#### REJA:

1. Insoniyat tarixida savdo yo'llarining ahamiyati.
2. O'lkamiz hududidan o'tgan qadimgi savdo yo'llari.
3. Buyuk ipak yo'li temuriylar davrida.
4. Savdo yo'llarini tiklanishining Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida tutgan o'rni.

Buyuk ipak yo'li tug'risida fikr yuritar ekanmiz, bu qadimiy yo'ning necha asrlar davomida ne-ne mamlakatlar va xalqlarni bir-biriga bog'lash, aloqalarini mustah-kamlashdagi mislsiz xizmatini aloxida ta'kidlab o'tish joiz bo'ladi.

Ilk bor Xitoy hududidan boshlanib g'arbga tomon minglarcha kilometr masofaga cho'zilgan (12 ming km.), Sharq bilan g'arbni tutashtirgan. Bu noyob savdo yo'li ulug' ajdodlarimiz sa'y-harakatlari samarasi o'laroq umumbashariyat tarixiy taraqqiyotida yorqin iz qoldirgan. Ayniqsa, bu yo'ning Vatanimiz sarhadlaridan o'tganligi uning tarixiy taqdirida, iqtisodiy-madaniy yuksalishida hamda boshqa xorijiy ellar bilan izchil hamkorlik va xamjihatlikda katta ijobiy rol o'ynagan.

Buyuk ipak yo'li tushunchisini birinchi bo'lib fanga taniqli nemis olimi Fon Rixgofen olib kirgan. U XIX asrning 70-yillarida yozgan «Xitoy» nomli klassik asarida bu termini chuqur ilmiy asoslab berdi.

Ma'lumki, Xitoyning Sian shahrida boshlangan Ipak yo'li Lanjou orqali Dunxuanga (Sharqiy Turkiston) kelib, bu yerdan u ikkiga ajraladi. Ipak yo'lining janubiy tarmog'i Taklamakon sahrosi (Mo'g'liston) orqali Xo'tanga, undan Yerkentga kelib, undan Balxga tomon o'tadi. Balxda yo'l yana uch tarmoqqa ajraladi. G'arbiy tarmog'i Marvga, janubiy tarmog'i Hindistonga, shimoli tarmog'i Termiz orqali Darbent, Nautak va Samarqandga tomon yo'naladi. Ipak yo'lining shimoliy-g'arbiy tarmog'i esa Dunxuandan Bami, Turfon orqali Tarim vohasi-Qashg'arga boradi. U yerdan Tioshqo'rgon orqali O'zgan, O'sh, Quva, Axsikent, Pop, Asht orqali Xo'jand, Zomin, Jizzaxga, so'ngra Samarqandga borib tutashadi. Samarqanddan esa bu yo'l yana davom etib Dabusiya, Malik cho'li orqali Buxoro, Romitonga, undan Varaxsha orqali Farobga borib, Amul shahriga o'tadi. Amulda esa bu yo'l Marvdan Urganch sari yo'nalgan yo'lga qo'shiladi. Marv shahri O'rta asrlar davomida Buyuk ipak yo'li chorrahalarini kesishgan eng muhim hayotiy nuqta bo'lgan. Eng muhimi shundaki, Buyuk ipak yo'lining G'arbdan keladigan savdo karvonlari aytaylik, Italiya, Ispaniya va boshqa O'rta yer dengizi mamlakatlarining savdogarlari ham o'z mollarini Tir, Damashq, Anatoliya, Bog'dod orqali Parfiya davlati hududlari bo'ylab yana O'rta Osiyoning yirik savdo markazi Marvga olib kelar, shu yerdan sharq tomon yo'llarini davom ettiradilar. Shu ma'noda Marvning turli dinlar ildiz otgan, turli madaniyatlar tutashgan joy bo'lganligi alohida ahamiyatga molikdir.

Buyuk ipak yo'li Sharq G'arbn bog'lovchi, turli mamlakatlarning savdo-sotiq, tijorat aloqalarining eng asosiy vositasi bo'lgandan, bu yo'nalishda joylashgan davlatlar undan o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishga yohud bu borada o'z mavqeiini mustahkamlashga intilganlar. Shu bois turli tarixiy bosqichlarda turli davlatlar bunga intilib, Buyuk ipak yo'li ustidan o'z nazoratlarini o'rnatganlar. Masalan, mil.av. VI-IV asrlarda Eron ahmoniylari, mil.av. IV asrda esa makedoniyalik Iskandar, mil.av. II-I asrlarda Rim Parfiya davlatlari o'rtasida bu borada qattiq raqobat ketdi. Yohud arab xalifaligi vujudga kelgunga qadar bu yo'ning Eron va Sug'diyona hududlaridan o'tgan qismida Eron va Sug'd savdogarlari yetakchilik rolini o'ynaganlar. Arab halifaligi kuchayib, ko'plab hududlarni qo'lga kiritgach, bu yo'l arab savdogarlari tasarrufiga o'tadi. Chingiziylar davrida Buyuk ipak yo'lining tasarrufida butunlay ularning qo'l ostida bo'lgan. Buyuk sohibqiron Amir Temur davriga kelib uning qudratli saltanati vujudga kelgach, Buyuk ipak yo'li sarhadlari yangidan kengayib, katta miqyoslar kasb etib, yanada rivoj topadi.

Vatanimiz sarhadlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy yuksalishining Buyuk ipak yo'li bilan bevosita bog'liqlik jihatlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Yunon-Rim olimlari Gerodot, Ktesiy, Arrian ma'lumotlariga, Eron mixxat yozuvlariga asoslanib fikr yuritadigan bo'lsak, mil.av. IV asrda O'rta Osiyo hududlarida sug'orma dehqonchilik madaniyati, hunarmandchilik, chorvachilik, tog'-kon ishlari ancha rivoj topgan. O'rta Osiyo la'li Xorazmning qimmatbaho feruza ma'dani, Sug'd oltini ko'plab miqdorda qazib olinib, ishlov berilib, xorijiy ellarga ham chiqarilgan. Jumladan, O'rta Osiyo la'lga (lazuriti) Eron, Hindiston, Misr, Mesopatamiya va Xitoy singari mamlakatlarda qiziqish va talab g'oyatda katta bo'lgan. Mil.av. II asr boshlarida Davan va Qang' davlatlariga tashrif buyurgan Xitoy elchisi va sayyohi Chjan Szyan safaridan so'ng Xitoy bilan O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi diplomatik va sado-sotiq aloqalari yangi bosqichga ko'tariladi. Elchining bu yurtda ko'rgan-kechirganlari. Ayniqsa, uzumchilik, vino-tayyorlash, rangli shishalar ishlab chiqarish, zargarlik, zotdor, uchqur otlar Xitoy hukmdorlarini qiziqtirgan. Bu esa ikki o'rtadagi aloqalarga keng yo'l ochgan. Xitoy O'rta Osiyoning zotdor otlari, rangli shishalari, zargarlik mollari, la'lga xaridor bo'lsa, ayni chog'da Xitoydan ko'proq ipak va ipak mollari, chinni buyumlar, choy mahsulotlar keltirila boshlagan. Shuningdek, Yaponiyadan gurunch, Hindistondan ip gazlama, ziravor va dorivor mahsulotlar, mushk anbar va shu kabi narsalar keltirilgan. Ayni chog'da o'zbek diyorida bu mamlakatlarga qishloq xo'jalik mahsulotlari, mevalar, chorva mollari, otlar, gilamlar, zargarlik mahsulotlari, nafis junli matolar chiqarilgan. O'rta Osiyo hukmdorlari buyuk ipak yo'lida savdo karvonlarining tinchligi, xavfsizligi va ularning bexatar, muntazam qatnovini ta'minlash borasida ham doimiy chora-talbiirlar ko'rib borganlar. Shu maqsadda kerakli nuqtalarda, aholi siyrak bo'lgan joylarda karvonsaroylar, yemakxonalar, barpo qilingan, suv oladigan quduqlar qazilgan, chor atrofi shinam bino shakliga keltirilib qurilgan rabotu-sardobalar tiklangan. Hozirda ham Qizilqum, Mirzacho'l. Malik cho'li sarhadlarida o'tmish arxitekturasi noyob namunalari sanalgan shunday me'moriy obidalar xarobalari ko'plab uchraydi. Ayniqsa, Somoniylar, Qoraxoniylar va G'aznaviylar sulolalari hukm surgan, Movarounnahr hududlari jiddiy iqtisodiy va madaniy yuksalish jarayonini boshdan kechirgan davrlarda xalqaro karvon savdosi yurtimiz ijtimoiy taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. O'sha davrda Mag'ribu Mashriqqa ma'lum va mashhur Buxoro, Samarqand, Marv, Shosh, Balx, Isfijob, Termiz singari shaharlarda o'nlab xashamatli karvonsaroylar. Sado bozorlari barpo etilib, ularda tijorat ishlari avjida bo'lgan, turli mamlakat tujjorlari ularda tunu-kun turfa rang mollarini sotganlar yohud mol ayiribosh qilganlar.

Buyuk ipak yo'lining shuhrati ayniqsa, XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda, ya'ni Amir Temur qudratli markazlashgan davlat barpo etish barobarida uning barcha hududlarida tinchlik va osoyishtalik o'rnatdi. Uning o'zi tuzuklarida: «Dunyoning yarmini oldim, salatnatimning u chetida bu chetiga biror bolakay boshida bir lagan tillo ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom o'rnatdim», deb aytgan so'zlari bejiz emasdir. Katta salohiyat egasi bo'lgan Sohibqiron mamlakatning yuksak rivojida xalqaro savdoning nechog'lik ulkan ahamiyat kasb etishini bilganligidan. Bu sohani butun choralar bilan o'stirishga alohida etibor bergan. Bunda yurt tinchligi, ulus farovonligi masalalari xar doim uning diqqat markazida turgan. Shu bois ulug' Amir savdo yo'llarini qo'riqlash, odamlar, musofirlar, turli yurt savdogarlari manfaatlarini bosqinchilar, qaroqchilar tajovuzidan muhofaza qilishni muhim davlat ahamiyatiga molik vazifalardan deb hisoblagan. Tuzuklarda: «...yana buyurdimki, yo'l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlarki, yo'llarni qo'riqlab, o'tkinchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarni manzildan-manzilga yetkazib qo'ysinlar. Yo'l ustida birortasining narsasi yo'qolsa, o'zi o'ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javob berish ularning zimmasida bo'lsin.» deb bejiz ta'kidlab o'tmagan.

Amir Temur tashabbusi bilan mamlakatning har bir yirik shaharlarida savdo karvonlarining kirishi va chiqishini nazorat qiluvchi davlat nazorat xizmati va maxsus bojxonalar tashkil etilgan. Savdo karvonlaridan mollarning hajmi. Miqdoriga qarab boj to'lovlari undirilgan. Bu davrda poytaxt Samarqand dunyo savdogarlarining yirik markaziga aylandi. Uning keng ko'chalari bo'ylab maxsus qurilgan muhtasham karvonsaroylar, savdo bozorlari, rastalarda tunu-kun savdo ishlari to'xtamagan. Turli mamlakatlardan kelgan savdogarlar o'z mollarini xaridorlarga sotganlar yohud o'zlariga kerakli mollarni xarid qilganlar.

Samarqand qog'ozining mashhurligi yetti iqlimga ma'lum bo'lgan. Movarounnahr va Xuroson shaharlari Buyuk ipak yo'lining eng qaynoq yo'lga aylangan. Bu yerga Hindistondan juda ko'plab tijorat karvonlari kelib turardi. Xitoy bu hududlarga ipak gazlamalari, chinni kosalar, billur qadahlar, qimmatbaho toshlar yuborardi. Shimoldan noyob po'stinlar, mo'ynalar keltirilardi. Ushbu turli iqlimlarning mollari Samarqand va boshqa O'rta Osiyo shaharlarida toy-toy boylanib, Osiyoning yirik shaharlariga va Yevropaga jo'natilardi. Savdogarlar bir yo'l bilan Genza ko'lga borardi. Ikkinchi yo'l Hirot, Kazvin, Tabriz, Trabzon orqali genuyaliklar, venesiyaliklar, pizalikalarning kemalariga tushib Yevropaga yetardi.

Amir Temurning Oltin O'rda xoni To'xtamish ustidan qozongan zafarlari tufayli Buyuk ipak yo'li shimoliy tarmoqlarining janubiy bosh yo'lga qo'shib yuborilishi orqasida Movarounnahr va Xuroson shaharlarining xalqaro karvon savdosidagi nufuzi va mavqei yanada ortgan. 1402 yilda mashhur Anqara jangida Turkiya ustidan qozonilgan ajoyib g'alabadan so'ng Amir Temur davlati bilan G'arbiy Yevropa davlatlari o'rtasida turli xil aloqalar, yaqinliklar yangi pallaga kirdiki. Bunda ayniqsa, xalqaro savdo aloqalari, shubhasiz, birinchi darajali ahamiyat kasb etdi. Xullas, Amir Temur va uning avlodlari zamonidan davlatlar o'rtasida savdo-tijorat aloqalari yangi hududiy kengliklar kasb etib bordiki, bu bir tomondan, yurtimizning iqtisodiy-madaniy, ma'naviy yuksalishini ta'minlagan bo'lsa, ikkinchidan, uning xorijiy ellar, xalqlar bilan yaqinlashuvi, hamkorligi kuchli turtki berdi. Bu esa Buyuk ipak yo'li shuhratining yanada ortishiga olib keldi. Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek «Amir Temurning tarixiy xizmati yana shundan iboratki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona jug'rofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi».

Shu tariqa Amir Temur va temuriylar davrida Buyuk ipak yo'lining dovrug'i beqiyos katta bo'lganligi, u mamlakatlarning umumiy yuksalishiga, bir-birlari bilan yaqindan bog'lanishlarga jiddiy ijobiy ta'mir o'tkazganligiga shohid bo'lamiz.

Buyuk ipak yo'li XVI asrdan etiboran o'z ahamiyati va rolini yo'qotib, tushkunlik sari yuz tutdi. Bu hollarni qanday sabablar bilan izohlash mumkin. tabiiyki, bu jarayon o'z-o'zidan, bir lahzada to'satdan sodir bo'lgani yo'q, albatta. Bizning nazarimizda, Buyuk ipak yo'li ahamiyatining so'nib, pasayib borishi bir qator ob'yektiv va sub'yektiv sabablar orqasida, tarixiy jarayonlarning murakkab, ziddiyatli kechishi davomida yuz berganligi shubhasiz.

Birinchidan, Amir Temur va Temuriylar sulolasining pirovard oqibatda chuqur inqirozga yo'liqishi va tarix sahnasiga boshqa hukmron sulolalarning, chunonchi, Shayboniyxonlar, Ashtarxoniyalar sulolasining chiqishi hamda ularning boshqaruv usulining g'oyatda murakkab kechganligi, markaziy hokimiyatning kuchsizlanib mamlakat hududlarining tarqoq holatda uchrashi, o'z qobig'iga o'ralishi va hokazo hollar bu hududning tashqi dunyodan tobora ajralishiga bois bo'ldi.

Ikkinchidan, Turkistondagi xonliklar, amir-beklar, sultonlar o'rtasida hokimiyat talashib olib borilgan o'zaro jangu-jadallar, doimiy qon to'kishlar natijasida o'lka tobora iqtisodiy bo'hronlarga duch kela bordi, siyosiy beqarorlik avj oldi. Mamlakat tashqi davlatlar bilan aloqalar bog'lash, iqtisodiy, savdo-sotiq bobida hamkorlik qilish imkoniyatlaridan mahrum bo'ldi.

Uchinchidan, ilg'or Yevropa olimlari, sayyohlari tomonidan XV-XVI asrlardan e'tiboran boshlangan buyuk geografik kashfiyotlar, bularning natijasida jahonning turli qutblari tomon yangi, qulay suv yo'llarining ochilishi, shu jumladan, Hindiston, Xitoy va boshqa sharqiy-janubiy mamlakatlarga tomon shunday yo'llarning kashf etilishi, bular Buyuk ipak yo'li shuhratining pasayishi va so'nib borishga olib keldi.

O'zbekistonning milliy istiqolga erishuvchi va o'z mustaqil davlatchiligi ega bo'lishi uning oldiga keng istiqbol uflarini ochib berdi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston yangidan yuz ochib jahon afkor ommasining nigohiga tushdi. Ayni chog'da u BMTning teng huquqli a'zosi sifatida turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlar bilan o'zaro foydali, manfaatli asoslarda hamkorlik qilish, aloqalar bog'lashga muvaffaq bo'ldi. O'zbekistonning dunyo uchun ochiqligi, butun dunyoda keng ildiz otgan demokratik tamoyillarni o'zining ichki va tashqi siyosatiga asos qilib olganligi-bular uning jahon mamlakatlari bilan yaqinlashuviga, ular bilan hamkorlik aloqalarining har jihatdan mustahkamlashiga ishonchli kafolat bo'lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, ubnda Buyuk ipak yo'li an'analarini yangidan tiklash borasida hozirda jahon miqyosida olib borilayotgan davlatlararo harakatda O'zbekistonning alohida tashabbus ko'rsatayotganligi boisi ham mana shundandir. Zero, qadimdan Sharq bilan G'arbi bir-biriga bog'lagan, xalqaro savdoning qaynoq, tutash nuqtasi hisoblangan O'zbekiston hududi va uning qadimiy shaharlari bugun ham mustaqil davlatimizning keng xorijiy davlatlar bilan bog'lovchi muhim vosita rolini o'ynamog'i ayni muddaodir. «Qadim zamonlarda Sharq bilan G'arbi bog'lab turgan Buyuk ipak yo'li,-deb ta'kidlaydi yurtboshimiz,-O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu yerda savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarining bir-birini boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar shu yerda kesishadi».

O'zbekiston rahbari Islom Karimovning 1999 yil aprel oyida AQSH ga qilgan rasmiy safari chog'ida Amerika tomonining O'zbekiston bilan har tomonlama iqtisodiy, madaniy, savdo-sotiq aloqalar bog'lashga, xususan Buyuk ipak yo'li faoliyatini tiklashga faol ko'maklashishga tayyor ekanligini bildirganligi muhim ahamiyatga egadir.

Shuningdek, YUNESKO rahbariyati bilan hamkorlikda «Ipak yo'li-muloqot yo'li» mavzusida o'tkazilayotgan amaliy tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning so'nggi paytlardagi faol xatti-harakatlari Sharq va G'arbga hamda Janubga bevosita chiqish uchun qulay yo'llarga ega bo'lish, o'z mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish va davlatlararo keng muloqotlarga erishiga qaratilgan. Bu borada Tajan-Saraxs-Mashhad temir yo'li birinchi navbatining qurilishi muhim ahamiyatga egadir. 2000 yilda Pekin-Istanbul yo'nalishida harakatlanish imkoniyati tug'ildi. Hozirda Xitoy va Pokistonga olib boradigan Andijon-O'sh-Ergashtom-Qashg'ar, shuningdek, Buxoro-Saraxs-Mashhad-Tehron va Termiz-Hirot-Qandahor-Karochi avtomobil yo'llarini qurish va qayta ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bu bizni muzlamaydigan qulay Hind okeaniga chiqishimizga imkoniyat tug'diradi. Bu esa EKO-mamlakatlarga olib boradigan yo'lni uch barobarga qisqartiradi. Xullas, O'zbekiston o'z milliy manfaatlarini ustivorligidan kelib chiqib dunyoga chiqishga xalqaro bozor uchun raqobatbardosh mahsulotlar mollar ishlab chiqarishga hamda G'arb bilan Sharq o'rtasida azaldan davom etib kelgan muhim vositachilik-ko'priklilik rolini o'ynashga faol intilmoqda. Ushbu olijanob maqsadlar yo'lida aktiv izlanishlar olib borilmoqda. Bu O'zbekistonning xalqaro maydondagi poizisiasini yanada mustahkamlab, uning nufuzi va obro'sining ko'tarilib borishiga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Savdo uyidan Ipak Yo'lining tiklash sari. Tanlangan Asarlar, 2-tom.-T.: O'zbekiston, 1996 y.
2. Abu Tohirxo'ja Samariya. «Meros».-T.: Kamalak, 1991 y.
3. Anorboyev A., Islomov O'., Matboboyev B. O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona.-T.:Fan, 2001 y.
4. Buxoro tarixi.-T.: Fan, 1976 y.
5. Mukminova R.G., Filanovich M.I. Tashkent na perekryostke istorii.-T.:Fan, 2001 g.
6. Muhammadjonov A. Qadimgi Buxoro.-T.: 1991 y.
7. Nabiye A. S. Tarixiy o'lkashunoslik.-T.: 1974 y.
8. Nekrasova YE. Termez i yego arxitektura.-T.: Fan, 2001 g.
9. Pidayev SH. Qadimiy Termiz.-T.: Fan, 2001 y.
10. Sulaymonova F. Sharq va G'arb.-T.: O'zbekiston,1998 y.
11. Sanaqulov X. Chust.-T.: 1991 y.
12. Samarqand tarixi. 2 tomlik.-T.: Fan, 1971 y.
13. Shishkin V.A. Varaxsha.-T.: 1963 y.
14. Qudratov S. Sardobalar o'lkasi.-T.: Fan, 2001 y.

**6-MAVZU: MARKAZIY OSIYO XALQLARI HAYOTIDA YUZ BERGAN UYG'ONISH (RENESSANS) DAVRI, AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZASIYASIGA QO'SHGAN HISSASI (IX-XII, XIV-XV asrlar)**

**MAQSAD:** Rennsans nima? O'lkamiz hududida necha marta uyg'onish davri bo'lib o'tgan. Bu davrning insoniyat taraqqiyotidagi ahamiyati qanday? Xususan, IX-XII, XIV-XV asrlardagi renessans muammolari haqida biz qanday ma'lumotlarga egamiz? Ajdodlarimizning insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk xizmatlari nimalardan iborat. Ular qo'lga kiritgan, erishgan yutuqlarning asosiy omili nimalardan iborat edi? Shu kabi savollarga javob berish asosiy maqsadimizdir.

#### **REJA:**

1. IX-XII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotning moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishidagi ahamiyati. Tabiiy fanlarning ravnaqi.
2. Turkiston buyuk muhaddislar yurti. O'lkamiz hududidan yetishib chiqqan olimlarning islom tarixida tutgan o'rinlari.
3. Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fanga e'tibor. Amir Temur va Mirzo Ulug'bek zamonasida Movarounnahrda madaniy va ilmiy hayot.

Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar sulolalari hukmronlik qilgan IX-XII asrlarda Movarounnahr sarhadlarida yashagan ulus-elatlar o'rtasida nisbatan osoyishtalik, totuvlik, yaqinlik va hamjihatlik vujudga keldiki, buning orqasida o'lkada moddiy ishlab chiqarish, madaniy rivojlanish jarayoni ancha tezlashdi, shaharlar hayoti yuksaldi, savdo-sotiq, hunarmandchilik o'sdi, aholi farovonligi ko'tarila bordi.

Movarounnahr shaharlarining jug'rofiy nuqtai nazaridan Buyuk ipak yo'lining eng muhim tutash nuqtalarida joylashganligi, shu bois bu yerda ishlab chiqarilgan, yetishtirilgan har turli ziroatchilik, chorvachilik, hunarmandchilik mahsulotlari, zargarlik, zeb-ziynat mollarinin ayirbosh qilib turilganligi orqasida o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti jiddiy yuksalishga yuz tutdi. Buyuk ipak yo'liga tutash aholi manzilgo'harlari o'bod va ko'rkam shaharlar vujudga keldi. Jumladan, birgina Xorazm vohasida X asr boshlarida 10 ga yaqin shaharlar mavjud bo'lsa, XI asr o'rtalariga kelib bunday shaharlar soni 40 taga yetdi.

Somoniylar hukmronlik qilgan IX-XI asrlarda ishlab chiqarish tarmoqlari to'xtovsiz kengayib borgan, ko'plab irrigasiya inshootlari, sug'orish kanallari, suv ayirgichlar qurilishi natijasida dehqonchilik madaniyati ancha o'sadi. Somoniylar poytaxti Buxoroga har tomondan olimu-donishmandlar, sayyohu-tijoratchilar, me'moru-hunarmandlar oqib kela boshlagan.

Somoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar sulolasiga mansub ma'rifatparvar hukmdorlarning ilm-fan va madaniyatga doimiy rag'bat berishlari orqasida ko'plab, iste'dod sohiblarining salohiyati, ijodi o'sib, yuksalib borgan. O'sha davr hukmdorlari tashabbusi bilan bunyod etilgan va faoliyat ko'rsatgan kutubxonalarda son-sanoqsiz noyob, qimmatbaho kitoblar, qo'lyozmalar to'planganiki, bulardan hozirgi avlod kishilari ham bahramand bo'lmoqdalar.

IX-XII asrlarda Movarounnahrda ilm-fan yuksaldi, hozirgi zamon fanining ko'plab tarmoqlari va yo'nalishlariga chinakam poydevor yaratildi. Xususan, matematika, algebra, astronomiya, tibbiyot, biologiya, geodeziya, jug'rofiya, falsafa singari dunyoviy fanlarning ta'mal toshi shu davrda qo'yildi.

O'lloh nazari tekkan muborak yurt zaminidan yetishib chiqqan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Bakr Muhammad Narshahiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Mahmud az-Zamahshariy, Burhoniddin Marg'iloniy kabi qomusiy bilim sohiblarining ilm-fanning turli-tuman sohalaridagi bebaho ilmiy va ma'naviy meroslari to'la ma'noda dunyoviy ahamiyatga molikdir.

Buyuk matematik, astronom va geograf olim Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850) nomi fan tarixida alohida o'rin tutadi. Olim o'zining «Hisob al-Jabr va al-Muqobala», «Hind hisobi haqida kitob», «Quyosh soatlari haqida risola», «Astronomik jadvallar» singari asarlari bilan «Algebra» faniga asos soldi. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi paytda biz foydalanayotgan o'nlik hisoblash sistemasining Yevropada tarqalishiga sabab bo'ldi. Allomaning «al-Xorazmiy» nomi «algoritm» shaklida fanda abadiy muhrlanib qoldi. Olimning «Kitob surat al-arz» nomli geografiyaga doir asari shu qadar fundamental ahamiyatga egaki, u arab tilida ko'plab georafik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Uning Sharq geografiyasining otasi deb nomlanishi ham shundan Xorazmiy yaratgan «Zij» Ovropada ham, Sharqda ham astronomiya fanining rivojlanish yo'llarini belgilab berdi. Alloma qalamiga mansub «Kitob at-tarix» («Tarix kitobi») asari Movarounnahr, Xuroson va Kichik Osiyo xalklarining VIII-IX asrlarga oid tarixini to'laqonli yoritishda muhim qo'llanmadir. Al-Xorazmiyning arab ilmiy dunyosining yirik markazi Bag'doddagi Ma'mun akademiyasida ishlagan davrlari uning iste'dodining eng barq urgan payti bo'ldi. U shu akademiyaning rahbari sifatida ilm ahliga ibrat bo'ldi.

O'rta Osiyolik buyuk allomalar orasida Ahmad al-Farg'oniy (797-865) nomi alohida ko'zga tashlanib turadi. Olimning to'liq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy bo'lib aslida Farg'onaning Quva shahrida tavallud topgan. Ilm yo'lida zahmat chekib ko'p yurtlarni kezgan. Umriining ko'p qismini xorijiy ellarda, xalifalik markazlari o'tkazgan. Uning butun ongli hayoti va faoliyati fan yo'liga bag'ishlangan. Ahmad al-Farg'oniy yetuk astronom, matematik va geograf olim sifatida shuhrat topgan. Juda ko'plab fundamental asarlarning muallifi Bag'doddagi Baytul Hikma (akademiyasi) ning nomdor namoyondalaridan biridir.

U xalifalik poytaxti Bag'dodda yoki Suriya, Misrda bo'lmasin o'sha joydagi ilm ahli bilan bahamjihat bo'lib o'sha davr fanining turli yetilgan dolzarb muamolarini hal etishda faol ishtirok etdi. Jumladan, uning Yer shari xaritasini tuzishdagi Suriya shi'olida, Sinjor sahosida yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lchashdagi yohud Misrning qon tomiri-Nil daryosi suvi sathini o'lchashdagi ulkan xizmatlari benazirdir. Al-Farg'oniy ilmiy salohiyatining mahsuli bo'lgan «Astronomiya asoslari haqida kitob», «Asturlub yasash haqida kitob», «al-Farg'oniy jadvallari», «Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola», «Yetti iqlimni hisoblash haqida», «Al-Xorazmiy», «Zij»ning nazariy qarashlarini asoslash nomli kitoblari haqli ravishda jahon fani xazinasining noyob durdonalari sanaladi. Al-Farg'oniyning fanidagi ulkan shuhrati, Sharq G'arbda ham birdek ulug'lanib kelinadi. U g'arb olimlari orasida «Alfraganus» nomi bilan mashhur.

Mustaqil O'zbekiston zaminida bu alloma nomini e'zozlab, 1998 yilda bu zoti sharif tavalludining 1200 yilligini shodiyona sifatida nishonlaganimiz tarixiy haqiqatning tiklanganligi bo'ldi. «Ahmad al-Farg'oniy,-deb ta'kidlagandi I.A.Karimov alloma yubileyi tantanalarida so'zlagan nutqida,-kishilik tarixidagi ilk uyg'onish davrining eng zabardast va yorqin namoyondalaridan biri o'z zamonasi fundamental fani asoschilaridan edi.

Uning merosi insoniyatning yangi ilm cho'qqilariga ko'tarilishiga sababchi bo'ldi butun ma'rifiy dunyo olimlari uchun dasturulamal bo'lib xizmat qildi».

Jahon fani ravnaqiga benazir hissa qo'shgan uyg'onish fani davri daholari orasida buyuk yurtdoshimiz Abu Nasr Farobiy (873-950) siymosi yorug' yulduzdek fan osmonida charaqlab turadi. O'zining qomusiy bilimlari, ayniqsa, falsafa sohasidagi betimsol xizmatlari bilan «Muallim us-soniy» («Ikkinchi Muallim») Aristoteldan keyin, «Sharq Arastusi» nomi bilan mashhurdir.

Ilmu urfonga oshuftalik, insoniyat baxtu saodati yo'liga o'zini baxshida etishlik Farobiy o'z tug'ilgan uyu yurti-Farob (O'tror)ni o'smirlik chog'idanoq tark etib, o'sha davrning eng mashhur ilm maskanlari hisoblangan Eron va Arabiston shaharlariga borib bir umr ilm-fan bilan mashg'ul bo'lishga undaydi. U tabiiy va ijtimoiy fanlarga oid 160 dan ziyod asarlar yaratgan. O'rta asrlar davri sharoitida vatanimiz sharafini o'zining beqiyos dunyoviy asarlarida ulug'lagan, astronomiya, fizika, matematika, geologiya, geodeziya, geografiya, mineralogiya, tarix singari fanlar yo'nalishida mislsiz kashfiyotlar qilgan qomusiy bilim sohiblaridan yana biri Abu Rayxon Beruniy (973-1048)dir. Asli Xorazm yurtida bo'lgan allomaning butun hayoti to'laqonli ilm-fanga bag'ishlangan. Uning qalamiga mansub yuzlab noyob asarlar ichida bizning davrimizgacha saqlanib o'z bebaho ahamiyatini yo'qotmay, bugungi avlod kishilari uchun o'rganish

manbai bo'lib, kelayotganlari ham talaygina. Bular jumlasiga «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Xorazmning mashhur kishilari», «Hindiston», «Ma'sud qonuni», «Mineralogiya», «Saydona», «Astrologiyaga kirish», «Astronomiya kaliti», «Jonni davolovchi quyosh kitobi», «Foydali savollar va to'g'ri javoblar», «Ibn Sino bilan yozishmalar» singari tarixiy kitoblarni kiritish mumkin. Beruniy asarlari asrlardan buyon Sharq G'arbda keng tarqalgan bo'lib ular yuksak qadr topgan. «Hindiston» asari to'g'risida so'z yuritgan olim V.R.Rozin «Sharq va G'arbnig qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'q» deb baho beradi. Beruniyning «Mineralogiya» asari ham o'z zamonasi uchun O'rta Osiyo Yaqin Sharq, hatto Yevropada ham mineralogiya sohasidagi tengi yo'q asar sifatida e'tirof topgan. Alloma merosi uning bugungi mustaqil yurtida minnatdor avlodlari nihohida, doimiy e'tiborida, e'zozidadir.

Abu Rayxon Beruniyning zamondoshi va safdoshi Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ham o'z davrining yetuk allomasi fan fidoyisi sifatida mashhurdir. Buxoro sharifning Afshona qishlog'ida tug'ilib voyaga yetgan ibn Sino 18 yoshlik chog'idoq el orasida yetuk tabib, olim sifatida tan olingan, uning dovrug'i Somoniylar saroyida ham ma'lum va mashhur bo'lgan. Taqdir hukmi uni qayerlarda yashashga umr guzaronlik qilishga maxkum etmasin, u dunyoviy ilmlarni o'rganishdan, ularni chuqur tadqiq etishdan charchamadi. Ibn Sino asarlari umumiy sonining 450 dan oshishi ham bunga guvohtir. Biroq bulardan 160 ga yaqini bizgacha yetib kelgan, xolos. Alloma nomini dunyoga tanitgan narsa, bu uning tibbiyot sohasidagi mislsiz kashfiyotidir. Ibn Sinoning arab tilida yaratgan 5 jildli «Tib qonunlari» asari tibbiyotga oid benazir dasturul amaldir. Besh mustaqil kitobdan iborat bu majmuani ko'zdan kechirar ekanmiz, allomaning yuksak tabiblik salohiyatiga, kasalliklarni aniqlash, ularni davolash borasida maxoratiga, bilimdonligiga tan beramiz. Jumladan «Tip qonunlari» ning ikkinchi kitobida 800 ga yaqin dorining xususiyatlari bayon etilganligi buning ayni isbotidir.

Olimning tibbiyotga doir 22 jildan tashkil topgan «Kitob ush-shifo» («shfo kitobi») asari ham mavjud. Abu Ali Ibn Sino faoliyatining ko'p qirraligi yana shundaki u ilm fanning boshqa sohalarida ham barakali ijod qilgan. Uning "Donishnoma", «Insof kitobi», «Najot kitobi», «Tayr qissasi», «Salomon va ipsol», «Xayy ibn yaqzon» kabi falsafiy asarlari, 10 jildli «Arab tili kitobi» buning yorqin ifodasidir.

Tarix ilmida benazir bo'lgan Muhammad Narshahiy (899-959) o'zining «Buxoro tarixi» («Tarixi Narshahiy») asari orqali o'z davrining katta, ko'lamli masalalarini o'rta ko'yib, ularni xaqqoniy tarzda yoritib berdi. Kitobda arablarning O'rta Osiyoni zabt etib kirib kelishi mashhur Muqanna qo'zg'oloni, shuningdek Somoniylar davridagi davlat boshqaruvi tizimi pul munosabatlari, soliq tizimi, Buxoroning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga oid ko'plab qiziqarli ma'lumotlar aks etgan. Buxoro vohasida sug'orish tarmoqlari to'g'risida, shaharsozlik, obodonchilik ishlari haqida noyob materiallar berilganligi «Buxoro tarixi»ning qimmatli manba ekanligidan dalolat beradi.

O'z zamonasi olimlari orasida peshqadam sanalgan tilshunoslik, qonunshunoslik, hadisshunoslik, mantiq kabi kabi sohalarida nodir asarlar yaratgan. Kaffol ash-Shoshiy (903-976) ijodi ham ko'p qirralidir. Allomaning «Odob al-qozi» («Qozining fe'l-atvori»), «Odob al-bahs», («Bahs odobi»), «Xusni jadal», («Dialektika go'zalligi») kabi asarlari unga katta shuhrat keltirgan. U she'riyat sohasida ham o'z uslubi va yo'liga ega yetuk ijodkor bo'lgan.

Ko'hna Xorazm diyorida chiqib, o'zining betakror ilmiy ijodiyoti bilan O'rta Osiyo Uyg'onish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsata olgan nuqtadon olim Mahmud az-Zamahshariy (1075-1144) nomi ham fan osmonidagi yorqin yulduzlardan biridir. Buyuk mutafakkir arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, jug'rofiya, tavsir, hadis va fiqh (qonunshunoslik)ka oid 50 dan ziyod noyob asarlar muallifidir. Uning «Al Mufasssal», «Muqaddimat ul-adab», «Asos al-balag'a», («Notiqlik asoslari»), «Xutbalar va va'zlar bayonida oltin shodalar», «Ezguliklar bahori va yaxshilar bayoni», «Aruzda o'lchov (mezon)», «Nihoyasiga yetgan masalalar», «Nozik iboralar», «Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini osish» kabi asarlari butun Sharq va Arab dunyosida e'tirof topgan.

Ismoil Jurjoniyy, Mahmud Chag'miniy, Burxoniddin al-Marg'inoniy kabi allomalarimiz yaratgan ilmiy-ma'naviy meros ham vatanimiz shuhratini olamga taratdi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo hududida yuz bergan uyg'onish davrida ko'plab favqulodda iste'dod sohiblari yetishib chiqdiki, ular jahon fanining turli yo'nalishlarida betakror kashfiyotlar, chinakam mo'jizalar yaratdilar. Bu bilan ular Vatanimiz shonu-sharafini yuksaklarga ko'tardilar. Hamda kelgusi minnatdor avlodlar uchun bitmas tunganmas boy meros qoldirdilar. Shu boisdan ham ulug' ajdodlarimizning ruhi munavvar siy mosi hamisha har birimizning jismu-jonimizda, mehrimizda namoyon bo'lib turadi.

IX-XII asrlar davri nafaqat dunyoviy fanlarning yuksalib borishi bilan, shu bilan birga islomiy madaniyat va ma'naviyatining shakllanib, chuqur ildiz otib borishi, bu sohada talay yetuk olim ulomlarining yetishib chiqib, Vatanimiz nomi va sha'nini olam aro ulug'langanligi bilan ham tavsiflanadi.

Gap shundaki arablar istilosi va hukmronligi O'rta Osiyo xalqlari uchun avvalda qanchalik haloqatli oqibatlar, mislsiz vayronagarchiliklar olib kelgan bo'lsa-da, biroq shu bilan birga bu yurtga islom dini ham kirib keldi. Yerli aholining asta-sekin islom diniga kirishi, odamzod ahli uchun yakka-yu yagona Ollohni tanishi, unga, uning rasuli (elchisi) janobu Muhammad Alayxu Vassalomga e'tiqod bog'lashi, itoat etishi, muqaddas kitob-«Quroni Karim»ni qabul qilishi, uning ilohiy so'zlari, oyatlariga, tamoyillariga amal qilishi, bular pirovardida islom madaniyatining diyorimizda shakllanishiga asos bo'ldi. O'sha davrda Yevroosiyo, Afrikaning katta hududlariga yoyilgan islom va uning ta'limoti tufayli O'rta Osiyo xalqlari o'zlarining tor, biqiq holatidan chiqib, keng musulmon dunyosi bilan tutashdilar. O'lka aholisi arab fani, madaniyati, ma'naviyati bilan yaqindan tanishish, ulardan bahramand bo'lish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Bu hol, shubhasiz, o'lkaning jahonga yuz tutishiga imkoniyat yaratdi. Buning orqasida mahalliy xalq orasidan juda ko'p ilm-fanga ishtiyoqmand yoshlarning arab va ajam mamalakatlariga borib diniy va dunyoviy bilimlarni egallashi, zamonaning har tomonlama yetuk, bilimdon, ma'rifatli olim-ulamolari bo'lib yetishishlariga keng yo'llar ochildi. Xuddi mana shunday keng ufqlar, imkoniyatlar kashf etilgani bois ham ulug' ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Ahmad Al Farg'oniy, Muhammad Muso Al-Xorazmiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn-Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Mahmud az-Zamahshariy singari allomalar jahon kezib, mashaqqatlar ila ilm o'rganganlar, yetuk komil insonlar bo'lib sharaf topganlar.

Shu bilan birgalikda o'lkaga islomning kirib kelishi va u bilan bog'liq xolda yakka xudolik g'oyasining g'alaba qozonishi, yagona Olloh nomini e'tirof etilishi o'z navbatida mahalliy xalqlar, elatlar birligi, ahilligi va jipsligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek yuksak insonparvarlik, do'stlik, birodarlik, o'zaro mehr oqibatlik, muruvvatlik, ma'naviy poklik, rostgo'ylik, bir-birini qo'llab-quvvatlash tuyg'ulari bilan sug'orilgan «Quroni Karim» oyatlari, g'oyalari ruhi yurt odamlarining ma'naviy kamolotiga katta ijobiy ta'sir o'tkazdi.

Yurtimizda islomiy madaniyatning qaror topib, ildiz otib borishi barobarida uning ulug'vor g'oyalari, asl maqsadlarini keng tashviq, targ'ib qilish, ayniqsa, hadis ilmini asosli tadqiq etish kuchayib bordiki, bu borda zamonamizdan chiqqan bir qator buyuk muhaddis olimlarning xizmati katta bo'ldi. Hazrati payg'ambarimiz Muhammad Alayxu Vassalom nomi va u zoti sharifning muborak so'zlari bilan bog'liq «Quroni Karim» oyatlari mazmuni moxiyatini teran tushinish va anglab yetishga muhim kalit bo'lib xizmat qiladigan hadisshunoslik ilmi IX-asrda jiddiy rivoj topdi. Bugun musulmon olamida eng ishonchli manbalar tan olingan 6 ta ishonchli hadislar to'plami (as-saxih as-sitta) xuddi shu davrda yaratildi. Ular orasida «Hadis ilmida amir al-mo'miniy» degan sharaffi nomga sazovor bo'lgan Imom Ismoil al-Buxoriy (810-870) nomi yorqin ko'zga tashlanib turadi. Yuksak aql zakovat sohibi Al Buxoriy Sharqning yirik ilmiy va ma'rifiy markazlaridan biri-Buxoro sharifida tug'ilib juda erta yoshligidan diniy bilimlarni chuqur egallaydi. 16 yoshlik davridan boshlab u musulmon dunyosining ko'plab shaharlarini kezib, hadis ilmining siri asrorlarini bilish, ularni to'plash va

tadqiq qilish uchun tinimsiz sa'y harakatlarda bo'ladi. Bu xaqda uning o'zi: «Misr, Shom, Mesopatamiyaga ikki martadan, Basriyaga to'rt marta borganman. Xijozda 6 yil yashaganman, Bag'dod va Kufa shaharlariga necha bor borganim hisobini bilmayman», degan ekan.

Imom Buxoriy o'z safarlari davomida turli shaharlardagi 90 yaqin ustozlardan ta'lim olgan. Ayni chog'da uning o'zi ham sanoqsiz shogirdlarga ustozlik qilgan. Imom Buxoriy shogirdlari orasida Isxoq ibn-Muhammad ar-Ramodiy, Muhammad al-Masnadiy, Xalaf ibn Qutayba, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marg'oziy, Imom Ahmad ibn Xambal singari zukko olimlar nomi alohida ajralib turadi.

Imom Buxoriy go'zal insoniylik sifatlariga ega bo'lishi bilan birga uning Quvai hofizasi, xotirasi nihoyatda o'tkir bo'lgan. Manbalarda uning 600 mingga yaqin hadisni yod bilganligi qayd etilgan.

Al Buxoriy keyingi nasllar uchun o'zidan katta, boy ilmiy meros qoldirgan. Uning qalamiga mansub noyob asarlar ruyxati 20 dan oshadi. Bu asarlar orasida "Al-Jome' as-Sahix" asari («Sahix Al Buxoriy» nomi bilan ham yuritiladi). O'zining mukammalligi, ahamiyatining benihoyaligi bilan ajralib turadi. Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarining soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275ta, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat. Eng muhimi shundaki, bu sharafli ishni birinchi bo'lib al-Buxoriy boshlab bergan bo'lsa, keyinchalik boshqa olimlar unga ergashib, hadislar to'plamini yaratganlar.

Allomaning «Al-jome' as-sahih» asari asrlar davomida butun musulmon dunyosida yuksak qadrlanib, necha bor nashr etilib, yer yuzi musulmonlari uchun dasturilamal qo'llanma bo'lib kelmoqda. Uning 1325 yilda ko'chirilgan 8 jilddan iborat mukammal nusxasi hozirda Istanbul (Turkiya)da saqlanmoqda. Uning asarida ifodalangan mehr-muhabbat, sahiylik, ochiq ko'ngillik, kattalarga hurmat, yetim yesirlarga muruvvat, beva-bechoralarga himmat, Vatanga muhabbat, halollik, pokizalikka da'vat etuvchi yuksak insoniy fazilatlar, olijanob tuyg'ular, hamisha insonlarga ma'naviy kuch-qudrat bag'ishlab kelgan.

Mustaqillik yillarida ulug' bobomizning boy ilmiy merosi xalqimizga yangidan to'la nasb eta boshladi. Uning asarlari shu jumladan, «Al-jome' as sahih» asari (4 jildda) ona tilimizda ilk bor nashr etildi. 1998 yil oktabrida esa alloma tavalludining 1225 yilligi keng nishonlandi. Al-Buxoriy hoki-poyi dafn etilgan Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'ida esa unga bag'ishlab yodgorlik majmua barpo etildi. Imom Buxoriy yubileyi marosimidagi nutqida Prezidentimiz I.A.Karimov alloma siyimosini ta'riflab shunday degandi: «Buyuk vatandoshimiz bashariyatga tengsiz ma'naviy meros qoldirib ketdi. Bu merosning gulto'ji-eng ishonchli hadislar to'plami-«Al-Jome' as-sahih» islom dinida Quroni Karimdan keyin e'zozlanadigan ikkinchi manbadir. Butun dunyo musulmonlarining e'tiqodiga ko'ra, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug'idir.

Mana, o'n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini imon nuri bilan munavvar etib, xaq va ezgulik yo'liga chorlab kelmoqda». Imom al-Buxoriyning zamondoshi va shogirdi, o'z davrining mashhur allomasi-Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824-892) ham hadisshunoslik ilmini yuksak bosqichga ko'targan yorqin siymolardandir. O'rta asrlar davrining yirik madaniy markazlaridan sanalgan Termiz shahri atrofida (Bug' qishlog'ida-Hozirgi Sherobod tumani) tavallud topgan bo'lg'usi alloma o'z ona yurtida daslabki ma'lumotni olganidan so'ng O'rta Osiyoning Urganch, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarida bilimni takomillashtiradi. Bundan ham yetarli qanoat hosil qilmagan, hamisha ilmga chanoq at-Termiziy Sharq mamlakatlariga sayohatga chiqadi. Shu tariqa, u uzoq yillar Iroqda, Isfahon, Xuroson, Makka, Madina singari shaharlarda yashab, ilm-fanning turli sohalaridan-ilm al-Qiroat, ilm al-Bayon, Fikh, tarix va ayniqsa, hadis ilmidan o'sha zamonning yirik ustozlari buzruklaridan ta'lim oladi. Ayni aytda at-Termiziyning o'zi ham yuzlab shogirdlarga mehribon ustoz bo'lib, ularning hadis ilmining bilimdonlari sifatida shuhrat topishlariga katta homiylik ko'rsatgan.

At-Termiziydan bizgacha katta ilmiy meros yetib kelgan. Uning asosiy asarlari sirasiga «Al-Jomi'» («Jamlovchi»), «Al-ilal fi-l-xadiys» («Hadislardagi og'ishmalar»), «Risola fi-l-xilof va-l-jadal» («Hadislardagi ixtilof va baxslar haqida risola»), «At-tarix» («Tarix») qabilarni nisbat berish mumkin.

At-Termiziyning sara asarlaridan «Al-jami'» asari hadis ilmi bobida 6 ta ishonchli to'plamlardan biri sifatida nihoyatda noyob asar hisoblanadi. Uning yana bir mashhur asari «Ash-shamoil an-nabaviya» («Payg'ambarning alohida fazilatlarini») bo'lib, bu asar payg'ambarimiz Muhammad Alayhu vassalomning shaxsiy hayotlari, u zotning suvrat va siyratlari, ajoyib fazilatlarini, odatlariga oid 408 ta hadisni sharifini o'z ichiga qamragan. Mazkur asar mustaqilligimiz sharofati bilan 1991 yilda «Shamoiliy Muhammadiyya» nomi bilan Toshkentda o'zbek tilida birinchi bor ko'p nusxada chop etildi.

Shunday qilib, hur, ozod yurtimiz kishilari Abu Iso at-Termiziy singari buyuk o'tmishdoshlarimiz siyimosini o'zlariga yangidan kashf qilib, ularning bebaho merosi duru-javohirlaridan tobora to'laroq bahramand bo'lib bormoqdalar.

Temuriylar ma'naviy madaniyati to'g'risida gap borganda dastavval ona yurtimiz Uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi bo'lgan bu oltin asrda ilm-fanning nechog'lik ravnaq topganligi hamda uning jahon ilmu-urfoniga, taraqqiyotiga qo'shgan bebaho hissasi haqida har qancha g'ururlansak arziydi.

Ulug'bek o'z davrining taniqli tarixchisi va adibi Davlatshoh Samarqandiyning mana bu so'zlari ham xarakterlidir: «Olim, odil, g'olib va himmatli podshoh Ulug'bek Ko'ragon.. yulduzlar ilmidan osmon qadar yuksalib bordi. Ma'oni ilmidan qilni qirq yordi. Uning davrida olimu-fozillar martabasi nihoyat cho'qqisiga ko'tarildi...».

Ulug'bek ilmiy maktabining eng katta yutug'i avvalo, astronomiya va matematika sohasida yaratilgan muhim kashfiyotlardir. Masalan, Ulug'bek qalamiga mansub «Ziji jadidi-Ko'ragoniy» asari o'zining beqiyos to'g'ri ilmiy yechimlari, xulosalari bilan hozirga qadar ham olimlar e'tiborini qozonib kelmoqda. Asarda 1018 yulduzning o'rni va holatini aniqlab bergan. Shuningdek, bu ilmiy maktab olimlarining 3 darajali algebrik tenglamalarini yechib, bir darajali yoyning sinusini aniqlash borasidagi tadqiqotlari ham matematik tafakkurning katta yutug'idir. Ulug'bek davrining fan peshvolaridan Qozizoda Rumiyning «Risola fil-hisob» («Hisobga doir risola», «Sharhi mulaxxas», «Fil-xay'at» (Astronomiya asoslariga sharh) «Risolagul jayb» («Sinus haqida risola»); G'iyosiddin Jamshidning qomusiy mazmunga molik 5 kitobdan iborat yirik matematik asari-«Miftoxil hisob» («Hisob ilmi kaliti»), Ali Qushchining «Risola dar ilmi hisob», «Risola darxandasi», «Risola dar falakiyot», «Risolai mantiq» singari asarlari o'z davri ilmiy tafakkurining bebaho yutug'i bo'lib qolmay ular ayni chog'da ilm fanning keyingi rivojiga ham samarali ta'sir ko'rsatdi. Bu davrning yana bir muhim bir yutug'i-bu ijtimoiy fanlar xususida tarixshunoslik sohasida ham katta tadqiqotlarning yaratilganligidir. Bu xayrli ishning kushoyish topishida ham Temuriy hukmdorlar tashabbusi va rahnamoligi beqiyos bo'lgan. Jumladan Amir Temurning «Tuzuklari», Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi», Bobur Mirzoning «Boburnoma»si ijtimoiy fanlar rivojiga ayri-ayri ta'sir ko'rsatganligi shubhasizdir. Temuriylar davrida salmoqli iz qoldirgan alloma olimlardan Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Yazdiyning «Zafarnoma», Hofizu Abruning «Zubdat at-tavorix», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla ul-sa'dain va majma' ul bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqishi o'rni va ikki azim daryoning quyilishi joyi»), Ibn Arabshohning «Amir Temur tarixi», Mirxondning yetti jildli «Ravzat ul-safo» («Poklik bog'i»), Xondamirning «Makorimur Axloq» («yaxshi fazilatlar»), «Habib us-siyar fi-axbor-afrod ul-bashar» («Harbarlar va bashariyat odamlaridan dilga yaqin siyratlari») asarlari o'sha zamon tarixshunoslik ilmining yuksak darajasini o'zida ifoda etadi. Ularning har birida nafaqat u yoki bu hukmdorlarning davlat siyosati yohud harbiy yurishlari yohud shaxsiyatlariga oid ma'lumotlar aks etib qolmay, balki shu bilan birga tilga olinayotgan davrning barcha murakkab, ziddiyatli jarayonlari, tarixiy voqealar, hodisalar silsilasi ham ishonarli tarzda yoritilganligiga amin bo'lamiz.

Temuriylar davrida hattotlik, tasviriy san'at va musiqa madaniyati rivoj topdi. Bu sohada Mirali Tabriziy, Shayx Muhammad, Junayd Naqqosh, Temuriylar davri xattotligi va naqqoshligi maktabi atqoli vakillari Sulton Ali Mashhadiy, Abdu Jamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy, Mir Ali Qil Qalam, Sulton Muhammad Nur va boshqalarning ijodi benazirdir. Masalan, Nastaliq xatining mislsiz ustozlari, «Qiblat ul-Kuttab» («Kotiblar peshvosi») unvoni sohibi bo'lgan, Sulton Ali Mashhadiy, Alisher Navoiy va Xusayn Boyqaroning

ko'plab bebaho qo'lyozmalarini kitob xoliga keltirishda katta zahmat chekkan. Bundan tashqari, Nizomiy, Farididdin, Attor, Xo'ja Xofuz, Sa'diy, Sheroziy, Xusrav Dehnaviy, Abdurahmon Jomiy singari mumtoz adabiyotimiz daholarning ko'plab asarlari ham uning betinim say'i harakatlari bilan ko'chirilib, avlodlarga armug'on etilgan.

Musavvirlik san'atining tengi yo'q yulduzi Kamoliddin Behzod (1455-1537) ijodi ham Temuriylar san'atining yuqori cho'qqisi hisoblanadi. Uning mo'yqalamiga oid hadsiz, hisobsiz rangin tasvirlar, chunonchi Yazdiyning «Zafarnoma», Jomiyning «Salomon va ipsol», Sa'diyning «Bo'ston» va «Guliston», Nizomiyning «Xamsa» asarlariga ishlangan miniatyura namunalarini yohud Hirottdagi «Bog'i Behisht», «Ov qilayotgan Bahrom Go'r», «Tuyalar jangi» tasvirlari va shunga o'xshash rassomlik asarlari bu tug'ma ijodkor iste'dodining yuksak mahoratidan shahodat beradi.

Temuriylar davri madaniy hayotida musiqa sanati ham shabhasiz, alohida o'rin tutgan. Alisher Navoiy «Mezonul-avzon» asarida xalq qo'shiqchiligining sakkiz turi rivojlanganligini qayd etadi. Bular-tuyuq, changchi, turkiy, orzuviy muhabbatnoma, mustahzod va shu qabilar. Amir Temur davrida san'at va musiqa olamida mashhur bo'lgan siymolardan biri Abduqodir Go'yanda (1334-1435) bo'lib, uning hayotining ko'p qismi Samarqandda kechgan. Temuriylar davri musiqa san'atida Hirot ijodiy muhitining o'rnini katta bo'lgan. Hirot musiqashunoslari o'z ijodlarida Navoiyning she'r va g'azallaridan keng foydalanganlar.

Shunday qilib Amir Temur va Temuriylar davri Vatanimiz xalqlarining hayotiy taqdirida, ularning ijtimoiy taraqqiyotning yuksak marralariga ko'tarilib borishlari davomida o'chmas iz qoldirgan alohida bir tarixiy bosqich bo'ldi. Eng muhimi, bu davr Amir Temurdek buyuk siymoni tarix maydoniga chiqardiki, bu zoti sharif va uning avlodlarining mislsiz sa'y-harakatlari, bunyodkorlik faoliyatlari tufayli Movarounnahr va Xuroson o'lkalari ulkan o'zgarishlarga yuz tutdi. Mug'ullarning bir yarim asrlik bosqini va zulm-asoratidan butunlay xalos bo'lgan ona yurtimiz qudratli salatanatga aylanibgina qolmay, ayni chog'da ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy ma'naviy jihatlardan yuksalib, jahonga dovrug' taratdi. Ulug' ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksak namunalarini, duru-javohirlari mana necha asrlardirki, jahon ahlini hayratga solib, minnatdor avlodlar ardog'ida e'zozlanib kelmoqda.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin.-T.:O'zbekiston, 1994 y.
2. Karimov I.A. Istiqlo'l va ma'naviyat.-T.: O'zbekiston, 1994 y.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.:Sharq, 1998 y.
4. Bahodirov R. Abu Abdulloh al-Xorazmiy va ilmlar tasnifi tarixidan.-T.: O'zbekiston, 1995 y.
5. Jalilov S. Imom al-Buxoriy haqida suhbatlar. Fan va turmush.-1998.-№5.
6. Imom Ismoil al-Buxoriy. Hadislar.-T.: Sharq,1992 y.
7. Irisov A. Hakim ibn Sino.-T.: 1990 y.
8. Ma'naviyat yulduzlari. Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar.-T.: 1999 y.
9. Rustamov A. Mahmud Zamahshariy.-T.: Fan, 1979 y.
10. Saitov YE., Saidov A. Ahmad al-Farg'oniy buyuk matematik. Fan va Turmush.-1998.-№5.
11. Sulaymonova F. Sharq va G'arb.-T.: 1997 y.
12. Xayrullayev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati.-T.: Fan, 1994y.
13. Qodirov A. O'rta Osiyoda medisining paydo bo'lishi.-Toshkent: 1990y.

#### 7-MAVZU: AMIR TEMUR DAVLATI. TEMUR TUZUKLARI VA HOZIRGI ZAMON.

**MAQSAD:** Amir Temurning xalqimiz va insoniyat oldidagi xizmatlariga xolisona baho berish, Sohibqironning Turonzaminda markazlashgan davlat tuzish uchun qilgan sa'i-harakatlariga, uning harbiy yurishlariga tarixiylik nuqtai nazaridan yondoshish, talabalarga «Temur tuzuklari»ning milliy davlatchiligimiz an'analarini tiklashdagi nazariy ahamiyatini ochib berish.

#### REJA:

1. Amir Temur davlatining tashkil topishi.
2. Amir Temurning harbiy yurishlari.
3. Davlatni idora etishda «Temur tuzuklari»ning o'rnini va uning mustaqillik davridagi ahamiyati.

Mug'ullar bosqini o'lkamizning moddiy va ma'naviy madaniyati taraqqiyotini bir necha yuz yillar orqaga surib yubordi. Asrlar davomida xalqimizning aql-zakovati bilan bunyod etilgan guzar, shahar va qishloqlar, osmono'par tarixiy qurilish obidalar, binokorlik va me'morchilik san'atining nodir va betakror nusxalar yer bilan yakson qilindi. Ularning kuli ko'kka sovirdi. Ayniqsa, ma'naviy merosimiz ko'rgan zararni til bilan ifoda etish qiyin. Yozma manbaalar, nodir kitoblar yondirildi, oyoq ostlarida toptaldi. Mug'ullar va fan va madaniyat arboblari, olimu fuzalolar, shoir va yozuvchilar xalqimizning ming-minglab ulug' farzandlarni yoppasiga qirib tashladilar. Madaniy hayotga shu qadar katta zarba berildiki, uni XIV asrning yarmilariga qadar ham tiklab bo'lmadi.

XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrning boshlaridan e'tiboran shahar va qishloqlarda xo'jalik hayotining jonlanishi bilan madaniy sohada ham ba'zi-bir tarmoqlarning oyoqqa tura boshlashi ko'zga tashlandi. XIII asr va XIV asrning birinchi yarmida moddiy madaniyat bilan bir qatorda manaviy madaniyatda ham xalq o'z intilishi va qiziqishlarini ifoda etgan.

Ozodlik, hurlikka va erkka tashna ulug' avlod-ajdodlarimiz mug'ullar zulmiga qarshi kurashdilar, ma'rifatga, ziyoga va nurga intildilar, nihoyat bosqinchi galalarni vatanimiz hududidan uloqtirib tashladilar. Jonajon ona tariximizning bu oltin davri ulug' bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temurning faoliyati bilan bog'liqdir.

XIV asr o'rtalarida Chig'atoy ulusi parchalanib, ulusning sharqiy qismi-Sharqiy Turkiston va Yettisuvda turk va mug'ul qabilalarini o'z ichiga olgan Mug'uliston feodal davlati tashkil topadi. 1348 yili Chig'atoy naslidan bo'lgan Tug'luq Temur Mug'uliston xoni qilib ko'tariladi. Mug'uliston amirlarining ulusning g'arbiy qismi-Movarounnahrni ham bosib olishga harakat qiladilar. Bir necha bor Movarounnahr ustiga yurish qilib, uni talab qaytadilar. Mug'ullarning vayronagarchilik yurishlariga qarshi kurash boshlanib ketdi. Mug'ullar istibdodi va zulmga qarshi harakati boshlandi. Mana shunday ichki o'zaro urushlar qizigan, mug'ullar zulmiga qarshi xalq harakatlari boshlagan bir davrda qisqa vaqt ichida jahon imperiyasi vujudga keltirgan Sohibqiron Temur siyosat maydoniga dastlabki qadamlarini qo'yimoqda edi. Amir Temur 1336 yilda Kesh (Shahrisabz) shahri yaqinida joylashgan Xo'jailg'or qishlog'ida dunyoga keladi. Uning otasini Amir Tarag'ay va amakisi Xoji Barloslar qabilasining Bilal va yirik mulkdor amirlaridan edi. Temur yoshlik chog'laridanoq harbiy ishga nihoyatda qiziqardi. U tezda mohir suvoriy va qo'rqmas jangchi sifatida butun Qashqadaryo vohasiga taniladi. Uning atrofida Barlos qabilasidan chiqqan jangchi yoshlar to'plana boshlaydilar. Temur qo'l ostidagi navkarlar bilan ayrim amirlarga xizmat qiladi. Janglarda chiniqadi. 1360-1361 yillarda Chig'atoy xonidan bo'lgan Mug'uliston xoni Tug'luq Temur Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, uni bo'ysundirishga harakat qiladi. U hech qanday qarshiliksiz Qashqadaryo vohasiga bostirib kiradi. O'sha vaqtlarda Qashqadaryo viloyatining hokimi Xoji Barlos dushmanga qarshi kurashish o'rniga Xurosonga qochadi va o'sha yerda o'ldiriladi. Temur amakisining viloyatini qo'ldan bermaslik maqsadida Tug'luq Temur ishonchini qozonib uning xizmatiga o'tadi va Kesh viloyatiga hokim bo'lib tayinlanishga muvaffaq bo'ladi. Mug'uliston xoni Tug'luq Temur o'g'li Ilyosxo'jani Movarounnahrning hokimi qilib yuboradi. Ammo Temur unga xizmat qilishni istamaydi va Balx hokimi Amir Husayn ibn Mussalon

ibn Qozog'on bilan ittifoq tuzadi. Temur Husaynning singlisi O'ljaoy Turkon og'aga uylangach ularning ittifoqi qarindoshlik aloqalari tufayli yanada mustahkamlanadi. Temur avval o'zboshimcha amirlarga qarshi ichki so'ngra Mug'ullarga qarshi tashqi kurash olib boradi. Seyistondagi janglarda qo'l va oyog'idan yarador bo'lib, bir umrga oqsoq bo'lib qoladi. Temur o'smirlik yillaridanoq Qur'onni yod bilgan uni ulamolar intiqom qilishib quvvai xotirasiga tassannolar o'qishgan. Temur 16-18 yoshida qilichbozlik, nayzabozlik va shikor qilish san'atini mohirona egallaydi. 20 yoshida esa abjir chavandoz bo'lib yetishadi. Endi u o'z vaqtini tengqurlari bilan o'tkazishni boshlaydi. Sohibqiron Amir Temur tarixan o'ta murakkab vaziyatda, XIV asrning 60-yillarida siyosat maydoniga chiqadi. Amir Temurning Samarqand taxti uchun kurashish davri 1361-1370 yillarni o'z ichiga oladi. Bu maqsadga erishish yo'lidagi qadamni u o'z xotinining akasi Balx viloyatining hokimi Amir Husayn bilan yaqinlashib Ilyosxo'jaga qarshi kurash boshlaydi. Temur Movarounnahrni mug'ullar zulmidan ozod qilishni va markazlashgan kuchli davlat tuzishni o'z oldiga bosh maqsad qilib qo'ygandi. Shuning uchun u Ilyosxo'ja qo'l ostida bo'lishni istamas edi. Temurning bu yuldagi xatti harakatlari to'g'risida Ilyosxo'ja otasi Tug'luq Temurga xat yozib «Temur bizga qarshi isyon tig'ini ko'tardi» degan. Xon o'z navbatida Temurni o'ldirish to'g'risida yorliq jo'natadi, lekin bu yorliq Temur qo'lga tushib qoladi. Bu hujjatdan xabar topgan Temur mug'ullarga qarshi qat'iy choralar ko'rish uchun jasur va qat'iatli jangchilarni to'plashga qaror qiladi. Temur o'z yigitlari bilan birgalikda Badaxshon tomon chekinib, maslakdoshlar qidirib, so'ng Badaxshondan Xorazm tomon yuradi. Xorazm sari yo'l olgan Temur yo'l-yo'lakay Balxda to'xtab uncha katta bo'lmagan kuch bilan Amir Husaynni o'z yo'lga tortadi.

Amir Temurni Xorazmda paydo bo'lganligidan xabar topgan va uni o'ldirish to'g'risida Ilyosxo'jadan maxsus topshiriq olgan Xiva hokimi To'kal Bahodir mingta otliq jangchilari bilan Temurga hujum qiladi. Bu jangda Temur oz sonli yigitlar bilan To'kal Bahodirning ming kishilik lashkarini tor-mor keltiradi. Jang oqibatida Xorazm askarlaridan 50 kishi Amir Temur kuchlaridan 10 kishi, ya'ni yetti otliq va 3 ta piyoda Xurosonlik qolgan. Bu uchta Xurosonlik ham kunlarning birida tunda payt poylab uchta otni o'g'irlab qochadilar. Temur g'oyat og'ir ahvolga tushadi. Bu holatdan xabar topgan Maxon hokimi Turkkan Alibek Jonibek Qurbon Ilyosxo'jaga yoqish maqsadida Temurni qo'lga oladi va zindonga tashlaydi. Temur zindonda 62 kun yotib katta jasoratlar evaziga ozodlikka chiqadi. Sohibqiron o'zining 12 jangchisi bilan yana cho'l kezishda davom etadi. Shu payt ularga turkmanlar hujum qiladilar. Jang davomida Amir Temurni tanib qolgan turkmanlaridan biri o'z yigitlari bilan Temurga qo'shiladilar. Endi Temur yigitlari 60 kishiga yetadi va ular bilan Temur Xuroson tomon yo'l oladi yo'l-yo'lakay Temurga bir necha jangchilar kelib qo'shiladi. Temur askarlarining soni 200 taga yetadi, Ular Buxoroga yetib borganlarida Temur tarafdorlari 2000 kishidan oshgan edi. Temur Buxorodan Qandahorga kelganida unga yana 1000 kishi kelib qo'shiladi. Ammo hali bu kuchlar bilan Ilyosxo'ja kuchlariga qarshi jang qilib bo'lmastligini Temur yaxshi bilar edi. Chunki uning raqiblari 100 000 qo'shin to'play olish niyatida edilar. Shuning uchun Temur o'z qo'l ostidagi kuchlar yordamida ba'zi bir hududlarni egallab kuch va qudratini oshirishga qaror qiladi. Ana shu maqsadda u Gariser viloyatini egallaydi. Bu yerda ham 1000 ta otliq turk va tojik sipohlar Temur lashkarlari sonini to'ldiradilar. Endi o'zini qudratli his qilgan Temur Siyeston yerlariga hamla qiladi va uni egallaydi. Bu yerdagi shiddatli jangda Temur o'ng qo'li va o'ng oyog'idan qattiq yaranaladi.

Movarounnahrndan haydalgan Ilyosxo'ja 1365 yilda katta qo'shin bilan Sirdaryo tomon yo'lga chiqadi. Husayn bilan Temur zudlik bilan jangga tayyorlanadilar. Ular o'rtasidagi jang o'sha yil may oyining 22 chisida Chinoz bilan Toshkent o'rtasida bo'ladi. Jang paytida qattiq jala yog'ib, loygarchilik bo'lganligidan tarixda u «Jangi loy» nomi bilan mashhur bo'lib qolgan. Jangda Temur bilan Husayn kelishib harakat qilmaganliklari oqibatida ularning birlashgan qo'shini mag'lubiyatga uchraydi. Chunki jangda Temur qo'shini dushmanning o'ng qanotini chekinishga majbur qilib zafar topayotgan bir paytda Husayn o'z askarlari bilan chap qanotdan yengilib jang maydonini tark etadi. Yakkalanib qolgan Temur esa chekinishga majbur bo'ladi. Loy jangidagi mag'lubiyat dushmanga Movarounnahrda xususan uning markaziga yo'l ochib beradi. Mug'ullar Movarounnahrning markaziy viloyatlarida odatiy talon-tarojni yana davom ettiradilar. Mana shunday og'ir bir siyosiy vaziyatda hokimiyatsiz qolgan mamalakat aholisi, garchi o'z holiga tashlab qo'yilgan bo'lsa ham Ona yurt mudofaasini o'z qo'llariga olishga va mug'ullar hujumini qaytarishga kirishadi. O'z g'alabalaridan sarmast bo'lgan Ilyosxo'ja boshliq mug'ullar jabrdiyda xalqning qaqshatqich zarbasiga uchraydi. Movarounnahrda qariyb bir yarim asr davom etgan mug'ullar hukmronligi va mahalliy feodallarga qarshi ko'tarilgan bu harakat tarixda «Sarbadorlar» harakati nomi bilan shuhrat topadi.

Sarbadorlar harakati dastavval 1337 yil erta bahorida Xurosonda boshlanadi. Sarbadorlar maqsadga erishish uchun ozodlik yo'lida dorga osilishga ham tayyormiz degan shior ostida mug'ul bosqinchilari va mahalliy mulkdorlar zulmiga qarshi kurash olib boradilar. Xurosonning g'arbiy qismida Mug'ullar hukmronligini tor-mor qilib mustaqil Sarbadorlar davlati barpo etadilar. Bu davlatning markazi Sabzavor shahrida bo'lib, u 1337 yildan-1381 yilgacha qariyb 45 yil hukm suradi. Sarbadorlar asosan dehqonlar, hunarmandlar, shayxlar, qullardan iborat bo'lib, ular ichida ikki oqim-mo'tadil o'ng qanot va mulkiy hamda ijtimoiy tarafdorlari bo'lmish so'l oqim mavjud edi. Sarbadorlar harakati XIV asrning 60 yillarida Movarounnahrda mug'ul xonlarining hujumi tufayli kuchayib ketadi. Samarqand bunday harakatning markaziga aylanadi. Ilyosxo'ja dastavval Samarqandni, so'ng butun Movarounnahrni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Shu tariqa Samarqandda Sarbadorlar hokimiyati o'rnatiladi. Ular butun qish davomida Samarqandni idora qiladilar. Sarbadorlarning Ilyosxo'ja ustidan qilgan g'alabasi haqidagi xabar Temur va Husaynning qulog'iga yetadi. Temur qishni Qarshida, Husayn esa Amurdaryo buyida o'tkazib 1366 yilning bahorida ular Sarbadorlar qo'zg'olonini bostirish uchun Samarqandga yul oladilar. Har ikkala Amir Sarbadorlarning dushman ustidan qozongan g'alabalaridan mamnun bo'lganliklarini va ular bilan uchrashmoqchi ekanliklarini bildiradilar. Sarbadorlar amirlar yaxshi niyatda ekanliklarini ishonadilar, ularga izzat hurmat ko'rsatadilar. Biroq ular ertasi kuni Temur bilan Husayn qarorgohiga borganlarida ular qatl etiladi. Shu tariqa Sarbadorlar boshliqsiz qoldirilib, harakat bostiriladi. Movarounnahrda Amir Husayn hukmronlik qiladi. Ammo ko'p o'tmay Husayn bilan Temur o'rtasidagi munosabat yomonlashib ochiqdan ochiq nizoga aylanadi. Temur esa Kesh va Qarshi viloyatlarining hukmdori bo'lib qoladi va o'zining sobiq ittifoqdoshi hamda qaynog'asi Amir Husaynga qarshi pinxona harakat qila boshlaydi.

XIV asrning 60 yillarida Movarounnahrda siyosiy va iqtisodiy vaziyat nihoyatda og'irlashib ketadi. Feodal tarqoqlikning kuchayishi, ichki feodal urushlarning uzluksiz davom etishi va tashqi dushmanlarning hujumlar avj olishidan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari tanazulga uchrab, aholi og'ir tanglikni boshidan kechirmokda edi. Bundan savdogarlar, hunarmandlar va dehqonlar g'oyatda norozi edilar. Aholining bunday tabaqalari orasida mavjud og'ir ahvoldan qutilish, mamlakatni birlashtirish uchun kuchli bir davlat tashkil etish harakati kuchaydi. Husayndan ko'ra Temur o'z zamonining bunday talabini yaxshi tushunardi. Sohibqiron Amir Temur Movarounnahrni yagona hukmdori bo'lgach, buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Amir Temurning buyuk saltanat barpo qilish bobidagi sa'yi harakatini shartli ravishda ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr: 1370-1388 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda Amir Temur asosan turkiy xalqlardan tashkil topgan Chig'atoy mulkini markazlashgan qudratli davlatga birlashtirish uchun kurashadi.

Ikkinchi davr: 1388-1405 yillardir. Bu davrda Amir Temur o'z davlati hududini kengaytirish va buyuk saltanat barpo qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Sohibqiron qaysi bir mamlakatga lashkar tortib bormasin, u adolatni himoya qilgan, insof va diyonat uchun jangga kirgan. Temur zamonasining buyuk imperiyasini barpo qilgan bo'lsada, ammo u umrining oxirigacha o'zini bu davlatning «qonuniy xoni» deb e'lon qila olmadi. Chunki u nasl-nasabi jihatidan Chingiziylar sulolasiga mansub emas edi. Shuning uchun ham Amir Qozonxon tomonidan belgilangan an'anaga ko'ra, Temur avval o'z huzurida Movarounnahrning Chingizxon avlodidan bo'lgan 30-xoni Suyurg'otmishni, uning vafotidan keyin esa Suyurg'otmishning o'g'li Sulton Mahmudjonni rasmiy xon qilib ko'tarib, hatto umrining oxirigacha ularning nomidan yorliqlar chiqartiradi, pullar zarb ettiradi. Ammo har ikki xon ham nomigagina xon bo'lib davlatning siyosiy hayotiga va Temur bergan farmoyishlarga aralashmasdilar. Shunga qaramasdan, Temur mamlakatda o'zining bevosita hukmronligiga qonuniy tus berish va uni mustahkamlash maqsadida o'zining oldingi raqibi Amir Husaynning tul xotini Saroy

Mulkxonimga uylanadi. Saroy Mulkxonim Movarounnahrning Chig'atoy xonadonidan chiqqan so'nggi xoni Chingiziylar avlodi Qozonxonning qizi edi. 1370 yilda Saroy Mulkxonim bilan bo'lgan nikoh tufayli Temur o'zining darajasiga «Ko'ragon» ya'ni «Xonning kuyovi» unvonini qo'shib oladi va rasmiy hujjatlarda «Amir Temur Ko'ragoni» nomi bilan yuritishga musharraf bo'ladi. Temur ichki va tashqi siyosatida asosan harbiy qo'shinga tayanar edi. Temur qo'shini 10 talik askariy birikmalari asosida tuzilgan lashkarlardan iborat edi. Temur askar va amirliklarga alohida e'tibor beradi. Har bir zobit jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz sanalgan. Buyuk lashkarboshi va navator harbiy tashkilotchi sifatida Temur o'ta intizomli armiya tuzishga, muhoroaba chog'ida qo'shin qismlarini san'atkorona boshqarishi, jang taqdiri hal bo'ladigan joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bosib o'tishga armiyadagi jangovor ruhni kerakli darajada ushlab turishga muyassar bo'ldi. Sohibqiron Turk-mug'ul xalqlari, xususan Chingizxon lashkari tuzilishini, ularning jang olib borish omillarini atroflicha o'rganib, tahlil qiladi va zarur o'zgartirishlar kiritadi. Temur qo'shining tarkibi Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mug'uliston, Xorazm, Mozandaron, Jata singari yerlardan yig'ilgan askarlaridan tashkil qilar edi.

Dushman mudofaaasini turli usullar yordamida barbod qilish, g'anim tomonining yirik va mustahkam mudofaa inshootlariga ega bo'lgan shaharlarga qo'qqisdan zarba berish, zabt etilgan mamlakatlarning boshliqlarini ayniqsa lashkarboshilarni hibsga olish, qal'a va qo'rg'onlarni uzoq muddat davomida muxosara qilish, yov kuchlarni iloji boricha keng qamrovda qurshab olish, uning qishloq, tuman, shahar, viloyatlarni birin-ketin fath etish, dushmani batamom yakson etgunga qadar ta'qib qilish, fath bo'lgan yurtlarni boshqarish uchun o'zining ishonchli vakillarini tayinlashi singari strategik maqsadlarni ko'zlab ish yuritish Temurga ko'plab zafarlar olib keldi. Tarixiy manbaalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, otliq askarlar Temurning zarbdor qismi hisoblangan, ular og'ir va yengil qurollar bilan qurollangan suvoriy guruhlarga bo'lingan. Yurishga jo'nashdan oldin Temur arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, beklar, amirlarni harbiy kengash-mashvaratga chaqirgan. Ayni chog'da ulusning turli viloyat va tumanlarida, shuningdek tobe yurtlardan qo'shin to'plash uchun maxsus buyruq-to'ngal e'lon qilingan.

Mamlakatda tez-tez sodir bo'ladigan o'zaro ichki urushlarga qaramasdan XV asrda ham Movarounnahr va Xurosonning shahar va qishloqlarida birmuncha obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Mavjud sug'orish tarmoqlarini ta'minlash va kengaytirish hamda yangi ariqlar qazilib, obodonlashtirish ishlariga ma'lum darajada ahamiyat beradi. Dehqonchilik vohalarining suv ta'minoti tartibga solinadi. Dashtlarga suv chiqarilib, yangi yer maydonlari o'zlashtiriladi. Bu borada xususiy sohibkorlarning dasht joylariga yangi yerlarni ochish kanallar qazib bog'lar barpo qilish, qarovsiz qolgan tashlandiq yerlarni sug'orib obod etish uchun amalga oshirilgan har qanday faoliyat temuriylar tomonidan qo'llab-kuvvatlanadi. Hatto bunday sohibkorlar bir ikki yil davomida hamma soliq va to'lovlardan ozod etilgan. Dehqonchilik maydonlarning boshqa kattagina qismi xususiy yerlardan iborat edi. Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyatning ma'lum darajada barqarorligini yirik shaharlar va beklalarda amalga oshirilgan obodonchilik va dehqonchilikni kengayishi shubhasiz mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan, hunarmandchilik, savdo va tovar pul munosabatlarining rivojlanishi uchun keng yul ochib beradi. XV asrda xususan uning oxirgi choragi hamda XVI asr boshlarida hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivoj topib, iste'mol mollarini ishlab chiqarish g'oyat ko'paydi. Ichki chakana savdo va pul munosabatlar kengayib u shahar va uning atrofi aholisini, ayniqsa omilkor tabaqalarni o'z girdobiga ham qamrab oladi.

XV asrda temuriylar davlati Xitoy, Hindiston, Tibet va boshqa qo'shni mamlakatlar bilan savdo aloqalari olib boradi. Shunisi ham borki, XV asrda xususan uning birinchi yarmida mamlakatning iqtisodiy jihatdan ravnaq topishi, ayniqsa hunarmandchilik va ichki savdoning rivojlanishi ma'lum darajada shu davrda o'tkazilgan pul islohoti bilan bog'liq edi. Amir Temur va uning vafotidan keyin Temuriy shahzodalar o'rtasida boshlangan o'zaro kurashlar va harbiy yurishlar mamlakatning ichki hayotiga salbiy ta'sir etsada, biroq Shohruh, Ulug'bek, Abdusaid, Sulton Husayn hukmronlik qilgan davrlarda mamlakatda ma'lum darajada qaror topgan osoyishtalik tufayli ilgirdan davom etib kelayotgan an'analar asosida ilm-fan va madaniyat yanada jonlanadi.

XV asrda Samarqand va Hirotida me'morchilik, naqqoshlik, tasviriy san'at, adabiyot yuksak darajada taraqqiy etadi. Temuriy hukmdorlar orasida ayniqsa Ulug'bek bobosi Temur kabi mamlakatda qurilish ishlariga katta ahamiyat beradi. U hukmdorlik qilgan davrlarda birqancha masjid madrasa, hammom, sardoba va karvonsaroylar quriladi. Mozorot va ziyoratgohlar obod etiladi. Avvalo u Temur davrida qurib bitkazilmagan talaygina binolarni nihoyasiga yetkazadi. Ulug'bek ayniqsa Samarqandni obod qilishga katta e'tibor beradi. Uning davrida Samarqand shahrining Registon maydoni shakllanadi. 210 gumbazli Ko'kaldosh Jome masjidi qad ko'taradi. Bunday imoratlardan faqat Ulug'bek madrasasigina saqlanib qolgan. XV asrning madaniy hayotida istirohat bog'lari tashkil etish san'ati ham diqqatga sazovordir. Samarqand, Buxoro, Marv, Hirot kabi yirik shaharlar atrofida go'zal oromgohlar barpo etiladi.

«Tuzuki Temuriy» (Temur tuzuklari), «Malfizoti Temuriy» (Temuriyning aytganlari) va «Voqeoti Temuriy» (Temurning boshidan kechirganlari) nomlari bilan atalmish bu asarlar e'tiborga molik tarixiy manbaalar jumlasidandir. Bu asarlarning nusxalari, qo'lyozmalari ham, toshbosmalari ham ko'p tarqalgan, «Temur tuzuklari»-podsholarning turish-turmush va ahlok-odob normalarini belgilovchi risoladir. Asar ikki qismdan iborat: birinchi qismda jahon tarixida mashhur Fotih sarkarda va iste'dodli davlat arbobi sifatida nom qoldirgan Amir Temurning 7 yoshidan to vafotigacha (1405 yil 18 fevral) qadar kechgan hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati aniqroq qilib aytganda, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, feodal tarqoqlikka barham berishi va markazlashgan davlat tuzishi, qo'shni yurt va mamlakatlarni, jumladan: Eron va Afg'onistonn o'z tasarrufiga kiritish, Oltin O'rda hukmdori To'xtamishxon (1376-1395), butun Yevropaga qo'rquv va dahshat solgan Turkiya Sultoni Boyazid Yildirim (1389-1402)ga qarshi va nihoyat, Buyuk Jahongirning Ozarbayjon, Gruziya, Hindistonga qilgan harbiy yurishlari ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qismi Jahongirning nomidan aytilgan va uning toji taxt vorislariga atalgan o'ziga xos vasiyat va pand-nasihatlaridan iborat. U davlatni idora qilishda kimlarga tayanish, toju-taxt egalari vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini saylash, sipohiylarni maoshi, mamlakatlarni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliqlarini burch vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju-taxt oldida ko'rsatgan xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar xususida gap boradi. Asarning muallifi ma'lum emas. Butun voqea bir shaxs-Amir Temur nomidan hikoya qilinadi. Aslida shundaymi, yoki Amir Temur aytib turib kotib yozib olganmi, yo bo'lmasa uning aytganlarini kimdir jam qilib kitob tuzganmi, bu haqida qat'iy fikr aytish qiyin. Sharq mamlakatlarida mashhur bu asar chindan ham Amir Temur tarafidan yozilganligi va uning tarjimai holi ekanligi e'tirof qilindi. Chunonchi Somiyning «Qomus ul-A'lam» asarida Amir Temurning «Tuzukot»-unvonli qonunlar majmuasini qalamga olib unda o'zining tarjimai holi ekanligi e'tirof qilinadi. Temur bilan To'xtamishxon o'rtasidagi urushlar tarixini yozgan fransuz sharqshunosi M.Sharmu va rus harbiy tarixchisi M.I.Ivanin (1801-1874 yil) «Tuzuklar»ni Amir Temur o'zi yozgan va u muhim avtobiografik asar deb aytganlar. Biroq yevropalik boshqa bir guruh olimlar «Temur tuzuklari»ni soxta asar, uni Amir Temur yozmagan deydlar. Ingliz olimi CH.A.Storn yuqorida nomi zikr etilgan Mir Abu Al Xusayniy at-Turbatiyni asar muallifi deb taxmin qilgan. Xullas, qanday bo'lmasin asarni Temur yoki boshqa odam yozganligidan qat'iy nazar u soxta emas balki chin asardir. «Temur tuzuklari» Amir Temurning tarixi uning zamonida, aniqrog'i 1342-1405 yillar orasida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli Temur va temuriylar davlati hamda, qo'shining tuzilishi, o'sha yillarda Temur davlatining qo'shni mamlakatlar va xalqlar bilan bo'lgan munosabatlari haqida hikoya qiladi. Davlat asosini 12 toifa:

1. Sayidlar, ulamo, mashoyiq, fozil kishilar;
2. Ishbilarmon, donishmand odamlar;
3. Xudojo'y, tarkidunyo qilgan kishilar;
4. No'yonlar, amirlar, mingboshilar;
5. Sipoh va raiyat;

6. Maxsus ishonchli kishilar;
7. Vazirlar, sarkotiblar;
8. Hakimlar, tabiblar, munajjimlar;
9. Tavsir va hadis olimlari;
10. Ahli hunar san'atchilar;
11. Sufiylar;
12. Sayyohlar va savdogarlarni tashkil etadi.

Uning taqdirini esa uch narsa podsho, xazina, askar hal qiladi.

Ikkinchi misol, qo'shin asosan o'n, yuz, ming va tumanga bo'lingan. O'n kishilik harbiy bo'linma tepasida turgan boshlig' o'nbooshi, yuz kishilik qismning boshlig'i yuzboshi, ming kishilik qo'shin yetakchisini nomi-mingboshi, tuman boshlig'i no'yon deb atalgan. Asarda ularning haq-huquqlari, oylik maoshi ham aniq ko'rsatilgan. Masalan, oddiy sipohiy mingan otning bahosi barobarida, o'nbooshi qaramog'idagi askarga nisbatan ikki barobar ko'p, yuzboshi o'n boshidan ikki barobar ko'p maosh olishgan.

«Tuzuk»larda vazirlar, amirlar haqida ham muhim ma'lumotlar ham keltirilgan. Masalan, Temur davlatini yetti vazir:

1. Mamlakat va raiyat ishlari buyicha vazir;
2. Vaziri sipoh, ya'ni harbiy ishlar bo'yicha vazir;
3. Egasiz qolgan mol-mulklarni tasarruf etish vaziri;
4. Saltanatning kirim-chiqim ishlarini boshqaruvchi vazir, ya'ni moliya ishlari vaziri;
5. 6.7. Sarhad viloyatlarining ishlarini nazorat etib turuvchi vazirlar.

Vazirlar-deyiladi Tuzuklarda-saltanat ustunlaridir. Ular mamlakat obodonchiligini raiyatning tinchligini, sipohlarning birligini, xazina boyligini doimo ko'zda tutadilar. Davlat saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo'l qo'ymaydilar. Saltanatga zararli narsalarni qaytarishda moli-jonini ayamaydilar).

Amirlar haqidagi ma'lumotlar ham diqqatga sazovor. Tuzuklarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda amirlar asosan harbiy kishilar bo'lishgan va Amir Temurga tobe bo'lgan qirq aymoqdan 12 tasi: Barlos, Sergin, Jaloyir, Tokuvchi, Do'ldoy, Mo'g'ul, Sulduz, Tugay, Qipchoq, Arlot, Tatar va Tarxonlar ichidan saylab olingan. Tuzuklarda vazirlar, amirlar, hokimlarga beriladigan in'omlar haqida ham gapirilgan. Masalan, qaysi bir amir biron qo'shinni yengsa yoki mamlakatni olsa uni uch narsa;

1. Tug', nog'ora va bahodirlik martabasi;
2. Davlat kengashlariga bemalol kirish huquqi;
3. Biror sarhadning noibliligi bilan saylanganlar;

Amir Temur shunday deydi: «O'zga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, g'anim lashkarlarini sindirish, do'st-dushman oilasida muomala, murosai-madora qilish xususida ushbu tadbir va kengashlarni qo'lladim».

Amir Temurning pirlaridan Zayniddin Abubakr Toybadiy-mashhur shayx, ulug' shayxulislom Amir Temurga shunday yozadi:

«Amir Temur saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin ya'ni:

1. Kengash;
2. Mashvaratu maslahat;
3. Qat'iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik;
4. Ehtiyotkorlik.

Chunki kengash mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto'g'ri bo'lgan johil odamga qiyos qilish mumkin: Uning aytgan so'zlari va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay. Shunday ekan saltanat boshqarishda mashvaratu-maslahat va tadbirkorlik bilan ish yurgizgin, toki oqibatda nadomat chekib pushaymon bo'lmagaysan» deb yozadi o'z maktubida.

Bu maktubda yozilgan so'zlar esa saltanat ishlarida Amir Temur uchun eng to'g'ri yo'lbo'shchi edi. Shuning uchun Amir Temur davlat ishlarining 9 ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirishni anglaydi. Amir Temurning o'z o'rnida amalga oshirgan tadbiri dushmanning son-sanoqsiz lashkarini o'z o'zida qoldiradi va har qanday mamlakat darvozasini ochib beradi, so'ngra yengiladi. Amir Temur shunday deydi: «Men 243 kishi bilan kengashgan va tadbir yuritgan holda Qarshi qal'asi ustiga yurdim Amir Muso va Malik Bahodir 12 ming otlig' askar bilan ustimga bostirib kelib meni Qarshi qal'asida qamal qildilar. Men tangrining madadi va inoyatiga ishonib tadbirkorlik va ehtiyotkorlik ishlatgan holda va bir necha marotaba dushmanlar bilan jang qildim. Pirovardida shu 243 yigitim bilan 12 ming otlig' lashkarni mag'lubiyatga uchratdim»-deydi. Amir Temur har ishni kengashgan holda qildi. Har vaqt kengashchilar yig'ilib majlis ochilar ekan, yaxshi yomondan, foydani ziyondan, oldimzdagi ishlarni qilish qilmaslikdan so'z ochib ulardan fikr so'rab ishni xatarli tomonlariga ko'proq e'tibor berardi. Kengash egalari birlik, ittifoqlik bilan so'zda sobit, ishda chidamli bo'lishlari shartdir.

«Temur tuzuklari»ni butun jahonning ko'pgina mamlakatlarida, masalan, Rossiya, Angliya, Fransiya, AQSH, Daniya, Hindiston, Turkiya, Misr kutubxonalaridan topsa bo'ladi. O'z o'zidan ma'lumki, qaysi bir asar qimmatli, amalda zarur bo'lsa, undan ko'proq nusxa ko'chirilgan.

«Temur tuzuklari» ham shunday asardir. U ko'proq sohibi tojlarga kerak. Shuning uchun ham hukmdorlarning ko'pchiligi bu va shunga o'xshash asarlardan nusxa ko'chirtirib, shaxsiy kutubxonalarida saqlangan ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarida ulardan muhim yo'l-yo'riq sifatida foydalananganlar.

«Temur tuzuklari» asarida fan uchun muhim ma'lumot va faktlar ko'p. Avvalom bor «Temur tuzuklari» Amir Temurning tarixini, uning zamonida, aniqrog'i, 1342-1405 yillar orasida Movarounnahrning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Temur va temuriylar davlati, hamda qo'shinning tuzilishi, o'sha yillarda Temur davlatining qo'shni mamalakatlar bilan bo'lgan munosabatlarini bilib olishimiz mumkin.

Mustaqil O'zbekistonimizda davlatni boshqarish tizimida ham bu asarning roli benihoya kattadir.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar. 3-jild.-T.: O'zbekiston, 1998 y.
2. Karimov I.A. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo'laversin. Asarlar. 4-jild.-T.: O'zbekiston, 1998 y. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: 1998 y
3. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent: 1998 y.
4. Giyasiddin Ali. «Dnevnik poxoda Timura v Indiyu. Moskva, «IVL», 1958.
5. Grekov B.D., Yakubovskiy A.YU. Oltin O'rda va uning qulashi T.:1964y
6. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-2 jild.-T.: Mehnat, 1992 y.
7. Muhammadjonov Amir Temur va temuriylar davri.-T.: 1996 y.
8. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli.-T.: Fan, 1993 y.
8. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma.-T.: O'zbekiston, 1996 y.

9. Temur va Ulug'bek davri tarixi. -T.:Qomuslar Bosh Tahririyati,1996y
10. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. -T.: Sharq, 1994 y.
11. Muhammadjonov Amir Temur va temuriylar saltanati.
12. Karimov SH., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. Toshkent: 1997 yil.
13. Ahmedov B. Sohibqiron Temur. Toshkent: 1996 yil.
14. Temur tuzuklari. Toshkent: 1991 yil.
15. Amir Temur o'g'itlari. Toshkent: 1992 yil.

### **8-MAVZU: TURKISTONNING XONLIKLARGA BO'LINIB KETISHI, UNING SABAB VA OQIBATLARI.**

**MAQSAD:** Talabalarga XV-XIX asrlardagi Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayot, temuriylar saltanatining yemirilishi va shayboniylar hukmronligini o'rnatilishi haqida to'g'ri ilmiy ma'lumotlarni yetkazish. Turkistonning xonliklarga bo'linib ketishining asl sabablari va tub mohiyatini ochib bergan holda uning salbiy oqibatlariga e'tiborni qaratish.

#### **REJA:**

1. XV asrning II yarmi-XVI asr boshlarida Movarounnahrda ijtimoiy siyosiy vaziyat.
2. O'lkada Shayboniylar sulolasining qaror topishi. Buxoroda Ashtarxoniyalar va Mang'itlar sulolasining hukmronligi.
3. Xiva xonligi: Shayboniylar va Qo'ng'irotlar sulolasi.
4. Qo'qon xonligining tashkil topishi.
5. Turkistonning xonliklarga bo'linishining salbiy oqibatlari.

Vatanimiz tarixi o'zbek davlatchiligi taraqqiyoti bir tekisda o'tmaganligi, uning rivojida zafarli va inqirozli davrlar bo'lganidan guvohlik beradi. Sohibqiron Amir Temur asos solgan saltanat eng yirik va qudratli o'zbek davlati bo'lganligi jahonga ma'lum. U o'z vorislariga nafaqat qudratli davlatni, shuningdek, saltanat qurish va davlatni boshqarish qonun-qoidalari bayon etilgan mashhur tuzuklarni ham qoldirgan edi. «... Farzandlarim va avlodimdan bo'lganlarning har biri,-deb yozgan edi u o'zining tuzuklarida, unga muvofiq ish yuritsin... Bu tuzuklardan o'z saltanat ishlarini boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo'lgay». Ammo, uning dasturi va vasiyatlariga amal qilinmadi. Taxt, hokimiyat ilinjida avj olgan o'zaro va ichki kurash, jangu jadallar davlatni zaiflashtirib, mamlakatni inqirozga va parokandalikka olib keldi. Ma'lumki XV asrdan boshlab Movarounnahr hududida feodal tarqoqlik vujudga keldi. Bunday holatning paydo bo'lishiga Temur vafotidan keyin uning nabiralari va o'g'illari o'rtasida toju-taxt uchun kurashning kuchayishi sabab bo'ldi. XV asrning oxiri XVI asr boshlarida Movarounnahr hududi bir necha mustaqil mulklarga bo'linib ketdi. Ular iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan mustahkam bog'liq edilar, lekin ayrim viloyatlarning hokimlari o'rtasidagi uzluksiz to'qnashuvlar aholining o'zaro xo'jalik aloqalariga halaqit berdi.

Farg'ona, Hisor, Samarqand, Buxoro singari mulklar va ular atrofidagi viloyatlar aslida o'zaro qaramlik munosabatlar bilan bog'liq mustaqil siyosiy tuzumlar edi. Temuriylar Movarounnahrning poytaxti Samarqandga da'vogar bo'lib o'z shahar bo'lgan mustaqil hokim, Toshkent hokimi edi. Xorazmda ham mustaqillikka da'vogar bo'lgan sufiylar sulolasining vakili hukmronlik qilar edi. Ayrim hukmdorlar o'z qo'shinlarining yerlarini bosib olish hisobiga o'z yerlarning kengaytirish poyidan bo'lib yurishlari muvaffaqiyatsiz chiqqanda talab olingan mollar bilan cheklanishardi. XV asrning oxirlarida feodallarning bir-biriga qarshi chiqishlari ancha keskinlashdi.

Movarounnahrda tarkib topgan beqaror siyosiy vaziyat Shayboniyxonning bosqinchilik yurishlari uchun qulay bo'ldi. O'zaro nizolardan foydalanib u janub tomon muvaffaqiyatli siljib borar edi. Movarounnahr aholisi Shayboniyxon qo'shinlari harakatiga turlicha qarashardi. Ularning ayrimlari bosqinchilarga zarba berish uchun butun kuchlari sarflashga tayyor bo'lib o'z shahar va qishloqlarni fidikorona himoya qilishar, ayrimlar esa hukmdorlarning o'zgarishi va baquvvatroq hokimiyatning o'rnatilishi, shahar va qishloqlarda nizolar va tartibsizliklarni to'xtatilishiga yordam beradi deb umid qilishardi. Ularning ko'plari Shayboniyxon Buxoro va Samarqandda bo'lgan paytda u bilan tanishgan edilar. Ayrim Temuriylar ham bosqinchilarning qo'shinlariga qat'iy qarshilik ko'rsatdilar. Vujudga kelgan tahlikali holatlarda shu paytgacha bir biriga dushman bo'lgan feodallarni vaqtinchalik bo'lsada Temuriylar tevaragida birlashishiga olib keldi.

XVI asr boshlarida zaiflashib borayotgan Temuriylar saltanatiga Dashti qipchoq tomondagi o'zbeklar hukmdori Muhammad Shohbaxt Shayboniy hujumi boshlandi. Shayboniyxon 1500-1501 yillarda Samarqand va Buxoroni, 1504 yilda Hisor viloyatini, 1504-1505 yillarda Urganchni, 1506-1507 yillarda Xuroson poytaxti Hirot hamda Balxni, shuningdek, Marv, Mashhad va Nishopur shaharlarini zabt etdi. Toshkent, Farg'ona va Sirdaryo yerlari ham Muhammad Shayboniyxon qaram bo'lib qoldi. Shunday qilib, Movarounnahr va Xuroson birlashtirildi va Shayboniylar sulolasi hukmronligi qaror topdi. Shayboniyxon janubda Eron shohi Ismoilshoh bilan to'qnashdi. 1510 yilda Marv yaqinida bo'lgan jangda Shayboniyxon qo'shinlari yengildi, xonning o'zi ham xalok bo'ldi. Taxtga Ko'chukchixon (1510-1530) chiqdi. Biroq shayboniy zodagonlar, harbiy qo'mondonlar jipslashib, Ismoilshohga qarshi kurashish o'rniga Shayboniyxon birlashtirgan viloyatlar va yerlarni taqsimlashga kirishdilar, ular o'rtasida o'zaro kelishmovchilik, ziddiyatlar avj oldi. Bundan foydalangan Ismoilshoh tez orada Xuroson va Xorazm o'lkalarini, Shimoliy Afg'onistonni bosib oldi. Poytaxti Samarqand bo'lgan Movarounnahrda esa Shayboniylar hukmronligi saqlanib qoldi.

Xorazmda Ismoilshoh hukmronligiga, uning shialik diniy mazhabiga qarshi harakat boshlandi. Bu harakatga Vazir shahri qozisi Umar qori va Sayid Xisamidin yetakchilik qildi. Ular Shayboniylar avlodidan bo'lgan Berka sultonning o'g'li Elbarsxonga murojaat qilib, xon bo'lishini taklif qildilar. Elbarsxon 1511 yilda qo'shin bilan kelib Vazir, Urganch, Xiva, Xazoraspni Ismoilshoh qo'shinlaridan tozaladi. Shunday qilib, 1511 yilda mustaqil Xiva xonligi tashkil topdi, Elbarsxon uning birinchi xoni bo'ldi. Xivada Shayboniylar sulolasi hukmronligi 1770 yilgacha davom etdi. Xiva xonligi poytaxti Urganch edi. Arabxon (1602-1621) davrida poytaxt Xivaga ko'chirildi. Xiva xonligi tasarrufiga Amudaryo quyi oqimidagi vohalar, Mang'ishloq, Dahiston (Mashhad) va O'zboy atrofidagi ko'chmanchi turkman hududlari kirardi. Biroq, xonlikda tinchlik bo'lmadi. Uzoq yillar davomida xonlik tepasida turgan o'zbek qabilalari bilan turkman qabilalari o'rtasida, shuningdek, shahzodalar o'rtasida tinimsiz urushlar bo'lib turdi. Xiva va Buxoro hukmdorlari o'rtasida Murg'ob daryosi bo'ylari uchun, Marv uchun qirg'inborot urushlari bo'lib turar, bu hududlar qo'ldan-qo'lga o'tardi. Xonlikka shimoldan qalmoqlar, qozoqlar, Ural kazaklari tez-tez hujum qilib faloqatlar keltirardi.

XVIII asr 40-yillarida Eron shohi Nodirshoh, uning o'g'li Nasrullo Xiva xonligini bosib olib, o'z boshqaruvini o'rnatdi, turkman qabilalarini Xorazmdan Xurosonga ko'chirdi. Biroq Xiva xonligida tinchlik bo'lmadi. Eron hukmdorlariga qarshi tez-tez g'alayonlar bo'lar, aholi boshi oqqan tomonga ketardi. Shunday vaziyatda xonlikdagi o'zbek qabilalaridan qo'ng'irotlar urug'ining boshlig'i Muhammad Amin Inoq 1770 yilda hokimiyatni qo'lga oldi va Ayva xonligida yangi sulola-qo'ng'irotlar sulolasiga asos soldi va bu sulola 1920 yilgacha hukm surdi. Muhammad Amin Inoq turkmanlar mang'itini bostirdi, Buxoro hukmdorining hujumini daf etdi va Xiva xonligidagi viloyat hokimlarini markaziy hokimiyatga bo'ysundirdi.

Movarounnahrda 100 yilgacha davom etgan Shayboniylar davrida ham tinchlik bo'lmadi, qirg'inbarot urushlar, o'zaro ichki kurashlar davom etdi. 1512 yildan boshlab Buxoro viloyati noibi bo'lib kelgan Ubaydulla sulton 1533 yilda Shayboniylar sulolasining oliy hukmdori etib ko'tarildi. Ubaydulla sulton Samarqanddagi Ko'chkinchixon avlodlari qarshiligi sababli oliy hokimiyatni Buxoroda turib boshqarardi. Shayboniy Ubaydullaxon (1533-1539) davrida Buxoroning mavqei ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchaydi va Movarounnahrning siyosiy-ma'muriy markaziga aylantirildi. Abdullaxon II davrida (1557-1561 yillarda amakisi Pirmuhammad, 1561-1583 yillarda otasi Iskandarxon oliy hukmdor deb e'lon qilingan bo'lsada amalda hukmdor Abdullaxon II edi) 1557 yildan boshlab poytaxt rasman Buxoro bo'lib qoladi va bu sana tarixga Buxoro xonligi tashkil topgan yil bo'lib kirdi.

Abdullaxon II siyosiy tarqoqlikka qarshi uzoq yillar urush olib borib, 1573 yilda Farg'onani, 1574 yilda Shahrisabz, Qarshi, Hisor viloyatlarini, 1578 yilda Samarqandni, 1582 yilda Toshkent, Shohruhiya, Ohangaron va Sayramni, 1583 yilda Balxni, 1584 yilda Badaxshonni, 1588 yilda Hirotni, 1595 yilda Xorazmni zabt etib, mintaqani birlashtirish ishini uddaladi, Buxoro xonligini kuchli va markazlashgan davlatga aylantirdi. Biroq, ichki nizo, adovatni bartaraf etolmadi. G'animlar Abdullaxonga qarshi uning o'g'li Abdulmo'minni qayraydilar. Shu tariqa, uyushtirilgan saroy fitnasi natijasida 1598 yilda Abdullaxon o'ldiriladi. Abdullaxon o'rniga taxtga ko'tarilgan Abdulmo'min 6 oycha hukmdor bo'ldi. U otasining amirlaridan biri, Abdulvose tomonidan otib o'ldirildi. Taxtga chiqqan so'nggi Shayboniy PirMuhammad (1599-1601) ham ichki urushlarning birida halok bo'ladi. Shayboniylar sulolasi barham topdi.

#### **Shayboniylar sulolasi (1500-1601y.y.)**

Muhammad Shayboniyxon 1500-1510y.y.

Ko'chkinchixon 1510-1531y.y.

Abu Saidxon 1531-1533y.y.

Ubaydullaxon 1533-1539y.y.

Abdullaxon I 1539-1540y.y.

Abdulazizxon (Buxoroda) 1540-1550y.y.

Abdulatif (Samarqandda) 1540-1550y.y.

Navro'z Ahmadxon (Baroqxon)-1551-1556y.y.

Pirmuhammadxon I-1557-1561y.y.

Iskandarxon-1561-1583y.y.

Abdullaxon II-1583-1598y.y.

Abdulmo'minxon-1598-1599y.y.

Pirmuhammadxon II-1599-1601y.y.

1601 yildan e'tiboran Buxoro xonligida hokimiyat ashtarxoniyalar (Joniyalar) sulolasi qo'lga o'tadi. 150 yilcha (1601-1753) hukmronlik qilgan Ashtarxoniyalar sulolasi davrida Buxoro xonligida tinchlik, osoyishtalik bo'lmadi. Xonlik viloyatlarida hukmronlik qiluvchi amirlar va beklarning o'zboshimchaligi, markaziy hokimiyatdagi amaldorlar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchilik, yp-yiqitlar mamlakat tinkasini quritib bordi. Buni ashtarxoniyalar sulolasidan Buxoro taxtiga ko'tarilgan o'n nafar xondan ikkitasining taxtdan ag'darilgani, to'rttasining taxt ustida o'ldirilgani ham yaqqol ko'rsatadi. Inqiroz o'zining yuqori pallasiga chiqqan XV11 asrning 40-yillarida Eron shohi Nodirshoh Buxoro xonligiga yurish qilib uni o'ziga bo'ysundiradi.

Yirik yer egalariining mustaqillikka bo'lgan yangi urinishlari har bir udel ichida va ayniqsa Buxoro bilan Samarqand o'rtasida Amirlarning hokimiyat uchun kurashi, Samarqand taxtini egallash uchun sulolalar kurashi XVI asrning 40 yillardan keyin ayniqsa kuchayib markaziy hokimiyatning yanada zaiflashuviga olib kelgan edi.. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va umuman mamlakat iqtisodiyotning rivojlanishiga xalaqit berar edi. O'sha davrda muntazam davom etgan feodal mojarolari sharoitida hunarmandchilik orqaga ketib savdo va xo'jalik aloqalari uzilib qoldi. 1558 yilning oxirlarida Buxoroda bo'lgan Antoniy Jenkinson markaziy hokimiyatning yo'qligi mamlakat iqtisodiyotiga yomon ta'sir ko'rsatganini yozadi. Bu yerda podshoh «ko'pi bilan ikki yoki uch yil hukmronlik qila oladi. Shu davr ichida yo uni o'ldirishadi yoki haydab yuborishadi deb yozadi. Jenkinson bularning hammasi mamlakatni va savdogarlarni nihoyatda xonavayron qilmokda». Bunday tartibsizliklar Ashtarxoniyalar hukmronligi davrida ham davom etdi. Ashtarxoniyalar davom etayotgan bunday vaziyatni oldini olish uchun kurashdilar. Lekin buning iloji bo'lmadi oxirgi ashtarxoniyalar hukmronlik qilgan davrga kelib Buxoro xonligi markaziy hokimiyatdan amalda mustaqil bo'lgan mulklar yig'indisidan iborat bo'lib qolgan edi. Bularning hamma zulm va beboshlikning kuchayishiga tinch aholining xonavayron bo'lishiga xo'jalikning umuman vayron bo'lishiga olib keldi. Zaviflashib qolgan Buxoro xonligi qo'shni hokimlarning istilochilik manfaatlarini qondirish uchun jozibali o'lka bo'lib qoldi. Shunday qilib XV-XVI asrlarda bo'lib o'tgan o'zaro ichki nizolar tufayli markaziy hokimiyat zaiflashdi.

Buxoro xonligida katta nufuzga ega bo'lgan mang'it urug'ining vakili Muhammad Rahim 1747 yilda ichkilikbozlik va maishatbozlikka berilib ketgan Abdulfayzxonni, so'ngra rasman xon deb (soxta xon) elon qilingan uning o'g'illari: Abdulmo'min va Ubaydullo sultonlarni o'ldirib, hokimiyatni o'z qo'lga oladi. Muhammad Rahim 1753 yilda o'zini Buxoro amiri deb e'lon qiladi. Shundan e'tiboran Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshlandi. Amirlikda hokimiyat 1920 yilgacha mang'itlar sulolasi qo'lida bo'ldi.

#### **Ashtarxoniyalar sulolasi (1601-1752y.y.)**

Boqimuhammad-1601-1605y.y.

Valimuhammad-1605-1611y.y.

Imomqulixon-1611-1642y.y.

Nazarmuhammadxon-1642-1645y.y.

Abdulazizxon-1645-1681y.y.

Subxonqulixon-1681-1702y.y.

Ubaydullaxon II-1702-1711y.y.

Abulfayzxon-1711-1747y.y.

Abdulmo'min (soxta xon)-1747-1748y.y.

Ubaydulla sulton (soxta xon)-1748-1752y.y.

Muhammad Rahim hukmronligini bekliv-viloyatlardagi boshqa qavmlardan bo'lgan hokimlar tan olmadilar. Amir mang'itlarga tayanib hokimiyatni markazlashtirishga intildi. Barcha qabilalarning hukmdorlarini Buxoroga yig'ib, ulardan markaziy hokimiyatga bo'ysunishni talab qildi, aks holda qattiq jazolanishi haqida ogohlantirdi. Viloyatlardagi ko'pgina hokimlar, bebosh amaldorlar hokimiyatdan chetlashtirilib, yer-mulki tortib olinib, boshqa joylarga ko'chirildi. Ular o'rniga amir qabiladoshlaridan tayinlandi. Muhammad Rahim Buxoro minorasi yonidagi o'z qarogohini mahsus qurilgan Arkka ko'chirdi, o'zboshimcha beklarni Arkka chaqirib qattiq jazoladi. Tarqoqlikni bartaraf etish maqsadida ko'pgina beklilarga-Samarqand, Jizzax, O'ratepa, Hisor, Boysun, Shahrisabzga qarshi qonli urushlar qildi, ko'pgina viloyatlar vayron bo'ldi. Muhammad Rahim Nurotada istiqomat qiluvchi burgut qabilasi mang'itini bostirib, ularning harbiy istehkomlarini buzib tashlab, o'zlarini Buxoro tumaniga ko'chirdi. Miyonqal'a qipchoqlariga hujum qilib, istehkomlarini buzib tashlaydi, yo'lboshchilarini qatl etib, qolganlarini ko'chirib yuboradi.

Muhammad Rahim vafotidan keyin o'zaro urushlar yanada kuchaydi. Viloyat hukmdorlari mang'itlarning markaziy hokimiyatiga qarshi qo'zg'olonlar ko'tardi.

Kenagas, yuz, bahrin, burgut, saroy qabilalarining mang'itlari, hokimiyatga o'tirgan Doniyolbiyning ularni bostirish uchun qilgan urushlari minglab odamlarning yostig'ini quritdi. Doniyolbiy qo'shinlar harajati uchun qo'shimcha soliqlar joriy etib aholi noroziligini oshirdi. Buxoro hunarmandlari va tijorat ahli 1784 yilda g'alayon ko'tardi. Qo'zg'olonni bostirish jarayonida minglab odamlar qurbon bo'ldi.

Amir Ma'sum («begunoh amir») deb nom olgan Shohmurod (1785-1800 yillar) tarqoqlikka qarshi kurashni davom ettirdi. Amir Shohmurod boshqaruv tartibini o'zgartirish, amaldorlar tarkibini yangilash choralarini ko'rdi. Amir ikki yirik davlat arbobi-Davlat qushbegi bilan Nizomiddin qozikalonni saroy, qo'shin va boshqa sohadagi amaldorlar huzurida o'z qo'li bilan o'ldirdi. Soliqlarni tartibga soldi. Buxoro aholisiga tarxon yorlig'ini topshirdi. Unga binoan aholi savdo daromadidan boj to'lashdan, hunarmandlar pul yig'imidan, majburiy mehnat va soliqlardan ozod etildi. Shuningdek, xiroj, nikoh puli, tarozi haqi va boshqa yig'implar miqdori kamaytirildi.

Shohmurod davrida Buxoro amirligi nisbatan mustahkamlangan bo'lsada, o'zaro urushlar to'xtamadi. G'arbiy chegaralarda esa Xiva xoni qo'shinlari hujumga o'tar, ekinzor va bog'lar payhon qilinadi, qishloqlar vayron bo'lar, odamlar va chorva mollari haydab ketilar edi.

Buxoro xonligidagi ichki kurashlar, markaziy hokimiyatning zaiflashuvi sababli u XVIII asr boshlarida ikkiga bo'linib ketdi. Ashtarxoniyar hukmronligining zaiflashuvi oqibatida Farg'ona vodiysiga uning shimolida tashkil topgan Jung'orlar davlati tez-tez bostirib kiradigan, talon-taroj qiladigan bo'lib qoldi. Bunday vaziyat Farg'onadagi ichki kuchlarning birlashuviga, mustaqil davlat tuzishga intilishini kuchaytirdi.

Chust yaqinidagi Chodak qishlog'ida yashovchi din peshvolarining mavqei XVIII asr boshlaridayoq Farg'onada ancha kuchayib, hokimiyatni qo'lga olishga intildilar. Biroq, ularning hokimiyati boshqa qabilalar tomonidan tan olinmadi. Bir guruh, harbiy zodagonlar Rishtonda qo'zg'olon ko'tarib Farg'ona hokimi Xo'ja Ashirqulni o'ldiradilar. 1710 yilda Qo'qon atrofida yashab turgan o'zbek qabilalaridan biri-minglar o'z yetakchisi Shoxruhbiyni hokimiyat tepasiga ko'taradilar. Shu tariqa, Qo'qon xonligi tashkil topadi, o'zaro ichki kurashlar botqog'iga botib qolgan Buxoro xoni Ubaydullaxon o'ziga qarashli hududning ajralib chiqib, alohida davlat tuzishiga qarshilik ko'rsatolmadi. Qo'qon xonligida ming qabilasi sulolalari 1875 yilgacha hukmronlik qildi. Qo'qon shahri chetida joylashgan Tepaqo'rg'on Qo'qon xoni Shohruhbiyning qarorgohiga aylantirildi. Tepaqo'rg'onida mustahkam qal'a, bozor va aholi yashaydigan mahallalar qurildi.

Qo'qon xonlari Farg'ona vodiysini, Xo'jand, O'ratepani birlashtirgach, Qo'qon xonligining mustaqilligi XVIII asr o'rtalarida Buxoro davlati tomonidan tan olindi. XVIII asr oxirlarida Qo'qon xonlari Toshkentni bo'ysindirishga kirishadilar. 1784 yilda Shayhontohur dahasi sobiq hokimining o'g'li Yunusxo'ja Toshkentni Buxoro tobeligidan chiqarib, mustaqil siyosat yuritardi. Toshkent bekligi o'ziga xos boshqaruv tizimiga ega edi. Yunusxo'janing to'rt maslahatchisi bo'lgan-Toshkent shahar nazorati va soliq yig'ish Boshchixo'janing qo'lida bo'lib, savdo-sotiqni qozi va devonbegi nazorat qilishgan. shariat qonun-qoidalari, narx-navo, o'leohlar ustidan Rais lavozimidagi amaldor nazorat qilgan. Yunusxo'ja XVIII asr oxirlarida qozoq urug'lari hujumlarini bartaraf etib Sayram, Chimkent, Turkiston, Qurama, Qorabuloq shaharlarini Toshkent bekligiga bo'ysundirgan edi. Toshkent bekligi mavqeining oshib borishi Qo'qon xonlariga yoqmad. 1799 yilda Qo'qon xoni Norbo'tabiy Toshkentga yurish qildi, ammo, Chirchiq bo'yidagi jangda mag'lubiyatga uchradi. Yunusxo'ja vafotidan keyin Qo'qon xoni Olimxon qo'shinlari yurish qilib, 1809 yilda Toshkentni va unga qarashli hududlarni Qo'qon xonligiga bo'ysundirdi.

Xonliklar tarixi iqtisodiy va madaniy hayotning bir tekisda bormaganligidan, ayrim davrlarda siljish kuzatilsada, xonliklar o'rtasidagi o'zaro kurash avj olgan yillarda esa tanazzullik xollari yuz berganligidan guvohlik beradi.

Shayboniyar, xususan Abdullaxon II davrida dehqonchilik ishlarini rivojlantirishga ahamiyat berildi. Zarafshon, Sirdaryo, Amudaryo, Chirchiq, Vaxsh, Murg'ob daryolari bo'ylarida ko'plab kanallar, anhorlar, ariqlar kazilib, atrofdagi yerlarga suv chiqarilgan, yangi ekinzorlar va bog'lar barpo etilgan.

Madaniy hayotga nazar tashlar ekanmiz, xonliklarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotini tasvirlovchi ko'plab kitoblar yozilganligining guvohi bo'lamiz. XVI asrda yozilgan Mulla Shodiyning «Fotihnoma», Binoiyning «Shayboniynoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma», Abdulloh ibn Nasrullohning «Zubdat ul-osor», Fazlulloh ibn Ro'zbehonning «Mehmonnomai Buxoro», Xofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» kabi asarlar xonliklar tarixini o'rganishda muhim manbalardir.

Buxoro xonligi tarixini o'rganishda o'sha zamonda yozilgan Mahmud ibn Valining «Bahr al-asror», Hoja Samandar Termiziyning «Dastur al-muluk», Muhammad Yusuf Munshiyning «Muqimxon tarixi», Mir Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullaxon tarixi», Abdurahmon To'le'ning «Tarixi Abulfayxon», Ho'jamqulixon Balxiyning «Tarixi Qipchoqxon», «Tarixi Amir Haydar», «Fathnomai Sultoniy», «Mang'itlar xonadoni saltanati qisqacha tarixi» kabi asarlar muhim o'ringa ega.

Xiva xonligi tarixiga doir ko'pgina asarlar ham bizgacha yetib kelgan ular orasida Abulg'oziy Bahodirxonning «Shajarai Turk» va «Shajarai Tarokima», Shermuhammad Munis Xorazmiyning «Firdavs ul-iqbol» yoki «Iqbolnoma», Muhammad Rizo Ogahiyning «Riyoz ad-davla», «Iqbol Feruziy» va boshqalar shular jumlasidandir. Arab va fors tillarida yozilgan bir qator asarlar ham o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Mirza Qalandar Mushrifning «Shohnomai Umarxon», Mulla Niyoz Muhammad ibn Mulla Ashur Muhammad Ho'qandiyning «Tarixi Shoxruhiy», Avaz Muhammad attor Ho'qandiyning «Tarixi jahonnamoyi», Muhammad Solihning «Tarixi jadidai Toshkand» kabi asarlar ham muhim manbalar hisoblanadi.

Xonliklarda yuzlab olimlar, shoirlar ijod qilganlar. Tibbiy ilmni rivojlantirishga olim Sulton Ali katta hissa qo'shgan. U inson tanasi kasalliklari va ularni davolash to'g'risida «Dastur al iloj» va «Muqaddimai dastur al iloj» asarlarini yozgan. XVI asrda Buxoro xonlari huzurida tabiblik qilgan Muhammad Yusuf va Shoh Ali ko'z kasalliklari va ularni davolashga doir «Ko'z tabiblari uchun qo'llanma», «Ko'z kasalligiga oid asarlar sarasi» asarlarini yozganlar.

Xonliklarda shoiru fozillar adabiyot sohasida ijod qilganlar. Buxoroda ijod etgan Mirza Sodiq Munshiy 15 ming g'azal va masnaviyardan iborat «Devon» kitobini yaratdi. Fazliy, Mushrif, Maxmur, Gulxaniy va boshqa ko'plab qalam sohiblari XIX asrning birinchi yarmida Qo'qonda ijod etdilar. Qo'qonda adabiy muhitning rivojiga Umarxon va uning xotini Nodira begim katta xissa qo'shdilar. Ularning taklifi bilan saroy shoirlari Fazliy va Mushrif Qo'qon shoirlarining «Majmuat ush-shuaro» nomli taskirasini yaratdilar, unga ko'plab ijodkorlarning she'rlari kiritilgan edi. Qo'qon xoni Umarxonning «Amiriy» taxallusi bilan go'zal va nafis she'ru g'azallar bitganligi ham ma'lumdur.

Musiq va qo'shiqchilik san'ati ham ancha rivoj topib bordi. Pufflab yoki urib chalinadigan torli musiq asboblari, milliy qo'shiqchilik, milliy raqs aholi o'rtasida keng tarqalib bordi. Qo'shiqchilikda terma, lapar, yalla, maqom janrlari keng qo'llanilardi. Hofizlar, baxshi dostonchilar xalq tomonidan e'zozlanar edi, to'y va sayillarda «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish», «Shoxsanam va G'arib», «Tohir va Zuhra» kabi o'zida vatanparvalik, mardlik, sevgi, mehr, insof va diyonat g'oyalari mujassamlashgan dostonlar zo'r maroq bilan kuylanar va tinglanar edi. Shuningdek, xalq orasida qiziqchilik, masxarabozlik, askiyabozlik, qo'g'irchoq o'yini, dorbozlik san'ati ham keng tarqalgan edi.

Buxoro amirligi o'zbek xonliklari orasida o'zining hududiy o'rni, aholisi va tabiiy pesurslari jihatidan muhim mavqega ega edi.

XIX asrga kelganda, Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kvadrat kilometrni tashkil etdi. Uning chegaralari Janubda Amudaryoning so'lg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik Sharqda Pomir tog'laridan tortib, g'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'lgan hududni ish'ol etardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnixon, Pansh daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, hozirgi Turkmaniston hududidagi Murg'ob daryosi vohasidagi yerlar Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng nufuzli shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoro sharif edi. Yirik shaharlardan: Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjo'y shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lib, bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi.

XIX asr birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 millioncha aholi yashardi. Aholi amirlikning sersuv vohalarida yashab, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qiluvchi Qizilqum sahrolari va cho'llari kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300-350 ming, Qashqadaryo vohasida 500 ming, Surxandaryo vohasida 200 ming, Sharqiy Buxoroda 500 mingcha aholi yashardi. Amirlikning yirik shaharlari-Buxoroda 60 ming, Samarqandda 50 mingga yaqin aholi yashardi.

Aholi etnik jihatdan ko'pgina elatlardan iborat bo'lib, ularning ko'pgina qismi, qariyb 57 foizi o'zbeklar edi. O'zbeklar bir qancha qabilalardan tashkil topgan bo'lib, ular orasida mang'it, saroy, qo'ng'iro't, jabg'u, qorluq, qalmoq, nayman, qipchoq, ming, yuz qabilalari ko'pchilikni tashkil etardi. Ular, asosan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxandaryo vohalaridagi shahar va qishloqlarda yashardi.

Buxoro amiri yordamida 1863 yilda Qo'qon taxtini egalladi. Biroq lashkarboshi Alimqul Xudoyorxonga qarshi urush boshladi. Xudoyorxon yana Buxoroga ko'chishga majbur bo'ldi. Alimqul Mallaxonning o'g'li Sulton Sayidxonni Qo'qon xoni deb e'lon qildi. Ammo, bu bilan Qo'qon xonligida siyosiy barqarorlik tarkib topmadi. Xudoyorxon 1865 yilda uchinchi marta taxtini egallaydi. Taxt uchun o'zaro ichki kurashlar avj olib borardi. Bu Rossiya bosqini arafasi va bosqin boshlangan davrda yuz berayotgan edi, Chor Rossiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligida ham zodagonlar va beklarning mol-mulk, taxt, amal talashib o'zaro ziddiyatlari kuchaydi, qirg'inbarot urushlar bo'ldi. 1826-1860 yillarda amirlik qilgan Nasrullo shafqatsiz hukmron edi. U taxtga chiqqach, o'z yo'lida to'siq bo'lmasin deb akalari Husaynni zaharlab o'ldirdi, Umarni qatl ettirdi. Nasrullo taxtini egallashda unga yordamlashganlarni ham o'ldirdi. Taxtga o'tirgan kundan boshlab, bir oy davomida har kuni 50-100 kishini qatl qilib turdi. Shu bois amir Nasrullo «qassob amir» deb laqab qo'yilgan edi.

Amir Nasrullo amirlikdagi parokandalikni to'xtatish uchun shafqatsiz urushlar qilardi, bo'sunmagan shahar va qishloq aholisini qilichdan o'tkazardi. Bunga o'zini mustaqil deb hisoblovchi Shahrisabz bekligiga qarshi olib borilgan qonli urushlar misol bo'la oladi. Amir Nasrullo Shahrisabzga qarshi 32 marta hujum qilib, oxiri 1856 yilda uni zabt etdi.

Iqtisodiyotda inqiroz sodir bo'ldi. Madaniy hayot orqaga ketdi. Bularning hammasi mamlakatning zaiflashuviga olib keldi. Bu jarayon XIX asrda davom etdi. Xonliklarga bo'linib feodal tarqoqlik sharoitida yashashda davom etgan O'rta Osiyo xonliklarini siyosiy va iqtisodiy jihatdan ancha qoloq edi. Uch xonlik hududida ham ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishiga to'siq bo'layotgan omillar mavjud bo'lib ishlab chiqarish munosabatlaridagi o'rta asr ko'rinishlari asosan saqlanib qolgan edi. Bu esa ishlab chiqaruvchi kuchlarning erkin rivojlanishini ta'minlardi. Biroq iqtisodiy taraqqiyotiga to'siq bo'lib turgan g'ovlarni davlat ahamiyatiga molik ish sifatida ko'rib chiqilmadi. Shuningdek uch xonlik ham moddiy-ma'naviy yordamga g'oyat muxtoj bo'lib turganlari xolda o'zaro nizolarni bartaraf qila olmadilar. Kelishmovchiliklar ba'zi qon to'kishlarga olib kelar, xazinani qaxshatardi. Uning asosiy og'irligi esa xalqning gardaniga tushardi. Aksincha mamlakat iqtisodiyotiga katta ahamiyat kasb etuvchi tabiiy fanlarga g'amxo'rlik nazardan qolgan edi. Rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganib ularning yutuqlaridan ijodiy foydalanishga mutlaqo e'tibor berilmadi. Shu tufayli xonliklarning ijtimoiy xayoti sokin bo'lib jaxon taraqqiyotidan qariyb uzilib qolgan edi. Tarix shuni isbotladiki xalq va davlat manfaatlari bir biriga ziddiyatli jabxada tursa xalq moddiy jihatdan mustahkam tayanchga ega bo'lmasa bu davlatning zaiflik belgisidir. Xalq vatan armiyasi davlatning doimiy g'amxo'rligidan mahrum ekan. El ulus tashqi yovlarga yem bo'laveradi.

O'zbek xonliklarining hukmdorlari Rus davlati tajovuzlariga e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik qildi. O'zaro urushlar girdobiga botib, katta kuchlarini behud qurbon qildi, mamlakat boyligini besamar ishlarga sovurdi. Vaqtini ayshi-ishrat, kayfu safoda o'tkazdi.

Taniqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy o'zining «O'tgan kunlar» romanida Yusufbek xoji tilidan qo'yidagi alamli so'zlarni bayon etadi: «Maqsadlari juda ochiq... Bittasi mingboshi bo'lmokchi, ikkinchisi Normuhammadning o'rniga o'tirmoqchi, uchinchisi yana bir shaharni o'ziga qaram qilmoqchi. Ittifoqning nima ekanligini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati, shaxsiyati yo'lida, bir-birini yeb, ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu holatda ketadigan, bir-birimizning tagimizga suv quyadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusimizni o'ris qo'lga qoldirgan bo'larmiz».

Xaqiqatdan ham shunday bo'ldi. Turkiston jahon taraqqiyoti jarayonidan tobora chetda qolaverdi, ilg'or davlatlardan orqada qoldi.

Yurtboshimiz Islom Karimov xonliklar davri tarixiga yangicha nazar tashlar ekan, tarixchi mutaxassislariga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi: «Nega jahonga Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII-XIX asrlarga kelib, to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so'nggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? Ajdodlarimizning qattiq qarshiligiga qaramay, chor Rossiyasining o'lkamizni nisbatan oson zabt etishida ana shu qoloqlikning ham o'rni bo'lmaganmikan?».

Darhaqiqat, XVII-XIX asrlar jahon tarixiga moddiy va madaniy yuksalish davri bo'lib kirganligi ma'lum. Xususan, Yevropadagi bir qator mamlakatlarda ishlab chiqarish sezilarli darajada o'sdi, zavod-fabrikalar qurilib, yangi texnik uskunalar bilan jihozlandi, temir yo'llar qurildi, kit'alararo dengiz yo'llari ochildi, mehnat unumdorligi oshdi, odamlarning moddiy va madaniy turmush darajasi ko'tarildi. O'rta Osiyo xonliklari ana shunday ijobiy jarayonlardan chetda qoldi, qoloqlikka yuz tutdi.

O'zbek xonliklari hayotidagi qoloqlikning ildizi, sabablari nimalardan iborat? Bizningcha, bunday qoloqlikka bir qator omillar sabab bo'lgandi.

Xonliklarning asrlar davomida o'zgaray kelayotgan davlat idora usuli, tor doiradagi hukmdorlar zulmi taraqqiyotga g'ov bo'lib qolgan edi.

Asrlar davomida bir butun bo'lib kelgan mamlakatning, bir iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan aholining uchga bo'linib ketishi, xonliklar o'rtasidagi urushlar, har bir xonlik ichidagi parokandalik, boshboshdoklik va o'zaro hokimiyat uchun tinimsiz davom etgan ichki kurash, ig'vo-fasodning avj olishi, o'zaro nizo-janjallar, urushlar viloyat va tumanlarni, qolaversa, butun mamlakatni xonavayron qilardi. O'zaro urushlar qabilalar ko'chishini keltirib chiqarardi yoki ular zo'rlik bilan yashab turgan joylaridan ko'chirilardi. Bu jarayon etnik guruhbozlikni keltirib chiqarardi, qabilalarning etnik aralashuviga, bir butun xalq bo'lib qovushishiga, jipslashishiga halaqit berardi. Davlat darajasida xam, viloyatlar darajasida ham yagona xalq, yagona Vatan tushunchasining qadri anglab olinmadi. Odamlarni Turkistonni, xalqni birlashtirish g'oyasi ostida uyushtira oladigan yetuk yo'lbo'shchi topilmadi.

Aholi xon va beklarning, lavozimdagi amaldorlarning zo'ravonligidan, o'zboshimchaligidan, suiste'molchiliklaridan, g'ayriqonuniy soliq va to'lovlardan azob chekardi. Turmush darajasi past bo'lib, aholi iste'mol uchun eng zarur bo'lgan tor doiradagi

oddiy buyumlar va mahsulotlar bilan qanoatlanardi. Ishlab chiqarishning faqat iste'molga yo'naltirilganligi iqtisodiyotning o'sishi uchun turtki berolmasdi.

Xonlar va saroy amaldorlari ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojiga halaqit berayotgan ishlab chiqarish usulini himoya qilardi. Asosiy boyluk bo'lgan yerga mulkchilikning eski usuli bir necha asrlardan beri o'zgarmasdan kelardi. Xonliklarda hukmdor yerning birdan-bir egasi bo'lib, yer ishlovchilarga-dehqonlarga xatlab, ijara tarzida birlashtirilgan edi. Dehqon yer egasi emas, yerdan olingan hosilning egasi edi. Shu boisdan dehqon yerni avaylab-asrashdan manfaatdor emasdi, uning unumdorligini oshirishga intilmasdi. Dehqon yer egasi bo'lmagani uchun boshqa joylarga ketaverardi.

Dehqonchilik nochor ahvolda edi. Yerga ishlov berish o'sha-o'sha bir juft ho'kiz, so'qa-omoch darajasida qolib ketgan edi. Irrigatsiya inshootlariga ahamiyat pasayib, sug'oriladigan yer maydonlari qisqarib borardi.

Xonliklarda sanoat ishlari rivojlanmadi. Oltin-gugurt, rangli metallar, marmar, toshko'mir, neft kabi tabiiy boyliklar to'la bo'lgan konlar bo'lsada, ularni qazib olish, kon-tog' ishlari yo'lga qo'yishga befarqlik qilindi. O'lkada yetarli darajada yirik daryolar bo'lsada, ularda baliqchilikni rivojlantirish, kemasozlikni yo'lga qo'yish hech kimning xayoliga kelmasdi.

Tovar-pul munosabatlari rivojlantirilmadi. Daromad iste'mol va qo'shin harajatlarini zo'rga qoplardi, pul, oltin-kumush xon va amaldorlarning xazina to'plash manbai bo'lib qolgan edi, kapitalga aylanmasdi.

Xonliklarning savdo munosabatlarida hamon ayirboshlash tarzi davom etardi. O'rta Osiyo jahon bozoridan ajralib qolgani ustiga yagona ichki bozor ham tashkil topmagan edi.

O'zbek xonliklaridagi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, iqtisodiy va harbiy nochorlik qo'shni mamlakatlarni o'z tasarrufiga kiritib olish siyosatini jadallashtirayotgan chor Rossiyasiga qo'l keldi. Xonliklardagi parokandalik, o'zaro nizo va urushlar, oxir-oqibat, ularning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylanishiga olib keldi.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Istiqloq va ma'naviyat.-T.: O'zbekiston, 1994y.
2. Karimov I.A. Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimlardagi tabrik so'zi.(Xalq so'zi.-1997.-21 noyabr.
3. Buxoro tarixi.-T.: Fan, 1976 y.
4. Ziyozammat. O'zbek davlatchiligi tarixi.-T.: Sharq, 2000 y.
5. Ibrat I. Farg'ona tarixi.-T.: Kamalak, 1991 y.
6. Karimov SH., Shamsutdinov R. Turkiston Rusiyo bosqini davrida.-Andijon: Meros, 1995 y.
7. Muqminova R.G va boshqalar. O'zbekiston tarixi.-T.: 1994 y.
8. Mukminova R.G., Bababekov X.N. i dr. Istoriya Uzbekistana. Tom-3.-Tashkent: 1993 g.
9. Fayziyev T. Buxoro feodal jamiyatida qullardan foydalanishga doir hujjatlar.-T.: Fan,1990 y.
10. Azam Ziyozammat. «O'zbek davlatchiligi tarixi». Toshkent. 2000 y.
11. Asqarov A. «O'zbekiston xalqlari tarixi» 2-tom. 1994 y.
12. Karimov SH. Shamsiddinov E. «Vatan tarixi».T. 1-tom, 1997y.
13. Ziyoyev Z. «Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash». T. «Sharq» 1998 y.
14. O'zbekiston Respublikasi ensiklopediyasi. T. 1997.

#### 9-MAVZU: CHOR ROSSIASINING TURKISTONDA YURITGAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI.

**MAQSAD:** Mustamlakachilik tizimi va uning mohiyatini yoritib berish. Turkistonni Chorizm tomonidan istilo etilishi arafasidagi o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqida, istilochilik harakati va uning bosqichlari to'g'risida ma'lumotlar berish. Chor Rossiyasining Turkistonni bosib olishdan ko'zlagan asosiy maqsadlarini yoritib berish va talabalarda vatanparvarlik g'oyalari mustahkamlash.

#### REJA:

1. Turkiston xonliklarini bosib olish yo'lidagi dastlabki harakatlar. Turkiston masalasida ingliz-rus raqobatining kuchayishi.
2. Qo'qon xonligining g'arbiy chegaralariga bostirib kirishning boshlanishi. Toshkentning zabt etilishi.
3. Buxoro va Xiva xonliklari bilan olib borilgan urushlar, xonliklarning yarim mustamlakaga aylantirilishi.
4. Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi va mustamlakachilik tizimining o'rnatilishi.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida buyuk Temur saltanatini uch tarqoq o'zbek xonligi o'zida g'avdalantirdi.

Podsho Rossiyasi O'rta Osiyo mintaqasiga ko'z olaytirib, bu yerdagi mavjud xonliklar haqida keng ko'lamda josuslik ma'lumotlarini to'play boshladi. Bu holat «Moskva savdo kompaniyasi» deb atalgan tashkilotning vakili Antoni Jenkinson boshchiligidagi elchilarning faoliyatida yaqqol namoyom bo'ldi. Antoni Jenkinson Richard va Robert Jonsonlar bilan birgalikda 1558 yilning apreldan to 1559 yilning 2 sentabrigacha Buxoroda bo'ldi, u yerda Abdullaxon II bilan uchrashdi. Shayboniyar sulolasining salohiyatli va mashhur vakillaridan hisoblangan Abdullaxon rus podshosining elchisi bilan bo'lgan suhbatda Rossiya, Angliya va Turkiya davlatlarining harbiy qudrati, qurol-aslahasi haqida ma'lumot olishga qiziqqan bo'lsa, Jenkinson va uning hamroxlari Buxoroning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy ahvoli va xalqaro aloqalari haqida imkon qadar ko'proq ma'lumot to'plashga intiladilar.

Rossiya ma'muriyatining ko'rsatmasiga binoan Sibirda joylashtirilgan rus harbiy qismlari XIX asr 30-yillarida Qo'qon xonligi tomonidan Sarisuv daryosi va Ulutovda qurilgan harbiy qo'rg'onlarni buzib tashladi, ustalik bilan Sharq tomondan Qo'qon xonligi hududlariga suqulib kirishini esa davom ettiradi.

Shuningdek, Rossiyaning xonliklarga tazyiqi g'arbdan-Orenburg tomondan ham kuchayib bordi. O'rta Osiyoni qo'lga kiritish uchun dastlab «qozoq dashtlarini istilo qilish zarur degan Pyotr I ning vasiyatiga izchil amal qilgan Rossiya imperiyasi qozoq dashtlarida qurgan harbiy istehkom vositasida asta-sekin Xiva hududiga yaqinlashmokka edi. Imperiya siyosatini amalga oshirishda muhim rol o'ynagan Orenburg general-gubernatori Vasiliy Perovskiy Xiva xonligini tiz cho'ktirishga kirishdi. U katta qo'shin bilan 1839 yilda Xiva ustiga yurish boshladi. Xiva honi Olloqulixon ham o'zbek, qozoq, va turkmanlardan iborat birlashgan lashkar bilan ruslarga qarshi otlandi. Oxir-oqibat, Perovskiy qo'shini zarbaga uchrab, orqaga chekinishga majbur bo'ldi. Bu g'alaba Rossiyaga qarshi kurash bayrog'ini ko'targan qozoq, istiqloqlarini ham ruhlantirdi. Uzoq yillardan beri qozoqlarning mustaqilligi uchun jang qilayotgan Kenesari Qosimov harakati keng quloq yoydi. Xiva xoni unga doimo madad berib turdi.

XIX asr ikkinchi yarmi boshlarida Turkiston xonliklarini buyusundirish maqsadida Rossiya olib borayotgan siyosat Buyuk Britaniyaning shu borada uzoqni ko'zlagan rejalariga jiddiy xavf solar edi. Shuning uchun Angliya turli yo'llar bilan O'rta Osiyodagi davlatlarni Rossiyaga qarshi otlantirish payiga tushadi.

1831-1833 yillarda Ost-Indiya kompaniyasi leytenanti Aleksandr Berne Hindistondan Afg'onistonga, undan Buxoroga sayyoh sifatida keladi. Bu «sayohat» natijasida yig'ilgan dalillar va shaxsiy kuzatuvlar «Buxoroga sayohat» deb nomlangan uch jildlik kitobga

asos bo'ldi. Bu o'rinda A.Bernsning o'zbek xalqi xususida bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir: «O'zbeklar muomalada kamtar va samimiy. Ular mening kim ekanimni bilmaganliklaridan, barcha narsalar xususida, hukmdorlari va syoyosatdan tortib, bozordagi ahvol haqida ham tortinmay so'zlashdilar».

Angliya o'z diplomatlari, sayyohlari hamda ayg'oqchilari vositasida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini Rossiyaga qarshi ittifoqqa uyushtirishga harakat qildi. Ular shu maqsadda fors va turk tillarini yaxshi bilgan Konolli, Berne, Archi Todd, Abbot va Shekspir kabi zobitlarni o'zbek xonliklariga yubordilar.

Angliya Turkiya bilan hamkorlikda. O'rta Osiyo davlatlarining harbiy ittifoqini vujudga keltirishga ko'p urindi, Ayniqsa, Krim urushida (1853-1856) Angliya O'rta Osiyo xonliklariga, Afg'oniston va Eronga o'z odamlarini yuborib, bu mamlakatlarni Rossiyaga qarshi otlantirish harakatini kuchaytirdi. Ammo Turkiya ham, Angliya ham Rossiya xurujiga qarshi o'zbek xonlari birligini vujudga keltirishni ta'minlashning uddasidan chiqqan olmadi. Chunki xonliklar O'rtasida o'zaro nifoq-nizolar kuchli bo'lib, ularning ildizi chuqur ketgan edi. Buning ustiga, Rossiya diplomatiyasi Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarini bir-biriga qarshi gijgijlab, o'zining ig'vogarona siyosatini izchillik bilan yuritardi. Rossiya bu yo'lda sobit turib, To'rg'ay viloyatini, 1846 yilning kuziga kelib, Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan yeridagi Qozolini ishg'ol etdi va 1847 yilda Raim, 1848 yilda Kazalinsk istehkomlarini qurdi. Bu ahvol Xivani tashvishga soldi. Hon o'z noroziligini bildirib, elchilarini Peterburgga jo'natdi. Xiva elchilarini rus amaldorlari bu istehkomlar savdoni yo'lga qo'yish va cho'lda tinchlik o'rnatish uchun qurildi, deb aldadilar. Xiva honi bu istehkomlarni yo'q qilishga harakat qildi, lekin Sirdaryo va Orolbo'yidagi rus istehkomlaridagi qo'shinlarni yo'qotish xususidagi Xiva hukumatining maslahatlariga quloq solmadilar.

Rossiyaning urushqoq doiralari Orenburg va Sibir orasidagi yerlarning «himoyasini mustahkamlash uchun» Irgiz va To'rg'ay daryolarining bo'yida istehkomlar qurishni jadallashtirdilar. Ular o'zbek xonliklarini asta-sekin bosib olish uchun, birinchi navbatda, Qo'qon xonligining muhim strategik nuqtalarini egallashga diqqatni karatdi. Oqmachit qal'asiga hujum shu tariqa boshlandi.

1852 yilning 16 aprelida shijoatli lashkarboshi Yoqubbek rahbarligidagi Oqmachit qal'asi himoyachilari dushmanga qarshi qahramonona jang qilib, rus askarlarini Orenburgga chekinishga majbur etishdi. Shundan so'ng o'zbeklar bilan bo'lgan janglarda katta tajriba to'plagan Orenburg general-gubernatori graf V. Perovskiy 1853 yilda tashabbusni o'z qo'lga olib, yana hujumga tayyorlandi. Perovskiy Oqmachit himoyachilariga maktub yo'llab, taslim bo'lishni taklif kildi: «Garchand sizlar qal'a ichida turgan bo'lsalaringiz ham Oqmachit olingan deb hisoblayvering. Men shu yerda turib barchangizni bitta qo'ymay kirib tashlashim mumkin. Ammo, men bunday qilmayman, chunki, biz bu yerga bir yoki ikki kunga emas, balki abadul-abad keldik, endi orqaga qaytmaymiz». Qal'a mudofaachilari bu maktubga «biz bir tomchi qon va ko'chada bir dona kesak qolguncha, hamma qurollarimiz sinib bitguncha kurashaveramiz», deb javob berishdi.

Yordamchi kuchlar olib kelish uchun ketgan Yokubbekning kechikishidan foydalangan ruslar yigirma ikki kunlik qurshovdan so'ng mudofaa ahamiyati juda katta bo'lgan Oqmachit qal'asini zabt etdilar.

Rossiya davlatining hukmron doiralari esa bu paytga kelib Qo'qon, Xiva xonliklari va Buxoro amirligiga nisbatan istilochilik ruhi ustun kelib, Aleksandr II (1855-1881) hukumatining tashqi siyosatida jangari generallar mavqei kuchaydi. General-ad'yutant graf D. Milyutinining harbiy vazir lavozimiga, graf N. Ignatyevning esa Bosh shtab Osiyo bo'limi rahbarligiga tayinlanishi Rossiyaning O'rta Osiyodagi siyosatida keskin o'zgarishlar bo'lishidan darak berardi. Rossiya matbuotida esa Hindistondan boy o'lkani mustamlakaga aylantirgan Angliyadan o'rnatilib, Osiyoda faol harakatga chorlovchi maqolalar paydo bo'la boshlaydi.

Imperiya harbiy vazirligida o'zbek xonliklarining iqtisodiy va siyosiy ahvoriga oid josuslik ma'lumotlari yetarlicha to'plangan edi. General unvoniga ko'tarilgan graf N. Ignatyevning o'zbek xonliklarining haqiqiy ahvoli va ularni Rossiya nazoratiga olishni qay yusinda amalga oshirish haqidagi axborotlari bu ma'lumotlar orasida alohida ajralib turardi.

Graph Ignatyev birinchi galdagi vazifa sifatida Qo'qon xonligiga qarshi bevosita harbiy harakatlar boshlashni taklif qilgan. Ana shu taklifga ko'ra, Rossiya 1860 yilda Qo'qon xonligiga qarshi e'lon qilinmagan urush boshladi.

1864 yilning 2 oktabrida ertalabdan boshlab har ikki tomon o'rtasida to'plardan o'qlar uzildi. Bu vaqtda Eshonquli dodhox madrasasi mullavachchalari, xususan, eshon Sharifxo'ja Ofoqxo'ja o'g'li, eshon Xojixon Malikxo'ji yuzboshi o'g'li Sa'id Ahrorxo'ja Sotiboldixo'ja o'g'li, pichoqchi usta Sodiq Hazar, o'ratepalik Xidirmazar zargarning ukasi va boshqa ziyoli vakillari «g'azotni va bu sharafli urushni Qur'on, tafsir va hadislardan olingan so'zlar bilan isbotlab, hammani g'azotga va urushga chorladi. Ularning o'zlari ham Qo'qon darvozasiga borib, to'pchilarga qo'shilib o'q joylashda va otishda qatnashdilar».

Toshkent devori to'plardan o'qqa tutilgandan keyin podpolkovnik Obux 2 rota askari va 4 to'pi bilan hujumga o'tib, devorning bir qismini teshishga erishdi. Shundan keyin rus askarlari podpolkovniklar Obux va Lerx qo'mondonligida shu joydan shaharga bostirib kirish uchun zovurni kechib o'tishga harakat qilganlar. Muhammad Solihning guvohligiga ko'ra, «uruslar olo'a chopib zovurga o'zlarini otdilar; ularning ikkinchi guruhi yordamga kelmokda edi. Shu onda devor ustidagi shertabat va dovyuraklar o'zlarini pastga tashlab, zovur ichida uruslar bilan yoqama-yoqa ushlab bir-birlarini xanjar bilan o'ldira boshladilar. Hatto ba'zi kishilar ko'rqib ketayotgan dushman orqasidan quvib va ushlab, xanjar va qilich bilan jang qildilar. Zovur ichidagi uruslardan urush va talash bilan 72 kishining boshi tanasidan kesilib, yarog'-aslahalari o'lja olinib, g'oziyarlarga bo'lib berildi».

1865 yilning bahorida general Chernyayev Niyozbek qal'asini bosib oldi. Toshkentga ruslarning ikkinchi hujumi boshlandi. Chernyayev yurt xoinlaridan biri Abdurahmonbek Shodmon o'g'lining maslahati bilan Bo'zsuv to'g'onini buzib, uni Chirchiq soyiga burib yubordi. Abdurahmonbek aslida Toshkent shahrining Chuvalachi mahallasidan bo'lib, Chernyayevga muhim ma'lumotlarni yetkazib turgan xiyonatchilardan edi. Abdurahmonbek ko'ngilli ravishda Rossiya xizmatiga o'tadi.

General Chernyayev esa shaharni to'pga tutishda davom etardi. Uning zarbdor kuchlari Sirdaryo qirg'og'idagi Chinoz qal'asini egalladi. 1865 yil 14 iyundan 15 iyungacha o'tar kechasi polkovnik Abramov, podpolkovnik Jemchujnikovlar qo'mondonligidagi 7 rota va 8 zambarakdan tashkil topgan askarlar asta-sekin bog'lar orasidan Kamolon darvozasi tomonga qarab yurdilar. 15 iyun erta tongda rus askarlari to'satdan Toshkentning Kamolon darvozasi devoridan ichkariga bostirib kirdilar. Muhammad Solihning so'zlariga qaraganda, ruslar dastavval devorning bir kishi o'tadigan tor joyidan kirib olishgan so'ngra darvoza va devor ustiga chiqishib, u yerdagi to'pni yerga uloqtirganlar hamda Muhammad Solih va uning atrofidagi kishilarga qarata miltiqlardan o'q otishgan. Shu paytda mullo Ismatillo degan bir kishi qo'ltig'idan to'rt bo'lak toshni chiqarib: «Biz ham chimkentliklarga o'xshab gunohkor bo'lib, harom o'laylikmi? Yaxshisi, bu zaminda g'oziy yoki shahid sifatida o'lganimiz afzal», deb qichqirgan.

Rus askarlari Kamolon darvozasidan kirishi bilanok Abramov 250 askar bilan devor yonidan o'ng tomonga ketgan.

Turkiston viloyatining harbiy gubernatori qilib tayinlangan general Chernyayev 1866 yil yanvar oyida Buxoro amirligini buyushtirish uchun unga qarshi e'lon qilinmagan urush boshladi. Uning qo'mondonligi ostida qo'shinlar Jizzax tomon otladilar. Bu xabarni eshitgan amir Muzaffar o'zi taxtga qayta o'tqizgan va ta'sirida deb hisoblangan Qo'qon honi Xudoyorxonga ruslarning yo'lini to'sishni buyurdi. Xudoyorxon esa Rossiya bilan to'qnashishdan qo'rqib, amir Muzaffarning farmonini bajarmadi.

Rus istilochilari Buxoro xonligiga qarshi urush harakatlarini ikki harbiy mavsumda-1866 va 1868 yillarda o'tkazadi. 1866 yilda olib borilgan istilochilik bosqinlari oqibatida xonlikning O'ratepa, Jizzax va Yangiqo'rg'on singari hududlari Rossiya tarkibiga kiritiladi. Ikkinchi harbiy mavsumda-1868 yil qirg'inbarotida esa Samarqandning olinishi, amir qo'shinlarining Zirabuloqda o'zil-kesil tormor etilishi sodir bo'ladi. O'rta Osiyoning qadimiy poytaxtlaridan biri, Sohibqiron Amir Temur dovru'g'ini jahonga yoygan Samarqandning bosib olinishi, nafakat xonlikda, shu bilan bir qatorda, dunyo afkor ommasi ko'z o'ngida, shimoldan kelgan oq ayiqning yovuz

maqsadlari chegara bilmasligini namoyon etgan edi. Amir Muzaffar talafotlar oldida qattiq esankirashga tushadi, u o'z tasarrufidagi hududning qariyb teng yarmidan mahrum bo'lgan edi.

Rossiyaning hukmron doiralari Turkiston general-gubernatorligini o'zining O'rta Osiyodagi harbiy rejalarini amalga oshirish uchun tayanch markaziga aylantirib, bu safar istilochiligini Xiva xonligini to'la bo'ysundirishga qaratdilar. Ular Pyotr I vasiyatini sira unutmagan edilar. 1717 yilgi Bekovich-Cherkasskiy qo'shinining halokati va 1839 yilda Perovskiy yurishining barbod bo'lganligi rus generallarining xotirasidan chiqmagan edi. Pyotr I ning bosqinchilik rejasini to'la amalga oshirish uchun tayyorgarlik ishlarini poyoniga yetkazishgach, istilochilar Xiva xonligiga ko'z tika boshladilar.

Xiva xonligi mustaqilligi bilan mustamlakachilarga jiddiy xavf solib turar edi. U ming yillardan buyon davom etib kelayotgan qadim Xorazm davlati timsoli sifatida ham Rossiya uchun xavfli ko'rindi. Rossiya imperiyasi o'z tasarrufidagi qozoqlarni ozodlik kurashiga rag'batlantirib turgan Xiva ekanligini ham yaxshi bilardi. qozoqlarning milliy-ozodlik kurashiga rahbarlik qilgan Kenesari Qosimov Xivadan doimo madad olib, o'n yil davomida Rossiyani bezovta kilib kelayotganligini ham unutmadilar. Masalaning siyosiy tomonidan tashqari, Sankt-Peterburg butun Turkiston o'lkasida tijorat ishlarini ham batamom o'z qo'lga olishni maqsad qilib qo'ygan edi. Kaspiy dengizining Sharqiy sohillaridan Turkiston shaharlariga olib boruvchi barcha savdo yo'llari esa Xiva xonligi hududlaridan o'tar edi.

1872 yil oxirlarida harbiy vazir boshchiligida Peterburgda Turkiston, Orenburg general-gubernatorlari va Kavkazdagi podsho noiblari ishtirokidagi mahfiy kengashda Xiva xonligini bosib olishga qaror qilinadi. Generallar rejasiga ko'ra, Turkiston general-gubernatorligiga qarashli kuchlar sharqdan, Orenburg gubernatori va Kavkaz noibligi ihtiyoridagi harbiy kuchlar esa g'arbdan va shimoli-g'arbdan Xiva ustiga yurishlari kerak edi:

Rossiyaning tajovuzkorona niyati Xiva xoni va uning oliy mansabdorlariga sir emas edi. Sayid Muhammad Raximxon II (1865-1910) 1872 yilda Hindiston vise-qiroli huzuriga elchi jo'natib, ruslar tahdidiga qarshi Angliyadan madad so'ragan edi. Xonning elchisi Aminboy Muhammad o'g'li Kalkutta shahrida lord Norsbruk bilan muzokaralar olib bordi. Angliyaning hukmron doiralari Xiva mustaqilligini saqlab qolishdan manfaatdor bo'lsalar ham, Rossiya bilan ochiq to'qnashuvdan xavfsirar edilar. London o'zining boy mustamlakasi Hindistonga ruslar tahdid solishidan va Afg'onistondagi mavqeiga Rossiyaning jiddiy xatar yetkazishini hisobga olib, Xivaga yordam ko'rsatmaslik yo'lini tutdi. Hindiston vise-qiroli Norsbruk shu sababli elchiga iloji boricha ruslar bilan aloqani yaxshilash vositalarini ishga solishni hamda qo'shni musulmon davlatlari ittifoqini vujudga keltirishni maslahat berdi. Lord Norsbruk, agar ruslar bilan urush bo'lib kolsa, Angliya yordamiga umid qilmaslikni ham ochiq izhor qildi.

Xiva endi o'z kuchi va imkoniyatiga qarab ish qurishi lozim edi. Xonlik qo'shinida hammasi bo'lib 27 eski zambarak, 2 ming otlig' askar, 4 ming navkardan iborat qo'shin bo'lib, ular ham asosan poytaxtda jamlangan edi. Xiva istilosiga o'tlangan Rossiya qo'shini ham son, ham sifat jihatdan, shuningdek harbiy texnika imkoniyati, qurol-yarog'lari bilan ham Xiva xonligi qo'shinidan ustun edi. Mazkur harbiy operatsiyaga rahbarlik qiluvchi zobitlar va generallar amaliy tajribasi ham xivalik lashkarboshilardan ko'p darajada yuqori edi. Turkiston qo'shinlariga (22 rota, 1800 kazak va 18 to'p) general Kaufman, Orenburg otryadiga general Vervovkin (15 rota, 600 kazak, 8 to'p), Mang'qishloq otryadiga polkovnik Lomakin (12 rota, 800 kazak, 8 to'p) qo'mondon bo'lib, Orol flotiliyasi ham ular ihtiyoriga berilgan edi.

1873 yil 29 may kuni ruslarning asosiy kuchlari Xiva ostonalarida paydo bo'ldilar. Xiva xoni ortiqcha qon to'kilishini istamay, muzokaralar boshlash haqida o'z vakillarini fon Kaufman huzuriga jo'natdi. Ammo urushqoq general xonning taklifini oqibatsiz qoldirib, hujumga kirishdi.

Xiva mudofaasi yo'l boshchilarining nomlari tarix sahifalariga umrbod yozilib qoldi. Zero, 1873 yilda Xivani mudofaa qilgan kishilarning ism-shariflari istiqloq tarixidan munosib joy olishi farzdir. Urganch darvozasiga Muhammad Rizo to'ra, Toshoyoq darvozasiga Abduqodir to'ra, Bog'ishamol darvozasiga Rahimberdibek Oллоhberdi to'ra Mag'fur, Shayx darvozasiga Oллоhberganbek ibn Xudoyberganbek to'ra o'g'li tayin etildi. Shahar tashqarisida esa ruslarga qarshi jang maydoniga chiqqan Xudoyor qushbegi, Rahmatulla yasovulboshi, Abdulla Mahram, Mahmud yasovulboshilarning navkarlari fidokorona jang qildilar.

O'rta Osiyoning arzon xom ashyo manbai va rus sanoat mollari sotiladigan kulay bozor bo'lishini 1826 yildayok general-mayor Verigin imperator Nikolay I (1825-1856)ga yo'llagan taqdimnomasida bayon qilgan edi. Verigin Rossiyada ishlab chiqarilayotgan mollar mamlakat ichkarisida ham zo'r-bazo'r sotilayotgani va sifati past bo'lgani uchun Yevropa bozorlarida sira raqobatga dosh berolmasligini ko'rsatib, O'rta Osiyo bu jihatdan rus sanoat mollari sotiladigan qulay bozorga aylanishi mumkinligini bayon qilgan edi. Bu fikrni senator graf K.K.Palen rivojlantirib shunday degan edi: «Turkistonni istilo qilishning siyosiy sabablarini hisobga olmagan takdirda ham bu o'lka Rossiya tarafidan bosib olinishining dastlabki kunlaridanoq Rossiya uchun ikki jihatdan qiziqish uyg'otgan edi:

1. Moliyaviy siyosat jihatidan davlat daromadi manbai va ichki ishlab chiqarish mahsulotlari uchun yangi bozor.

2. Mustamlakachilik siyosati nuktai nazaridan markaziy guberniyalardagi ortiqcha aholini ko'chirish uchun yangi hudud sifatida diqqatga loyiq edi».

Imperiya yukori siyosiy doiralarning nufuzli vakili senator graf K.K.Palen o'lkani metropoliyaga to'laydigan soliqlari mikdorini aniq bilgani holda ularni yanada oshirish rejasini ham ishlab chiqqan edi. Bu reja izchillik bilan amalga oshirilgan. Agar XIX asr oxirida yer solig'i 4 million so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 1914 yilga kelib u 75 foizga kupaydi. Rossiyaning Turkistondan oladigan daromadi 300 foizga oshdi va 1916 yilga kelib 38.329 ming so'mni tashkil qildi.

Imperiyaning Turkiston xom ashyosidan oladigan foydasining aniq mikdorini hech kim bilmagan va u faqat metropoliya burjuaziyasigagina ma'lum edi. Rossiya to'qimachilik sanoati mahsulotlaridagimmi 1900 yildan 1913 yilga qadar 150 foiz oshganidan kelgan foyda ham shu rus kapitalistlarining cho'ntagiga tushgan va uning hisobini ham hech kim bilmaydi.

Rossiya Turkistonni qisqa muddatda o'z sanoati uchun xom ashyo manbaiga aylantirdi. Agar 1885 yilda paxta maydoni 41,4 ming tanobni tashkil qilgan bo'lsa, 1915 yilga kelib u 541,9 ming tanobga yetdi, ya'ni 13 barobarga o'sdi. O'lka Rossiyaning asosiy paxta bazasiga aylandi. Bu haqda Turkiston jadidlari yetakchilaridan Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev 1917 yil iyul oyida Qozonda o'tgan 2-Butunrossiya musulmonlar qurultoyida shunday degan edi: «Shu kungacha Turkiston rus kapitalistlari uchun govmish sigir bo'lib kelmokda. Bugunda Turkiston Rossiyaga paxta yetkazuvchidir. Hanuzgacha to'xtamayotgan urush tufayli paxtaga extiyoj tobora ortib bormokda, chunki u porox tayyorlashda kerakdir. Agar urushgacha bo'lgan davrda Amerika paxtasining 1 pud Rossiyaga 18 so'mdan tushgan bo'lsa, hozirda barcha mollarga narx-navo 3 barobar oshganda, 1 pud Turkiston paxtasi Rossiya tomonidan 7 so'mdan 10 so'mgacha sotib olinmoqda, holbuki, 1 pudning bahosi hozirda 20 so'mni tashkil qilishi lozim. Demak, Turkiston paxtakorlari har pud paxtadan 10-12 so'm zarar ko'rishmoqda. Bundan shunday xulosa chiqadiki, agar Turkistonda yiliga 10-12 million pud paxta yetishtirilsa, u holda bizning paxtakorlar tomonidan ishlab topilgan 100 million so'm har yili rus kapitalistlari cho'ntagiga tushmoqda»

Metropoliyaning iqtisodiy siyosati Turkistonni xom ashyo bazasiga aylantirish, uni rus mollari sotiladigan bozor sifatida tutib turish va tabiiy boyliklarini markazga tashib ketishga qaratilgan edi. Bu siyosatdan dvoryan-pomeshchiklar sinfidan tashqari, tobora rivojlanib va kuchga kirib borayotgan rus burjuaziyasi, ayniqsa to'qimachilik sanoatining egalari manfaatdor edilar. Turkiston mo'may daromad manbai sifatida ham chor Rossiyasining xazinasini boyitib borayotgan edi. Bu daromadlar 1867-1896 yillarda 4 barobarga ko'paydi, aholidan olinadigan soliqlar 1889-1893 yillarda 40 foizga oshdi. 1869-1896 yillar davomida imperiya xazinasini o'lkadan 158 million so'm daromad oldi.

Rossiya hukmron doiralari Turkiston o'lkasiga mo'ay daromad manbai va arzon xom ashyo makoni sifatida qarab, xalqqa solinadigan soliq va majburiyatlarni ko'paytirish siyosatini qo'llab keldi.

O'lkada soliqlar miqdori tinimsiz oshib bordi. 1889 yildan 1896 yilgacha mustamlaka ma'muriyati soliqlarni 40 foizga oshirdi. General-gubernator imperatorga 1895-1897 yillar bo'yicha bergan hisobotida soliqlarni yanada ko'paytirib, o'lkadan olinadigan daromadni oshirish uchun aholidan yangi harbiy soliq undirishni taklif kildi. «Yerli aholi rus harbiy kuchi panohida barcha rus fuqarolari huquqdaridan teng foydalangan holda o'z farovonligini oshirmokda,-deb yozgan edi general-gubernator,-shu bilan birga u hech qanday asossiz rus fuqaroligi beradigan katta imtiyozlardan ham foydalanmokka. Shuning uchun ham bunday soliqning joriy etilishi xalqqa og'ir botmagan holda davlat xazinasiga yiliga yarim million rubl daromad keltiradi». Mustamlakachilar sardori paxta yakka hokimligining tobora kuchayib borayotganini qayd etib: «1887 yilda 200000 pudni tashkil qilgan Amerika navli paxta yetishtirish 1895 yilga kelib 500000 pudga yetgan, ya'ni Rossiya sanoati iste'mol kiladigan tolaning uchdan bir qismini tashkil qilgan»,-deb yozadi.

Mustamlakachilar bu boy o'lkani ruschasiga o'zlashtirishga ahamiyatni kuchaytirishga intildilar. Imperiyaning Davlat mulklari va ziroatchilik vaziri Krivoshiy rus podshosiga yo'llagan taqdimnomasida bu haqda shunday deb yozgan edi: «Rus xalqining siyosiy ustivorligiga erishish uning xo'jalik sohasidagi quvvati bilan mustahkamlanmog'i lozim... O'ziga to'q musulmon aholisi o'rtasida rus kelgindilari xo'jaligi kambag'al va harob holda bo'lmasligi kerak. Kelgindi rus xo'jayinning yerida ishlovchi sarni ko'rish maroqli hol bo'lishiga shubha yo'q, bil'aks, uning sarta qo'lida batrak bo'lishi juda noxush va ko'ngilsiz voqea ekanligi bizga ayon bo'lmog'i kerak». Shuning uchun ham «o'zga millatlarning rus elementini bosib ketmasligi uchun» general-gubernatorga keng huquqlar berildi. Mustamlakachilar rus qishloqlarini o'zbek, qirg'iz, tojik qishloqlaridan ajratib, mustaqil bo'lishini ta'minlash bilan birga zarur hollarda rus va mahalliy qishloqlarni birlashtirib rus volost starshinasini uning rahbarligiga qo'yg'alar».

Mustamlaka ma'muriyatining kelgusi faoliyat dasturida ham o'lkani ruslashtirish g'oyasi asosiy o'rinni egalladi. Oliy harbiy-siyosiy doiralari fikrini bayon etgan knyaz Masalskiy 1913 yilda bu haqda lo'nda fikr aytgan: «Turkistonda qariyb yarim asrlik hukmronligimizga yakun yasaganimizda behtiyor shunday savol tug'iladi: Bu mamlakatdagi kelgusi faoliyatimiz dasturi qanday bo'lishi lozim? Yaqin orada qanday vazifalarni amalga oshiramiz? Maqsadimiz nimalardan iborat va nimalarga intilishimiz lozim? Turkistonda navbatda hal etilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biri-o'lkani rus aholisi bilan mustamlaka qilishdir. Rossiyaga qo'shib olinganiga yarim asrcha vaqt o'tganiga qaramay, o'lkada bu aholi mahalliy musulmon nufusiga nisbatan juda ozchilikdir... Paxtachilikni har tomonlama rivojlantirish va yaxshilashga biz doim intilishimiz, bu borada sarf-harajatlarni ayamasligimiz lozim. Chunki yaqin kelajakda sanoatimizni o'z xom ashyomiz bilan ta'minlash masalasi muhim xayot-mamot masalasiga aylanadi».

Rus kapitali uchun o'lka darvozasini keng ochib bergan temir yo'l shaxobchalari o'rgimchak to'ri misol har yoqqa ildiz otib, 1885 yilda Ashxobodga, 1886 yilda Marv, Chorjuv va Amudaryogacha borib yetdi, Qoraqum sahosidan o'tgan po'lat izlar 1888 yilda Samarqandga tutashdi. 1898 yilda Marv-Kushka tarmog'i qurilib, bir yildan so'ng Farg'ona vodiysi va Toshkent ham temir yo'l bilan bog'landi. Shunday qilib, keyinchalik O'rta Osiyo temir yo'li deb nomlangan Kaspiyorti temir yo'lining uzunligi 1748 chaqirimga yetdi. Mustamlaka xom ashyo manbalarini metropoliya sanoatiga yaqinlashtirishning navbatdagi vazifasi-Turkiston-Sibir temir yo'lini qurish kun tartibiga qo'yildi. «Juda muhim iqtisodiy, mustamlakachilik va strategik ahamiyatga ega bo'lgan bu temir yo'l liniyasini zudlik bilan qurish zarurati barchaga ayon», deb yozgan edi knyaz Masalskiy.

Temir yo'l o'lkada ruslashtirish jarayonini tezlatishda katta xizmat ko'rsatdi.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat.-T.: O'zbekiston, 1994 y.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.:Sharq,1998y.
3. Bobobekov H. O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olinganmi?.(Fan va Turmush.-1989.-№8-10.
4. Bobobekov H.N. Po'latxon qo'zg'oloni.-T.: 1996 y.
5. Bobobekov H.M. Qo'qon tarixi.-T.: Fan, 1996 y.
6. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmkorligiga qarshi kurash.-T.: Sharq,1998 y.
7. Karimov SH., Shamsutdinov R. Turkiston Rusiyo bosqini davrida.-Andijon: Meros, 1995 y.
8. Majid Hasaniy. Yurt bo'ynidagi qilich yoki istilo.-T.:Adolat,1997y.
9. Muhammad Aziz Marg'iloniy. Tarixi Aziziy.-T.:Ma'naviyat,1999y.

Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1-kitob.-T.: Sharq, 2000y.

#### 10-MAVZU. CHORIZM ISTIBDODIGA QARSHI TURKISTON XALQLARINING MILLIY-OZODLIK HARAKATI. JADIDCHILIK.

**MAQSAD:** Talabalarga chorizmning mustamlakachilik siyosatining asl mohiyati, milliy, diniy, iqtisodiy zulmning og'ir oqibatlarini haqida tushunchalar berish. O'lkada jadidchilik harakatining kelib chiqishi va shakllanishi haqidagi haqqoniy ilmiy ma'lumotlarni berish.

#### REJA:

1. Turkistonda ijtimoiy - iqtisodiy va milliy zulmning avj olishi.
2. Xalq qo'zg'olonlari va ularning shafqatsizlarcha bostirilishi.
3. Jadidchilik harakatining kelib chiqishi va rivojlanishi.
4. Jadidlarning islohiy qarashlari.

Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi, o'lkani Rossiya imperiyasining agrar xom ashyo yetkazib beradigan mustamlakasiga aylantirdi. Yangi kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi mustamlakachilik tuzumi sharoitida mahalliy aholi uchun fojeali xususiyat kasb etib, o'lkada ijtimoiy qarama-qarshiliklarni nihoyatda kuchaytirib yubordi.

Turkiston metropoliya uchun nafaqat xom-ashyo, balki, davlat xazinasini uchun soliq daromadlarining ham manbasiga aylandi. O'lkada yildan-yilga soliq zulmi ortib boraverdi. Masalan, faqatgina 1900 yilda Farg'ona aholisi davlat xazinasiga yer solig'idan tashqari 4 581 620 rubl 70 kop. mablag' topshirdilar. Huddi shu yil viloyat aholisi 399 467 rubl 34 kop. miqdoridagi mahsulot solig'ini ham bajardi. Bunday rasmiy soliqlardan tashqari, volost kotiblari, oqsoqol va boshqa amaldorlarning ta'minoti uchun «jamoat tushumi» deb ataluvchi soliqlar ham yig'ib olinar edi. Natijada mahalliy aholining bo'ynidagi qarzlari miqdori yil sayin oshib borar edi. Masalan, paxtakorlarning davlat va xususiy banklardan 1912 yildagi qarzlari 156 mln. 712 ming rublni tashkil etdi. Shundan 80 mln. 979 ming rubl pul Farg'ona viloyati paxtakorlari zimmasiga tushgan edi . Bu holat paxtakor dehqonlarning xonavayron bo'lishiga olib keldi.

Mehnatga haq to'lash borasida ham keskin ijtimoiy adolatsizlik hukmronlik qilar edi. Bir xil malaka va tajribaga ega bo'lgan o'zbek ishchisining maoshi rus ishchisining maoshiga nisbatan 40-50 foizga kam bo'lar edi. Masalan, savdogar F. I. Polinskiyning paxta

tozalash zavodida rus ishchisi 70 rubl maosh olgan bir paytda, o'zbek ishchisi 11 rubl o'spirin esa 6 rubl haq olar edi. Vadyayevlar zavodida esa 1912 yil rus ishchisi bir kuniga 2 rubl 80 kop. haq olgan bo'lsa, o'zbek ishchisi esa, 70 kopeyektan 1 rublgacha olar edi.

Mustamlaka sharoitida Turkistonda nafaqat dehqonlarning, balki o'n minglab hunarmand-kosiblarning ham ahvoli ayanchli holatga tushib qoldi. Bunga Rossiya sanoati ishlab chiqargan uy-ro'zg'or ashyolari, ayniqsa, yengil sanoat mahsulotlari bilan o'lka bozorlarining to'ldirilishi sabab bo'ldi. Bu mahsulotlar bozorlardagi mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan mollarni siqib chiqara boshladi. Natijada hunarmandchilikning ko'plab turlari inqirozga uchradi. Bu esa qashshoq aholi sonining ortib borishiga sabab bo'ldi.

Milliy hunarmandlarning xonavayron bo'lishini Hamza Hakimzoda Niyoziy «Sadoyi Turkiston» gazetasidagi maqolalarining birida bunday ta'riflaydi: «...va ba'zilar yetushdura olmay butun bu hunarlaridan kechub boshqa bir yo'l va kuyg'a kirub ketmaktadurlar...har bir kasb ahli shundo g'dur...Mana bu razolat, xirachilik va xo'rlik na yerdan keldi?...Oh, hunarlarimiz! qaysi taraf g'a va kimlar qo'lig'a asir bo'ldi? Pul va mollarimiz qaysi tarafg'a hijrat etmaktadur?...Bu ho'rliklarning ilmsizlikdan kelganidan shoyad uyalgan va aqlga solib qaragan kishi bilur».

Ma'lumki, Turkistonda harbiy-polisiya boshqaruviga asoslangan mustabid ma'muriyat hukmronlik qilib, mustamlakachi podsho amaldorlari o'zlarini o'lkaning cheksiz huquqlarga ega bo'lgan hukmdorlari deb hisoblaganlar. Bunday siyosat o'lkada rus mustamlaka rejimining amalda bo'lishi uchun nihoyatda qo'l kelar edi.

Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, mahalliy xalqning tahqirlanganligi, huquqsizligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shu paytlarda podsho amaldorlari va ofiserlarining ko'chmanchi aholiga bo'lgan munosabatlarida ham mustamlakachilik siyosatining yorqin ifodasini ko'rish mumkin. Chunonchi, O'sh uyezdidagi Oloy volostiga qarashli Ergashtom ovul jamoasi tomonidan tuman pristaviga qilingan arizada ta'kidlanishicha, yashash uchun sharoitning nihoyatda og'irligidan ular hatto Xitoy imperiyasi hududiga o'tib ketishga ham tayyor ekanliklarini bildirganlar.

Shuningdek, Ergashtom rus garnizoni boshlig'i qo'l ostidagi kazak askarlari bilan birgalikda ovulga kelib, qirg'izlardan oziq-ovqat, ot-arava va chorvalarini tortib olayotgani, qarshilik ko'rsatganlarni do'q-po'pisalar bilan hatto o'lim xavfi yoki harbiy holat joriy etish bilan tahdidga solayotganlari ko'rsatilgan. Kazak askarlari nihoyatda haddidan oshgan bo'lib, qirg'izlar bilan o'z bilganlaricha muomalada bo'lganlar. Ovuillar bo'ylab aylanish yoki O'sh shahriga borib kelish uchun ular qir g'izlarning eng yaxshi otlarini tortib olardilar. Aholi garnizon uchun arpa donini topshirishlari shart edi. Lekin, ular buning evaziga o'z vaqtida va yetarli haq olmayotganliklari sababli bu majburiyatni bajarishdan bosh torta boshladilar.

Mahalliy va podsho amaldorlarining o'tkazgan zulmlari, iqtisodiy og'ir ahvol, ijtimoiy adolatsizliklar oqibatida Farg'ona vodiysi dehqonlarining bir necha bor tarqoq holdagi ko'tarilishlari bo'lib turdi. Agar 1899 yilda birgina Qo'qon uyezdida shunday «tartibsizliklar» 9 marta sodir etilgan bo'lsa, 1900 yilga kelib, ularning soni 20 taga, 1904 yilda 33 taga, 1905 yilda 55 taga, 1906 yil 63 taga va 1907 yilda esa 67 taga yetdi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sabablar viloyatda jinoyatchilikning o'sishiga ham olib keldi. Turkiston o'lkasi istilo etilgach, xalqning asrlar bo'yi e'zozlagan ahloqiy-ma'naviy qadriyatlari oyoq osti qilindi, shariat me'yorlari buzildi. Oqibatda mayda jinoyatlar-o'g'rilik, aroqxo'rlik, tovlamachiliklari soni ortib bordi. Masalan, Farg'ona viloyati bo'yicha 1906 yil 125 ta jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 1907 yilda ularning soni 131 taga, 1908 yil 174 taga, 1909 yilda esa 254 taga yetdi.

Birinchi jahon urushida Rossiyaning ishtiroki va urushdagi mag'lubiyatlar, nafaqat imperiyaning markaziy hududlarida, balki chekka mustamlakalar, xususan, Turkistonda ham xalq ommasini noroziligining kuchayishi, ijtimoiy-siyosiy faolligining ortishiga sabab bo'ldi. Bundan xavfsiragan mustamlakachilar aholining tobe holatda tutib turishning turli yo'llarini izlay boshladilar. Mahalliy aholida hukumatga, podshoh va uning oila a'zolariga sadoqat ruhini kamol toptirish uchun chor amaldorlari barcha masjidlarda podshoh va uning oila a'zolari nomiga xutba o'qilishini tashkillashtirdilar.

Turkiston general-gubernatorligi mahkamasi tomonidan Farg'ona viloyati harbiy gubernatori nomiga 1915 yil 19 fevralda yuborilgan xatda aytilishicha, birgina Farg'ona viloyati uchun imperator nomiga o'qiladigan xutbaning mahalliy tilda bitilgan 1400 nusxadan iborat matni yuborilgan. Shuningdek, ushbu xutbani viloyatning barcha masjidlarida majburiy tarzda o'qilishi buyurilgan. Bu esa Islom asoslariga mutlaqo zid bo'lib, mahalliy aholining diniy e'tiqodlarini oyoq-osti qilish demakdir.

Podsho hukumati o'lkada o'ziga tayanch yaratish maqsadida Turkiston yerlariga rus aholisini ko'chirish siyosatini o'tkazdi. Paxta ekilmaydigan hududlardagi mahalliy aholining yerlari tortib olinib, rus dehqonlariga berildi. Buning natijasida ko'chirib keltirilgan 2635 xonadonning qo'lida 1914 yilda 53 594 desyatina yer to'plandi, ya'ni har bir xo'jalikka 13 desyatınadan yer to'g'ri kelgani holda, mahalliy dehqon xo'jaliklarining har biriga bir desyatınadan ham kam yer to'g'ri kelar edi.

A.Cho'lpon o'sha kezdayoq vatan boyliklari mustamlakachilar tomonidan o'zlashtirilayotganini, bunga esa chek qo'yish lozimligini oshkora ayta olgan edi: «...Vatanimizning boyligini, tijoratimizning foydalarini chetlar cho'ntagig'a solmasdan va bermasdan o'z cho'ntagimizda olub yurmagimiz kerakdur. Bizga shundog' ishlarg'a kirishmoqg'a vaqt !... Biz ham insonmiz, insondek yashayluk !...».

O'lkadagi ayanchli ahvol, milliy hunarmandchilikning kasodga uchrashi, aholining kundan-kun og'irlashib borayotgan turmush sharoiti uni befarq qoldirmadi. U o'z maqolalari orqali mustamlakachilar tomonidan o'tkazilayotgan iqtisodiy zulm va uning salbiy oqibatlarini ochib tashladi: «...14 nchi yil ramazonda gadoylar boshqalarg'a qaraganda yuzga qirq prosent bo'lub ketgan desak ham lof bo'lmaydur...Pul va mollarimiz qaysi tarafg'a hijrat etmaktadur?...».

Imperiya manfaatlarini ko'zlab, o'lkada rus va mahalliy xalq bolalari uchun tashkil etilgan rus-tuzem maktablari zamirida bosqinchilarning g'arazli maqsadlari yotar edi. O'lkadagi dastlabki rus-tuzem maktablari «...Ulkan ruslashtirish rejasini amalga oshirishda maktab katta ahamiyat kasb etishi lozim» degan nuqta nazar bilan ish tutuvchi general-gubernator Rozenbax davrida ochildi. Ilg'or ziyolilarimiz o'sha davridayoq bu makkorona siyosatni to'g'ri anglab yetgan edilar. Bunday maktablarni Ismoilbek G'asprali ham o'z vaqtida tanqid qilgan bo'lsa, M. Behbudiy: «...Russkiy-tuzemniy maktablarig'a o'qig'onlar ziyoli tugul, hiyoli hisoblanmaydurlar. Ular faqat ruscha chalasavod kishilardir»,- degan edi.

Turkiston jadidlarining rahnamosi keyinchalik bu maktablarning ochilishidan ko'zlangan maqsadlarni bunday izohlagan edi: «...Eski hukumat zohiran bizni madaniy qilmoq uchun «russko-tuzemniy» ismida bizning uchun maktablar ochib o'z fahmlaricha bizni dunyo va oxirotning baxti, ya'ni nosoron (xrestiyon) kelturg'on missionerlarga topshirdilar. Bu maktablarga zohiran musulmon muallimidan ta'yin etib, unga 15 so'mdan 25 so'mg'acha vazifa berardilar. Albatta, bu pulg'a hech muqtadir kishi muallimlik qilmas edi. Digar boshqa tarafdin xufiya va prikazlar ila bu maktablardagi musulmon bolalarini oz ta'lim bermoqg'a va baqadri imkon umrini zoye va o'zini hayvon qilmoqg'a farmoyish qilardilar...».

Jadidlar davriy matbuotida ham rus-tuzem maktablariga nisbatan aholining qarashlarini ifoda etuvchi maqolalarni uchratish mumkin: «...Iskobelev uyezdiga tob'ye Oltiariq qishlog'ida birgina tuzemniy shko'l bor. Lekin bu maktabning o'qituv jihati butunlay tartibsiz...qarilarni qo'yaylik yoshlar ham bunga hech bir diqqat qilmaydurlar...aytur so'zlari shko'lga bola bersang yo'ldan ozadur demakdin iboratdur...».

20-yillardagi ayrim rus tarixchilari ham ushbu maktablarning asl mohiyatini ochiq bayon etgan edilar: «...Rus-tuzem maktablarining yagona maqsadi, mamlakat aholisining madaniy darajasini yuksaltirish emas, balki uni ruslashtirishdan iborat edi...».

Musulmon o'quv yurtlariga qarama-qarshi qo'yilgan rus-tuzem maktablari aholini ozchilik qismi orasida biroz e'tibor qozongan bo'lishiga qaramay, bu maktablar hech qachon ommaviy bo'la olmasligini chor ma'murlari yaxshi anglab yetgan edilar. Maorifchi F. Yegorovning ta'biricha, faqat milliy maktablarga ommaviy bo'lishi mumkin, rus-tuzem maktablari esa milliy bo'lmay, aksincha, sun'iy o'ylab topilgandir.

Shahar aholisining ahvoli ham yomonlashdi. Rossiyaning zamonaviy texnika bilan yaxshi jihozlangan korxonalarida tayyorlangan mollarning keltirilishi mahalliy xunarmandchilik mahsulotlari bozorini sindirdi. Mustaqil xunarmand, yakka ustalar olibotarga qaram bo'lib qolishdi. Hunarmandlarning ish haqi kamayib, kuniga 10-30 tiyinga tushib qoldi, xunarmandchilik korxonalarini yopila boshladi. 1871 yili Toshkentda 311 ta mustaqil ko'chilik korxonasi bor edi, 1892 yilga kelib ulardan 66 tasi qoldi, xolos. 300 ta bo'yoqchilik korxonasidan atigi 20 tasi qoldi. Xonavayron bo'lganlar chekka, tog'lik qishloqlarga bosh olib ketishardi.

Zakaspiy temir yo'li qurilgandan keyin, 1884 yildan boshlab rus korchalonlari paxtaning uzun tolali amerika navlarini joriy qila boshlashdi. 1889 yildan 1916 yilga qadar amerika paxtasi egallangan maydon (Buxoro va Xiva xonliklarisiz) 7 marta - 50 ming gektardan 343 ming gektarga ko'paydi.

Paxta yetishtirishni ko'paytirishdan faqat moliya sarmoyasi emas, balki o'sib kelayotgan ip-gazlama sanoati ham manfaatdor edi. Birinchi jahon urushi arafasiga kelib, O'rta Osiyo paxtasi Rossiyaning paxtaga bo'lgan ehtiyojini 50 foiz qondira boshlagan edi.

Paxta ekinidan soliq to'lashda sezilarli imtiyozlar berilgani va bu xom ashyoga talab ortib borayotgani dehqonlarning paxta maydonlarini kengaytirishdan manfaatdorligini kuchaytirdi.

Qishloq xo'jalik tumanlari asta-sekin ixtisoslasha bordi. 1917 yili paxta maydoni Andijon uyezdida 35 foiz, Qo'qon uyezdida 35, Skobelev uyezdida 31, Namangan uyezdida 25, Amudaryo bo'limida 18, Kattaqo'rg'on uyezdida 18, Samarqand uyezdida 8, Jizzax uyezdida 3 foiz o'rinni egallagan edi. Farg'ona viloyatining o'zi Rossiyaga jo'natiluvchi jami paxtaning 62 foizini bergan.

G'alla va meva-sazavot yetishtirishga ixtisoslashgan Samarqand viloyatida sug'oriladigan yerlar ko'paygani holda yem-hashak fondi, binobarin chorvachilik qisqargan.

Zarafshon tumanida g'allazorlar qisqarib, paxtazorlar kengaygan.

Xullas chor Rossiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishi mahalliy aholining iqtisodiy ahvolini og'irlashtirib yubordi. Milliy, diniy, iqtisodiy zulm kuchayib ketdi.

Mustamlakachilar tomonidan ommaning qattiq ezilishi, oxir-oqibatda qurolli chiqishlar va qo'zg'olonlarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, bu holat Farg'ona viloyatida keskin tus oldi. Farg'ona viloyati iqtisodiy va mehnat resurslari jihatidan Turkiston general-gubernatorligidagi yetakchi viloyat hisoblangan.

1898 yilgi xalq qo'zg'olonining shafqatsizlarcha bostirilishi, mahalliy aholidan qattiq o'ch olinishi kishilarni irodasini buka olmadi. Aksincha, xalqning mustamlakachilarga bo'lgan qahr-g'azabini oshishiga sabab bo'ldi, xolos. Yana shu kabi xalq harakatlarining paydo bo'lishidan cho'chigan podsho amaldorlari Farg'ona vodiysi aholisi ustidan nazoratni kuchaytirdilar.

Rus-yapon urushi aholining turmush darajasini keskin pasayishiga olib keldi. Urush Turkistonning iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Paxtaning xarid narxi keskin tushib ketdi.

Mustamlakachilar uchun Turkiston o'lkasi paxta yetkazib beruvchi asosiy baza hamda ijtimoiy, iqtisodiy va milliy zulm ob'jektiga aylandi. Bu zulmni amalga oshirishda, o'lka boyliklarini talashda temir yo'llar muhim vosita bo'ldi.

Dastlabki temir yo'l Farg'ona vodiysiga 1899 yil kirib keldi. 1911-1913 yillarda Qo'qon-Namangan, 1916 yilda Namangan-Jalolobod temir yo'llari qurildi. Natijada, vodik metropoliyaning oshkora sur'atdagi xom-ashyo bazasiga va tayyor mahsulotlar sotiladigan bozoriga aylandi. Shundan so'ng, paxta ekin maydonlari kengaydi va u asosiy ekin turiga aylandi. Masalan, 1899 yil Namangan uyezdida paxta ekiladigan yerlar 14 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 1911 yilda 45 ming gektarga yetdi. Viloyatda aholining qashshoqlashuvi kuchaydi, yersiz dehqonlar soni ortib bordi. Masalan, 1908 yilda Farg'ona vodiysida 18 foiz oila ekin maydonlariga ega bo'lmagan.

Iqtisodiy qiyinchiliklar xalqning zulmga qarshi ko'tarilishlarining kelib chiqishiga turtki bo'ldi. Jumladan, 1902-1904 yillarda viloyatning Pomirbo'yi tumanlarida dehqonlarning chiqishlari, 1903 yil yanvar-aprel oylarida Qo'qon uyezdining Isfara, Ganjiravon volostlarida, Marg'ilon uyezdining Avval va Chimyon volostlarida mahalliy hukimiyat zulmiga qarshi xalq chiqishlari bo'ldi.

1916 yil 25 iyundagi Podsho Nikolay Ining front ortidagi ishlar uchun yerli aholidan mardikorlikka olish haqidagi farmoni butun Turkistonda mahalliy aholining keskin noroziligini keltirib chiqardi. Bu noroziliklar ommaviy g'alayonlar, kichik amaldorlarning uylariga o't qo'yish va o'ldirishlarda o'z ifodasini topdi. Podsho farmoniga muvofiq, Turkiston general-gubernatori 1916 yil 23 avgustda buyruq chiqardi. Bunga ko'ra, faqat Farg'ona oblastining o'zidagina 51 233 kishi mardikorlikka safarbar qilinishi lozim edi.

Birinchi jahon urushining salbiy ta'siri Turkiston xalqlari boshiga ko'plab azob-uqubatlarni soldi. Paxta yakkahokimligini zo'r berib kuchaytirish, paxta ekin maydonlarining kengaytirilishi oqibatida o'lkada g'alla yetishtirish va chorvachilik orqaga qarab ketdi.

Butun o'lkada bo'lgani kabi Farg'ona vodiysida ham don taqchilligi yuzaga keldi. 1916 yili Farg'ona viloyatining odatda oladigan g'allasi 12-14 pudga kamaydi. Narx-navo keskin oshdi. Ilgari 50 so'm turadigan otning narxi 80-85 so'mga chiqdi. G'alla va nonning narxi ham oshib ketdi.

90-yillarda Turkistonda ro'y bergan eng yirik xalq harakati 1898 yilgi Andijon qo'zg'olonidir. U Andijonda boshlangan bo'lsa-da, O'sh va Namanganni ham qamrab oldi. Binobarin, uni Farg'ona qo'zg'oloni deb atalsa to'g'riroq bo'ladi. Ushbu davrdagi barcha qo'zg'olonlar kabi bo' harakat ham bostirildi. Mahalliy xalqdan qattiq o'ch olindi, jazoland.

Qo'zg'olonning sababi chorizmning paxtachilikni rivojlantirishdagi vahshiyona siyosati edi. Sharqiy Farg'ona eng yirik paxtakor viloyat hisoblanar, zotan, Turkistondagi jami paxtazorlarning uchdan bir qismi Farg'onaga to'g'ri kelardi. Xalq ommasining mustamlakachilar va boylar tomonidan ezilishi, sudxo'rlikning avj olishi va hokazolar qarzdorlar, chorakorlar, batraklarni ko'paytirib yubordi. Bu esa, tabiiy ravishda ommaning ko'tarilishini, qo'zg'olonni keltirib chiqardi.

Chor Rossiyasi tomonidan zabt etilgan Turkiston mustamlakachilik zulmining yorqin namunasiga aylandi. Mahalliy xalq turmush sharoitining yomonlashib borishi, milliy-diniy qadriyatlarining oyoq osti qilinishi, chet el sarmoyasining o'lkaga shiddat bilan kirib kelishi, o'lka boyliklarining bosqinchilar tomonidan shafqatsizlarcha talanishi ilg'or fikrli ziyolilarni befarq qoldirmadi. Shu bois milliy vatanparvar ziyolilar tomonidan mustamlaka asoratidan qutilish va taraqqiyot uchun kurashning turli yo'llari izlandi. Ushbu harakatlar natijasida vodiya ham XIX asr oxirlariga kelib jadidchilik harakati kelib chiqdi. Turkistondagi bu harakat XIX asr oxirlaridan 1938 yillargacha ma'rifatparvarlik harakatidan keng o'lamli ijtimoiy-siyosiy harakat darajasiga ko'tarildi. Ushbu vaqt oralig'ida butun Turkistonda bo'lgani kabi, vodiya'dagi ziyolilar qatlami orasida ham turli guruhlariga ajralish jarayonlari tezlashdi. Fikr va qarashlarning turlicha bo'lishiga qaramay, o'lka ziyolilarini yagona Turkiston mustaqilligi g'oyasi birlashtirib turar edi.

XX asr boshlariga kelib jahon miqyosida sodir bo'layotgan inqilobiy o'zgarishlardan xavfsiragan mustamlakachilar o'lka xalqlari ustidan siyosiy nazoratni yanada kuchaytirdilar. Buning sababi, Rossiya musulmonlari orasida pirovard maqsadi milliy mustaqillik bo'lgan jadidchilik harakatining keng yoyilishi, Turkiya, Eron inqiloblari, ilg'or yo'nalishdagi nashr va adabiyotlarning bu yerlarga kirib kelishi natijasida XX asr boshlariga kelib mahalliy aholi, xususan ziyolilarning ijtimoiy-siyosiy faolligining birmuncha oshishi edi. Arxiv hujjatlarining guvohlik berishicha, 1908 yilning boshlarida Markaziy Osiyoda bo'lgan fransuz mayori Lyakosta Turkistonda o'z milliy dasturiga ega bo'lgan yosh sartlar partiyasi borligi haqida ma'lumotlar beradi. Mayor Lyakosta, fransuz mustamlakalar vazirligi

tomonidan ushbu hududlarni o'rganish uchun maxsus vazifa bilan yuborilgan edi. Bu haqidagi ma'lumotlar fransuz matbuotida e'lon qilingach, Turkistondagi podsho amaldorlari ham yosh sartlar masalasidan tashvishga tushib qoladilar.

Aholi turmush darajasining tushib borishi, shariat me'yorlarining buzilishi, milliy va diniy qadriyatlarining oyoq osti qilinishi, jinoyatlar sonining ortib borishi, mahalliy aholining mavjud tuzumga nisbatan nafratini yanada oshirar edi. Shu bois turli ijtimoiy tabaqalar mustamlaka zulmidan xalos bo'lishning har xil yo'llarini izlardilar.

Mahfiy polisiya xizmatchisi «Tureskiy»ning 1913 yil 3 sentabrda bergan ma'lumotlariga ko'ra, shu davrda Buxoroda musulmonlarning «Ittihod» jamiyati mavjud bo'lib, bu tashkilotning asosiy maqsadi, musulmonlarni g'ayridinlar qo'l ostidan ozod qilish bo'lgan. Tashkilot 1913 yilda Mulla Qamar ismli mudarris tomonidan tashkil etilgan. Jamiyatning Buxoro atroflarida, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Qo'qon va O'sh shaharlarida ham a'zolari bo'lgan. U yerlarda ular siyosiy-diniy tashviqot ishlarini olib borganlar.

Qo'qon shahrida esa uning bosh targ'ibotchisi shaharning Sarmozor qismida yashovchi qozi Mulla Mahmud bo'lgan. O'sh shahrida esa, Eshonxon va Mulla Xolmirzalar ushbu jamiyat a'zolari bo'lishgan.

Podsho hukumati aholi faolligining oshib borayotganligidan cho'chib, Turkiston xalqlarini jahon taraqqiyotidan uzib qo'yish maqsadida musulmon davlatlaridan o'lkaga kirib kelayotgan ilg'or nashrlarni ta'qiqlash choralarini ko'rdi. Shunday bo'lishiga qaramay, birmuncha taraqqiyotga erishgan musulmon mamlakatlaridagi inqilobiy voqealar tafsilotlariga bag'ishlangan adabiyotlarning bu yerga kirib kelishi to'xtamadi. Bunday adabiyotlarning o'lkaga kirib kelishi aholi turli tabaqalarining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshishi va milliy ozodlik g'oyalarning shakllanishiga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatdi.

Masalan, 1911-1912 yillarda Turk publisisti Rafiqbek Al-A'zam tomonidan yozilgan risola o'zbek tiliga o'girilib, jadidlar tomonidan omma orasida tarqatilgan edi. Unda musulmon dinining g'arbda paydo bo'lgan sosializm, anarxizm va boshqa ta'limotlarga, umuman, ijtimoiy hayotga munosabati haqida fikr yuritilgan edi.

O'lkada milliy matbuot yuzaga kelgunga qadar Bog'chasaroyda chiquvchi «Tarjumon», Qozondan chiqadigan «Vaqf», «Yulduz» va boshqa gazeta va jurnallar Turkiston jadidlari faoliyatida o'zining sezilarli ta'siriga ega edi. Ushbu nashrlar orqali taraqqiyparvarlar dunyo xalqlarining milliy uyg'onish g'oyalari bilan tanishib borganlar. Masalan, Farg'onaning peshqadam taraqqiyparvarlaridan Ishoqxon Ibrat ham 1883-1885 yillarda Qo'qonning Tunqator madrasasida ta'lim olib yurgan paytlarida «Tarjumon» gazetasi bilan muntazam ravishda tanishib borgan. Adabiyotchi olim U. Dolimovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Ibrat tomonidan tashkil etilgan «Ishoqiya» kutubxonasida «Tarjumon» gazetasi hatto 1884 yilgi boylamlari ham bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, o'lkadagi ijtimoiy adolatsizlik, yerlilarni jaholat botqog'ida, qashshoqlikda qoldirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan chorizmning mustamlakachilik siyosati mahalliy xalq ilg'or fikrli ziyolilarining tabiiy ravishda noroziligini keltirib chiqarar edi.

Turkistonda jadidchilik harakati o'zining chuqur mahalliy ildizlariga ega. Turkiston xalqlarining ijtimoiy-siyosiy hayotda jahon xalqlaridan ortda qolayotganligini XIX asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan ilg'or fikrli ziyolilar o'z vaqtida anglab yetgan edilar. Ular bu qoloqlik iskanjasidan qutilishning yagona yo'li deb ilm-ma'rifatni tanladilar. Ushbu davrda ijod etgan shoir Zokirjon Furqat ilm-fanning taraqqiyot uchun nechog'lik ahamiyatli ekanligini anglagan holda quyidagi baytni bitgan edi:

Kerak har ilmdan bo'lmoq xabardor,

Bo'lur har qaysi o'z vaqtida darkor.

Shuningdek, ilg'or ma'rifatparvar Sattorxon Abdug'afforov ham o'zining bu sohadagi fikrlarini «Turkiston viloyatining gaziti» da quyidagicha ifodalagan edi: «...Bizlar, tavorix kitoblaridin ko'ramizkim, har bir xalq o'zlariga yaqin hamsoylarining har nav' ilmlarini har vaqt o'rganib va ham o'zlariga yaqin mamlakat xalqiga o'rgatib kelganlar...bizlarga uyat va aybdurkim, bizlarning burung'i olimlarimiz ilm bobida baland darajada turub, hatto boshqalarga ta'lim berib turgon bo'lsalar, bizlar hama xalqdin ul bobda pastlik maqomida qolsoq»□.

Ilm taraqqiyotning negizi ekanligini anglab yetgan ilg'or ziyolilar avvalo qoloqlikdan qutilishning asosiy sharti deb, ma'rifatni tanladilar. Shu maqsad yo'lida XIX asrning so'nggi choragida dastlabki yangi usul maktablari ochildi.

Farg'ona o'quv yurtlari inspektorining Turkiston o'quv yurtlari Bosh inspektoriga 1909 yil 6 dekabrda yo'llagan yangi usul maktabi haqidagi ma'lumotnomasida ko'rsatilishicha, vodiydagi dastlabki yangi usul maktabi Qo'qon uyezdida Ahmadjon qori tomonidan 1892 yilda ochildgan.

Turkistondagi jadidchilik harakatining atqli namoyandalaridan Ishoqxon Ibrat ham Qo'qonda madrasani tamomlagach, 1886 yilda To'raqo'r g'onda maktab ochadi lekin u tez orada yopiladi. Shundan so'ng Ibrat 1887 yildan 1895 yilgacha Osiyo va Yevropaning ko'plab mamlakatlarida bo'ladi. o'ndan ortiq chet tillarini o'rganadi, g'arb ilm-fani va texnikasi yutuqlari bilan tanishadi. Safardan qaytgach esa o'z yurti taraqqiyoti uchun izchil amaliyotga kirishib, jadidchilik harakatining faollaridan biriga aylanadi.

Jadidlarning harakati tufayli XX asr boshlariga kelib vodiya o'nlab yangi usul maktablari faoliyat ko'rsatmoqda edi. Ayniqsa, Rus-Yapon urushidagi mag'lubiyatdan so'ng boshlangan ijtimoiy siyosiy harakatlardagi jonlanish turkistonlik jadidlar faolligining oshuviga katta turtki bo'ldi va jadidchilik harakati ushbu jarayonlar ta'sirida siyosiy tus ola boshladi.

Taraqqiyparvarlar omma orasida ma'rifatni keng yoyish, millatning siyosiy ongini yuksaltirish borasida ommaviy nashrlar, bosmaxonalar ochildilar, teatr tomoshalarini tashkil etdilar. Bu borada Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Abdurauf Fitrat va boshqalarning xizmatlari beqiyos bo'ldi.

Turkiston o'lkasidagi dastlabki taraqqiyparvar jamiyatlar, tadqiq etilgan manbalar bergan ma'lumotlarga ko'ra, 1905-1907 yilgi birinchi rus inqilobidan so'ng, Eron va Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy harakatlar ta'sirida vujudga kelgan. Osiyo mamlakatlaridagi inqilobiy harakatlar, musulmon dunyosidagi, xususan, Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va diniy fikrlarning taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib xizmat qildi.

1904-1905 yillardagi Rus-yapon urushida Rossiyaning mag'lubiyati imperiyadagi barcha ezilgan xalqlar oldida mustabid podsho tuzumi obro'sini keskin tushishiga olib keldi. Bu esa siyosiy fikrlar rivojiga turtki berib, milliy ozodlikka erishish orzularini ushalishiga ishonch uy g'otdi. Sharqdagi inqiloblar va o'lkaga u yerlardan kirib kelgan turli xil g'oyaviy oqimlar bu yerlardagi muxolif kuchlarning birlashishi, milliy-siyosiy tashkilotlar holiga kelishi va rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Umumiy diniy va milliy maqsadlar yo'lidagi mushtaraklik Rossiyaning ilg'or musulmon ziyolilarini yagona g'oya tevaragida jipslashishga chorladi. Va nihoyat, 1905 yilning 15 avgustida Nijniy Novgorodda Rossiya musulmonlarining I s'yezi chaqirildi. S'yezdga Rossiyaning turli mintaqalaridan 150 ga yaqin delegatlar tashrif buyurdilar. Birinchi musulmon s'yezi Butunrossiya musulmonlari ittifoqi («Ittifoqi musulmin»)ni tuzilganligini e'lon qildi. Ittifoq Nizomi esa, «Kaspiy» va «Hayot» gazetalarining muharriri bo'lgan Alimardonbek To'pchiboshev tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, 1906 yil yanvar oyida Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan musulmonlarning II s'yezida tasdiqlandi.

«Ittifoq» dasturi esa, 1906 yil 16-21 avgust kunlari Nijniy Novgorodda bo'lib o'tgan Butunrossiya musulmonlarining III s'yezida qabul qilindi. «Ittifoqi musulmin»ning tuzilishi Rossiya musulmonlari ijtimoiy-siyosiy harakatlari rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Birinchi jahon urushi yillarida o'lkada ziyolilari ijtimoiy-siyosiy hayotga faol aralasha boshladilar. Xuddi shu davrda Turkistonda ham milliy nashrlar va jamiyatlar soni ortib borib, jadidlar tomonidan qoloqlikdan qutulish va milliy taraqqiyot sari dadil qadamlar tashlana boshladi.

1916 yil Qo'qon shahrida taraqqiyparvarlar tomonidan «G'ayrat» jamiyati tuziladi. Bu jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, birinchidan, yangi usul maktablarini darslik, daftar va o'quv qurollari bilan ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, yerli xalq orasida kitob, gazeta va jurnallarni mahalliy tilda chop etib, tarqatishdan iborat bo'lgan.

Mustamlakachilar tomonidan Toshkentda chop etiladigan jadidlarning «Sadoyi Turkiston» gazetasi yopib qo'yilgach, taniqli jadid Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'javev Toshkentdan Andijonga kelgan edi. Uning Andijonga kelishi ham hukmron mustabid hukumatning milliy taraqqiyparvarlarga qarshi olib borgan ta'qib va tazyiqlar o'tkazish siyosatining natijasidir. Milliy matbuotimizning qaldirg'ochlari «Taraqqiy», «Hurshid», «Shuhrat» va boshqa gazetalarning hech qancha soni chiqmasdan yopib qo'yilishi, chor ma'murlarining o'lkada halqlarini har jihatdan asoratda saqlashga intilib olib borgan siyosatining bir ko'rinishi edi. Xuddi shunday ayanchli qismat «Sadoyi Turkiston» gazetasi boshiga ham tushdi. Shundan so'ng muharrir Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'javev gazetani Andijonda chiqarishga harakat qildi. Biroq, Farg'ona viloyati harbiy gubernatori Asadullaxo'javevning gazeta chiqarishiga ruxsat bermaydi.

1916 yilga kelib jadidlar tomonidan Andijon shahrida «Taraqqiyparvar» jamiyati tuzildi. Bu davrda o'lkada jadidlarining siyosiy faolligi ancha oshgan bo'lib, ular o'z yig'ilishlarida, gazeta va jurnallardagi maqolalarida ma'rifiy mavzular bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni ham ko'tarib chiqi boshlaganlar. Andijondagi bu jamiyat taniqli jadid Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'javev rahbarligida tuzilgan bo'lib, bu haqda chor ayg'oqchilari ham tez orada xabar topadilar.

Farg'ona viloyati harbiy gubernatorining farmoyishi asosida Andijon uyezdida «Taraqqiyparvar» jamiyati haqida yashirin so'rov va tekshiruvlar o'tkaziladi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, tashkilot safida mahalliy millat vakillaridan tashqari Chaykin, Shapiro va Okun kabi shaxslarning borligi, tashkilot rahbarligi Asadullaxo'javev qo'l ostida ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Uchastka pristavi Birshterning ta'biricha, jamiyat tashkiliy jihatdan yaxshi uyushtirilgan.

Butun Turkiston o'lkasida bo'lgan kabi, Andijonda ham mustamlakachi ma'murlar jadidlarni o'zlarining eng xavfli dushmanlari deb bilar edilar. Taraqqiyparvarlar xalq orasida tashviqot-targ'ibot ishlarini yaxshi yo'lga qo'yganlar.

Xalq orasida o'z nufuziga ega bo'lgan mahalliy boylardan Ahmadbekhoji Temirbekov, Poshshaxo'ja Umarxo'javev, uyezd sudyasi tarjimoni O'razaliyev Akbarali Boytursunovich va boshqalar ushbu jamiyat a'zolari edilar.

Shunday qilib, aytish mumkinki, XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat g'oyat og'ir bo'lib, mahalliy aholining huquqsizligi, tahqirlanishi haddan oshgan, Vodiy mustamlakachilar uchun arzon ish kuchi va xom ashyo bazasiga aylanib qolgan edi. Ilg'or ziyolilar Turkiston metropoliyaning xom-ashyo bazasiga aylanishi bilan birga, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jabhalarda jahon taraqqiyotidan ortda qolayotganligini sezdilar. Vatan taqdiri haqidagi bunday o'ylar oxir-oqibatda mustaqillik uchun kurashning o'ziga xos yo'llarini izlab topishni taqozo etdi. Mavjud vaziyatda, ya'ni, kuchli siyosiy-harbiy tayanchga ega bo'lgan mustamlakachi hukumat bilan millat kelajagi yo'lida bellashishning yagona yo'li, xalqni dunyoviy ilm-fan bilan qurollantirish, xalqaro talablar doirasidagi mutaxassislar tayyorlashdan iborat edi. Bu esa o'z o'rnida jadidchilik harakatining kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Jadidchilik harakati dastlab haqli ravishda ma'rifatparvarlikdan boshlandi. Turkistonda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li, Fayzulla Xo'javev, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Asadullaxo'javev, A. Zohiriy, O. Mahmudov, I. Ibrat, Hamza, Cho'lpon, A. Ibodiy, Dadamirza qori va boshqalar edi.

Rus mustamlakachiligiga qarshi kurash turli ko'rinishlarda bo'lsa-da, davom etdi. Bu kurash boshida millatning ilg'or fikrli ziyolilari turdilar. Dastlab maktab-maorif, yosh avlod ta'lim va tarbiyasini isloh etish g'oyasidan boshlangan bu harakat, keyinchalik o'z ichiga siyosiy muammolarni ham keng ko'lamini qamrab oldi.

Avval maorifni isloh qilishdan boshlangan Turkiston o'lkasidagi jadidchilik harakati 1917 yil fevral inqilobidan keyin yangi sifat o'zgarishlarini boshidan kechira boshladi. 1908-1917 yillar ichida turkistonlik taraqqiyparvar kuchlar asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, yagona siyosiy kuch sifatida birlashib, o'z tashkilotlariga va ommaviy nashrlariga ega bo'ldilar. So'ngra o'lkada milliy-demokratik davlatchilikni tiklash ishlarida faol ishtirok etdilar. Yagona maqsad yo'lida ushbu tashkilotlar nomidan tashviqot va targ'ibot ishlarini olib bordilar.

Turkiston jadidlari ham o'lkadagi boshqa taraqqiyparvarlar qatori o'zlarining dastlabki faoliyatlarini ma'rifatparvarlikdan boshlagan edilar. Vatanni ozodlikka, milliy mustaqillikka yetaklashdek muqaddas g'oya eng ilg'or qarashli jadid ziyolilarning fikrida bo'lgani holda, mavjud sharoitda uni amalga oshirish mushkul edi. Unga faqat tinimsiz ma'rifiy-siyosiy faoliyat orqaligina erishish mumkin edi. Jadidlar yurt istiqlolini va taraqqiyotini zamonaviy bilimlar bilan qurollangan yetuk mutaxassislarsiz tasavvur eta olmaganlar. Shu maqsad yo'lida o'tgan asr oxirlarida jadidlar butun Turkistonda yangi usul maktablari ochish zarurligini angladilar va ularni tashkil etish uchun harakat boshladilar.

Shunday maktablarning tashkil topishiga bir tomondan chor ma'murlari, ikkinchi tomondan ijtimoiy voqelikka o'zining tor dunyoqarashi nuqtai-nazardan baho beruvchi kishilar to'sqinlik qildilar.

Turkiston xalqlari turmushidagi har bir yangilik mustamlakachi ma'murlar nazaridan chetda qolmagan, albatta. XX asr bo'sag'asida o'lkamizda yangi usul maktablarining paydo bo'lishi ham ularni g'oyatda tashvishga sola boshladi.

Jadidlar halqni ilm - ma'rifatda, haq-huquqda dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan teng, baqamti ko'rmoqni orzu qildilar. Butun ahli-vujudini mana shu muqaddas ishga-millatning ravnaqi va muhofazasi yo'lga sarf etdilar. Bu shunchaki mutaassibona bir orzu emas, zamonasining baland-pastidan xabardor, tarix va taqdirni teran anglagan, Sharqni ham G'arbni ham bab-baravar bilgan va ko'rgan kishilarning aniq va rejali hatti-harakati edi.

Jadidlarning yangi sharoitlardagi faoliyatlari bir necha yo'nalishlarda kechdi. Avvalo ma'rifatparvarlik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qoldi. Jumladan, ular chor tuzumning zulmi nisbatan yumshagan sharoitda yangi usuldagi maktablarni tashkil etish bo'yicha kuch-g'ayratlarini sezilarli darajada kuchaytirishdi. 1910 yilga kelib o'lkaning turli joylarida 50 ga yaqin bunday maktablar tashkil etildi. Toshkent va Qo'qon jadid maktablarining yirik markazi bo'lib qoldi.

1917 yil fevral inqilobi boshlariga kelib chor hukumati tomonidan Turkistonda 4 mingdan ortiq bola o'qiydigan 100 ga yaqin yangi usuldagi maktablar ro'yxatdan o'tkazilgan, shulardan 39 tasi - Sirdaryo, 30 tasi - Farg'ona, 18 tasi - Yettisuv, 5 tasi - Samarqand viloyatlarida joylashgan. Ularning hammasi xususiy mablag'lar hisobiga faoliyat yuritardi. O'qish pullik bo'lgani bilan uning miqdori oyiga 50 tiyindan 3 so'mgacha edi.

Jadid matbuoti jadidchilik g'oyalarning jarchisi bo'lib maydonga chiqdi. «Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona», «Hurshid», «Oyna» va boshqa gazetalari sahifalarida ilm-ma'rifat ulug'langan, yangi usul maktablari targ'ib qilingan, bid'at-xurofotlar, xalqimiz orasidagi zararli va nohush odatlar - aroxo'rlik, tamaki chekish, dabdabali to'ylar o'tkazish, isrofgarchiliklar keskin tanqid qilingan.

Turkiston jadidlarining birinchi milliy gazetasi 1906 yil 27 iyunda «Taraqqiy» nomi bilan chiqdi, unga taniqli jamoat arbobi Ismoil Obidov (Gabidov) muharrirlik qildi. Shunisi diqqatga sazovorki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 25 iyun qarori bilan ushbu gazeta birinchi sonining chiqqan kuni «Matbuot kuni» sifatida keng nishonlanmoqda.

«Taraqqiy» bilan bir qatorda Toshkentda turkistonlik jadidlarning 1906 yilda «Hurshid», 1907-1908 yillarda «Shuhrat», «Tujjor» gazetalari paydo bo'ldi. «Hurshid» va «Shuhrat» gazetalari Turkistonda muxtoriyatchilik harakatining bo'lg'usi

yo'lboshchilaridan biri Munavvar qori, «Tujjor» gazetasi esa Toshkentlik yirik boy Saidkarimboy Saidazimboy o'g'li tomonidan nashr etilgan.

Turkistonda bundan keyin bir qator jadid gazeta-jurnallari - «Osioy», «Samarqand», «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona», «Oyna», «El bayrog'i», «Turon» va boshqalar paydo bo'ldi. Jadidlarning bu bosma nashrlari 1905 yilda Rossiya Konstitusiyasi yumshatilgan senzura qabul qilgandan so'ng yuzaga kela boshladi. Ularning ko'pchiligi qisqa muddat chiqqan bo'lsa-da islohotchilar g'oyalari tarqatishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Jadidlarning islohotchilik g'oyalari asosan matbuot orqali targ'ib qilinar edi.

Masalan, Cho'lpon milliy qadriyatlar, milliy urf-odatlar himoya qilishga bag'ishlangan maqolalarining birida shunday deydi: «...Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'poning mo'dosidan, shishasidan, buzuq ahloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki, ilm, fan, hunar, sanoatga o'hshashlik madaniyatlaridan namuna olub, bul jihatdan taqlid qilmog'imiz lozimdur. Ovro'poning mo'dosi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz!!!».

Cho'lpon har sohada zamon talabiga mos ish tutish tarafdori edi. Jumladan, iqtisodiyotda Yevropaning texnika yutuqlaridan foydalanish zarurligini u quyidagicha ifodalaydi: «Ovro'poning maktab, madrasa, ilm - fan, sanoat, hunarga o'xshash madaniyatlari sizlarni obod, ma'mur olim qilib, johillikdan, asorat qulligidan qutuldurodir. Birodarlar ko'zlaringizni ochub yaxshi o'ylanglar!!!...». Cho'lpon dehqonlar uchun maxsus banklar ochish lozimligini va bu kabi tadbirlarning afzallik tomonlarini bayon qilib beradi: «...Amriholiklar ekin asboblari ishlatub, biz 10 kishi 10 kunda qil'g'on ishimizni, onlar 2 kishi bilan 10 soatda qilmoqdadurlar!... Shul oson asboblari Rusiyani butun dehqonlarida bordur. Bizlar ham shul ekin asboblari olib ishlatsak og'ir mehnatlarimiz yengillanur edi...».

Mashhur jadid Abdulvahob Ibodiyev o'zining maqolalarining birida ilm-fan taraqqiyoti haqida qimmatli fikrlar beradi, ilmsizlik oqibatidagi xalqning holati bayon etiladi: «Ilm-sharaf va boyliklari (qo'llarida bo'lg'on tijorat va kasblari) boshqalarga o'tub, bellari tamom bukulub, ming xo'rlik bilan umr o'tkazmoqdalar...». Chor mustamlakasi davrida mazlum xalq vakili sifatida bu fikrni ochiq bayon etish, albatta, jasorat edi. Turkiston ahli boshiga yoqqan bu balolardan qutilishning yo'li - maorifni isloh qilish, asosiy e'tiborni ta'lim-tarbiya ishlariga qaratish, Orenburg, Qozon, Ufa kabi shaharlariga talabalar yuborish, qimmatlik boylar yordami ila maktab binolarini zamonaviy holga keltirish lozim ekanligini ta'kidlab o'tadi: shundagina «...tez fursatda Turkistonimiz xalqining ilm va ma'rifat tobmoqlari tabiiydur», -deb, kelajakka umid bilan boqadi.

Yangi usuldagi maktab xonalarining ichki tuzilishi, eski maktablardan parta, yozuv taxtasi, geografik xarita va o'qituvchi uchun stol-stulning borligi bilan ajralib turgan. Maktablarda bolalar 2-3 yil o'qishni davom ettirganlar. Usuli savtiya maktablari eski usul maktablaridan ta'limning sifati bilan ham farq qilgan. Bu e'tiroflar o'sha davr matbuotida ham o'z aksini topgan. Masalan, Andijondagi Azim Qodirov maktabi 3 sinfli bo'lib, 1-sinfda bolalarga o'qish va yozish, 2-sinfda tajvid, hisob, 3-sinfda esa ibodati islomiy, sarfi turkiy o'rgatilgan. 1900 yil may oyida Otabek qo'zi ishtirokida ushbu maktab o'quvchilaridan imtihon olingan. O'quvchilar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirganlar. Imtihon ishtirokchilaridan Tojiddinbek Otabekov yozganidek: «...Eski zamon maktablari birlan usuli jadid maktabini farqi nihoyat darajada ma'lum va ravshan bo'ldi. Usuli jadid maktabi birlan eski zamon maktablarini bir joyga bormoq uchun otash aroba birlan piyoda odimga misol qilsak ham to'g'ridur...».

Jadid maktablarining soni ortib borgan sari, ulardagi ta'lim tizimi ham takomillashib borgan. Imtihonlar keng xalq ommasi ko'z o'ngida, qishloq yoki shaharlarning ilg'or ziyolilari davrasida «Imtihon majlisi» nomi bilan o'tkazilgan. Bunday holatlarda yangi usul maktablari o'zining afzallik tomonlarini to'liq namoyish eta olgan.

Jadidlar ma'rifatchilik faoliyatining yana muhim bir tarmog'i - teatr san'ati edi. Turkiston teatr san'atining to'ng'ich sahna asari Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» dramasi edi. Bu asar Samarqand, Toshkent va boshqa shaharlarda ijro etilgach, 1914 yilning fevral oyi oxirlarida muallif boshliq Samarqandlik havaskorlar va mahalliy yoshlar hamkorligida Qo'qonda ham sahnaga qo'yiladi.

Teatr orqali ma'rifat tarqatish g'oyasiga e'tibor qaratib, Andijon jadidlari ham 1914 yilning 6 iyunida «Padarkush»ni sahnaga qo'ydilar.

Taraqqiyparvarlar xalq ommasini milliy urf-odatlarini asrab-avaylashga, ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirishga chorladilar, hashamdor to'ylar, serharajat va sermashaqqat azadorlik marosimlari, to'y va azalarni riyokorlik, dabdababozlik bilan o'tkazishga jiddiy ravishda qarshi chiqdilar.

Ijtimoiy-siyosiy hayot faollashuvining muhim ko'rsatkichi sifatida nashriyot, xususan, matbuot faoliyatining keskin jonlanganligini ko'rish mumkin.

Jadidlarning ma'rifatparvarlik mafkurasi ijtimoiy jihatdan ancha boy va rang-barang bo'lgan. Unda hozirgi kunimizda ham jamiyatni to'liqlantiradigan, hayajonga soladigan tarixiy vazifa va masalalar o'z aksini topgan.

Jadidchilik harakati tarixini o'rganish bugungi kunda shuning uchun ham dolzarbki, bu harakat vakillari istiqlolimiz uchun o'sha davrdayoq kurash boshlaganlar. Avval boshda ma'rifat sohasida faoliyat ko'rsatgan jadidlar, asta-sekin ijtimoiy taraqqiyot kurashchilari sifatida maydonga chiqdilar.

Jadidchilik dastlab madaniy - ma'rifiy oqim sifatida paydo bo'lganligi tabiiydir, albatta. Chunki, ilg'or musulmon ziyolilari ijtimoiy va mustamlakachilik zulmining asosiy sabablarini zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bexabarlikdan va maorif ishlaridagi qoloqlikdan izladilar. Shu sababli, ular mavjud ijtimoiy muammolarni hal etishning yagona yo'li ta'lim islohoti deb qaradilar va ma'rifatparvarlikka asosiy e'tibor berdilar. Yangi usul maktablari, kutubxonalar ochdilar, darslik, o'quv qo'llanmalari yozdilar va nashr ettirdilar.

Ayni paytda ular inson huquqlari, milliy, diniy, iqtisodiy erkinliklar kafolatlangan, huquqiy-demokratik milliy davlatchilikning nazariy asoslarini yaratishga harakat qildilar.

#### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov I.A. Istiqol va ma'naviyat. -T.: O'zbekiston, 1994 y.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -T.: Sharq, 1998 y.
3. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovvuzi va hukmronligiga qarshi kurash. -T.: Sharq, 1998
4. Ziyoyev H. Jadidlar harakatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy zamini (XIX asr oxiri XX asrning boshlari) ((Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. -T.: Universitet, 1999. -B.9-22.
5. Sodiqov H. Ubaydulla Asadullaxo'jayev ((Inson va Siyosat. -1991. - № 11. -B.69-76.
6. Sodiqov H. Turkiston uch inqilob davrida ((Fan va Turmush. -1990. -№1. -B.13-15; №2. -B.28-20; №3. -B.14-15.
7. Sodiqov H. Shamsuddinov. R. Ravshanov P. Jadidlar va rus demokratlari ((O'zbekiston ovozi. -1997. -18, 20, 23, 25, dek; 1998. -5, 8, 15 yanv.
8. Tojiboyev R. Mustamlakachilar va milliy matbuotimiz ((Jamiyat va Boshqaruv. -1997. -№2. -B.61-62.
9. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis fakultetlari talabalari uchun darslik /R.Murtazayevaning umumiy tahriri ostida. -T.: Yangi asr avlodi, 2003. -676b.
10. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. -T.: Eldinur, 1998 y.
11. O'zbekistonning yangi tarixi. Konseptual metodologik muammolar. -T.: Akademiya, 1998

12. Qozoqov T. Jadidchilik va milliy mafkura ((Fidokor.-1999.- 8 iyul.
13. Qozoqov T. «Taraqqiy» gazetasi haqida ((O'zbekiston tarixi.-2001-№1. B. 63-69.
14. Qosimov B. Ismoilbek Gaspirali.-T.: Adabiyot va san'at,1992 y.

## 11-MAVZU: TURKISTONDA MUSTABID SOVET HOKIMIYATINING O'RNATILISHI. ISTIQLOLCHILIK HARAKATI.

**MAQSAD:** Petrograddagi 1917 yilgi siyosiy voqealar, uning Turkistonga ta'siri, milliy jamiyat va tashkilotlarning tuzulishi, taqdiri, ahamiyati haqida, Turkiston Muxtoriyati va uning fojeali taqdiri, tariximizda tutgan o'rni haqida talabalarga haqqoniy ilmiy ma'lumotlarni yetkazish.

**REJA:**

1. Fevral inqilobi va oktabr davlat to'ntarishining Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri.
2. Turkistonda muxtoriyatchilik harakatining shakllanishi. Milliy davlatchilikni tiklash uchun kurash.
3. Turkiston Muxtoriyatining tor-mor keltirilishi. Istiqlolchilik harakatining kelib chiqishi, natijalari.

Rossiyadagi 1917 yilgi fevral inqilobi, 300 yildan ortiqroq hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasining taxtdan ag'darilishi o'lkadagi taraqqiyparvar kuchlar tomonidan ham zo'r hursandchilik bilan qarshi olindi. Petrogradda Muvaqqat Hukumat tuzildi. Bu hukumat hokimiyatni Ta'sis majlisiga qadar boshqarib turishi kerak edi. Yangi hukumat imperiyaning barcha xalqlari uchun demokratik -siyosiy erkinliklar e'lon qildi.

Ayni paytda mahalliy ilg'or ziyolilar ham zudlik bilan milliy jamiyat va nashrlar uchun harakat boshladilar.

1917 yil mart oyining boshlarida o'lka musulmon ziyolilarining «Sho'roi Islomiy» jamiyati tuzildi. Bu tashkilotning vujudga kelishi tasodifiy bo'lmay, balki Turkiston xalqlari siyosiy fikrlari tadrijiy rivojlanishining qonuniy mahsuli edi. Uning tarkibini turli xil dunyoqarashdagi, biroq, milliy ozodlik g'oyalari o'zlarining asosiy maqsadi deb bilgan o'lka ziyolilari tashkil qilar edi.

Ushbu tashkilotning yuzaga kelishida Turkiston jadidlari muhim rol o'ynadilar. Tez orada turli shaharlarda «Sho'roi Islomiy»ning sho'balari tashkil topdi. Jadidlar ommani «Sho'roi Islomiy» atrofida jipslashishga da'vat etdilar.

Turkiston o'lkasiga muxtoriyat berish masalasi birinchi bor musulmonlarning I Butun-Turkiston s'yezdida (1917 i. aprel) qo'yildi. Shuningdek, bu masala «Sho'roi Islom» Markaziy Qo'mitasi doirasida ham muhokama qilingan edi. «Kengash» gazetasining dalolat berishicha, Markaziy Qo'mita a'zolari muxtoriyatni shunday tushunishar edi: Turkistonning o'ziga maxsus idora va ijroiya muassasalari, ya'ni qonun ishlab chiqadigan parlamenti, ish yuritadigan hukumati bo'lishi lozim. Tashqi siyosat, moliya, yo'llar, harbiy ishlar Umumrossiya Federasiyasi hukumati ish deb hisoblandi. Maorif ishlari, mahalliy yo'llar masalasi, mahalliy idoralar, adliya hamda yer masalalarining hammasi mahalliy muxtoriyat hukumati doirasidagi ishlar deb qaraldi.

Muxtoriyat masalasi musulmonlar orasida 1917 yil may oyining boshida Moskvada bo'lib o'tgan Butunrossiya musulmonlarining birinchi s'yezdidan keyin yanada faolroq qo'yila boshladi. Biroq s'yezd rahbarlari har qancha harakat qilishmasin, yagona fikrga kelish nihoyatda mushkul bo'ldi. Chunki, mamlakatning musulmonlar yashaydigan hududlari muxtoriyati xususidagi masala keskin bahs va tortishuvlarga sabab bo'lgan edi. Muxtoriyat xususidagi tortishuvlar, chiqishlar s'yezdni ikkiga bo'lib yubordi. Natijada, Rossiyaning Turkiston, Qirg'iziston, Kavkaz, Qrim va hokazo o'lkalari vakillari federativ respublika tarafdori bo'lganliklari uchun o'zlarini «federalistlar», Rossiyaning ichki guberniyalari va Volga bo'yi musulmonlari vakillari esa unitar (bir butun, qo'shma) respublika tarafdori bo'lganliklari uchun o'zlarini «unitaristlar» deb atadilar. Lekin, har qalay s'yezd demokratik ruhdagi qarorni qabul qilishga muvaffaq bo'ldi. Unda Ta'sis majlisiga saylovlar o'tkazish haqidagi qonun loyihasini tayyorlash bo'yicha maxsus komissiya tuzildi. Turkiston o'lkasidan Ubaydulla Xo'jayev ana shu komissiya tarkibiga a'zo bo'lib kirdi.

1917 yilda Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi eng muhim masalalardan biri, bu Turkistonda yangi boshqaruv usulidagi davlatchilikni tashkil etish edi. O'sha tarixiy shart-sharoitlarda milliy davlatchilikka ega bo'lish g'oyasi turli tashkilot va partiyalarning o'zaro kurashida asosiy qurolga aylangan edi. Jadidlarning intilishlari Turkistonda federasiya asosida milliy-demokratik davlatchilikni barpo etishga qaratilgan edi. Jadidlarning muxtoriyat (avtonomiya), davlatchilik to'g'risidagi g'oyalari o'sha paytdagi Rossiyada mavjud siyosiy-ijtimoiy va inqilobiy ahvol bilan bog'liq holda shakllanib keldi. Ular mustamlaka xalqlarning Rossiyadan butunlay mustaqil bo'lib chiqib ketishlarini hali kun tartibiga qo'yolmagan edilar. Chunki Rossiyadek qudratli imperiya changalidan asta-sekinlik bilan, oqilona nozik siyosat yurgizish orqali butunlay mustaqillikka erishish mumkinligini jadidlar yaxshi anglaganlar.

12-14 iyul kunlari Skobelev shahrida Farg'ona viloyat musulmon tashkilotlari vakillarining navbatdagi s'yezdi bo'lib o'tdi. Ushbu s'yezdga 137 delegat ishtirok etdi. Anjuman barcha musulmon tashkilotlarini siyosiy jihatdan birlashishga chaqirdi.

Ushbu s'yezdning muhim ahamiyati, «Turk Adami Markaziyati» firqasining tuzish haqida qaror qabul qilinishi bo'ldi. Delegatlar tuzilajak firqaning nizomnomasi va maromnomasi loyihasi bilan qisqacha tanishtirildilar. Turkistonning ko'plab shaharlarida yangi partiyaning tashkiliy yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Jumladan, 23 avgust kuni Andijonda «Havaskoroni maorif», «Turon», «Talabalar jamiyati» tashkilotlari vakillari tomonidan «Turk Adami Markaziyati» federalistlar firqasining Muvaqqat qo'mitasi tuzildi. 20 avgustda Marg'ilon shahrida 2 000 kishilik miting bo'lib o'tdi. Unda mahalliy «Sho'roi Islomiy» tashkiloti faollari yig'ilganlarni shaharda federalistlar firqasi sho'basini tuzishga chaqirdilar.

Taraqqiyparvar ziyolilar tomonidan ishlab chiqilgan firqaning maromnomasini o'lkada demokratik ko'rinishdagi davlat qurishning nazariy asosi edi deyish mumkin. Bu fikrni Maromnomaning quyidagi bandleri bilan izohlash mumkin: «Firqaning maqsadi: 1)Rusiyada mahalliy va milliy adami markaziyat (federasiya) asosi uzra Xalq Jumhuriyati tashkil etmakdur. 2) Firqa Turkiston, Qirg'iziston, Qofqoz va Boshqirdiston qit'olari ( o'lkalari) uchun va boshqa milliy va mahalliy muxtoriyat, Idil bo'yi ila Qrim totorlari uchun va boshqa Rusiyada yashaydurgon turk qavmlari uchun milliy muxtoriyat talab qiladur...4)Millatning yigirma yoshga yetub, aqliyat paydo qilg'on har bir fardi: er bo'lsun, xotun bo'lsun- sinf, din va mazhab ayirmasig'a boqmasdan saylamak va saylanmak haqina molikdur. 5)Yuqorida mazkur barcha muxtoriyatli qit'alar markaziy hukumat ila Vatan mudofaasi, pul chiqarmak, boj va xorijiy hukumatlar ila munosabatda bo'lmoq xususlarida aloqa va irtibotini (bog'liqlikni) muhofaza qilur. 6) Muxtoriyatli qit'alar dohilily mas'alalar (idoriy, moliy, shar'iy, madaniy, adliy va maorif ishlari)da mustaqildur...».

1917 yil fevral inqilobi bergan demokratik imkoniyatlar Turkiston xalqlari uchun katta ahamiyatga ega edi. Ayni shu kezlarda yurt mustaqilligi uchun harakatga milliy ziyolilarimiz astoydil intildilar. 1917 yil fevralidan keyin Turkistonda tez orada «Kengash», «Yurt», «Tirik so'z», «Hurriyat», «Ravnaql Islom», «El bayrog'i» «Najot», «Ulug' Turkiston» kabi gazeta-jurnallar dunyo yuzini ko'rdi. Jadidlar matbuot sahifalarida chop ettirgan maqolalari orqali mavjud ijtimoiy jarayonlarga nisbatan o'zlarining siyosiy munosabatlarini bildirib bordilar. Demokratik Rossiya tarkibida muxtoriyat tashkil qilish uchun kurash 1917 yil davomida taraqqiyparvarlarning asosiy maqsad - intilishlari bo'ldi.

Turkistonning ilg'or jadid ziyolilari va qadimgilari orasidagi ziddiyatlar milliy ozodlik kuchlari safida parchalanishga olib keldi. Tashkiliy jihatdan bu xol 1917 yil iyun oyining o'rtalarida «Sho'roi Islom» tashkilotidan ajralib chiqib, «Sho'roi Ulamo» jamiyati tuzilishida ifodalandi. «Sho'roi Ulamo» jamiyati a'zolari ruhoniyat tarafdorlari bo'lib maydonga chiqdilar. Ular o'z g'oyalari targ'ibot qilish uchun «Al-Izoh» jurnalini chiqara boshladilar. Jurnal noshiri va muharriri Abdumalik Hoji Nabiyev bo'lib, uning birinchi soni 1917 yil 19 iyunda chiqqan edi. Jurnal sahifalarida asosan diniy masalalarga ko'proq, e'tibor berilib, ahloq, madaniyat, ijtimoiy hayot ruhoniyat nuqta nazaridan targ'ibot qilindi.

1917 yil kuzida davom etayotgan imperialistik urush natijasida mamlakatda ocharchilik, ishsizlik avj oldi, iqtisodning tanazzuli yanada chuqurlashdi. Bu esa o'z navbatida mehnatkash ommaning noroziligini kuchaytirdi hamda markaz va joylarda hokimiyatning inqiroziga olib keldi. Bunday vaziyatdan foydalangan Toshkent ishchi va soldat deputatlari Soveti (Tashsovet)ga kirgan bolsheviklar «Butun hokimiyat Sovetlarga» degan shiorni ko'tarib chiqdilar va tezda inqilobiy Qo'mita tashkil qilishni taklif etdilar. Biroq, mahalliy milliy tashkilotlar boshqa fikrda edilar. Markaziy «Sho'roi Islom»ning tashabbusi bilan 1917 yil 7—11 sentabrda Toshkentda bo'lib o'tgan II O'lka musulmonlar s'yezdida quyidagicha qaror qabul kilindi: «S'yezd hokimiyat ishchi, soldat va krestyanlar Sovetlariga o'tishiga qarshi chiqadi. Hokimiyat koalision bo'lishi va mamlakatning hamma kuchlariga tayanishi, bu degani umum xalq hokimiyati bo'lishi kerak».

Mahmudxo'ja Behbudiy ham din va millatni ittifoq etishga, islohot o'tkazishga, ziyoli va taraqqiyparvarlarni, boy va ulamoni birlashtirishga da'vat etdi. U taraqqiyparvar ulamolarning xalq, orasida obro'si unchalik katta emasligi, shu bois qadimchi ulamolar bilan ittifoqsiz ish olib borish mumkin bo'lmay qolgani to'g'risida kuyunib so'zlagan edi.

Aynan shu nuqtai nazar 1917 yil 17—20 sentabrda ulamochilar tomonidan chaqirilgan umummusulmon s'yezd vakillarining chiqishlarida ham o'z aksini topdi. S'yezd «Sho'roi Islom» va «Turon»ni tugatib, ular o'rniga yagona «Ittifoqi musulimin» siyosiy partiyasini tuzish haqida qaror qabul qiladi. Karorda «Sho'roi Islom», «Turon», «Sho'roi Ulamo»-barchasi xalq jamiyatlari bo'lib, birgalashib, yagona kuch sifatida ish qurish vaqti kelgani aloxida ta'kidlangan edi.

Biroq, s'yezdning ahamiyati milliy-siyosiy tashkilotlarning ruhoniylar bayrog'i ostida birlashishga bo'lgan harakati bilan cheklanib qolmasdi. Eng asosiysi shunda ediki, uning jo'g'rofiy qamrovi keng bo'lib, s'yezdning 500 ishtirokchisi orasida Turkistondan tashkari O'ral va To'rg'ay viloyatlari vakillarining borligi, turkiy musulmon xalqlarning birligini yuzaga keltirish, birgalikda yagona davlat tuzish uchun birinchi qadam qo'yilganligida edi.

Turkiston xalqlari, ularning ijtimoiy-siyosiy tashkilotlari va milliy yetakchilari o'lkada erkinlik va mustaqillik uchun, uning demokratik Rossiya tarkibida muxtor respublika shaklidagi milliy davlat tuzilishi uchun fidokorona kurash olib borayotgan, shu bilan birga bularning hammasiga tinch vositalar bilan erishishga intilayotgan bir paytda Turkiston bolsheviklari o'zlarining garazli maqsadlari yo'lida urush va xo'jalik sohasidagi vayronagarchilik tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy va oziq-ovqat qiyinchiliklaridan foydalanib, hokimiyatni qo'lga kiritish uchun jon-jahdlari bilan hozirlik ko'rdilar.

1917 yilning iyun oyidayoq bolsheviklar yetakchisi Lenin sovetlarning I Butunrossiya s'yezdida o'z partiyasining mamlakatdagi butun hokimiyatni qo'lga olishga tayyor ekanligini oshkora bayon qilgan edi. 1917 yil 26 iyuldan 3 avgustgacha bolsheviklar partiyasining Petrogradga bo'lib o'tgan VI s'yezd hokimiyatni qurolli qo'zg'olon yo'li bilan qo'lga olishga ko'rsatma berdi.

1917 yil 27 oktabrda Petrogradan Oktabr to'ntarishi haqida, Muvaqqat hukumatning ag'darib tashlangani va sovetlarning II Butunrossiya s'yezdida bolsheviklar yetakchisi Lenin boshchiligidagi Xalq Komissarlari Kengashi saylangani haqida xabar olinishi qurolli qo'zg'oloning amalda ro'yobga chiqarilishi uchun turki bo'ldi.

1917 yil oktabr-noyabr oyiga kelganda o'lkadagi siyosiy vaziyat keskin o'zgardi. Petrogradga hokimiyatni bolsheviklar tomonidan zo'rlik bilan qo'lga olinishi Turkiston taraqqiyparvarlarini o'z rejalarini o'zgartirishga majbur etdi.

Toshkentda 15-22 noyabr kunlari ishchi, soldat va krestyan deputatlari Sovetlarining III- o'lka s'yezdi bo'lib o'tdi. S'yezd so'l eser, bolshevik va maksimalistlardan iborat Turkiston Xalq Komissarlari Soveti (rais- F.I. Kolesov) tuzilganligini e'lon qiladi. Hukumat tarkibiga mahalliy aholidan birona ham vakil kiritilmadi. Turkiston Xalq Komissarlari Soveti dastlabki kunlardanoq o'zining shovinistik, yangicha ko'rinishdagi mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Yangi hukumat mahalliy aholiga past nuqta nazar bilan qarab, umumiy aholining 95% idan ortig'ini tashkil etuvchi yerli millat vakillarini hukumatga yaqinlashtirmaslik, ularning diniy va milliy urf-odat va an'alarini mensimaslik kabi siyosatni olib bordi. Bundan norozi bo'lgan o'lka taraqqiyparvarlari kutilayotgan Ta'sis Majlisidan umidlarini uzdilar hamda faoliyatlarini sharoitga moslashtirgan holda davom ettirdilar.

«Sho'roi Islomiy» va boshqa mahalliy tashkilotlarning tashabbusi bilan 1917 yil 26-29 noyabr kunlari Qo'qonda o'lka musulmonlarining IV-favqulodda s'yezdi bo'lib o'tdi. S'yezd ishida Turkistonning barcha hududlaridan 300 dan, ortiq jumladan, rus tashkilotlari vakillaridan ham delegatlar ishtirok etdi.

27 noyabr kuni s'yezd Ta'sis Majlisining chaqirilishiga hech qanday umid qolmaganligi va yagona yo'l muxtoriyat e'lon qilish ekanligini e'tirof etgan holda, Turkiston Muxtoriyati tuzilganligini e'lon qildi.

IV-favqulodda s'yezdning 27 noyabr kuni qabul qilingan qarorida, jumladan, shunday deyiladi: «Turkistonda yashab turgan turli millatga mansub aholi Rossiya inqilobi da'vat etgan xalqlarning o'z xuquqlarini o'zleri belgilash xususidagi irodasini namoyon etib, Turkistonni federativ Rossiya respublikasi tarkibida hududiy jihatdan muxtor deb e'lon qiladi, shu bilan birga muxtoriyatning qaror topish shakllarini Ta'sis majlisiga xavola etadi». Shundan keyin s'yezd «Turkistonda yashab turgan milliy ozchilik aholi xuquqlarining muttasil himoya qilinishini tantanali ravishda e'lon qiladi».

28 noyabrda tashkil topayotgan mazkur davlatning nomi «Turkiston Muhtoriyati» deb ataladigan bo'ldi. Hokimiyatni esa Ta'sis s'yezdi chaqirilgunga qadar Turkiston Muvaqqat Kengashi va Turkiston Xalq (Milliy) Majlisi qo'lida bo'lishi ta'kidlandi.

Muvaqqat hukumat tarkibiga quyidagi a'zolar saylanadi:

1. M.Tinishpayev — bosh vazir, ichki ishlar vaziri, II-chaqiriq Davlat Dumasining a'zosi, Muvaqqat hukumat Turkiston komitetining a'zosi, muhandis.

2. Islom Sulton Shoahmedov (Shagiaxmedov) — bosh vazir o'rinbosari, Butunrossiya Musulmonlari Kengashi Markaziy Qo'mitasining a'zosi, huquqshunos.

3. Mustafo Cho'qayev — tashqi ishlar vaziri, Turkiston Musulmonlar Sho'rosi Markaziy Qo'mitasining raisi, xuquqshunos.

4. Ubaydulla Xo'jayev — harbiy vazir, Butunrossiya musulmonlar kengashi MK, a'zosi, xuquqshunos.

5. Yurali Agayev — yer va suv boyliklari vaziri, agronom.

6. Obidjon Mahmudov — oziq-ovqat vaziri, Qo'qon shahar dumasining rais o'rinbosari, tog'-kon sanoati muhandisi.

7. Abdurahmon O'razayev — ichki ishlar vazirining o'rinbosari, xuquqshunos.

8. Solomon Abramovich Gersfeld — moliya vaziri, huquqshunos.

Muvaqqat hukumat tarkibiga 12 a'zo o'rniga 8 kishi saylanganligining sababi yana to'rt kishi — yevropalik aholi vakillari ichidan nomzodlar ko'rsatilgach, qayd etilishi ko'zda tutilgan edi.

Sovetlarning III O'eka s'yezdi shovinistik qarorlariga qarama-qarshi o'laroq musulmon qurultoyi o'z ishining barcha bosqichlarida chinam baynalmilalchilik tamoyili, o'lkaning ko'p millatli, shu jumladan yevropalik qismi aholisi manfaatlarini hisobga olishdan kelib chiqdi. Bunday insonparvarlik yondashuvi IV musulmon qurultoyi ochilgan paytdanoq namoyon bo'ldi. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy s'yezdning huquqiy asosga egaligi haqidagi nutqida shuni alohida ta'kidladiki, «S'yezd Turkistonning yevropalik aholisi vakillari ishtirok etayotgani uchun ham s'yezd qarorlari yanada obro'lidir». M.Behbudiy s'yezd hay'atiga turli musulmon, rus, yahudiy va hokazo guruhlardan vakillar kiritilishini taklif etdi. Undan keyin so'zga chiqqan Qo'qin vakili Obidjon Mahmudov ham «hay'atga saylovlarda viloyat va ayrim diniy hamda milliy guruhlar bo'yicha emas, balki bilimdon va ishchan kishilarni tanlash asosida kirishish» zaruriyati haqida gapirdi.

Mahalliy xalq joylarda ushbu xabarni shodu-hurramlik bilan kutib oldi. S'yezda hukumat organlari: Turkiston Muxtoriyatining Muvaqqat hukumati va Milliy Xalq Majlisi tuzildi. Xalq Majlisi 54 kishidan tashkil topgan bo'lib, 1/3 o'rin yevropalik millat vakillari uchun ajratildi.

1918 yil 10-11 yanvar kunlari Andijonda «Muayyan ul-islom» jamiyati idorasida musulmon jamoat tashkilotlarining s'yezdi bo'lib o'tdi. Delegatlar tomonidan uyezd ma'muriyatidagi barcha shaxslardan Turkiston Muxtoriyati Muvaqqat hukumatini tan olganligi haqidagi tilxatni olish uchun s'yezd prezidiumi a'zolaridan maxsus komissiya tuzish haqida taklif bildirildi. Bundan tashqari, Muxtoriyatni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun har bir volostdan vakillarni jalb etgan holda xalq milisiyasini tashkil qilish haqida qaror qilindi.

Bolsheviklar har qanday yo'l bilan bo'lsa ham, Turkiston Muxtoriyatiga xalqni qarshi qo'ymoqchi bo'ldilar. Bunga javoban, Farg'ona viloyati musulmon mehnatkashlarining s'yezdi (1917y. dekabr) musulmon mehnatkashlarini barcha vositalar bilan Muxtoriyatni qo'llab quvvatlashlarini bildirdi.

Muxtoriyat hukumati tomonidan madaniy ma'rifiy ishlarni yaxshi yo'lga qo'yish maqsadida maxsus «Musulmon xalq maorifi» bo'limi tashkil qilindi. Uning rahbari etib, Farg'ona «Sho'roi Islomiy»ning faollaridan Sayyid Nosirxonto'ra tayinlandi.

Biroq, hujjatli ma'lumotlarga ko'ra, Turkiston Muxtoriyatining tashkil topishi va uning o'lka mahalliy aholisi manfaatlariga mos tushuvchi siyosati bolsheviklar tomonidan salbiy tarzda kutib olindi. Voqealar rivoji Qo'qonda tuzilgan Muxtor hukumatning 1918 yilning fevral oyida qonga botirilishi bilan xotima topdi. 18 fevraldan 19 fevralga o'tar kechasi Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tomonidan yuborilgan 11 eshelon harbiy qismlar Qo'qonga yetib keldi. Otlıq askarlar, artilleriya va piyoda qismlari bilan birga harbiy komissar YE. O. Perfiyev ham keldi. Tish tirnog'i bilan qurollangan bolsheviklar qo'shini Turkiston Muxtoriyatini zo'rlik bilan tor-mor qildi.

Turkistonda «buyuk oktabr inqilobi»dan keyingi sodir bo'lgan voqealar jarayoni shuni ko'rsatadiki, markaziy sovet hukumati o'lka xalqlariga nafaqat mustaqillik, xatto milliy muxtoriyatni ham ravo qurishni istamadi. To'g'ri, bu achchiq xaqiqatni dastavval barcha Turkiston xalqlari tushunib yetmadi. Buni faqat milliy vatanparvarlar, jadidlar, ayrim rahbar xodimlarga tasavvur qilolgan edilar. Bolsheviklarning makkorona siyosatiga ishonib, uning tarafdori bo'lgan yoki unga xayrixoh bo'lganlar ham oz emas edi. Ular Turkistonda mavjud bo'lgan zavod va korxonalarda yevropalik ishchilar bilan yonma-yon ishlagan, ularning ta'siriga berilgan mahalliy aholi vakillaridan bo'lgan ishchilar, shaharlarda oilasini boqish uchun sarson bo'lib ish qidirib yurgan ishsizlar (mardikorlar), qishloqlarda yersiz bo'lib, chorikorlik, mardikorlik qilib kun kechirib yurgan kambag'al dexqonlarning bir qismini tashkil qilar edi.

Turkiston Muxtoriyati hukumatining tor-mor etilishi va shundan keyin mahalliy aholiga qarshi jazo kompaniyasining avj olishi, vodiya istiqolchilik harakatining kelib chiqishiga, Vatan va millatning, avvalo Farg'onaning asl farzandlarini erk va ozodlik uchun qo'llariga qurol olishga majbur etdi.

Ozodlik osonlikcha qo'lga kiritilmasligini tushunib yetgan milliy vatanparvarlar qo'lga qurol olib bolsheviklar rejimiga qarshi istiqolchilik harakatini boshlab yubordilar. Sovet mustabid tuzumi mafkurasi hukmronligi yillarida ularga «bosmachilar» deb tamg'a osilib, ataylab kamsitilgan edi.

Istiqolchilik harakati «Turkiston Muxtoriyati hukumatining tor-mor qilinishi bilan boshlanganligi» deyarli barcha tarixchilarning asarlarida e'tirof qilinadi. Aslini olganda, muxtoriyat hukumati ag'darib tashlanmaganida ham yoki bu hukumat hatto mutlaqo bo'lmaganida ham istiqolchilik harakatining vujudga kelishi tabiiy bir xol edi. Zotan, bu davrda Turkistonda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat istiqolchilik harakatining boshlanishini muqarrar qilib qo'ygan edi. Chunki Turkistonda istiqolchilik harakatining boshlanishi uchun muxtoriyatning tor-mor qilinishi bilan birga boshqa bir qator jiddiy sabablar ham mavjud edi.

**Birinchi**, 1917 yilda sodir bo'lgan oktabr to'ntarishi va buning natijasida hokimiyatni qo'lga kiritgan bolsheviklar tomonidan ilgari surilgan kommunistik mafkura Turkiston xalqlari uchun mutlaqo yot tushuncha edi. Mahalliy aholi bu g'oyani avval boshdanoq o'ziga singdira olmadi va unga qarshi turdi.

**Ikkinchi**, yangi tuzum o'rnatilgan kundanoq mahalliy xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatları, milliy qadriyatları toptaldi. Qozi sudlovi bekor qilindi, vaqf yerlari tortib olindi, mulkchilikning barcha shakliga chek qo'yildi.

Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi istiqolchilik harakatining butun Farg'ona vodiysida ommaviy ravishda boshlanishiga bir turtki vazifasini o'tadi, xolos. Chorizmning mustamlakachilik zulmi ostida ezilib kelgan farg'onaliklar Turkistonda birinchi bo'lib bolsheviklar rejimiga qarshi qurolli kurashga otlandilar. Shu tariqa, Turkistonda sovet hokimiyati va bolshevikka rejimga qarshi istiqolchilik harakati 1918 yil fevral oyining oxirlarida boshlangan edi.

Dastlabki istiqolchi guruhlarning tashkil topishi Kichik va Katta Ergashlarning nomlari bilan bog'liqdir.

Turkiston Muxtoriyati hukumati qo'shiniga boshchilik qilgan Kichik Ergash qo'rboshi 1918 yil 19—21 fevralda Qo'qon shahrida qizil askarlarga qarshi bo'lgan «ikki kunlik urush natijasida mag'lubiyatga uchradi, uning 2.000 kishilik armiyasidan omon qolgan ikki yuztacha kishi Kichik Ergash rahbarligida Qo'qon uyezdidagi Bachqir qishlog'iga (Qo'qondan 18 chaqirim shimoli-sharq tomonda) jang bilan chekinishdi. O'zining kindik qoni to'kilgan Bachqir qishlog'ida Kichik Ergash yigitlari bilan qal'a shaklida istehkom qurib, mustahkam o'rnatib oldi. 26 fevral kuni Bachqirga 5 ta qizil gvardiyachilar otryadi va dashnoqlar drujinasi hujum qilishdi. 27 fevralda bo'lgan janglarning birida Kichik Ergash shahid bo'lgach, uning o'rniga Katta Ergash qo'rboshi Farg'ona vodiysida bolsheviklarning mustamlakachilik tartibiga qarshi kurash boshladi. Sovet hokimiyati va bolsheviklarga qarshi milliy istiqol harakatini tashkil qilish endi uning zimmasiga tushgan edi.

Istiqolchilik harakatining rahbarlari sovet tarixchilari ta'riflaganidek «johil», «ilmsiz» kishilar emas edilar. Ularning ko'plari madrasalarni tamomlagan, siyosiy-ma'rifiy jihatdan yetuk shaxslar edilar. Masalan, **Katta Ergash** (—1921) — Farg'ona vodiysidagi istiqolchilik harakatining dastlabki taniqli namoyandasi. U Qo'qon yaqinidagi Bachqir qishlog'ida tug'ilgan. QO'QONNING eng mashhur mullalaridan biri bo'lgan, shuning uchun uni Mulla Ergash ham deyishgan. Katta Ergash chor Rossiyasining Turkistonga qilgan bosqinchiligini kechira olmadi, ularga qarshi kurashdi. U Turkiston Muxtoriyatining tarafdori, uning himoyachilaridan biri edi.

Ko'p o'tmay Mulla Ergash qo'rboshi yigitlari safiga Farg'onadagi sovetlar tuzumidan norozi bo'lgan yuzlarcha va minglarcha kishilar kelib qo'shildilar. Markazi Bachqir qishlog'i bo'lgan Qo'qon uyezdi istiqolchilik harakatining dastlabki tayanch nuqtasi bo'lib qolgan edi. 1918 yil mart oyining oxiriga kelib Katta Ergashning nomi Farg'ona vodiysi aholisi o'rtasida juda mashhur bo'lib ketdi. Sovet ayg'ochilaridan birining ma'lumotiga ko'ra, «Ergash qo'rboshining musulmon va rus aholisi o'rtasida paydo bo'lishi olqishlarga sazovor bo'ldi, unga eng yuksak tilaklar tilandi hamda uning qiyofasida Andijon va Qo'qonda o'rnatilgan sovet qo'shinlaridan, hukumat vakillaridan va har qanday zo'ravonlikdan halos qiluvchi insonni ko'rdilar». U 1921 yil 19 dekabrda o'z qarorgohi Xonobodda qizil askarlarga qarshi bo'lgan jangda halok bo'lgan.

1918 yil mart oyiga kelib Farg'ona vodiysida bir-biridan mustaqil ravishda 40 dan ortiq qo'rboshi dastalari faoliyat ko'rsatardi. Madaminbek Skobelev uyezdida, Shermuhammadbek va Nurmuhammadbek Marg'ilon atroflarida, Omon Pahlavon, Qobul, Sotiboldi qozi va Rahmonqul Namangan uyezdida, Parpi qo'rboshi Andijon shahri atrofida, Eshmat qo'rboshi Qo'qonning Buvayda qishlog'ida, Umar-Choli Urganji qishlog'ida, Jonibek qozi O'zgan tomonda, Muhiddinbek Novqatda harakat qilmoqda edi.

Bu tarqoq holda bo'lgan istiqolchilik harakatini yagona qo'mondonlikka bo'ysundirish va birgalikda harakat qilish maqsadida «Sho'roi Islom» va «Sho'roi Ulamo» tashkilotlari a'zolarining tashabbusi bilan 1918 yil mart oyining oxirida Bachqir qishlog'ida Farg'onadagi butun qo'rboshilarning birinchi qurultoyi chaqirildi. Unda 40 dan ortiq yirik qo'rboshilar qatnashdi. Farg'ona vodiysidagi

istiqlolchilik harakatining boshlig'i qilib Katta Mulla Ergash saylandi va unga butun musulmon qo'shinlarining Oliy Bosh Qo'mondoni—«Amir al-muslimin» unvoni berildi. Ergash qo'rboshining o'rinbosarlari qilib Madaminbek va Shermuhammadbek tayinlandi.

Umuman olganda, Farg'ona vodiysida 1918 yilning o'rtalariga kelib, taxminan yuzga yaqin qo'rboshi o'z dastalari bilan qizil armiya qismlariga qarshi kurash olib bormoqda edi.

Turkistondagi istiqloqchilik harakatining muhim xususiyati shundaki, bu harakatda maqsadlar, vazifalar qanday bo'lishidan qat'i nazar, boshdan oxirigacha bir ustivor g'oya — **Turkistonning milliy istiqloli va mustaqilligi** yotadi. Istiqloqchilik harakati goh kuchayib, goh pasayib turishi, unda ishtirok etuvchilarning tarkibi o'zgarib borishi va ikkilamchi manfaatlar o'rtada turganligi hamda ob'yektiv va sub'yektiv omillar kuchlar muvozanatiga salbiy ta'sir qilishiga qaramay, harakatning asosiy mohiyati Turkiston mustaqilligi uchun kurash bo'lib qolaverdi.

Madaminbek 1919 yil 11 martda Farg'ona fronti (1919 yil 23 fevral) qo'shinlari qo'mondoni M.V.Safonov nomiga yo'llagan maktubida istiqloqchilar qanday maqsad yo'lida kurashayotganliklarini, bu harakatning mohiyati va «bosmachi» deb kimni aytilish kerakligini yaqqol ko'rsatib, quyidagi so'zlarni yozgan edi: «Gapning lo'ndasini aytsam, bizning xalqimiz o'z turmushida Karl Marks yoki bolsheviklar dasturini qo'llab ko'rish darajasida hali ongi rivojlanmagan... Turkistonda bo'lsa, yana qaytaraman, sizlar qiladigan ish yo'q va bu yerda zo'ravonlik bilan dushmanlar ortirasiz, holos... Siz federasiya tuziladi deb e'lon qildingiz, siz xalqning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini e'lon qildingiz, shunday ekan, nega siz ularni bizga bermaysiz? Yoki biz faqat musulmon bo'lganligimiz uchunmi? Bizga ko'nglimiz tusagancha yashashga imkon bering, mayli, siz e'lon qilgan shiorlarga biz amal qilamiz, bizlarga o'zimiz xohlagandek boshqaruv usulini tanlashga imkon bering, axir biz— musulmonlar ko'pchilikni tashkil qilamiz-ku. Ammo zo'ravonlik qilmang...» Shuningdek, Madaminbek xatida o'zlarini proletariat himoyachisi va kapitalistlarga qarshi kurashayotgan qizil armiya jangchilari va komandirlarining xaqiqiy bosqinchilar to'dasiga aylanganliklarini ta'kidlab, «...otryad boshliqlarining bittasidan 20 million so'mlik mol-mulk topilgan, haqiqiy bolshevik-kommunist — bosmachilar to'dasi bizning qambag'al, yarim och musulmonlarimizdan so'nggi ko'rpa va kigizlarini ham tortib olishdi», deb yozgan edi.

1919 yil 22 oktabrda Pomirning Ergashtom (Irkeshtam) ovulida bo'lgan anjumanda Madaminbek boshchiligida **«Farg'ona Muvaqqat Muxtoriyat hukumati»** tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 musulmon va 8 rus, hammasi bo'lib 24 kishi kiritildi. Madaminbek hukumat boshlig'i bo'lishi bilan bir qatorda bosh qo'mondon qilib ham tayinlandi.

Oradan sal o'tmay, ya'ni 1919 yil oktabr oyining so'nggi kunlarida Farg'ona vodiysidagi barcha yirik qo'rboshilar Oyim qishloqda to'plandi. Tarixiy hujjatlarning dalolat berishicha, istiqloqchilik harakati tarixida eng yirigi bo'lgan bu qurultoyda, Farg'ona vodiysida harakat kilayotgan 150 tacha qo'rboshi dastalari to'rtta yirik lashkarboshi: Madaminbek, Ergash, Shermuhammadbek, Xolxo'ja Eshon qo'mondonligi ostida birlashtirildi. qurultoyda islom qo'shinlarining Oliy Bosh Qo'mondoni — «Amir al-muslimin» qilib Madaminbek saylandi. Ammo bu birlashuv kutilgan natijani bermadi. Qurultoydan keyin Xolxo'ja Eshon bosh qo'mondon Madaminbekka bo'ysunmasligini aytib, mustaqil harakat boshladi. U o'zining ta'sir doirasidagi hududlarda Islom shariati asosida qattiq-qo'llik bilan tartib-qoida o'rnatdi. Bu davrda Madaminbek qo'l ostida 30 mingga yaqin, Shermuhammadbekda 20.000, Ergash qo'rboshida esa 8.000 yigit bo'lib, aynan shu uchta lashkarboshilar vodiydagi jangovar harakatlarni boshqarib turgan edilar.

Biroq, Farg'ona vodiysiga tobora qo'shimcha kuchlarning tashlanishi natijasida 1920 yil yanvar oyining o'rtalariga kelib jangovar tashabbus qizil armiya qo'lga o'tdi. Farg'ona fronti qo'shinlari (qizil armiya) birinchi bo'lib Katta Ergash qo'rboshini mag'lubiyatga uchratishdi. P.Paramonov boshchiligidagi yig'ma otryad Qo'qondan chiqib 1920 yil 18 yanvarda Ergashning qarorgohi joylashgan Bachqir qishlog'ini egalladi.

Harbiy tashabbus qo'ldan ketganligini, har qadamda qiyonat ta'qib qilayotganini ko'rgan Madaminbek o'z yigitlari hayotini saqlab qolish maqsadida Farg'ona qo'shinlari qo'mondonligiga yarash muzokaralari boshlashni taklif qildi. Natijada Madaminbek bilan 2-Turkiston o'qchi diviziyasining boshlig'i Vervovkin-Raxalskiy o'rtasida 1920 yil 6 martda Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida yarash bitimi imzolandi. Madaminbek bilan birga sovet hokimiyati tomoniga uning o'nlab qo'rboshilari va 3500 yigitlari o'tgan edi.

Sovetlar tarafiga o'tgan Madaminbek qizil askarlarning katta kuchga ega ekanligini, istiqloqchilar bu kuchga bardosh bera olmasliklarini o'sha davrdayoq yaxshi tushungan edi. Kurboshilarga ishonib o'z hayotlarini ozodlikka tikkan yigitlar behuda qurbon bo'lib ketishini istamagan Madaminbek ularning qurolini tashlab, tinch hayotga qaytishga undash uchun sovetlar tomonida turib harakat qildi. Lekin Madaminbekning diplomatik tadbirlari samarasiz tugadi. Sovetlar tomonidan muzokaralar o'tkazish uchun qo'rboshilar orasiga yuborilgan Madaminbek Shermuhammadbekning roziligi bilan Xolxo'ja Eshon tomonidan 1920 yil 14 mayda Qorovul qishlog'ida o'ldirildi.

Farg'ona vodiysida boshlangan istiqloqchilik harakati keyinchalik butun Turkiston o'lkasiga yoyildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligiga qarshi sovetlarning harbiy huruji bu yerlarda ham musulmon aholisining ommaviy qurolli qarshiligini keltirib chiqardi. Tengsiz janglarda yuzlab vatanparvar lashkarboshilar istiqloqchilar safidan yetilib chiqdilar. Ulardan Madaminbek, Shermuhammadbek, Katta va Kichik Ergashlar, Muhiddinbek, Omon polvon, Nurmuhammadbek, Junaidxon, Islom qo'rboshi, Ibrohimbek va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Turkistondagi bu milliy-ozodlik harakati 1936 yilga davom etdi. Son va harbiy-texnik jihatdan ustunlikka ega bo'lgan qizil armiya qo'shinlari g'alabaga erishgan bo'lsalar-da, Turkiston xalqini ozodlik uchun kurash g'oyalarini yo'qqa chiqara olmadi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyingina istiqloq uchun qurbon bo'lgan vatanparvarlarimiz haqidagi asl haqiqat xalqimizga yetkazilmoqda.

Turkiston bolsheviklar tomonidan zabt etilgach, bevosita markaziy hududlarda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga tortildi. Chunonchi, Markaziy hududlarda ro'y bergan ocharchilik tashvishlari turkistonliklar hayotiga hamta'sir etmay qolmadi.

1921-1922 yillarda sovet hokimiyatining qo'pol iqtisodiy siyosati tufayli, Rossiyaning Markaziy hududlarida dahshatli ocharchilik yuz berdi. Butun turkistonliklar qatori, namanganliklar ham ochlarga yordam ko'rsatish ishlarida faol qatnashdilar. Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti qoshida ochlarga yordam markaziy qo'mitasi (OYOMQ) tuzildi.

1921 yilning avgust oyi boshlarida Namangan uyezdida ham OYO komissiyasi o'z faoliyatini boshladi. 1921 yilning oktabrida o'tkazilgan haftalik tadbirlari natijasida Namangan shahridagi aholidan 18 mln. rubl pul, shuningdek, bug'doy, un, asal, tuz, sovun, chopon, choy va boshqa narsalar ochlarga yordam tariqasida yig'ilgan. Bundan tashqari, ochlar hisobiga uyushtirilgan shanbalik natijasida 4 mln. 698 ming rubl yig'ilgan.

#### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq,1998y.
2. Karimov I.A. O'zbekiston xalqi o'z yo'lidan qaytmaydi. Asarlar. 4-jild.-T.: O'zbekiston, 1996 y.
3. A'zamxo'jayev S. Turkiston Muxtoriyati.-T.: Ma'naviyat, 2000y.
4. Агзамходжаев С. История Туркестанской Автономии.-Т.: Тошкент Ислон университети, 2006.-268 с.
5. Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi.-T.: Fan, 1991 y.
6. Vatan tuyg'usi.- T.: O'zbekiston, 1996 y.
7. Ziyoyeva D.H. Bosmachilik: haqiqat va uydirma.-T.: O'zbekiston, 2000.-32 b.
8. Ziyoyeva D.H. Turkiston milliy ozodlik harakati.-T.: Adabiyot va san'at, 2000.-176 b.

9. Rasulov A. Turkiston va Volgabo'yi, Uraloldi xalqlari o'rtasidagi munosabatlar.(1917-1924 yillar).-Toshkent: Universitet, 2005.-B.95-96.
10. Ibrohim Karim. Madaminbek.-T.: Yozuvchi, 1993 y.
11. Inqilob jangchilari.-T.: O'zbekiston, 1996 y.
12. Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun.-T.:Cho'lpon,1994 y.
13. Hasanov M. Turkiston Muxtoriyati: haqiqat va uydirma ((Fan va Turmush.-1990.-№ 9-10.
14. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis fakultetlari talabalri uchun darslik /R.Murtazayevaningumuyi tahriri ostida.-T.: Yangi asr avlodi, 2003.-676b.

## 12-MAVZU: SOVET TUZUMINING QATAG'ONLIK SIYOSATI VA UNING O'ZBEKISTONDAGI OG'IR OQIBATLARI. SOVETLAR DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY VA MA'NAVIY QARAMLIGI, UNING OQIBATLARI.

**MAQSAD:** Sovet mustamlakachilik tizimining mazmun-mohiyatini ochib berish. Mazkur davrda O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotning markazga qaramlik holatida bo'lganligini, uning salbiy oqibatlarini ochib berish. Sovet hokimiyat tizimining o'ziga xos xususiyatlari, hokimiyatni zo'rlik bilan boshqarilish tartib - qoidalari haqida talabalarga ilmiy tushunchalarni yetkazish. Qatag'on siyosatining mohiyatini ochib berish, o'zbek xalqi asl farzandlarini badnom qilishga qaratilgan davr siyosatini haqqoniy tarzda yoritib berish.

### **REJA:**

1. Sovet tuzumining qatag'on siyosati boshlanishi.
2. O'zbekiston milliy arboblari, ma'rifatparvar, yozuvchi va shoirlarning qatag'on qilishi.
3. XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistonda o'tkazilgan sanoatlashtirish va jamoalashtirish siyosati, uning salbiy oqibatlarini.
4. XX asrning 20-30-yillarida madaniy qurilishining asosiy yo'nalishlari va muammolari.
5. II-jahon urushi yillarida O'zbekistonliklarning g'alabaga qo'shgan hissasi.
6. XX asrning 50-80-yillarida O'zbekistonda iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlantirilishi. Ma'naviy hayotdagi ziddiyatlar.

Sobiq Ittifoqning tarixi sahifalarida millionlab fuqarolarning qonlari bilan yozilgan sahifalari mavjud bo'lib, bu mustabid sovet tuzumining qatag'onlik siyosatidir.

XX asrning 30 yillariga kelib jahon xaritasida mutlaqo qayd etilmagan "Gulag" lagerlari tashkil topdi. Uning fuqarolari haq-huquqsiz Sovet Ittifoqi Qahramonlari, mashhur fan-arboblari, mohir diplomat, shoir va yozuvchi, rassom yoki nomlari hech kimga ma'lum bo'lmagan ishchi, kolxozchilar edi.

Bu albatta sovet davlatining qatag'onlik siyosati natijasi edi. Turkiston ozodligi uchun kurashganlarni «Bosmachlari» tamg'asi bilan yo'q qilinib tashlandi. So'ng aholini mehnat qilib biror narsa orttirgan o'rta hol qismi bu baloga giriftor etildi.

Alohida hech qanday g'ayri qonuniy harakatlar sodir qilmagan partiyaning ichki muholiflari 20-yillarning 2-yarmidan boshlaboq qamoqqa olindi va surgun qilindi. Shundan keyin qatag'onlar ko'payib, ularning sabablari esa soxtalashtirildi. Bu birinchi galda jadid maktablarining mutaxassislari: olimlar, injenerlar, agronomlar, iqtisodchilar va ziyolilar guruhiga ta'aluqli edi. Ularning ko'pchiligini josuslar «qo'poruvchilar» «xalq dushmani» deb e'lon qilinib, turli xil jazolarga (qamoq, surgun, otuv va h.k.) hukm qilindi.

Kishloq xo'jaligini yoppasiga kollektivlashtirish davrida dexqonlarning anchagina qatlamlari qatag'on qilindi. Yangi qurilishlardagi yosh ishchilar, qishloqlarda naridan beri o'qitilgan mexanizatorlar ko'pincha texnika buzilishida aybdor bo'lib qoladilar. Bu ham keyinroq sinfiy dushman qo'poruvchiligi sifatida baholanadigan bo'ldi.

«Sinfiy dushman unsurlar»ga qarshi ishlarni 1929 yildan e'tiboran «uchlik» deb ataluvchi komissiyalar ko'rib chiqib boshladilar. Uning tarkibi quyidagicha bo'lar edi: ya'ni, Raykomning birinchi sekretari, Rayon ijroiya komiteti raisi, Rayon GPUning boshlig'idan iborat bo'lar edi. Mahkum etilganlar shimolga GULAG Arxipelaglariga tushar edilar.

Qatag'onlar 30-yillar boshigacha asosiy sinfiy dushman unsurlar-«quloqlar», «burjua mutaxassislari»ga qarshi kurash ostida olib borildi.

1934 yildan boshlab qatag'onlar partiyaning avvalgidan ham kengroq ko'lamda ya'ni, «Fashizm agenti», «Kapitalistik burjua davlat tarafdori», «Antisovet markaz tashkilotchisi», «Ko'poruvchi», «Shpion» kabi aybnomalar ostida boshlanib ketdi. Bunga MK siyosiy byurosining a'zosi, partiya MK va Leningrad shahar komitetining sekretari S.M.Kirovning 1934 yilning 1 dekabrda o'ldirilishi bahona bo'ldi. Bu ishning shaxsan uyushtiruvchisi Stalin edi, ammo bu ishdan xabardor bo'lgan barcha guvohlar yo'qotildi.

Davlat jinoyatchilari uchun qamoq muddati 10 yildan 25 yilgacha oshirildi. VKP(b) MKning sekretari Kaganovichning taklifiga ko'ra, siyosiy ayblovlar bo'yicha ishlar suddan tashqari tartibda, lekin oliy jazo chorasi qo'llanilgan holda qarab chiqila boshlandi. 1934 yil OGPU ichki ishlar xalq Komisarligi qilib qayta o'zgartirildi (NKVD-ruscha-muallif).

1937 yili dunyo matbuotida harbiylar ishi deb atalgan sud prosessi e'lon qilindi. Unda Qizil Armiya harbiy boshliqlarining ko'pchiligi Stalin tomonidan qoralandi. 1937 yilning 2 iyunidagi gazetalarda Harbiy Kollegiya sudiga yirik harbiy boshliqlar: M.N.Tuxachevskiy, I.E.Yarkin, I.P.Ubovovich, R.P. Eydeman berilgani e'lon qilindi va ular shu kunning o'zidayoq otishga hukm qilindilar. Bunday qatag'on ilgari Qizil Armiya safini podsho zabitlaridan, generallaridan tozalash sifatida 20-yillarda bo'lgan bo'lsa, 30-yillar oxirida endi sotqin, «Troskiychi-Zinobyevchi» inqilob dushmani kabi soxta ayblovlar bilan almashgan edi.

Voroshilovning ma'lumotiga ko'ra, 20 yildan 30 - yillarning yarmigacha Qizil Armiya safidan 47 mingta harbiy va 5 mingta muxolif chetlatilgan. O'sha paytda SSSRda 5ta marshal bo'lgan bo'lsa, shundan 3 tasi: Tuxachevskiy, Yegorov, Blyuxer terror qurboni bo'ldi. Faqat Voroshilov va Budyonniy tirik qolgan edilar. Stalin qatag'onlarining xususiyatli tomoni shunda ediki, bu qatag'onidan hukumat boshliqlaridan tortib farroshgacha qochib qutula olmas va ular uchun keragicha aybnoma topilar edi. Masalan: 1928 yili Yoqutlar isyonidan keyin 35 ming kishi otib tashlandi, 1930 yil boshida Ukrainani ajratib olish ittifoqi ishi sudda ko'rildi va professor Yefremov va Chekovskiylar hamda ko'plab kazaklar yo'q qilindi.

Markazda va joylarda harbiylar, injenerlar, razvedkachilar, partiya va Sovet rahbarlariga qarshi o'tkazilgan qatag'onlar mudofaa salohiyatiga berilgan ulkan zarba bo'ldi. Stalin Gitlerchilar Germaniyasining harbiy rejalarini to'g'risidagi qimmatli ma'lumot olishga erishgan razvedkaga ishonmay Qizil Armiya Bosh Shtabi Bosh Razvedka Boshqarmasining 5ta boshlig'ini birin ketin qatag'on qildi.

Qatag'on haqida general - leytenant Pavlenko shunday degan edi: «Dunyo tarixida yaqinlashib kelayotgan urush arafasida hech qaysi mamlakat ayovsiz va keng doirada o'z harbiy mutaxassislarini yo'q qilganini bilmaydi».

1937-1938 yillar qatag'on avjiga chiqqan davr bo'lib bunda ko'plab partiya va davlat arboblari nohaq qurbon qilindi. Jumladan, butun boshqaruv apparati Leningradga yo'q qilindi. Bunday qatag'onlar RSFSR, Ukraina, Ozarbijon, Gruziya, Armanistonda ham keng qo'lamda amalga oshirildi.

Sovet fanining nazariyotchilari, olimlar va novatorlari ham qatag'on qurbonlari bo'ldilar. Masalan: genetika fanining otasi Vavilov, geografik - biosfera ta'minat nazariyotchisi Vernadskiy V.I., Ioffe - fizik, Luzin - buyuk matematik, Lisenko - biolog nazariyotchi, Bulgakov, Platonov kabi adabiyot nomoyandalari va xokozalarning qatag'on etilishi ilm-fan va madaniyatning chinakam fojeasi bo'ldi.

O'zbekistondagi partiya xodimlari va davlat arboblarning yo'q qilinishi ham o'ziga xos tarzda amalga oshirildi. Butun Sobiq ittifoqda bo'layotgan qatag'on siyosati O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Stalin va uning qonxo'r jallodlari o'zbek xalqining chin farzandiga nisbatan ham qatag'onlar yo'lini tutdilar. O'zbekistonda qamalmagan biror taniqli shaxs, rahbar, partiya xodimlari qoldirilmadi. Ayrimlari yaqqol ko'zga tashlanmaganlar xufiy nazoratga olindi.

Respublikada birinchi qatag'on qurboni respublika Xalq Komissarlari Soveti raisi Fayzulla Xo'jayev edi. U 1896 yili Buxoroda savdogar millioner oilasida dunyoga kelgan. Fayzulla Xo'jayev 1922-1924 yillarda Buxoro Respublikasi Mehnat va Mudofaa Sovetining raisi bo'ldi.

1920 yil 11 sentabrda BKP safiga kirdi. So'ngra Buxoro Komunistik Partiyasi MK tarkibiga ham kiritildi. 1920 yil oktabrda Buxoro Xalq Nozirlari Soveti raisi qilib saylandi.

RKP(b) MKning 1924 yil 5 noyabrda qaroriga binoan O'zbekiston revkomi raisi etib tasdiqlandi. 1925 yil 14 fevraldan 1937 yil 17 iyungacha O'zbekiston SSR XKS raisi lavozimida ishladi.

1923 yilning boshlarida F.Xo'jayev Germaniyada bo'ladi. Maqsad el dardiga davo izlash ya'ni, Germaniyaning Buxorodagi elchixonasini ochish, Rossiyaning Buxoro Xalq Respublikasi ichki ishlariga aralashuvini oldini olish edi.

Fayzulla Xo'jayev siyosiy bilimli, madaniyatli, savdaxonli bo'lishga doim katta e'tibor bergan. Mana uning o'z yaqinlari davrasida aytgan so'zlari: "Sizlar o'qimay qo'ydinglar. O'z ustimizdan ishlamayapmiz. Madaniy darajamiz va ma'naviy qiyofamiz achinarli holatga kelib qoldi. Biz ana shu savodsizligimiz oqibatida Vatanni, Buxoroni boy berib qo'ydik. Shu sababli ham o'z Vatanimizda rahbarlik ishlarini qo'lga ololmadik va mustaqillik yo'lida aql bilan ish yurita bilmadik."

1938 yilning 2-13 martida Moskvadagi Soyuzlar uyining katta zalida F.Xo'jayev va bir guruh partiya Sovet xodimlari sud qilindi. Unga Sovetlarga qarshi, millatchi degan aybnoma qo'yildi va otib tashlandi. Keyinchalik Fayzulla Xo'jayev o'limidan so'ng oqlandi.

1937 yilgi qatag'on Akmal Ikromovni ham chetlab o'tmadi. A. Ikromov qanday odam edi?

U 1898 yil 14 noyabrda Toshkentdagi O'hchi mahallasida yashovchi Ikrom domla oilasida dunyoga keldi. Onasi Tojiniso opa ma'rifatli ayol edi. Ular uylarida ochilgan maktabda bolalarni o'qitar edilar. Yosh Akmal ham ularga qo'shilib savodini chiqaradi, diniy va dunyoviy darsliklarni, kitoblarni o'qish imkoniyatiga ega bo'ldi. 1918 yil 18 fevralda eski shahar tashkiloti A. Ikromovni bolsheviklar safiga qabul qiladi. Ushbu davrdagi barcha ziyolilar qatori u ham sovet mafkurachilarining nayrangiga ishonib aldandi. Shu kundan e'tiboran u, partiya qayerga yuborgan bo'lsa o'sha yerda, o'z kuchi va bilimini ayamay sarf qildi. 1926 yilda "Hujum" tadbiri buyicha partiya a'zosi sifatida Toshkent, Farg'ona, Namangan, Karshi, Termiz va boshqa shaharlarda faol xotin-qizlar bilan uchrashdi. 1926 yilda Mehnat Qizil Bayroq, 1935 yil dekabrda Lenin ordeni bilan taqdirlandi.

1937 yil 2-13 mart kunlari Moskvadagi Soyuzlar uyining katta zalida F.Xo'jayev, A.Ikromov va boshqalar sud qilinadi va 15 mart kuni shoshilinch ravishda qamoqxonada otib tashlanadi.

Toshkentdagi qamoqxonada ushlab turilgan xotini Zelkina ham 1938 yilning 7 oktabrida otib tashlanadi. Akmal Ikromovning 5ta aka ukalari va 2ta o'g'li ko'p yillar davomida qamoq va surgunlarda sarson bo'lishadi.

1953 yil iyul Plenum qarorlari asosida tuzilgan maxsus komissiya ishi asosida 1957 yil 31 iyuldagi qaroriga asosan A. Ikromov oqlandi va partiya safiga qayta tiklandi.

Ana shunday qatag'on qilinganlardan yana biri Nazir To'raqulov bo'lib, u 1892 yilda Qo'qon shahrida o'ziga to'q oilada dunyoga kelgan. Uning otasi o'z davrining ziyoli, rus tilini yaxshi biladigan kishilardan edi.

Rus-tuzem maktabini tamomlagan Nazir To'raqulov, keyinchalik savdo bilim yurtida o'qidi. 1913 yili To'raqulov savdo institutiga o'qishga kirdi. U birinchi jahon imperialistik urushida, bolsheviklar inqilobi g'alabasiga ham o'zining munosib hissasini qo'shdi.

1918 yil oktabrida Ko'qon Soveti ijroko'mi kotibi To'raqulov bolsheviklar partiyasi safiga kirdi. 1919 yil 15 avgustda Farg'ona viloyat musulmonlar organi bo'lgan "Yangi Sharq" gazetasi muharriri etib tayinlandi.

1919 yil sentabrda Nazir To'raqulov MIK raisi etib saylandi. 1920 yil iyunida Turkkompartiyasi o'lka musulmonlari byurosi va chet el kommunistlarining tashkilotlari birlashdi va unga rahbarlik qilish Kuybishevning taklifiga ko'ra To'raqulov rais etib saylandi.

1922 yil iyulida To'raqulov Samarqand viloyat partiya tashkilotlaridan bolsheviklarning Butun Rossiya XII konferensiyasiga delegat qilib saylandi. Konferensiya tugagach, Moskvada SSSR xalqlari Markaziy nashriyot boshqarmasi raisi etib saylandi. O'z ustida tinmay ishlashi natijasida To'raqulov ko'p tillarni o'rganadi. Shuning uchun ham 1928 yilda diplomatik ishga o'tkazilib Saudiya Arabistonidagi «Hijoz» viloyatiga konsul qilib tayinlanadi. Bu yerda 4 yil ishlagach, 1932 yildan Sovet Ittifoqining Saudiya Arabistonidagi muxtor elchisi sifatida faoliyat yuritadi.

1936 yilda SSSRga qaytib kelgach, Sharq xalqlari tillari va adabiyotida ilmiy xodim bo'lib ishlagan davrda u ko'pgina nazariy maqolalar va qiziqarli materiallar chop ettirdi. Ammo u davrda Stalin shaxsiga sig'inish siyosati avj olayotgan bo'lib, mamlakatda zo'ravonlik tobora kuchayib borayotganligi sababli N. Turaqulov ham tinch ijodiy ish bilan shug'ullanish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Asossiz ayblar, tuhmatlar asosida hibsga olingan va ho'rangan Nazir Turaqulov 1939 yilda qatag'on siyosatining qurboni bo'ldi.

Ilg'or fikrli yozuvchi va shoirlarning qatag'on qilinishi. XX asrning 20-40 yillarda Cho'lpon, Fitrat, Botu, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Otajon Hoshim, Abdulla Alvoniy, Elbek, Rafiq Mo'min singari bir-biridan iste'dodli adiblar ma'rifat targ'ibotchilarini ham qatag'on to'lqini o'ziga tortdi. Shuningdek, o'zbek romanchilarining otasi Abdulla Qodiriy, talantli yozuvchi Oybek, Shuhrat, Mirzakalon Ismoiliy, Sayid Ahmad, Shukurullo «Xalq dushmani» deb e'lon qilindi. Ularning asarlari man qilinib o'zlari qamoqqa olinib stalincha lagerlarga jo'natildi.

Bundan tashqari chet elda bo'lib kelgan bir qancha ziyolilarimiz Sattor Jabbor, Solih Muhammad, Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova va boshqalar ham asossiz qatag'on siyosatining qurboni bo'ldilar. Ularning ko'plari shu siyosatdan bezib, chet ellarda Vatandan yiroqda qolib ketdilar.

O'zbekistonda qatag'on siyosati minglab ziyolilarimizni o'z domiga torgan edi. Shundaylardan yana biri Munavvarqori Abdurashidxonovdir. U nafaqat Toshkent jadidlari, balki Turkiston va Rossiya musulmonlari orasida ham obro' qozonadi. U fevral inqilobidan keyin siyosiy hayotda faol ishtirok etish bilan birga «Najot», «Kengash» ro'znomalarini tashkil etib ularga muharrirlik qiladi. Oktabr to'ntarishidan keyin esa Munavvarqori yangi maxsus va oliy ta'lim asoschilaridan biri sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Munavvarqori ToshDUni tashkil etishda jonbozlik ko'rsatadi. U qisqa muddat xalq maorifi bo'limida faoliyat ko'rsatadi. U ham stalincha qatag'on siyosatining qurboni bo'ladi. 1929 yili qamoqqa olinadi va uchlik hukm bilan otib o'ldiriladi.

Birin-ketin qatag'on to'lqini ko'zga ko'ringan o'zbek ziyolilarini ham yo'q qila boshladi. Shulardan biri shoir Usmon Nosir edi. U Namangan shahrida dunyoga keladi. Usmon Nosirni hibsga olishga sabab bo'lgan bahona haqidagi so'nggi vaqtda matbuotda turli-tuman fikr bayon qilindi. Chunonchi, shoir jiyani Nodira Rashidova bir maqolasida bu haqda quyidagi so'zlarni aytgan: "1937 yilning may oyida Moskvada O'zbekiston adabiyoti va san'ati dekadasi bo'lib o'tadi. Delegasiya sostavida Usmon Nosir ham bo'lgan. Toshkentga bir

to'p yozuvchilar poyezdda qaytishadi". Usmon Nosir: "Masa Stalinni ham o'z ko'zimiz bilan ko'rdik, hammamiz qatori oddiy odam ekan. U menga bir kerosin sotadigan do'stimni eslatdi", - deb aytdi. Holbuki, bu faqat bir joyda qayd etilmagan.

Tergov materiallari shundan dalolat beradiki, Usmon Nosirni qora kursiga o'tkazgan kishilardan biri Aleksandr Grigoryevich Lavrentyev degan rus yozuvchisidir. A.S.Pushkin vafotining 100 yiligi munosabati bilan 1937 fevralida o'tkazilgan SSSR yozuvchilar uyushmasining tantanali tadbirida bu ikki Qo'qonlik (U. Nosir va A.G.Lavrentyev) "do'st" ham ishtirok etishgan.

Usmon Nosir mehmonxonada Lavrentyev bilan turgan. Mehmonxonadagi Lavrentyev bilan qilgan suhbat chog'ida she'riyat mundarajasi pessimistik dunyoqarashiga tayangan va shoir mavjud tuzumga oppozitsiyada bo'lgan taqdirdagina haqiqiy san'at asari maydonga kelishini aytgan. Yana shu suhbat mobaynida O'zbekiston sosializm barpo etish uchun albatta SSSR tarkibida bo'lishi shart emas, turkiy xalqlar o'zaro birlashib ham sosializmga borishi mumkin, degan, "aksilinqilobiy" mulohazani bildirgan. Moskva safaridan qaytish ham Usmon Nosir uchun beiz ketmadi. U poyezdagi ozgina mayxo'rlikdan so'ng Lavrentyev bilan aytishib qolib, uni "Velikorus" deb xaqorat qilgan.

Oradan 4 oy o'tgach, Lavrentyev Usmon Nosir ustidan ariza yozib, shoirni millatchi, aksilinqilobchi sifatida aybladi.

1937 yilning 12 iyunida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida Usmon Nosirni shaxsiy ishiga bag'ishlangan yig'ilish shoir uchun fojeali yakunlandi. O'sha kuni ertasiga DXQ 4-bo'limini Klenov va Xayruddinov familiyasi xodimlari kelib Usmon Nosir uyida tintuv o'tkazadilar va uni olib ketadilar.

Usmon Nosir chirkun qamoqxonalarda ham yorug', hur kunlar kelishiga umid bilan boqib yashaydi. Yashashga bo'lgan ilinji shoirni ijod qilishga undadi. Bugungi kunda: "Shoir o'sha kezda Stalinni sevmasdi, uni og'ir qismati uchun tinmay la'natlardi", - deyish juda ham to'g'ri bo'lmasa kerak. Uning "Xalqlar dohiysi"ga hurmati baland bo'lgan. Aniqrog'i uni ardoqlar va itoat etardi. Shu bois, u nomining bot — bot tilga olardi. Yoki ro'y berayotgan bedodliklardan Stalinni mutlaqo bexabar, deb angelaydi. Agarda shunday deb o'ylamaganda, unga shaxsan xat bilan murojaat etmagan bo'larmidi?! Zero, bu bilan o'zi uchun ma'lum bo'lgan xaqiqatni oydinlashtirmoqchi edi, xolos. Baxtga qarshi uning qalb nidosi qumga oqqan suv misoli izsiz yo'q bo'lib ketgan.

Sevimli jhoirimiz E.Vohidov Usmon Nosir ijodiga shunday ta'rif bergan: "Kalbi keng, ko'ngli ochiq, to'g'ri so'z va jangovar shoir yigitini ko'p jihatdan Yeseninga o'xshash ko'raman". Usmon Nosir huddi ulkan rus shoiri kabi olovli, isyonkor qalb egasi, she'riyat ufqida nogohon balqigan yorug' yulduz edi. U ham yorug' dunyoni juda erta va bevaqt tark etdi. Yesenin kabi murakkab davr girdobida halok bo'ldi.

Usmon Nosirni olib ketishgach, undan uzoq vaqt hech qanday darak bo'lmadi, oila a'zolari undan xabar olish maqsadida kimga murojaat qilishni bilmay, boshlari qotgandi. Bir vaqtlar minglab she'riyat muxlisi tan olgan g'ark etgandek, guyo undan hamma birdan yuz o'chirgandek edi. Nihoyat, Usmon Nosir Toshkent qamoqxonalaridan birida ekanligi aniq bo'ladi. Bir kuni shoirdan qamoqxonadan xat chiqarishga imkon tug'iladi. Unda: "Singlim Rohatxon! Uyg'unnikiga borib, mening narsalarimi yig'ishtirib ol. Madamin, Davronnikida paltoyim bor.. Kerakli narsalarni to'plab, Ibrohim Nazirnikida etigim bor. Shularni olib kelib, menga kirgizib yubor, uzoqlarga ketadiganga o'xshayman", — deyilgan edi. Xatda aytilganlarga hammasi shoir buyurmlarini, berishadi, lekin Ibrohim Nazir: "Men "Xalq dushmani" singlisi bilan gaplashmayman", - deb etikni otib yuboradi. Kechagina do'stman, deb yurganlar shunday qilmishgacha yetib borgan bo'lsalar. Lekin shoirdan tonmagan tanishlari ham yo'q emas edi. 1944 yilning boshida eski tanishim toshkentlik jurnalist Farruh Ahmadiy kelib, qo'rqa-pisa Usmon Nosirdan kelgan xatni tutqazadi. Xatda: "Singlim Rohatxon, sening O'tkir Rashidga turmushga chiqqanini eshitib bag'oyat hursand bo'ldim. Sizlarga atab she'r ham yozdim. Turmushlaring yaxshi bo'lsin. Bu xatni olib borgan odamdan yomonlik kutmang, nahotki mening O'zbekistonda do'stlarim yo'q bo'lsa? Toshkent qamoqxonalarida umrbod yotishga ham roziman. Faqat, meni bu yerdan olib ketishmasin. Yozuvchilar uyushmasiga borib murojaat qilgin. Xatni o'qigach, uni yo'qotinglar".

Ming afsuslar bo'lsinkim, yozuvchilar uyushmasiga borib qilingan iltimosni ham bir chaqali foydasi bo'lmadi. Kora kunlar tushib, undan omon qaytishiga muayassar bo'lgan Tojixon Shodiyovning xikoya qilib berishicha, shoir uzoq ayozli Magadanlarda bo'lganida oyog'ini sovuqqa oldirib qo'yibdi. So'ng uni Kemerovaga jo'natishibdi. So'ngi kunlarda shoir bedodlikka qarshi hatto ochlik ham e'lon qilgan. Og'ir xastalik bilan u qamoqxonada ko'z yumibdi.

Abdurauif Abdurahim o'g'li Fitrat, Cho'lpon singari XX asr o'zbek adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biridir. Uning hayotiy yo'li va ijodiy faoliyati g'oyat murakkab bo'lishiga qaramay, bugun biz uni o'zbek xalqining madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan adib va alloma sifatida hurmat bilan tilga olamiz.

Fitrat 1886 yilda Buxoroda tavallud topdi. U eski maktabda xat-savodini chiqargan. Mir Arab madrasasida tahsil ko'rdi, o'zbek va tojik adabiyoti namunalarini sevib o'qidi. Diniy va dunyoviy adabiyot namunalarini berilib o'qidi, ong va bilimni oshirish choralarini axtardi. Jadidlar harakati o'lkada keng qanot yoyishini va tajribali rahbarlarga ega bo'lishi uchun ularni rahbarlar iste'dodli yoshlarni Turkiyaga o'qishga yuborishadi. Fitrat ham 1908 yilda Istanbulga borib, 4 yil davomida ta'lim va tarbiya oladi. Uning ijodi shu yerda boshlanadi. Adibni dastlabki mashqlari-"Sayyohi hindi bayonoti" (1913) nasriy asari va "Sayxa" she'rlar to'plami (1910) Istanbulda maydonga keldi. Ularda jadidona g'oyalari tanim sug'orilgan qarashlar o'z aksini topgan. 1913 yilni oxirida Fitrat Turkiyadan qaytib kelganda uning qarindosh - urug'lari hatto tanimay qolishgan. O'qishga mullavachcha qiyofasida, salla va chopon kiyib ketgan Abdurauif endi batamom yevropacha kiyinib qaytgan edi. Uni bunday holatda ko'rganlar orasida: "Esiz, shunday mullavachcha yigit to'rt yilda kofir bo'lib qolibdi", deb afsuslanganlar ham bo'libdi. Fitrat Turkiyadan ancha ilg'or qarashlar bilan qaytgan edi. Buni ustiga, 1916 yili milliy - ozodlik harakati, 1917 yilgi fevral inqilobi, oktabr to'ntarishi voqealari uning siyosiy - ijtimoiy ongining tez shakllanishga zamin hozirladi.

1923-1924 yillarda Moskvada Sharq tillari institutida tahsil oladi. Fitratni ijodiy va ijtimoiy faoliyatining uch davrga bo'lish mumkin. U birinchi davr: 1908-1918 yillarda «Yosh buxoroliklar» harakatini g'oyaviy programmasi bo'lib xizmat qilgan "Munozara", "Sayyohi hindi", "Rahbari najot", "Oila" kabi asarlarni yaratgan va jadid adabiyotini ko'zga ko'ringan arboblardan biriga aylandi. 1918-1924 yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi davrda, oktabr voqealariga o'z munosabatini bildirib bordi. Uchinchi davr: 1925-1937 yillarni o'z ichiga oldi.

Adib yaratgan asarlarini Buxoro amirligida kasb etgan ulkan ijtimoiy ahamiyati haqida S. Ayniy shunday yozgan edi: "Munozara" davr taraqqiyotiga g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatdi. Bir tomondan "Munozara" dushmanlarni uyg'otib yubordi... ikkinchi tomondan, "Munozara" olimlar va yoshlar qatlamini o'ziga jalb etdi va siyosiy fikrlarni uyg'onishiga yordam berdi.

Andijondagi qatli om qurbonlaridan biri "Xalq professori" degan faxriy nomga sazovor bo'lgan serqirra olim va shoir, bir qarashda ijtimoiy kurashga unchalik yaqin bo'lmagan doira vakili Husanxon Niyoziydir. Husanxon Niyoziyning qalamiga mansub maqolalar XX asr boshlaridagi davriy matbuot sahifalarida e'lon qilingan. Sovet tuzumi sharoitida ham u xalq maorifi uchun jon kuydirdi, mehnat qildi. Biroq, barcha millatparvar ziyolilarimiz qatori u ham mash'um qatag'on yillari qurboni bo'ldi. U 1956 yili KPSS XX s'yezdi qarorlariga binoan oqlandi.

Keyingi yillarda O'zbekiston mustakillikka erishganidan so'ng respublikamiz Prezidenti I. Karimov xalqimiz manfaatlaridan kelib chiqib, uni taraqqiy etgan xorijiy dunyo bilan mustaqil iqtisodiy, madaniy aloqalarini yo'lga qo'yish, buning uchun hatto chet ellarga eng talantli talaba va mehnat kishilarini o'qish va ish tajribalarini o'rganishga yuborish masalalarini qo'ydi.

Qadimda va XX asr boshlarida ham Turkiston xalqlari Rossiya, Volgabo'yi, Qrim, Kavkazorti, Kichik Osiyo, xorijiy Sharq, Misr, G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan savdo va madaniy aloqalarda bo'lganlar. Bu aloqalar ayniqsa, XX asrning boshlarida katta

ahamiyat kasb etdi. 30-yillarda qatag'on etilgan milliy ziyolilarimiz ham ayni chog'da xorijiy aloqalarni yaxshi yo'lga qo'yish, ko'proq talabalarni chet ellarda ta'lim olish uchun chiqarish tarafdorlari edilar. Biroq, davr siyosati bunga yo'l qo'ymadi. F. Xo'jayev, T. Risqulov, A. Rahimboyev, Fitrat singari davlat arboblari, olimlar, xorijda o'qib qaytgan A.Murodiy, S. Jabbor, S.Muhammad, F.Sherahmedov, R.Rasuliy singari agronom, genetik, tibbiy olimlar, jurnalistlar, pedagoglar assosiz ravishda nemis josuslari, u yerdagi allaqanday millatchilik tashkilotini a'zolari sifatida ayblanib, repressiya qurbonlari bo'ldilar.

Qatag'on davrini qonli qatag'onlari natijasida o'zbek xalqi o'zining ming - minglab dono, mustaqil fikrli, ko'zi ochiq, taffakuri tiniq, insoniy qadr - qimmatlarini bilgan kishilarni yo'qotdi. Natijada, xalqimizni kelajagi markazga bo'ysinuvchi kishilar qo'lida qolish bilan birga, bu holat sobiq imperiya «dohiy»lari uchun O'zbekistonni boshqarishda ancha qulayliklar tug'dirdi.

XX asrning buyuk burilishlar davrida o'zbek xalqi oldida bir nechta asrlik inqirozdan chiqish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu bevosita jadidlar faoliyati bilan bog'liq edi. Sovet zamonasida ham milliy taraqqiyparvarlarimiz o'lka xalqlari mustaqilligi uchun goh oshkora, goh yashirin faoliyat yuritdilar. Biroq, mustabid tuzumning mash'um qatag'onlik siyosati XX asrning 30-yillarida Vatan va millat istiqboli uchun kurashuvchi barcha fidoyi insonlarni deyarli qatag'on qildi. Ularni «Vatan xoini», «Xalq dushmani», «Panturkist», «Panislomist», «Angliya josusi» kabi o'ylab topilgan sohta nomlar bilan badnom qilindi.

II-jaxon urushidan so'ng qatag'onlarning yangi oqimi boshlandi. Bu davrda asosan, shoir va yozuvchilar, fan va madaniyat xodimlari ayblov ishlariga tortildilar. Atoqli shoir va yozuvchilarimizdan M.Shayxzoda, Mirtemir, Sayyid Ahmad va boshqalarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Stalinning o'limidan so'nggina nohaq qatag'on qilinganlarni oqlash jaryoni o'z ishini boshladi. 1980 yillarga kelib «paxta ishi», «o'zbeklar ishi» deb nom olgan sohta atamalar bilan qatag'onlarning navbatdagi to'lqini mamlakatimiz siyosiy hayotida amalga oshirildi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, ushbu o'ylab topilgan jinoiy ishlar ortidan xalqimiz nomini butun dunyoga yomonotliq qilib ko'rsatish, milliy g'urur va sha'nimizni yerga urish maqsad qilingan edi. Shu bahonada xalqimiz ichidan yetishib chiqqan minglab ilg'or paxtakorlar, zahmatkash insonlar siyosiy tizimning qurboniga aylantirildilar. Faqat O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyingina ularning nomlarini xaqiqiy ma'noda xalqqa qaytarishni, tarix haqiqatini ochib berishni, imkoniyati tug'ildi. Afsuski, bu insonlarning barchasi O'zbekistonimizning bugungi istiqloli, mustaqilligini ko'ra olmay bevaqt nobud bo'lishdi. Shu mustaqillik davrida qatag'on qilingan yurtdoshlarimizni pok nomlarini tiklash, ularning asarlarini izlab topish, kitob holdida chop etish ancha yo'lga qo'yildi. Bugun Respublikamizda shu maqsad yo'lida tashkil etilgan «Shahidlar xotirasi» xayriya jamg'armasi ishlab turibdi. Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbusi bilan Toshkentda qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish uchun «Shahidlar hiyoboni» majmuasi tashkil etildi.

Sho'rolar tomonidan «Bo'lib tashla, hokimlik qil» siyosatiga asoslanib o'tkazilgan milliy - hududiy chegaralanish natijasida 1925 yil O'zbekiston SSR tashqil etildi va u mustabid sovet davlati tarkibiga kiritildi.

1925 yildan keyingi O'zbekiston SSR ning taraqqiyot yo'lga lenincha komfirqaning O'zbekistondagi qo'g'irchoq bo'limi sifatida O'zbekiston kommunistik firqa tashkiloti rahbarlik qildi. Bu firqa faoliyatining asosini Lenin ishlab chiqqan va «asoslab bergan» sohta «sotsializm» qurish rejasi tashkil etardi.

Lenin ishlab chiqqan «sotsializm qurish rejasi»da mamlakatni «sanoatlashtirish» va «jamoalashtirish» kabi bo'g'inlar markaziy o'rinni egallaydi.

20-30 - yillar davomida iqtisodiyotda xususiy sektor deyarli butunlay tugatildi. Sanoat, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlardagi ko'plab ishlab chiqarish vositalari davlat yoki kolxoz-kooperativ mulkiga aylantirildi. Natijada davlat xalq xo'jaligini istalgancha boshqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ma'muriyatchilik, buyruqbozlik iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy usuliga aylandi.

Bolshevoylar dohiysi Sho'ro Rossiyasini sanoati rivoj topgan ilg'or mamlakatlar qatoriga olib chiqish vazifasini qo'ydi. Ammo O'zbekiston singari mustamlaka mamlakatlarga nisbatan bu siyosat mutlaqo boshqacha maqsadlarda - Markaz manfaatida asosida amalga oshirildi. 1925 yil dekabrda VKP (b) XIV s'yezdi «sotsialistik industrilashtirish» yo'lini avj oldirishni e'lon qildi. Stalin rahnamoligidagi o'ta sanoatlashtirish tarafdorlari uning sur'atini keskin tezlashtirish maqsadida mablag'larni qishloq xo'jaligi hisobidan sanoatga olish rejasini ilgari surdilar. Ularning muholiflari sanoatlashtirish siyosatini yoqlagan holda, uni aholining moddiy ahvolini, turmush sharoitlarini yaxshilash va qishloq xo'jaligida kooperasiyani asta-sekin ixtiyoriy ravishda amalga oshirish bilan birgalikda olib borishni taklif qildilar. Biroq, bu yo'l keskin rad etildi.

Oqibatda sanoatlashtirishning sub'yektivlashtirishga asoslangan stalincha usuli butun mamlakatda, jumladan, O'zbekistonda ham bosh yo'nalish bo'lib qoldi.

Shu bilan birga Respublikamizda uning salbiy ko'rinishlari ulkaning o'ziga xos iqtisodiy ahvoli tufayli yanadi ortdi. Eng asosiysi - SSSR ning xalq xo'jalik majmuida O'zbekistonning roli va o'rni ittifoq hukumati tomonidan majburan belgilab berildi.

Lekin O'zbekiston uchun sanoati qurilishining keng sur'atda jadallashtirish nihoyatda zarur edi. Chunki, Respublika iqtisodiyoti 20-30 yillar chegarasida ham agrar xususiyatga egaligicha qolayotgan edi. 1927 yilda O'zbekiston xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligining salmog'i 61,6 % , sanoatning salmog'i 38,4 % tashqil etar, shu bilan sanoat ishlab chiqarishning 90 % qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlashga asoslangan edi.

Garchi hayot muammolar bilan to'lib-toshib ketgan bo'lsada, besh yillik rejalarda xalq yelkasiga asossiz va amaliy jihatdan bajarib bo'lmaydigan vazifalar yuklangan bo'lsa-da, O'zbekiston xalqi o'z kuch-qudratini, idroki va mahoratini to'liq namoyon qildi. Birinchi besh yillik (1928-1932) davrida O'zbekistonda 289 ta sanoat korxonasi qurildi va ishga tushirildi, 79 ta korxonaga qayta tashqil etildi, sanoatning ishlab chiqarish fondlari uch barobar, neft qazib chiqarish 2,5 barobar, metal ishlab chiqarish sanoati mahsulotlari 6 barobar, sement ishlab chiqarish uch yarim barobar ortdi.

Ikkinchi besh yillik (1933-1937) davrida 189 ta turli sanoat korxonalari va elektr stansiyalari barpo etildi. Urushdan oldingi uchinchi besh yillikda sanoat rivojlanishida yangi qadam qo'yildi. Urushning boshlanishiga kelib 134 ta sanoat korxonasi ishga tushirildi. Urushdan oldingi besh yilliklar davrida sanoatning xalq xo'jaligida egallagan salmog'i 1928 yildagi 43 % dan 1940 yilda 70% ga yetdi. Urush arafasiga kelib sanoat potentsiali 1445 ta yirik va o'rtacha sanoat korxonalarini o'z ichiga olar edi. 1925 -1940 yillarda qurilib ishga tushirilgan bunday korxonalar jumlasiga Bo'zsu GESi, Samarqand, Buxoro, Qo'qon, Termiz, Asaka shaharlarida issiqlik elektrostansiyalari, Toshkent, Samarqand, Buxorodagi to'qimachilik fabrikalari, Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozlik zavodi, Farg'ona konserva, Quvasoy sement va oxaq zavodlari, Toshkent «Ortoq» tamaki fabrikasi, ko'plab paxta tozalash, sut-yog' tayyorlash, sovun pishirish kabi zavodlarni kiritish mumkin. Sanoatlashtirish natijasida respublikamizda ishchilar sinfining soni keskin oshdi. «1937 yilga kelib sanoat ishchilarining umumiy miqdori 181 ming kishidan iborat bo'ldi».

Biroq, sanoatlashtirish siyosatini amalga oshirish chog'ida jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yildi. Birinchidan, ixtisoslashtirish bahonasida respublikamizda asosan paxtachilikni rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan sanoat tarmoqlari hamda yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari vujudga keltirildi. Og'ir sanoat, mashinasozlik va boshqa yetakchi tarmoqlarni rivojlantirishga e'tibor berilmadi.

Ikkinchidan, sanoatni kadrlar bilan ta'minlash jarayoni ziddiyatli xususiyatga ega bo'ldi. Sanoat korxonalari uchun zarur bo'lgan kadrlar asosan Rossiyadan keltirilgan. Ular orasida mahalliy millat vakillari ozchilikni tashqil qilar edi.

Uchinchidan, sanoatlashtirish ma'muriy-buyruqbozlik asosida amalga oshirildi. Sanoat korxonalari qurilish uchun qo'shimcha mablag'larni izlab topish maqsadida aholi o'rtasida majburiy yo'l bilan zayomlar tarqatildi. Sanoat qurilishlariga odamlar majburiy tarzda yuborildi. 1940 yil 20 iyundagi mehnat intizomini yaxshilashga qaratilgan farmonga ko'ra ishga kechikib kelganligi uchun jinoiy javobgarlik joriy qilindi. Natijada minglab ishchilar va texnik xodimlar turmalarga tashlanib, mahbuslarga aylantirildi.

Kullas, 20-30 yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatini bosh maqsadi respublikani istiqbolda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borishini ta'minlaydigan iqtisodiy poydevordan mahrum qilish va uni sho'rolar xo'jalik mexanizmining bir buyrug'iga aylantirishdan iborat edi. Sho'rolar tomonidan 20-yillarning oxiri 30 yillarida amalga oshirilgan va o'zining mash'um oqibatlarini qoldirgan tadbirlardan yana biri qishloq xo'jaligini jamoalashtirish siyosati edi. Bu masala «Lenincha sosializm qurish rejasi» ning tarkibiy qismi hisoblanadi. 1921-1922 yillardagi agrar islohot, 1925-29 yillardagi yer-suv islohotlari sho'rolar hukumatini qoniqtirmadi. 1929 yil kuzidan boshlab yoppasiga kollektivlashtirish siyosati amalga oshirila boshladi. Ya'ni, kooperativlashtirishning xilma-xil shakllarini tugatish, mavjud bo'lgan bir qancha kooperativ tizimlarini davlatlashtirish yo'lga o'tdi. Kooperativlarni barcha turlari va sohalarini buyicha rivojlantirish siyosatini yoppasiga jamoalashtirish yo'li bilan almashtirdi. Bu yo'l esa ixtiyoriylik prinsiplari asosida emas, balki «yuqoridan belgilash» yo'li bilan amalga oshirildi. O'zbekiston kompartiyasi MQ 1930 yil 17 fevralda «kollektivlashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida» qaror qabul qildi. 1925-29 yillarda yer-suv islohoti davridayoq katta yer egalarning aksariyat qismlari tugatilgan edi. 1930 yil fevraldan boshlab avj olgan quloq xo'jaliklarni tugatish kompaniyasi davrida qonunlar qo'pol ravishda buzilib, inson huquqlari toptaldi. Natijada, Farg'ona, Bog'dod, Chust kabi tumanlarda jamoalashtirishga qarshi dehqonlar isyon ko'tardilar, bu harakatlar zo'rlik bilan bostirildi. Quloq xo'jaliklari ro'yxatini tuzishda yakka qishloq xo'jaligi solig'i to'laydigan, o'ziga to'q dehqon xo'jaliklari asos qilib olindi. Bu ro'yxat asosan moliya organlari tomonidan tuzilardi. Quloqlar ro'yxatini muttasil kengaytirib borish hisobiga nafaqat o'rta hol balki, kambag'allar ham yoppasiga kollektivlashtirish davri qatag'onlik siyosatining girdobiga tortildilar.

Faqat 1930 yilning o'zida respublikada «boy» yoki «quloq» xo'jaliklar toifasiga kiritilgan 2648 ta o'rtacha xo'jalik tugatildi. 1931 yilning avgustiga kelib yana 3828 ta «quloq xo'jaliklari» tugatildi, respublikadan tashqariga - Ukrainaga Sibir va Shimoliy Kavkazga 3871 «quloq oilasi» surgun qilindi. 1933 yilda surgun qilingan «quloq» xo'jaliklari soni 5500 taga yetdi.

1932 yil oxirlariga kelib barcha dehqon xo'jaliklarini 81,7 %, 1937 yilda 95 %, 1939 yilda 99,2 % i jamoalashtirilgan edi.

«Jamoalashtirish» ning ajralmas bo'g'ini bo'lgan davlat xo'jaliklarini MTS va sovxoz shaklidagi agrokorporatsionlarni tashqil qilishga ham jiddiy e'tibor berildi.

Yoppasiga jamoalashtirish Respublikamiz qishloq xo'jaligida paxta yakka hokimligining kuchayishiga sharoit yaratib berdi. 1929-1932 yillarda g'ozga ekiladigan yer maydonlari 550 ming gektardan 928 ming gektarga kengaytirildi, yalpi paxta hosili esa 652 ming tonnadan 750 ming tonnaga yetkazildi. 1932 yili Respublika Sobiq Ittifoq bo'yicha paxta hosilining 60% ini berdi. Mana shu paytdan boshlab xorijdan paxta olib kelish to'xtatildi. Yuqorida ta'kidlanganidek yoppasiga jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish siyosati o'zining xunuk oqibatlarini qoldirdi:

1. Ma'lumki, chorizm hukmronligi davrida butun O'rta Osiyo xom ashyo bazasiga aylangan edi. Jamoalashtirish natijasida Respublikamiz qaytadan, balkim kuchaytirilgan formada xom ashyo omborxonasiga aylantirildi.

2. Odamlarda ishonchsizlik kayfiyatini uyg'otdi, ko'plab odamlar boshqa joylarga qochishga majbur bo'ldilar, chorvalarni ko'p miqdorda suyib yubordilar, bu esa chorva tuyog'ini keskin kamayishiga olib keldi.

3. Ma'naviy va ahloqiy qadriyatlar toptaldi.

4. Minglab kishilar qatag'on qilindi, yohud Ukraina va Sibirga surgun qilindi.

5. Jamoalashtirish asrlar davomida shakllanib kelgan odamlardagi yerga bo'lgan egalik hissini yo'qotib, begonalik xislatlarini vujudga kelishiga olib keldi. Umuman qishloq xo'jaligini rivojlantirish o'rniga oxir oqibat uni tanazzulga olib keldi.

20-30 yillarda O'zbekistonda «madaniy inqilob» siyosati «shaklan milliy va mazmunan socialistik» madaniyatni rivojlantirish qobig'iga o'rab amalga oshirildi.

Ma'lumki, O'zbek xalqi boy madaniy merosga ega bo'lib, u asrlar mobaynida sayqal topib kelgan. Sho'ro mustamlakachilari chorizm siyosatini davom ettirib, O'zbek xalqining boy madaniyatiga hujum uyushtirdilar, chunki ular xalqimizni ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo'q qilmasalar O'zbekistonni o'z asoratlarida uzoq saqlab qololmasliklarini yaxshi tushunar edilar.

«Xoh o'tmishda, xoh bugun bo'lsin, boshqa millat, davlatni o'ziga qaram qilish niyatida harakat qilgan, qilayotgan kuchlar doimo bir siyosatni yuritganlar, yuritadilar: ya'ni qaram xalqning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo'q qilish, undan judo etish».

«Shaklan milliy va mazmunan socialistik» madaniyat uchun kurash dasturi xuddi ana shu mudhish vazifani bajarishga xizmat qildi, bu g'oyani ijrochilari «madaniy inqilob» yasab, o'zlaricha bir zumda xalqimizni boy merosini yo'qqa chiqardilar, O'zbek xalqini yoppasiga savodsiz deb e'lon qildilar. 1925 yilda O'zbekistonda 97 ta vaqf maktablari va 1,5 mingdan ortiq eski «Qadim» va «Jadid» maktablari faoliyat ko'rsatmoqda edi. Ammo 1928 yilga kelib Sho'ro hukumati O'zbekistonda eski milliy maktablar faoliyatini batamom ta'qiqlab qo'ydi.

Sho'ro hukumati respublikada milliy ta'lim va tarbiya tizimi ildiziga ikki marta halokatli zarba berdi. Birinchisi, 1929 yil 1 dekabrda arab alifbosiga asoslangan eski O'zbek yozuvining lotinlashtirilgan alfavit asosidagi O'zbek yozuvi bilan almashtirilganligi bo'lsa, ikkinchisi, 1940 yil 8 mayda «O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasi asosidagi yangi alfavitga ko'chirish to'g'risidagi qonun» bilan amalga oshirildi.

Respublikada kommunistik mafkura manfaatiga xizmat qiluvchi xalq maorifi tarmoqlari muttasil o'sib bordi. 1921-1922 o'quv yilidayoq respublikada mingdan ortiq savod maktablari, savodsizlikni tugatish kurslari va tarmoqlari faoliyat ko'rsatdi, ularda 50 ming kishi xat savod chiqardi.

«Sovet davlatining statistik ma'lumotlarida ko'rsatilishicha 1924-25 yillarda O'zbekistonda 160 ta sovet tipidagi maktablar tashqil qilinib, ularda 17209 o'quvchi ta'lim olgan bo'lsa, 1941 yilga kelib maktablar soni 5504 taga va ularda o'qiyotgan o'quvchilar soni 1 mln.315 ming kishiga yetgan».

Bu yillarda respublika oliy o'quv yurtlari tarmog'i ham ortib bordi. 1918 yil 12 mayda Turkiston xalq milliy universiteti ish boshladi. Samarqandda O'zbekiston Davlat universiteti, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Andijon, arg'ilon, Toshkent, Nukus, Xiva, Urganch shaharlarida oliy maktablar tashqil etildi.

«Agar 1932 yil respublikadagi 31 ta oliy o'quv yurtida 12,2 ming talaba o'qigan bo'lsa, 1941 yilga kelib ularda ta'lim olayotgan talabalar soni 18 ming kishiga yetdi. Shu bilan birga bu yillar davomida 10 ga yaqin o'rta maxsus o'quv yurtlari tashqil qilinib, ularda 15 mingga yaqin yoshlar turli malakalarga ega bo'ldilar».

Sho'rolar hukumati O'zbekistonda fan, ilmiy-tadqiqot yutuqlaridan ham o'z manfaati yo'lida ustamonlik bilan foydalandi. 1932 yilda O'zbekiston SSR Fan qo'mitasi tuzildi. 1940 yillarning boshida O'zbekistonda 60 dan ortiq maxsus ilmiy tekshirish muassasalari, laboratoriya va stansiyalar mavjud bo'lib, ularda nazariy va amaliy fan sohalarini buyicha turli yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. 1940 yil 9 yanvarda Fan Qo'mitasi Ittifoq Fanlar Akademiyasining O'zbekiston filialiga aylantirildi. Keyinroq 1943 yilda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi tashqil etildi.

Respublikamizda ilmiy -tadqiqotlari rivojida birinchilar qatorida fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasini olishga mo'sharraf bo'lgan P.Soliev, T.Koriniyoziy, I.Mo'minov, T.Sarimsoqov, Ya.G'ulomov kabi olimlarning xizmatlari salmoqlidir. Bu yillarda adabiyet va san'at ham turli to'siq va cheklashlar ta'siri ostida kommunistik mafkura asosida rivojlanib bordi. Dastlab adabiyot maydonida jadid ijodkorlar Munavvar qori Abdurashidxonov, M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Cho'lpon, X.X.Niyoziy, S.Ayniy, A.Qodiriy, M.So'fizoda kabilar faoliyati yaqqol ko'zga tashlanadi.

20-yillarda ular bilan bir qatorda Oybek, Hamid Olimjon, G'ulom, Uyg'un, U.Nosir, Elbek, Botu, Abdulla Kahhor, Mirtemir, S.Abdulla kabi yosh qalam sohiblari adabiyot maydoniga kirib keldilar va barakali ijod qildilar. Biroq ularning ko'plari mash'um qatag'onlik siyosatini qurboni bo'ldilar. Musiqa san'ati rivojiga Yunus Rajabiy, Muxtor Ashrafiy, To'xtasin Jalilov singari bastakorlar ulkan hissa qo'shdilar.

M.Uyg'ur, A.Hidoyatov, S.Eshonto'rayeva, S.Habibullayev, L.Narzullayev, X.Nosirova singari aktyorlarning ijodi O'zbek tayetri tarixini yorqin sahisidir. 1929 yilga kelib O'zbekiston rassomlar uyushmasi tashqil etildi. Bu davrda U.Tansiqboyev, CH.Axmarov, A.Abdullayev, B.Hamdamiy, M.Nabiyeu va boshqalar katta ijodiy barkamollik erishdilar.

Lekin, 20-30 yillardagi amalga oshirilgan «madaniy inqilob» davrida juda katta xatoliklarga yo'l qo'yildi, hatto kechirib bo'lmas jinoyatlar sodir etildi. A.Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, O'tajon Xoshimov, Botu va boshqa iste'dodli ijodkorlar qatag'on qurboni bo'ldilar. Dinga qarshi kurash niqobi ostida masjidlar vayron qilindi. Arab yozuvidagi diniy va dunyoviy kitoblar yo'q qilindi. Ikki marotaba alfavitni o'zgartirish, xalqimizni ming yillar davomida shakllangan madaniy merosdan mahrum qilib qo'ydi. Ijodkorlardan faqat socialistik tuzumni tarannum etishni, o'tmishni qora bo'yoqlar bilan tasvirlashni talab qilindi. Umuman bu sohada o'tkazilgan siyosat ham o'ta ziddiyatli bir tarzda amalga oshirildi. 1927 yilda respublikada «hujum harakati» boshlandi. Bu harakatni amalga oshirish chog'ida O'zbek xalqining tarixan tarkib topgan milliy ahloqiy sharqona an'ana va qadriyatlari hisobga olinmadi. Natijada, sovetlarning xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish borasida shoshmashosharlik va zo'raonlik usulida amalga oshirgan siyosati minglab ayollarning begunoh qurbon bo'lishiga sabab bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi XX asrning eng dahshatli fojiasi sifatida tarixga kirdi. Boshlangan urush butun insoniyat boshiga tushgan mudhish kulfat ekanligini teran xis etgan O'zbek xalqi fashizmdan faqat SSSR ni emas, eng avvalo, O'zbekistonni himoya qilishni, uni yana bir bor bosqinchidan saqlab qolishni maqsad qilib qo'ygan edi. Respublikada hayotning barcha jabhalari tezda harbiy izga ko'chirildi. O'zbekistonga hammasi bo'lib 104 ta zavod va fabrika evakuasiya qilindi, 280 ta yangi sanoat korxonasi qurildi. O'zbekiston urush davomida frontga 2100 ta samolyot, 17342 ta aviamotor, 2318 ta aviabomba, 17100 ta minomyot, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln.dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln. dona granata 300 ming parashyut va boshqa ko'pgina harbiy anjomlari yetkazildi. qishloq xo'jalik xodimlari mamlakatga 4 mln. 806 ming tonna paxta, 54,1 ming tonna pilla, 1282 ming tonna don, 482 ming tonna kartoshka va sabzavot, 57,5 ming tonna meva va uzum, 36 ming tonna quruq meva, 159 ming tonna go'sht, 22,3 ming tonna jun va boshqa mahsulotlar yetkazib berdilar.

Urush yillarida O'zbekiston fani va madaniyati xodimlari ham tarixiy g'alabani qo'lga kiritishda baholi qudrat o'z hissalarini qo'shdilar. Jami bo'lib ikkinchi jahon urushiga O'zbekistondan 1 mln.433 kishi safarbar etildi. Bu o'sha davrdagi O'zbekistondagi urushga yaroqli aholining 50-60 % ini tashqil etar edi. O'zbekistonlik 120 ming dan ortiq urush frontlarida mardlik va matonatlik ko'rsatgani uchun jangovor orden va medallarga, 338 kishi esa qahramon unvoniga sazovor bo'ldi. 32 nafar O'zbekistonlik askar uchchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan mukofotlandi. Ahmadjon Shukurov, Mamadali Topiboldiyev, Tuychi Eryigitov, Sobir Rahimov, Mamasharif Fayozov kabi qahramonlarimizning nomlari xalqimiz qalbida abadiy saqlanib qoladi. Xullas, O'zbek xalqi ikkinchi jahon urushi yillarida front ortidagi shavkatli mehnati va janggohlardagi jangovor jasoratlari bilan fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga o'zining munosib hissasini qo'shdi. Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonda sho'rolar istibdodi yanada kuchaydi. 50-80 yillar davomida respublikamiz xalq xo'jaligi rivojlanganligini hech kim inkor etmaydi. Lekin O'zbekistonga, asosan, xom ashyo yetkazib beruvchi manba sifatida qaraldi. Bu esa respublika iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanishiga olib keldi. Bunday siyosat oqibatida boy xom ashyo resurslarini tayyor mahsulotga aylantirishni imkoni yo'q edi. O'zbekistonda yetishtirilgan paxta, pilla va boshqa mahsulotlarni huzurini ularni qayta ishlab tayyor mahsulot chiqaradigan mintaqalar ko'radilar. Urushdan keyingi har besh yillikda O'zbekistonda o'rta hisobda 100 tagacha va undan ham ko'prok sanoat ob'yekti ishga tushirildi. 1985 yilga kelib O'zbekistonda 1500 dan ortiq yirik ishlab chiqarish, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, kombinat va korxonalar bor edi. Sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1940 yildagiga nisbatan 20 barobardan ziyodroq oshdi. Xuddi shu yillar ichida elektr energiyasini ishlab chiqarish 180 barobarga oshdi. Markaziy Osiyoda eng yirik bo'lgan va yiliga 3 mln. kilovat soat energiya beradigan Sirdaryo GRESI bunyod etildi. 80-yillarning boshlarida O'zbekistonda 100 dan ortiq mashinasozlik va metal ishlovchi korxonalar bor edi. Ular orasida paxtachilikka mo'ljallangan qudratli traktorlar ishlab chiqaradigan Toshkent traktor zavodi, paxta terish mashinalari chiqariladigan «Toshqishloqmash» va «Chirchikqishloqmash», «Toshkent» ekskavator zavodlari va boshqa ko'pgina korxonalar bo'lib, ularning mahsulotlariga respublikada va uning tashqarisida ham talab katta edi. 60-70 yillarda kimyo sanoati, neft, toshko'mir, gaz, tog'-kon sanoati rivojlandi. Oltin ishlab chiqarish sanoati vujudga keltirildi. Biroq mustamlaka sifatida qaralgan respublikamiz o'z boyliklaridan mustaqil foydalana olmas edi. O'zbekiston tuprog'ida qurilgan va ma'lum darajada ahamiyatlirok bo'lgan sanoat korxonalarining 30 % i Ittifoq tasarrufida, 60 % i Ittifoq Jumhuriyat tasarrufida batamom markazga buysunar edi. Faqat 10 % gina sanoat korxonasi bevosita O'zbekistonga bo'ysungan va respublika iqtisodiyotida hal qiluvchi o'rin tutmagan.

«O'zbekistonda ishlab chiqarilgan sof oltinning 10 %, uran va boshqa nodir metallarning oxirgi gramigacha, paxta tolasining 96 %i zo'raonlik bilan hech kimdan so'ramasdan markazga (Rossiyaga) olib ketilgan».

O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish manfaatlarni ro'kach qilib, kuchli kimyo sanoati vujudga keltirildi. O'zidan zaharli moddalarni atrofga tarqatuvchi bunday korxonalar aholi zich joylashgan vohalar va shaharlarga joylashtirildi. Natijada ekologik vaziyat yomonlashdi. O'zbekistonda aholining tabiiy o'sish sur'atlari baland bo'lishiga qaramay, aholini ish bilan ta'minlash dasturi ishlab chiqilmadi. Oqibatda butun boshli ishsizlar armiyasi vujudga keldi.

Sho'rolar hukumati O'zbekiston qishloq xo'jaligini ilgari yillardagidek bir tomonlama rivojlantirish yo'lidan olib bordi va asosan paxtachilik taraqqiyotiga e'tiborni qaratdi.

50-80 yillarda Kommunistik firqa va sho'rolar hukumati paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab qarorlar qabul qildi. Urushdan keyingi yillarda markaziy Farg'ona, Mirzacho'l, Qarshi, Surxon-Sherobod cho'llari o'zlashtirildi. Markaziy hukumat paxtachilikni rivojlantirish maqsadlarini ko'zlab bu sohaga juda katta hajmdagi mablag'larni sarflab paxtachilikning moddiy texnika bazasini mustahkamladi. 1940 yilda O'zbekiston paxta dalalarida 23 ming traktor ishlagan bo'lsa, 1985 yilda 188,9 ming traktor ishladi. Amudaryo va Sirdaryo havzasi suvlari hisobidan 20 dan ortiq suv omborlari, o'nlab kanallar barpo etildi. Paxta jazavasiga tushgan Markaz keragidan bir necha barobar ortiq mineral o'g'it yetkazib berdi. Besh yilliklar rejalarida respublikada paxta yetishtirish miqdori muttasil oshib boraverdi. O'zbekiston 1946 -1950 yillarda jami 7 mln. 723 ming tonna paxta bergan bo'lsa, 1981-1985 yillarda esa bu ko'rsatgich 28 mln.617,6 ming tonnaga yetdi. Ya'ni O'zbekistonda paxta yetishtirish 1946-1950 yillardagiga nisbatan 1981-1985 yillarda qariyb to'rt barobar ortdi.

Paxta yakkahokimligining o'rnatilishi o'zining bugungi kungacha ta'sir qilib kelayotgan og'ir asosratlarini qoldirdi. Yashnab turgan bog'-rog'lar, poliz ekinlari maydoni keskin qisqardi. oziq-ovqat taqchilligi kelib chiqdi. «Bu og'ir merosning yana bir xususiyati respublikaning yoqilgi va g'alla masalasida Markazga qaramligida, un, shakar, go'sht, sut mahsulotlari kabi eng muhim oziq-ovqat mollarning, boshqa xalq iste'moli tovarlari, tayyor mahsulotlarni chetdan olib kelinishida yaqqol qo'rinadi».

Yaylovlarning paxta ekiladigan maydonlarga aylantirilishi natijasida chorva mollari tuyog'ining umumiy soni keskin qisqarib ketdi. Paxta ekin maydonlari kengayishi Amu va Sirdaryo suvlarining Orol dengiziga oqishini keskin kamaytirdi. Orol fojiasi kelib chiqdi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan xato va kamchiliklar sovet jamiyatini oxir oqibat inqirozga mahkum etdi.

Inqirozli vaziyat ma'naviy sohani ham qamrab oldi. Maorif, oliy va o'rta maxsus ta'limi tizimida son ketidan quvish, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining o'rnatilishi kadrlar sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mustabid tuzum 50-yillar boshlarida madaniyat va fan arboblari nisbatan qatag'on uyushtirdi. Baynalminalchilik shiori ostida milliy qadriyatlar chekkaga surib qo'yildi. 20-30 yillardayok Islom diniga qarshi kurash bahonasida xalqimizni qadimiy urf-odatlarini, madaniyati, qadriyatlariga boshlangan hujum davom ettirildi. «Ro'za hayiti», «Karbon hayiti», «Navro'z» kabi xalq bayramlari ta'qiqlandi, hatto Islomgacha ham xalqning eng sevimli taomi bo'lib kelgan «Sumalak» payg'ambar taomi sifatida ta'qiqlandi. Uning o'rniga yangi Sho'ro bayramlari va tantanalari joriy qilindi.

Milliy kiyimlarda yurish, sunnat tuyini qilish, o'z ona tilida muloqotda bo'lish eskilik sarqiti va madaniyatsizlik ko'rinishi deb baholandi. Din xalq uchun bir yukdir deb e'lon qilindi. Bolalar bog'chasidan toki oliy o'quv yurtlarigacha ateistik tarbiya tiqishtirildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Sho'rolar hukmronligi davrida O'zbekiston iqtisodiy va madaniy jihatdan mustamlakachilik rejasiga buysundirilgan edi. Respublika kog'ozdagina mustaqil bo'lib, amalda esa har tomonlama «katta og'a»ga qaram va tobe o'lkaga aylantirilgan edi.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.-T.: O'zbekiston, 1996 y.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-T.: Sharq,1998y.
3. Bobojonova D. O'zbekistonda demokratik jarayonlar va ularning xususiyati.-T.:Fan, 1995 y.
4. Ishokov F. Proshloye glazami istorika.-T.: O'zbekiston, 1999y.
5. Karimov SH., Turg'unov I., Shamso'tdinov R. Vatan tarixi. Uchinchi kitob.-T.: Sharq, 1997 y.
6. Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari.-T.: 2000 y.
7. Usmonov. Q. va boshqalar. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida.-T.: O'qituvchi, 1996 y.
8. Xo'jamberdiyev Yo. O'zbeklar ishi.-T.:Yozuvchi,1990 y.
9. O'zbekiston sovet mustamlakasi davrida. II-kitob.-T.: Sharq, 2000 y.
10. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis fakultetlari talabalri uchun darslik /R.Murtazayevaningumuiy tahriri ostida.-T.: Yangi asr avlodi, 2003.-676b.
11. O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya.-T.:O'zbekiston,1997y.
12. Qoraqalpog'iston tarixi (1917-1994).-Nukus: 1995 y.
13. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li.-Toshkent: 1992 y.
14. Usmonov I. Qatag'on qurbonlari.-Toshkent: 1992 y.
15. Mahmudov M. Barhayot siymolar.-Toshkent: 1991 y.
16. Turdiyev SH. Ular Germaniyada o'qigan edilar.-Toshkent: 1991 y.
17. Qodiriy qayerda otilgan.-O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-1990.-28 sent.
18. Hukmdan avval otilgan.-Fan va turmush.-1990.-№4.
19. Nohaqlik qurboni.-Fan va Turmush.-1990.-№5.
20. Soljenisin A. GULag yoki qamoqxonalar Bosh boshqarmasi.-Yoshlik.-1990.-№5
21. Shamsutdinov.R.Istiqloq yo'lida shahid ketganlar.-T.: Sharq,2001y.
22. Shamsutdinov.R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari.-T.: Sharq, 2001 y.
23. Hamroyev Farruh. «Katag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi barpo etilmoqda. O'zbekiston ovozi.-2002.-28 may.

#### 13 -MAVZU: O'ZBEKISTONDA DAVLAT MUSTAQILLIGINING QO'LGA KIRITILISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI.

**MAQSAD:** Talabalarga O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, mustaqillikning tarixiy zarurat ekanligini, mustaqillikning qo'lga kiritilishi va uning amaliy ahamiyatini ilmiy tarzda bayon qilib berish.

#### REJA:

1. O'zbekiston Mustaqillikka erishishining shart-sharoitlari.
2. O'zbekiston o'zgarishlar davrida.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.
4. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li.

XX asrning oxirgi 20 yili insoniyat tarixida katta o'zgarishlar yuz bergan davrlardan biri bo'ldi. 1980 yillarda sobiq ittifoqda iqtisodiy krizis yetildi. 1981 yildan boshlab mamlakat iqtisodiga faqat noxush ko'rsatgichlar xos bo'ldi.

Afg'on urushi esa davlatning bu siz ham og'ir iqtisodiy va siyosiy ahvoliga qattiq zarba berdi. Butun bir sosialistik tizim chuqur islohotsiz yashashga noqobil ekanligini yaqqol ko'zga tashlandi va shunday islohot 1885 yil aprelda «qayta qurish» nomi bilan boshlandi. Ko'rinishidan yuzlab millatlarni porloq kelajak yo'lida birlashtirgan Ittifoq qayta qurishning birinchi zarbalaridanoq parcha-parcha bo'lib ketdi. Olma-ota, Boku, Tbilisi, Vilnyus shaharlarida bo'lib o'tgan voqealar SSSR ning millatparvarlik siyosatning shunchaki yuzaki ekanligini ko'rsatish bilan birga demokratik jarayonlarning tezlashishiga sabab bo'ldi.

Vatanimiz O'zbekiston ham ushbu voqealardan chetda qolgan yo'q. Asrlar davomida orzu qilingan, kurashib kelishgan mustaqillikka erishish uchun imkoniyat vujudga keldi. Bu imkoniyatni qo'ldan boy bermaslik shart edi. 1989 yil 21 oktabrda Respublika Oliy Kengashi davlat tili to'g'risidagi qonunni qabul qildi. Davlat tili to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi O'zbekistonning mustaqillik uchun qo'ygan ilk qadami edi. «Qizil imperiya» davrida yagona sovet xalqini shakllantirish orzusi o'zbek xalqining ma'naviyati, milliy urf-odatlarini bilan birga tiliga ham katta ziyon yetkazdi. Yetkazilgan ma'naviy ziyonlar tahlil qilinganda davlat tili to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi naqadar katta ahamiyatga ega ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Buning ustiga qiyin, lekin sharaflil yo'lga birinchi qadam qo'yildi.

I.Karimovning 1989 yil 20 sentabrdagi KPSS Markaziy Komiteti Plenumida «Biz Ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o'zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo'yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz», deb ta'kidlashi O'zbekiston o'ziga mustaqillik yo'lini tanlaganini yana bir bor ko'rsatdi.

Ittifoqda esa «buyuk rus shovinizmi», qog'ozbozlik, byurokratik tartib, turli xil iqtisodiy va ijtimoiy cheklovlar o'z natijalarini ko'rsatib mamlakat og'ir ahvolga kelib qoldi. SSSR hukumati inqirozdan chiqish yo'lini topa olmas, xalqning esa turmush darajasi xavfli darajada pasayib bormoqda edi. Xalq orasida ishonchsizlik kayfiyati vujudga kelib hukumatning obro'si tushib ketdi. O'zbekistonda esa ittifoqdan farqli iqtisodiga oid muhim tadbirlar amalga oshirilmogda edi. 1989 yil 25 noyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Oliy Soveti sessiyasida «O'zbekiston SSRni iqtisodiy- ijtimoiy rivojlantirishning 1990 yilgi davlat rejai to'g'risida»gi masalaning muhokama qilinishi ham shundan dalolat beradi.

Siyosiy sohada ham katta o'zgarishlar yuz bermoqda edi. 1990 yil 23 martda O'z KP MK Plenumida amaldagi hokimiyatni O'z KPdan xalq deputatlari sovetlariga berish, prezidentlik lavozimi va suverenitet masalalari ko'tarildi. 1990 yil 24 martdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining sessiyasida vatanimiz tarixida birinchi marta Prezidentlik lavozimi ta'sis etish to'g'risida qaror qabul

qilindi. Sessiyada yakdillik bilan I.A.Karimovning O'zbekiston SSR Prezidenti etib saylash to'g'risida qaror qabul qildi. Bularning barchasi osonlik bilan kechgani yo'q, chunki Moskvaning qarshiligi juda kuchli edi. L.Levitin va D.S. Karlaynlar shunday eslaydilar:- 1990 yilning mart oyida u (Islom Karimov -muallif) o'sha paytdagi ittifoqdosh respublikalar rahbarlari orasida birinchi bo'lib, Prezidentlikka saylandi.

Moskva buni juda yomon qabul qildi. Gorbachev ochiqdan-ochiq g'azablandi. Karimovdan qutilish uchun, uning o'zining (I.Karimovning -muallif) gapiga qaraganda tazyiqning barcha yo'llaridan foydalanib ko'rishdi. Gorbachev uni o'taketgan amallar deb aybladi. Bu vaqtda, men ishonamanki, Karimov haqoratlangan va ho'rlangan O'zbekistonning obro'sini ko'tarish xaqida uylardi va bu kurashda Karimov o'zi va xalqi uchun hamma narsaga tayyor yo'l boshchi sifatida g'olib chiqdi» (L.Levitin, S.Donald, Korlayn. Islom Karimov - yangi O'zbekiston Prezidenti. Toshkent. 1996 yil.).

O'zbekiston tarixidagi asosiy voqealardan biri 1990 yil 20 iyunda sodir bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida «Mustaqillik deklarasiyasi» qabul qilindi.

Deklarasiya qo'yidagi so'zlar bilan boshlangan edi: «O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi Oliy Soveti:

O'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari;

Har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat oliy maqsad haqqi;

Har bir kishining farovon turmush kechirishini ta'minlashni oliy maqsad deb bilgan holda;

O'zbekiston xalqlarining kelajagi uchun tarixiy ma'suliyatni chuqur his etgan holda;

Xalqaro huquq qoidalari, umumbashariy qadriyatlariga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasining davlat Mustaqilligini e'lon qiladi» (Mustaqillik deklarasiyasi. O'z.SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida qabul qilingan. Toshkent. 1990 yil.).

Shu kundan e'tiboran O'zbekistonga tegishli bo'lgan barcha siyosiy va iqtisodiy masalalar mustaqil tarzda hal etilishi kerak edi.

Siyosiy sohadagi sifat o'zgarishidan yana biri 1991 yil 17 martda yuz berdi. Shu kuni umumxalq referendum o'tkazildi. Referendumdagi asosiy byulitenlardan biriga O'zbekiston (Ittifoq respublikalari orasida faqat respublikamiz) da «O'zbekiston yangilanayotgan ittifoq (federasiya) tarkibida mustaqil, teng

Huquqli Respublika bo'lib qolishga rozimisiz?» - degan savol kiritilgan edi. Mustaqillik uchun ovoz beruvchilar soni 9.215.571 tani ya'ni umumiy saylovda qatnashganlarning 93,9 foizini tashkil etdi. Referendum natijalari Respublika rahbariyati va O'zbekiston xalqining birdamligini hamda tanlagan yo'limizning to'g'riligini oshkor etdi.

O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumi 1991 yil 22 iyunda xalqning qo'llab -kuvvatlashiga tayangan holda Mustaqillik deklarasiyasiga asoslanib «O'zbekiston SSR hududida joylashgan ittifoqqa bo'ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashqilotlarini «O'zbekiston SSRning huquqiy tabeliga o'tkazish to'g'risida» qaror qabul qildi.

Iqtisodiy ahvol ittifoqda bo'lganidek juda og'ir edi. Aholining turmush tarzi pasayib ittifoqqa nisbatan ishonch kun sayin susaydi. 1991 yil fevralda Toshkent Siyosatshunoslik va Boshqaruv Instituti Toshkent, Samarkand va Farg'ona shaharlarida 10 sanoat korxonasida 400 kishi bilan sosialogik so'rov o'tkazdi. Natija shuni ko'rsatdiki, so'ralganlarning 67,8 foizi mamlakatdagi iqtisodiy ahvolning yaxshilanishiga ishonmagan, 72 foizi odam hayotdan qoniqmayotganini, faqat 4,5 foiz kishi umumittifoq idoralari ishonishini, 32,5 foiz ishchilar esa Respublika davlat idoralari ishonch bilan qarashlarini bildirganlar.

Shunday bir vaziyatda Ittifoqda ijtimoiy-siyosiy uch yo'nalishdagi kuchlar manfaatlari to'qnash keldi:

1) SSSR ni saqlab qolish, iqtisodiy rivojlanishning sosialistik yo'lidan voz kechmaslik, markazdan boshqaruv tarafdorlari bo'lgan - birinchi kuchlar (platforma):

2) SSSRni tarqatib yuborish, suveren, mustaqil respublikalar ittifoqini tuzish, xususiylashtirish, umuman, sosialistik yo'lidan voz kechish tarafdori bo'lgan - Shatalin S. dasturi tarafdorlari:

3) SSSR ni saqlab qolish, murosa qilish, markazlashtirishdan voz kechmaslik, «Shokovaya terapiya» tarafdori bo'lgan - M. S. Gorbachev platformasi.

1991 yil 19 - 21 avgust kunlari Moskvada Favqulodda holat davlat komiteti ( GKCHP) tomonidan davlat to'ntarishiga urinish yuz berdi. G K CH P chilar noqonuniy ravishda aholining orzu umidlariga to'sqinlik qilish, respublikalar mustaqilligini bo'g'ish va ilgirigidek «qizil imperiya» ga qaytish maqsadida hokimiyatni qo'lga olmoqchi bo'ldilar. Demokratiya havosidan nafas olgan, eskilik sarqitiga qaytishni xohlamagan xalq demokratik kuchlar timsolida g'alaba ko'zondi.

1991 yil 19 avgust kuni Hindiston safaridan qaytish bilan prezident I.Karimov voqealarga nisbatan O'zbekiston nuqtai-nazarini bildirdi: «Markazda kim bo'lishidan qat'iy nazar, qonunga xilof ko'rsatmalar bajarish mumkin emas». O'zbekiston Prezidenti Farmoni bilan favqulodda holat davlat komitetining g'ayrikonstitutsiyaviy huquqqa qarshi qarorlari va boshqa ko'rsatmalari noqonuniy deb e'lon qilindi. Markaz va respublikalar o'rtasidagi munosabatlar yanada taranglashdi. Ahvol shunday ediki, faqatgina mustaqillik bilangina iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy krizisdan chiqish mumkin edi. Shu maqsadni ko'zlab 1991 yil 31 avgustda chaqirilgan respublika Oliy Kengashi XII chaqiriq navbatdan tashqari sessiyasi o'z ishini boshladi. Sessiyadagi asosiy masala «O'zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to'g'risida»gi qonun edi. Qonun moddami-modda muhokama qilindi. Unda Respublikaning suveren mustaqil davlat ekanligi, xalq hokimiyati, ma'muriy boshqaruvi, hokimiyatning uch tarmoqqa bo'linishi, iqtisodiy asoslari, respublika fuqaroligi, davlat ramzlari, Qoraqalpog'iston bilan munosabati, tashqi siyosati xaqidagi masalalar o'z o'rnini topgan edi. O'zbekiston SSR O'zbekiston Respublikasi nomi bilan suveren mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Mustaqillik belgilangan kun - 1 sentabr 1991 yildan boshlab milliy bayram va dam olish kuni deb e'lon qilindi. 1991 yil 18 dekabrda mustaqillikni xalq tomonidan mustahkamlash maqsadida Oliy Kengash IX sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Referendumini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilindi. Referendum 1991 yil 29 dekabrda o'tkazilib shunday savol qo'yildi: «Siz Oliy Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e'lon qilinishini ma'kullaysizmi?» Umumxalq referendumini saylov ro'yxatiga olinganlarning 94,1 % i (9,898,707 kishi) ishtirok etdi. Respublika Mustaqilligini yoqlab 9,718,155 kishi yoki referendumda qatnashganlarning 98,2 % i ovoz berdi.

1991 yil 29 dekabr O'zbekiston tarixidagi eng muhim sanalardan biri bo'lib qoldi. Shu kuni Mustaqillik ramzi va respublikadagi siyosiy o'zgarishlarning mantiqiy davomi sifatida xalqning xohish - irodasini ifoda etgan holda birinchi marta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Prezidentlik saylovi mamlakat tarixida ilk bor o'tkazilayotganligi bois 13 saylov okrugining 7 mingga yaqin saylov uchastkalarida katta saylov tadbirlari o'tkazildi. Saylov komissiyalari ishning o'zida 75 mingdan ortiq kishining ishtirok etganligi ham shundan dalolat beradi. Saylovga oid hujjatlar saylovga doir 11 million nusxada byuliten tayyorlandi. Nomzodlarning saylovoldi dasturlari aks ettirgan 301 ming nusxa plakatlar, 40 ming nusxada saylovchilarga murojaatnomalar chop etildi.

Saylov muqobillik asosida o'tdi. Prezidentlikka O'zbekiston XDP va O'zbekiston kasaba uyushmalari federasiyasidan I.A. Karimov va «Erk» demokratik partiyasi vakili Saloy Madaminov (Muhammad Solih) o'z nomzodlarini qo'ydilar. Saylov natijalariga ko'ra, saylovda ishtirok etganlarning 86,5% i (8,514,136 kishi) Islom Karimov uchun, 12,3 % i (1,220,474 kishi) esa, Saloy Madaminov uchun ovoz berdilar. Markaziy saylov komissiyasi «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylov to'g'risida»gi qonunning 35 - moddasiga asosan Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan, deb qaror qildi. Saylov adolati va qonuniy o'tkazilganligini MDH mamlakatlari, shuningdek AQSH, Turkiya va Malayziyadan kelgan betaraf kuzatuvchilar ham e'tirof etishdi.

Respublikamiz siyosiy jihatdan mustaqillikni qo'lg'a kiritgan ekan, albatta, davlat ramzlariga ham ega bo'lmog'i kerak edi. Shu nazarda tutilib, 1991 yil 18 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining VIII sessiyasida «O'zbekiston Respublikasining davlat bayrog'i to'g'risida» qonun qabul qilindi. Davlat ramzlaridan biri bo'lgan bayroq tariximiz, ajdodlarimiz ruhini, milliy va ma'naviy urf odatlarimizni o'zida aks ettirish kerak edi va shunday bayroqqa ega bo'ldik.

«Bayroqdagi havorang zangori osmon va musaffo suv ramzi.

Moviy rang -lojuvard- Sharqda azaldan qadrlangan. Amir Temur ham o'z bayrog'iga shu rangni tanlagan.

Oq rang - tinchlik va poklik timsolidir. Yosh mustaqil davlat yo'lining oq va beg'ubor bo'lishi uchun yaxshi niyat ifodasi. Qizil chiziq - bu har bir tirik jonning tomiri, unda jo'sh urib turgan hayotiy kuch, tiriklik ramzi.

Yashil rang - O'zbekistonning sahovatli va tabarruk tuprog'i, go'zal tabiatni timsoli.

Yarim oy - o'zbek xalqining ko'p asrlik an'alariga mos keldi. Yarim oy va yulduzlar musaffo osmon va tinchlikning ifodasidir.

12 ta yulduz tasviri - qadimdan mukammallik, barkamollik timsoli» (Bayroq to'rtburchak bo'lib, uzunligi 250 sm, kengligi 125 sm. Moviy yashil va oq ranglarning har birining eni 40 sm dan. Kizil hoshiyalarning eni har biri 2,5 sm. dan ).

1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida «O'zbekiston Respublikasi davlat gerbi to'g'risida» qonun qabul qilindi. «O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi dumaloq ko'rinishiga ega bo'lib, bu shaklning so'l tomoni bug'doy boshloqlaridan, o'ng tomoni esa, chanoqlari ochilgan g'oz shohlaridan iborat chambarga o'ralgan, uzoqdagi tog'lar va daryolar manzarasida gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi. Gerbning yuqori qismida esa O'zbekistonning ozodligi ramzi sifatida sakkizburchak yulduz uning ichki qismida esa yarim oy va yulduz, markazida - baxt va erksevarlik ramzi-qanotlarini yozgan xumo qushi tasvirlangan. Gerbning pastki qismida O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chamber tasmasiga «O'zbekiston» deb yozib qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining rangli ko'rinishda: xumo qushi va daryolar - kumush rangida: quyosh, boshloqlar, paxta chanoqlari va «O'zbekiston» yozuvi oltin rangda: g'oz shohlari va barglari, tog'lar va vodiylar - yashil rangda: chanoqlardagi paxta - oq rangda: tasma va O'zbekiston Respublikasi bayrog'ining ranglarini aks ettiruvchi uch xil rangda: sakkizburchak - oltin zarhal bilan hoshiyalangan holda havo rangda: yarim oy va yulduzlar - oltin rangda tasvirlangan»

Davlat mustaqilligining yana bir muhim ramzi «O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to'g'risida» gi qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 12 dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida qabul qilindi. Mavjud variantlardan Abdulla Oripov va Mutal Burxonovlarning varianti qabul qilindi.

Har bir suveren davlat demokratik jamiyat kurmoqchi ekan albatta, o'z Konstitusiyasiga ega bo'lmog'i shart. Jamiyat, davlat, shaxs hat-harakatlari qonuniy asoslangan bo'lmog'i kerak. O'zbekiston o'z tarixida bir necha marotaba (1918y, 1920y, 1927 y, 1937y, 1978y) konstitusiyasiga ega bo'lgan bo'lsa-da, mazmunan asosiy qonun bo'lgan emas. Shaklan asosiy qonun bo'lgan bu konstitusiyalarda xalqimizning tarixan shakllanib kelgan ma'naviyat, qadriyatlar, urf-odatlar, shart-sharoitlari va xohish - irodasi hisobga olinmagan edi. Shu sababli mustaqillikni ta'minlovchi qonuniy asosni yaratish eng muhim masalalardan biri edi.

O'zbekistonda konstitusiya yaratish masalasi 1990 yildayoq paydo bo'lgan edi. Shu yili 20 iyunda qabul qilingan. «Mustaqillik deklarasiya»sining oxiri 12- bandida shunday deyiladi: «Ushbu deklarasiya O'zbekiston SSR ning yangi konstitusiyasini hamda yangi ittifoq shartnomasini ishlab chiqish uchun asosdir». 1990 yil 1 noyabrda «O'zbekiston SSR konstitusiyasiga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida» qonun qabul qilingan. 1991 yil 12 aprelda I.Karimov boshchiligidagi konstitusiyaviy komissiyaning birinchi majlisi chaqirilib barcha tashkiliy ijodiy jarayonlarni muvofiqlashtirish maqsadida 32 kishilik ishchi guruhi tuzildi. Ulardan tashqari 100 lab mutaxassislar jalb etildi. AQSH, Fransiya, Kanada, Germaniya, Shvesiya, Yaponiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Gresiya, Turkiya, Eron, Xindiston, Pokiston, Misr, Vengriya, Bolgariya, Latviya davlatlarining konstitusiyalari chuqur o'rganilib, qiyosiy tahlil qilindi.

Rossiya federasiyasi, Belarus, Ukraina, Qozog'iston, Qirg'iziston va Turkmaniston Respublikalari konstitusiyalarining loyihalari o'rganildi. Bundan tashqari «Temur tuzuklari» kabi tarixiy qonunlar to'plamlariga ham murojaat qilindi.

1991 yilda Respublika Fanlar Akademiyasi Falsafa va huquq instituti, siyosatshunoslik va boshqaruv instituti va Prezident devoni yuridik bo'limi tayyorlagan uchta muqobil konsepsiyalar muhokama qilindi. Shu yili noyabr oyida konstitusiyaning birinchi loyihasi tayyorlab bo'lingi. U 158 moddadan iborat edi. 1992 yil Bahorida loyihaning 149 moddadan iborat ikkinchi variantni ishlab chiqildi. Loyihalar puxta ishlovdan so'ng 1992 yil 26 sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e'lon qilindi. 21 noyabrda o'zgartirishlar kiritilgan loyiha ikkinchi matbuotda e'lon qilindi. Taklif va mulohazalar hisobga olinib 1992 yil 12 chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida muhokama uchun qo'yildi. Konstitusiyasiga tuzatishlar kiritildi va 6 bo'lim, 128 moddadan iborat Konstitusiya qabul qilindi. Konstitusiya qabul qilingan 8 dekabr bayram kuni, deb belgilandi.

O'zbekiston Mustaqillikka erishar ekan mavjud ijtimoiy tuzumni shunchaki isloh qilish emas, balki, butunlay boshqa jamiyatni barpo qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yilgan:

- Ma'muriy - buyrukbozlik tuzumini tugatish va demokratik huquqiy jamiyat tuzumiga o'tish;

- Turli mulkchilik shakllariga, ko'pkuladli iqtisodiyotga, bozor munosabatlariga o'tish va socialistik planlashtirishdan butunlay voz kechish;

- Milliy urf-odatlar, qadriyatlar madaniyatni tiklash, totalitarizmdan umuminsoniy qadriyatlarga o'tish;

- Alohidalikdan yaxshi qo'shnichilik munosabatlariga o'tish, jahon hamjamiyatiga qo'shilish;

- Maqsadlar ma'lum, lekin uni qaysi yo'l bilan qanday amalga oshirish masalasi qiyin edi. Chunki, buning uchun ma'lum bir strategiya, belgilangan dastur kerak edi.

O'zbekistonda yangi jamiyatga o'tish nazariyasini I. Karimov boshchiligidagi yaratildi, desak xato bo'lmaydi. Prezidentimizning «O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li» ( 1992 yil), «O'zbekiston- bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li» (1993 yil), «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida» ( 1995 yil ) kabi asarlarida O'zbekistonning tanlagan yo'li to'g'risida fikr yuritildi.

O'tish davrida tarixan tarkib topgan qadriyatlar, milliy urf- odatlar, shart-sharoitlar, psixologiya va albatta jahon tajribasi asos qilib olindi. Tanlagan yo'limizning asosligi ham shunda edi. Muomalada yangi «O'tish siyosati», «Besh asosiy tamoil», «O'zbekcha model», «Sharqona demokratiya», kabi atamalar paydo bo'ldi.

Oradan uzoq vaqt o'tgani yo'q. Anchagina munozaraga sabab bo'lgan hatto, ayrimlar nomaqbul, deb hisoblagan o'ziga xos yo'li o'z samarasini bera boshladi.

O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. -O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. Toshkent. «O'zbekiston» 1992 yil.
2. Karimov I.A. -O'zbekiston- bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. Toshkent. «O'zbekiston» 1992 yil.
3. Karimov I.A. -O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent. «O'zbekiston» 1993 yil.
4. Levitin L.-I.Karimov-yangi O'zbekiston Prezidenti. Toshkent. O'zbekiston, 1996 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasi. Toshkent «O'zbekiston» 1992 yil.
6. Jo'rayev N, Fayzullayev T. O'zbekistonning yangi tarixi. T-3. Toshkent «Sharq» 2000 yil.

7. Yangi O'zbekistonning 7 zafarli yili, Toshkent. «Sharq» 1999 yil.
8. Mustaqillik: izohli ilmiy - ommabop lug'at, Toshkent «Sharq» 1998 yil.
9. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis fakultetlari talabalri uchun darslik /R.Murtazayevaningumuiy tahriri ostida.-T.: Yangi asr avlodi, 2003.-676b.

#### **14-MAVZU. O'ZBEKISTONDA HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI ASOSLARINING BARPO ETILISHI. O'ZBEKISTONNING MA'NAViy, MADANIY TARAQQIYOTI.**

##### **MA'RUZADAN KO'ZLANGAN MAQSAD:**

Yurtboshimiz I.A.Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruzasida oldinga surilgan «...Davlatning kuch qudrati boshqaruvning barcha vakolatlarini o'z zimmasiga olishi hamda davlat idoralarining hukm va tazyiq o'tkazuvchi organ sifatidagi vazifalarini kuchaytirish bilan belgilanmaydi.

Davlatning kuch qudrati - avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashqil etib berish qobiliyati bilan o'lchanadi»(I.A.Karimov Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot -pirovard maqsadimiz «Namangan xaqiqati»,-2000 yil 26 yanvar.),-degan fikrlarining mohiyatini ochib berishdir. -Nima uchun biz XXI asr bo'sag'asida jamiyatimizning ma'naviy jabhasiga ko'proq e'tibor berib qoldik ?-Milliy mafkurani shakllantirish faqatgina davlatning ishi emas, balki u umummilliy muammolardan biridir. Bu nima degani?

Yuqoridagi masalalarning mohiyatini ochib berish mavzimizning maqsadidir.

##### **REJA:**

1. Totalitar tuzumdan huquqiy davlatga o'tish.
2. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi.
3. Ko'p partiyaviylik tizimi. Milliy siyosat.
4. Mustaqillik yillarida ma'naviy hayot.
5. Milliy istiqloq mafkurasining shakllanishi.
6. Ta'lim to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

1. Hozirgi kunda jahonda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga bir nazar tashlasak, jamiki davlatlarning oldida bir masala ko'ndalang bo'lib turibdi- mazkur davlatning jo'g'rofiy, siyosiy joylashuvi, yaqin chegaradosh davlatlardagi iqtisodiy, siyosiy holat, iqtisodiy imkoniyatlari, ma'naviy-aqliy imkoniyatlari, milliy mentaliteti, erkinligi-yu ozodligi, xalqning onglik darajasi va rahbariga, ya'ni yurtboshiga bog'liq omillar.

Endi nazarimizni sobiq ittifoq tarkibidagi hozirgi kunda mustaqillikka erishgan davlatlarning taraqqiyotiga qarataylik. Har qaysisining rivojlanish darajasi, rivojlanish yo'li o'zgacha -bu tabiiy hol. Lekin bu rivojlanishning natijasi-chi? Masalaning mohiyati ham xuddi mana shundadir.

Ma'lumki, sobiq ittifoq tarkibidagi barcha davlatlarga bir xil meros qolgan - totalitar tuzum! Totalitar tuzumdan-huquqiy davlatga o'tish - bir zumda amalga oshadigan ish emas, biz o'ylagandan ancha murakkabroq, insondan anchalar aql talab etadigan jarayondir, ya'ni:

1. Juda murakkab, ko'p qirrali, ayni paytda izchillikni taqozo etadigan ijtimoiy xodisa.
2. Eng avvalo millat ravnaqini ta'minlash, xurfikrlilik, sog'lom tushunchalar, yuksak siyosiy madaniyat taqozo etadigan jarayon.
3. Eng muhimi, xalq demokratiyani chuqur tushinishi, uning butun mazmun - mohiyatini anglashi zarur.

Yuqoridagi uch eng muhim vazifalarni jamlab xulosa chiqaradigan bo'lsak, O'zbekistonning bu boradagi siyosati - «yangisini qurmay, eskisini buzmaslik», islohotlarni «bosqichma - bosqich» amalga oshirish shiori ostida olib borilmoqda.

Prezident I.A.Karimov ushbu masalaga mamlakat va xalq manfaatidan kelib chiqib yondashmoqda. Bu yo'lda u ma'lum darajada qatiqqo'llik va talabchanlik ham qilmoqda. Buni «Komsomolskaya Pravda» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida ochiq-oydin aytdi: «Muholiflarim meni diktator qilib ko'rsatishni juda xohlaydilar. Tan olaman: ehtimol mening harakatlarimda avtoritarizm nishonalari bordir. Ammo, men buni faqat bir narsa bilan izohlayman: tarixning muayyan davrlarida, haqiqiy davlatchilik qaror topayotgan paytda. Ayniqsa bir tizimdan ikkinchisiga o'tish davrida, har holda kuchli ijroiya hokimiyati zarur. Qon to'kilishiga va qarama-qarshilikka yo'l qo'ymaslik, mintaqada millatlararo va fuqarolar totuvligi, tinchligini va barqarorlikni saqlash uchun shunday bo'lishi zarur. Bu yo'lda men jonimni fido qilishga tayyorman»( A. Azizxo'jayev. Davlatchilik va ma'naviyat.-Toshkent: Sharq, 1997,-B.17).

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab huquqiy davlatchilik asoslarini yaratish muhim vazifalardan biriga aylandi. Milliy davlatchilik rivojlanishining ming yillardagi an'analari mustamlakachilik yillarida batamom inkor etilgan edi. O'zbekiston rahbariyati tarixiy an'analarga, dunyo tajribalariga, ulkaning milliy -tarixiy rivojlanishiga, uning o'ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni tubdan isloh qilish yo'llarini ishlab chiqdi.

Bu jarayonda ikki vazifa:

1. Eski ma'muriy tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish;
2. Yangi davlatchilikning huquqiy-siyosiy asoslarini yaratish, davlatchilikda yangi markaziy va mahalliy boshqaruv tizimini shakllantirish masalalari.

Huquqiy davlatga o'tishning ilk bosqichi - davlat qurilishining kafolati - O'zbekiston Konstitusiyasidir.

O'zbekiston Konstitusiyasida davlat hokimiyatini taqsimlanishida jahondagi ilg'or boshqaruv tajribalari o'rganib chiqildi. Hamda eng asosiysi - milliy davlatchiligimiz an'alariga sodiq qolindi.

Jahondagi turli davlatlarda davlat boshqaruvi shakli turlicha. Masalan, AKShda boshqaruvning prezidentlik - respublika shakli, Buyuk Britaniyada parlamentar-monarxiya, Germaniyada parlamentar -republika, Fransiyada dualistik -republika shakllari mavjud.

Nega bunday ?

Sababi: milliy davlatchilik asoslari, milliy madaniyat, tarixiy qadriyatlar har bir davlat demokratiyasiga, davlat boshqaruviga zamin bo'lishi kerak. Misol uchun, Buyuk Britaniyada monarxiya boshqaruv tizimi saqlab qolingani, hozirgi davrda Kirolicha davlat rahbari, lordlar palatasi milliy davlatchilik an'alaridan meros tarzda saqlab qolingani, yagona sistemalashtirilgan konstitusiyaga yo'q. AKShda atiga 6 ta moddadan iborat bo'lgan 1787 yilda qabul qilingan Konstitusiyaga milliy davlatchilik asoslariga sadoqat ramzi sifatida saqlanib qolingani. 26 ta qo'shimcha va o'zgartishlar bilan hozirgi kunda ham amal qilib kelmoqda. Boshqa demokratik davlatlar uchun xos bo'lgan maxsus konstitusion organi yuq. Davlat boshqaruvining Prezidentlik Respublikasi shaklidagi davlatlar ichida faqat AKShdagina Prezident bevosita saylovchilar tomonidan saylab qo'yilmasdan, balki saylovchilarning maxsus kollegiyasi orqali saylanadi. Yaponiyada imperatorga xalqning sadoqati juda kuchli. Imperator hokimiyati daxlsiz va muqaddas deb tan olingan(A.Azizxujayev ..., 81-82 betlar.).

O'zbekistonda ham davlat boshqaruvi shakli, hokimiyat vakolatlarini taqsimlashda xuddi mana shunday milliy an'analarga katta e'tibor berildi.

Endi O'zbekistonda davlat boshqaruvi masalasiga to'xtalsak. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 11 moddasi: «O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi - hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga asoslanadi» (O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 1992 yil.), deyiladi. Konstitusiya mazmunidan ko'rinib turibdiki, davlat hokimiyatida vakolatlar turli davlat organlariga, chunonchi, qonunchilik vakolatlari Oliy Majlisga, ijro vakolatlari Prezident hamda Vazirlar Mahkamasiga, sudlov vakolatlari esa Sud organlariga taqsimlanib berilgan. Davlat boshqaruvida yana islohotlar o'tkazilib, Sud sistemasi yanada isloh qilinmoqda.

Davlatni boshqarishning Prezidentlik shakli mamlakat boshqaruvi tizimini isloh qilishning boshlanishi bo'ldi. Prezident davlat hokimiyatining boshlig'i bo'lib, bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasining raisi vazifasini bajaradigan bo'ldi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat, xo'jalik jamiyatning barcha sohalaridan tortib, intizom o'rnatish, ijroiya hokimiyatini butun choralar bilan mustahkamlash ehtiyoji shuni talab qildi. Demak, Prezident suveren Respublika boshlig'i va ayni mahalda Respublikada ijroiya hokimiyati rahbari sifatida faoliyat yurgizadi. Bu ayrim g'alamislarning fikricha afortitar hokimiyatni o'rnatilishi emas, aksincha, hozirgi paytda kuchli ijroiya hokimiyati bo'lishi kerakligidandir. Aks holda, jilov qo'ldan chiqib ketishi va mamlakat inqirozga yuz tutishi hech gap emas. Masalan, Koreya, Turkiya va boshqa mamlakatlarni olsak. Ular iqtisodiy islohotlar yoki o'tish davrida juda kuchli ijroiya hokimiyatga asoslangan edi.

Respublikada hokimlar boshqaruvining joriy etilishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi, hokimlikka tajribali va malakali shaxslar Prezident tomonidan tayinlanadi va Xalq Deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadi.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining asosini mahallalar tashqil etadi. Bu organlarga yildan-yilga juda katta imkoniyatlar, imtiyozlar berilmoqda. Fuqarolar yig'ini, oqsqollar kengashi kabi o'z-o'zini boshqarish organlari qadimdan o'zbek milliy davlatchiligining asoslari hisoblanadi.

Huquqiy davlat qurishda har tomonlama kamol topgan kadrlar muhim o'rin tutadi.

2. Fuqarolik jamiyati, bu insonning rivojlanishiga imkon yaratadigan, uning huquq va erkinliklarini to'la darajada ta'minlaydigan, qonun ustivor bo'lgan ijtimoiy jamiyatdir. Buning ma'nosi - boshqaruvning turli xil vazifalari bevosita xalqqa topshiriladi, o'zini-o'zi boshqarish organlari rivojlanib boradi.

O'zbekiston Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolar jamiyati sari» siyosiy shiori ostida rivojlanib bormoqda. Fuqarolar jamiyati - bu jamiyatning bir qismi, hokimiyatning davlat organlari va boshqaruvdan tashqari qismi rivojlanib bormoqda deganidir.

Fuqarolik jamiyatining yetuklik darajasi fuqarolarning siyosiy yetukligi, ularning siyosiy va jamoat tashqilotlariga birlashish darajasi, ularning aktiv faoliyati bilan belgilanadi.

Mamlakatimizning fuqarolik jamiyati qurilishi yo'lidan borayotganligi hozirgi davrda vujudga kelgan siyosiy partiyalar va harakatlar, jamoat tashqilotlarining tashqil topganligi va ularning faoliyatida yakqol ko'zga tashlanmoqda.

«Fuqarolik jamiyati, - deb yozadi Islom Karimov, ijtimoiy makon. Bu makonda Qonun ustivor bo'lib, u insonning o'zini-o'zi kamol toptirishga monelik qilmaydi, aksincha yordam beradi».

Keyingi paytlarda Oliy Majlis tomonidan qabul qilinayotgan qonunlarning aksariyati mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Misol, Sud sistemasini isloh qilish to'g'risidagi qonun loyihasini olib ko'rishimiz mumkin, Saylov tizimi va hokozolar.

Xullas, hokimiyat vakolatlarini jamoat va nodavlat tashqilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish, ularning haq huquqlari va erkinliklarini kengaytirish fuqarolik jamiyatining ilk qadamlari hisoblanadi.

Ayni shu masalaga Prezidentimiz Oliy Majlisning II-chaqiriq, IX-sessiyasida ham alohida e'tibor qaratib, shunday dedi: «Aynan mustaqillik davrida har tomonlama o'zini oqlagan, tobora hayotimizda ahamiyati kuchayib borayotgan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari-mahalla instituti, turli jamoat birlashmalari hamda tashqilotlarini rivojlantirish va mustahkamlash masalasi bizning doimiy e'tiborimizda turishi lozim» (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning II-chaqiriq, IX-sessiyasi materiallari O'zbekiston ovozi.-2002.-31 avg.).

3. Demokratiani asosiy xususiyatlaridan biri ko'p partiyaviylikdir. Biroq davlat, jamiyatning rivojini mavjud partiyalarning soni bilan belgilash noto'g'ri. Ko'p partiyaviylik tizimini muvaffaqiyati siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda partiyalarning ishtiroki bilan belgilanadi.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda bir qator siyosiy partiyalar tashqil topdi:

- 1.O'zbekiston XDP (1991 yil)
- 2.Vatan taraqqiyoti partiyasi (1992 yil)
- 3.«Adolat» sosial demokratik partiyasi (1995 yil)
- 4.O'zbekiston Milliy Tiklanish demokratik partiyasi (1995 yil.)
- 5.Fidokorlar milliy demokratik partiyasi (1999 yil )
- 6.O'zbekiston liberal-demokratik partiyasi (2003 yil)

Shuningdek, 1995 yildan «Xalq birligi» harakati mavjud. 2000 yil boshlarida maqsadlari, vazifalari mushtarak bo'lganligi uchun «Vatan taraqqiyoti» partiyasi bilan FMDP birlashib, FMDP nomini oldi.

Prezidentimiz I.Karimov o'zining konstitusiyaning 14 yilligiga bag'ishlangan bayram tantanasida so'zlagan ma'ruzasida siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi o'rniga baho berib jumladan shunday degan edi: «...partiyalar o'zining ijtimoiy-siyosiy faoliyatini aholi orasida qancha jonlantirib, kengaytirib borsa, xalqimiz va saylovchilarimizning siyosiy ongi va faolligi shuncha yuksalib, ularning islohot va o'zgarishlarga o'tkazadigan ta'siri tobora ortib boraveradi».

Bu partiya va harakatlarning har biri jamiyatda ma'lum qatlamlarning siyosiy ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy qarashlarini ifodalab, parlamentda o'z o'rnini va ovozlari egalar.

Mamlakatimizda partiya va harakatlardan tashqari 200 ga yaqin Kasaba, tadbirkorlar, yoshlar, faxriylar kabi ijtimoiy uyushmalar ham mavjud. Bular orasidan eng ommaviysi kasaba uyushma tarkibida 7,5 mln. a'zosi bor. O'zbekiston hayotida yoshlarning roli beqiyosdir. 1991 yili O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 7 yanvar Farmoni bilan iqtidorli yoshlarni xorijdagi ilg'or oliygohlarda bilim olishlarini ta'minlash va tashqil etish uchun «Umid» jamg'armasi tuzildi. Hozirgi kunda 2300 jamoat birlashmalari va nodavlat tashqilotlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Hozir O'zbekistonda 120 dan ortiq millat vakillari yashaydilar. Millatlarning huquqlarini amalda tengligini ta'minlash maqsadida 80 dan ortiq milliy markazlar tashqil etilgan. Bularning faoliyatini 1993 yili tashqil etilgan Respublika Baynalminal madaniy markazi boshqarib boradi.

Yuqoridagi fikrlarimizni jamlab, O'zbekistonda davlatimiz kunma-kun, bosqichma-bosqich o'z funksiyalarini ana shunday jamoat birlashmalariga o'tkazib bermoqda va fuqarolik jamiyati zaminini shakllantirib bormoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda siyosiy partiyalar, jamoat tashqilotlarining vujudga kelishi va faoliyat yuritishi uchun huquqiy asoslar yaratildi. Respublika parlamenti tomonidan qabul qilingan «Jamoat tashqilotlari to'g'risida» (1991 yil 15 fev.), «Vijdon

erkinligi va diniy tashqilotlar to'g'risida» (1998 yil 28 apr.), «Kasaba uyushmalari ular faoliyatini huquq va kafolatlari to'g'risida» (1992 yil 2 iyul.), «Siyosiy partiyalar to'g'risida» (1996 yil dek.)gi qonunlar shular jumlasidandir.

«Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir.

Bunday boylikni ahamiyatini anglash uchun Chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi general -gubernatori M.Skobelevning: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyati, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi», - deb aytgan gapini eslashning o'zi kifoya qiladi»(Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.-Toshkent: Sharq,1999.-B.10).

«Ma'naviyat o'z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi».

«Ma'naviyatni mustahkamlash uchun mehnat va mablag'ni ayash o'z kelajagiga bolta urish demakdir»(Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li.-Toshkent, O'zbekiston,1992.-B.81-82).

Yurtboshimizning yuqoridagi fikrlari, ya'ni o'zbek millatining ma'naviy kamoloti masalasi XX asr oxiri va XXI asr bo'sag'asida nega bunchalar dolzarb masalaga aylanib qoldi.

Hamma yerda - bolalar bog'chalaridan tortib to Oliy o'quv yurtlarigacha, mehnat kollektivlarida, har kuni ommaviy axborot vositalarida ma'naviyat masalasi keng yoritilmoqda?

Bundan rosa bir asr oldin - XX asr boshlarida ham jadidlar ma'naviyat, ma'rifat masalasini kechiktirib bo'lmaydigan eng asosiy vazifa sifatida olg'a surgan edilar.

Nima uchun bugun yana xuddi shu masala mamlakatimiz, yurtboshimiz, rahbariyatimiz diqqat markazida bo'lib qoldi?

**Javob:** «Yuksak ma'naviyat, burchlar kecha yoki bugun o'ylab topilgan emas. Ular insoniyatning ming yillik tarixi, otabobolarimizning necha-necha avlodlari tajribasi davomida yuzaga kelgan. Bozor iqtisodiyoti deb inson ma'naviyatini unutish gunoh bo'ladi. Nuqul pul va foyda ketidan quvsakda, ammo odamlarimiz ruhan qashshoq bo'lib qolishsa - bunday jamiyatning hech kimga keragi yo'q»(Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisodi, siyosat, mafkura. I tom.-T.: O'zbekiston,1996.-B.26).

Yurtboshimiz I.Karimov o'zining «Tarixiy xotirasiz kelajagi yo'q» kitobida yuqoridagi fikrlarini rivojlantirib, yana shunday deb yozadi: «Biz xalqning nomi bilan emas, balki madaniyati, ma'naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz»(Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, 1998.-B.18).

Demak, biz tariximizdan bexabar bo'lsak, buyuk ajdodlarimiz madaniy merosidan baxramand bo'la olmasak, ma'naviy qadriyatlarimiz bilan tanish bo'lmasak, mustamlaka davridagidek manqurtlarga aylanib qolamiz.

Mashhur rus tarixshunosi V.V. Bartold (1869-1930) bu to'g'rida shunday deb yozgan: «Sharq xalqlari bizning madaniyatimiz ustunligiga shundagina ishonadilarki, qachonki, biz ularni ular o'zlarining bilishlaridan (bilganlaridan) ko'ra yaxshiroq bilishimizga tan bersalar» (Bartold V.V. Sochineniya. Tom I. Moskva, 1963 g., s. 607 -608.).

Haqiqatan ham chorizm itibdodi, so'ng sho'rolar zamonida qariyb 130 yil davomida biz o'tmishimizdan ayrildik.

E'tibor bering, «Qadimgi Rus davlati» IX asrda shakllanganligidan kelib chiqib, imperiyaning boshqa biron-bir xalqi (armanlar va gruzinlardan tashqari) davlatchilik tarixi mazkur ko'rsatgichdan (IX asr) qadimroq bo'lmasligi kerak edi. Bu kabi munosabatni imperiya xalqlarining etnik tarixi va etnogenezi masalasida ham ko'rish mumkin. Ya'ni, o'zbeklar, ozarbayjonlar, ukrainlar, turkmanlar va boshqa xalqlarning tarixiy shakllanishi rus xalqi shakllangan asrlardan (IX-XII asr) ertaroq asrlarga borib taqalishi mumkin emasdi.

Mustaqilligimizni bizga bergan buyuk ne'matlaridan biri - bu qadriyatlarimiz, buyuk otabobolarimizning bizga qoldirgan ma'rosini o'rganish huquqidir.

Bunday huquq sho'rolar davrida yo'q edi. (A.Temurni «zolim» dedik, Leninni payg'ambar deb bildik).

Mana endi bu sohada keng yo'llar ochildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq amalga oshirila boshlandi.

1991 yil buyuk alloma, g'azal mulkining sultoni A.Navoiy yubileyini o'tkazish katta voqea bo'ldi.

1994 yili M.Ulug'bek tavalludining 600 yilligi jahon miqyosida nishonlandi. YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida «Temuriylar davri, fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi» mavzusida yirik anjuman bo'lib o'tdi.

«Biz o'zbeklarni ulug' bunyodkor xalq deb dunyoga tarannum etyapmiz va aslida ham shunday, -deb yozadi yurtboshimiz,- YUNESKOning Parijdagi qarorgohida Amir Temur bobomizning-to'ylarini o'tkazishdan maqsad nima? Komil bu insonning eng avvalo buyuk davlat asoschisi, buyuk bunyodkor, ijodkor shaxs bo'lganini, fan, madaniyatga homiylik qilib, jahon sivilizasiyasi taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shganini olam ahliga bildirish edi. Bu zoti oliydan hamisha ruhiy madad olamiz».

Ma'naviy merosimizni bir bo'lagi - diniy qadriyatlarga ham alohida e'tibor berildi. 1992 yili Prezident farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayiti kunlarini umumxalq bayrami deb e'lon qilindi, «Haj» safarlari tiklandi.

Xalqimizning qadimiy bayramlaridan biri - «Navro'z» - umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi.

#### 1. Biz nimani quramiz, qayoqqa qarab ketayapmiz ?

Ana shu narsalarni milliy mafkura belgilab beradi.

1. Mustaqillik g'oyasi, mafkurasining xalqimizga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, uni birlashtiruvchi, buyuk maqsadlar uchun butun kuchlarimizni uyg'unlashtiruvchi ahamiyatini nazarda tutib Prezidentimiz I.A. Karimov mustaqillikning dastlabki kunlarida, 1993 yil 6 may O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining II chaqiriq XII sessiyasida "Oldimizda turgan eng asosiy masala, bu milliy istiqloq mafkurasini yaratish va hayotimizga tadbiq etishdir", -degan edi.

2. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni -xalq, millatni -millat qilishga xizmat etsin». (Prezident I.A.Karimovning «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga bergan javoblaridan. 1998 yil).

- Siz mafkura deganda nimani tushunasiz? Jamiyat faoliyatida, xususan, O'zbekistonning bugungi hayotida mafkura qanday o'rin tutadi?

Javob: Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qayerdagi mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin. Buning isboti uchun xoh tarixdan, xoh zamonamizdan ko'plab misollar keltirish qiyin emas» (Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1999.B. 32).

Milliy mafkura:

1. O'zligimizni, an'analarimizni, xalqimizni asriy orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan maqsad va vazifalarni qamrab olmog'i kerak.

2. Jamiyatdagi xilma-xil fikrlar va g'oyalar bo'lishidan qat'iy nazar, ularni birlashtiruvchi yagona g'oya -mafkura bo'lishi kerak.

3. Har qanday millatchilik va boshqa unsurlardan holi bo'lishi kerak.

4. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi, ularning qalbiga insonparvarlik fazilatlarini singdirishda madadkor bo'lishi kerak.

5. O'tmishimizni eslatib turadigan va umumbashariy yutuqlarga erishmoqqa da'vat qiladigan bo'lishi kerak.

6. Kundalik ishlarimizda, bunyodkorlik faoliyatimizda belimizga quvvat bo'lishi kerak.
3. 2000 yil 6 aprelda Oqsaroy qarorgohida milliy mafkuraga bag'ishlangan maslahatlashuv yig'ilishi bo'ldi.
1. O'zining kelajagini qurmoqchi bo'lgan jamiyat o'z g'oyasi, mafkurasiga tayanmog'i lozim. Davlat siyosati aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosida olib borilmog'i kerak.
2. O'tish davrida xalqimiz va jamiyatimiz uchun oliy maqsadimizga puxta ishlangan mafkura asosida yetishish mumkin. (O'tish davrida mafkuraning roli)
3. Yoshlarimizni milliy g'oya va mafkura asosida tarbiyalashimiz kerak.
4. Tarbiyaviy ishlarimizda g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimiz kerak. Mafkura kurash maydoniga aylanmoqda.
5. Xalqimizni o'zligini anglashiga, milliy qadriyatlarimizni asrab yosh avlodga yetkazib berishda xizmat qilishi kerak.
6. Milliy mafkura davlat mafkurasiga maqomiga ko'tarilmasligi kerak.
7. Milliy an'analarimiz va umumbashariy yutuqlar o'z aksini topishi kerak (Karimov I.A. Milliy mafkura -kelajak poydevori. Ishonch.-2000.-7apr.).

Mustaqillik mafkurasiga e'tiborsizlik jamiyatimizdagi barcha illatlarga keng yo'l ochib beradi. 1999 yil 16 fevral «qonli seshanba» kungi voqealar buning yaqqol dalilidir.

Mustaqilligimiz tufayli fan, maorif, ta'lim tarbiya ishlariga e'tibor kuchaytirildi.

«Ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongini o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa, biz ko'zlagan maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi», - deydi I.A.Karimov.

Respublikamizda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ta'limni isloh qilish dasturi tayyorlandi. 1997 yil 2 avgustda Respublikamizda «Ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Ta'limni isloh qilish qo'yidagi tamoyillar asosida olib boriladi: ta'lim tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;

- ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi, dunyoviyiligi ;
- ta'limda umuminsoniy, milliy -madaniy, ma'naviy qadriyatlarining ustivorligi;
- e'tiqodi, dinidan qat'iy nazar ta'lim olish imkoniyatlarining kengligi;
- ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan holiligi.

1998 yil Avstraliyada kelgusi asr ta'limi istiqbollariga bag'ishlangan «Osiyo -Tinch okean mintaqasida XXI asrda ta'lim muammolari» deb nomlangan xalqaro anjumanda ta'limni rivojlantirishga qaratilgan maxsus davlat dasturi faqat ikki davlat - AQSH va O'zbekistondagina mavjudligi ta'kidlandi. Anjuman ishtirokchilari yangi ta'lim tizimimizga katta ishonch bildirdilar.

1993 yildan Prezidentimiz farmoniga binoan talaba va aspirantlarga maxsus stipendiyalar belgilandi. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim olish huquqiga ega bo'ldilar.

Mustaqillik yillarida «уйидаги yubileylar o'tkazilgan: Imomal-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi. (1998 yil 24 oktabr.), Burhoniddin al-Marg'iloniy tavalludining 910 yilligi, Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi, Abu Iso at-Termiziy tavalludining 1200 yilligi, Mahmud az-Zamahshariy tavalludining 920 yilligi, Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi. (1999 yil 5 noyabr. Xorazm), Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi, Bahouddin Naqshbandiy tavalludining 675 yilligi, Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi, Xoja Ahror Valiy tavalludining 600 yilligi, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 520 yilligi, Amir Temur tavalludining 660 yilligi. (1996 yil.), Boborahim Mashrab tavalludi. (1992 yil.), Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy tavalludining 190 yilligi. (1997 yil 17 dekabr. Xorazm.), Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li tavalludining 175 yilligi. (1999 yil 18 dekabr. Nukus.), Xorazmda 2001 yili Zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»ning 2700 yilligi, Fayzulla Xo'jayev tavalludining 100 yilligi, «Xorazm Ma'mun akademiyasi»ning 1000 yilligi 2005 yil dekabrda nishonlandi.

Respublikamizda har yili A.Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiyarga bag'ishlanib kechalar o'tkazilmoqda. «Alpomish» dostoni yaratilishining 1000 yilligiga bag'ishlangan kechalar, bahslar tashkil qilindi.

1994 yil ma'naviy qadriyatlarni o'rganish va takomillashtirish borasida «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tuzish haqida Prezident farmoni chiqdi.

1994 yilni «Mirzo Ulug'bek yili», 1996 yilni «Amir Temur yili», 1997 yilni «Inson manfaatli yili», 1998 yilni «Oila yili», 1999 yilni «Ayollar yili», 2000 yilni «Sog'lom avlod yili», 2001 yilni «Onalar va bolalar yili», 2002 yilni «Qariyalarni qadrlash yili», 2003 yilni «Obod ahalla yili», 2004 yilni «Mehr-muruvvat yili», 2005 yilni «Sihat-salomatlik yili», 2006 yilni «Homiyalar va shifokorlar yili», 2007 yilni «Ijtimoiy himoya» yili deb e'lon qilinishi aslida madaniyatimiz, ma'naviyatimizni rivojlantirishga qaratilgandir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. O'zbekiston, 1993 yil.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. Asarlar, 1 jild, Toshkent, «O'zbekiston», 1996 yil
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Toshkent, «O'zbekiston», 1997 yil
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent, «O'zbekiston», 1997 yil
5. Vatan tuyg'usi. Toshkent, «O'zbekiston», 1996 yil.
6. Karimov I.A. «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot -pirovard maqsadimiz». Namangan haqiqati, 2000 yil 26 yanvar soni.
7. A. Azizxo'jayev. Davlatchilik va ma'naviyat. Toshkent, «Sharq», 1997 yil.
8. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. Toshkent, 1992 y.
9. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. I tom. 1996 y.
10. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: Sharq, 1998 y.
11. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T.: 1998 y.
12. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish-ustivor vazifamizdir //Xalq So'zi.-2006.-8dek.
13. Karimov I.A. Milliy mafkura - kelajak poydevori //Ishonch.-2000.-7 apr.
14. Bartold V.V. To'plam, T-1, Moskva, 1963 g.
15. Ibrohimov A. Bizkim, o'zbeklar. T., Sharq, 1999 yil
16. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis fakultetlari talabalari uchun darslik /R.Murtazayevaningumuiy tahriri ostida.-T.: Yangi asr avlodi, 2003.-676b.

#### **15- MAVZU. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IQTISODIY TARAQQIYOTI.**

MAQSAD: Iqtisodiy islohotlardan ko'zlangan maqsad nima? Shu davrgacha qancha islohotlarni ko'rdik? Natijasi-chi? Mustaqillik yillarida o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar avvalgilaridan farq qiladimi? Farq qilsa farqi nimada? Hozir ham bu sohada kamchiliklar bormi?

Mana shu masalalarning mohiyatini ochib berish ma'ruzamizning vazifasi hisoblanadi.

Iqtisodiyotimiz sohasida bir qancha qonunlar qabul qilinmoqda. Tarix fanida falon qonun qachon qabul qilingan, unisi-chi, bunisi-chi? Deb savol o'tkazganimiz bilan talabalarimiz iqtisodiy islohotlar to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lmaydilar. Eng asosiy vazifamiz masalaning mohiyatini chuqur ochib berishdan iboratdir.

#### **REJA :**

1. O'zbekistonda bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari.
2. Iqtisodiyotda yuz bergan o'zgarishlar, bozor infratuzulmasining shakllanishi.
3. Qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan islohotlar, uning vazifalari va yo'nalishlari.

Aslida mustaqil O'zbekiston hududida, aniqrog'i ko'hna Turon zaminida bozor munosabatlari yangilik emas. Qadimdan ajdodlarimiz hunarmandlar ishlab chiqargan turfa xil mahsulotlarini, tabiiy boyliklarini xorijiy mamlakatlarga olib chiqib savdo qilganlar, mol ayiriboshlaganlar. Faqatgina so'nggi mustamlaka yillarida chor Rossiyasining, sho'rolar hokimiyatining iqtisodiy islohotlar o'tkazadigan laboratoriyasiga aylanib qolgan edik xolos. Endi bunday tajriba maydoni rolini o'ynovchilikdan qutildik, o'zimizning milliy an'analarimizni tiklab yana iqtisodiyotni rivojlantirishga kirishdik. O'zbekiston tanlagan yo'l bozor iqtisodini shakllantirishdir.

Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy tamoyillari yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilib, bu tamoyillar mazmuni quyidagicha:

-iqtisod siyosatdan ustun turib mafkuraviy tayziqlarsiz, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog'i kerak:

-davlat bosh islohotchi o'rnida bo'lib, uning yo'nalishlarini belgilab beradi va amalga oshiradi:

-bozor munosabatlariga o'tish qonun ustivorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinishi shart:

-bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini kuchli himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o'tkazish;

-bozor iqtisodiyotiga o'tish evolyusion yo'l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilmog'i zarur.

Bozor munosabatlariga o'tishda iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqilib, uning tub maqsadi-markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishdan iboratdir.

Bozor munosabati bu jihatdan klassik kapitalistik va sosialistik iqtisodiy tizimdan farq qiladi.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustivor vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi.

**Birinchi bosqichda** birdaniga ikki vazifani hal qilish kerak:

Ma'muriy buyruqbozlik tizimini og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va yangisini qurmay, eskisini buzmaslik qabilida ish ko'rish kerak. Bu o'tish jarayonida asosiy e'tiborni yangi bozor munosabatlarining huquqiy bazasini vujudga keltirish, ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berishga qaratmog'i kerak.

Bozor munosabatlariga o'tishning asosiy sharoitlaridan biri sifatida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish amalga oshiriladi. Bu bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik buzildi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, mulkdorlar sinfi shakllandi, xorijiy sarmoyadan foydalanib, ishlab chiqarish samaradorligi oshdi.

Mulkni xususiyashtirish va ko'p ukldali iqtisodni shakllantirish O'zbekistonda ikki bosqichda amalga oshirildi.

**Birinchi bosqich** 1992-1993 yillari amalga oshirildi. Bu davrda asosan maishiy xizmat, savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, qayta ishlash korxonalari mulk shakli o'zgartirilib, mulkning ijara, jamoa, aksiyadorlik shakllari vujudga keldi. Uy-joylar xususiyashtirildi.

Qishloq xo'jaligida 770 kolxoz va sovxozlar xususiyashtirilib, jamoa va ijara xo'jaliklariga aylantirildi. Birinchi bosqichda mulk davlat tasarrufidan chiqishi jarayonida mulkdorlar sinfi shakllandi.

**Ikkinchi bosqich** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq aksiyadorlik jamiyatlari tashqil etilib,, korxonalar aksiyalarini chiqardilar, auktsion savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, xususiyashtirishni yoppasiga olib borish ko'zda tutildi.

Aloqa, transport, geologoqidiruv, yoqilg'i-energetika komplekslari xususiyashtirilmadi. Ayrim sohalarda-kimyo, oltin qazish, paxta tozalash, tog'-kon sanoatida 51 % aksiya davlat ixtiyorida qoladigan bo'ldi.

1994 yil oxirigacha 54 ming korxonalar mulk shaklini o'zgartirdi (xususiy, aksiyadorlik, jamoa, ijara va x.k.). Natijada respublikada nodavlat sektorning iqtisodiyotdagi ulushi ortib bordi. 1995 yili sanoat mahsulotining 97 %i nodavlat sektorga to'g'ri keldi.

Yurtboshimiz I.A. Karimov bu boradagi ishlarni tahlil qilib, quyidagi fikrni bildirdi:

«...iqtisodiy munosabatlarda, ayniqsa mulk masalalarida tab o'zgarishlar amalga oshirildi. Mulkni xususiyashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish dasturini amalga oshirish natijasida, mamlakatimizda xaqiqiy ko'p tarmoqli iqtisodiyot shakllantirildi, nodavlat sektor mustahkamlandi va iqtisodiyotimizda faol rol o'ynay boshladi»(I.A.Karimov. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Toshkent. «O'zbekiston», 1996, 13- bet.).

Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasidagi nutqida yana shu masalaga to'xtalib, shunday dedi:

«Biz-xususiy mulkning miqyosi va ulushi uzluksiz o'sib boradigan ko'p ukldali iqtisodiyotni rivojlantirish tarafdorimiz. Dunyo tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyatda tom ma'nodagi mulkdorlar sinfining ko'pchilikni tashqil etishi ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi»(I.A. Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz.-Namangan haqiqati,-2000.-26 yanv.).

2. Iqtisodiyotimizdagi o'zgarishlar masalasida to'xtaladigan bo'lsak «SSSR tarqalib ketgandan so'ng barcha milliy respublikalar, jumladan O'zbekistonning iqtisodiyoti o'tirib qoladi»,-degan bashoratlar puch ekanligini o'z ko'zimiz bilan ko'rib turibmiz. Aksincha, sobiq ittifoqdan ajralib chiqqan mustaqil bo'lgan davlatlar ichida O'zbekistonning iqtisodiyoti barqaror rivojlanib bormoqda, ishlab chiqarishning keskin kamayishi va ommaviy ishsizlikning oldi olinib qolindi. Istiqolga erishgan O'zbekiston tarixda ilk bor 1995 yili neft mustaqilligiga erishdi. 2006 yili ichki yalpi mahsulot ishlab chiqarish 7,3 %, sanoat ishlab chiqarish 10,8 % ga ortdi. 2006 yilning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida qo'shimcha ravishda 290 ming yangi ish o'zni yaratildi. Bu esa, mamlakatimizda ochilgan yangi ish joylarining 50%dan ortig'ini tashkil etadi. 2007 yilning boshida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining soni qariyb 350 mingtaga yetdi. Yoki 2000 yildagiga nisbatan 2,3 marta ko'paydi. Bugungi kunda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 42,1% ni tashkil etmoqda.

O'zbekistonda neft va gaz kondensati ishlab chiqarish 1990 yili 2,8 mln.tonna bo'lsa, 1997 yili 7,9 mln.tonnaga yetdi va chetga neft sotish qobiliyatiga ega bo'ldi. Aholini tabiiy gaz bilan ta'minlash yuzasidan katta yutuqlarga erishildi.

O'zbekistonning jahondagi ko'p davlatlar bilan hamkorligi kengayib bormoqda. «Chet el investisiyalari to'g'risida», «Chet el investorlari huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida» qonunlarining qabul qilinishi jahonning ko'plab davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni o'rnatishga, bir qancha jahon banklari bilan shartnomalar imzolashga olib kelib, bu ham makroiqtisodiyotni yaxshilashga olib keldi.

II jahon urushidan keyingi tarix shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarning hech biri xorij sarmoyasiz taraqqiy etmagan. O'zbekiston ham shu yo'ldan rivojlanib, hozirgi kunda xorijiy davlatlar bilan birgalikda 3200 ta qo'shma korxonalar qurildi va ishlamoqda.

O'zbekistonda ahvol barqaror bo'lganligi uchun ham 1994 yili 10 mln. AQSH dollari hisobida xorij sarmoyasi o'zlashtirilgan bo'lsa, bu miqdor 1998 yili 114,5 mln. AQSH dollariga yetdi.

Amerikaning Kolorado shtatidagi «Nyumont» firmasi bilan Muruntovda qo'shma korxonalar qurilib, «Zarafshon-Nyumont» korxonasi o'z ishi natijasini ikki yilda ko'rsatdi.

O'zbekistonning istiqloli mashinasozlik sanoatini, ayniqsa, avtomobilsozlik sanoatini rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasida «UZ-DAEWOO» avto ko'shma korxonasi qurilib, yengil avtomobillar ishlab chiqarilmoqda. 1993 yili GFR bilan O'zbekiston o'rtasida shartnoma imzolaniib, «Mercedes-Bens AT» korporatsiyasi Xorazmda «Do'stlik» avtomobil zavodida ish boshladi. 1994 yildan boshlab yuk avtomobillarini ishlab chiqardi. 1995 yili «O'zavtosanoat» uyushmasi bilan Turkiyaning «Kochxolding» kompaniyasi o'rtasida shartnoma imzolaniib, 1999 yildan Samarqandning So'g'diyona mavzeida avtobus zavodi qurilib, faoliyat yurita boshladi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar o'tkazish ham biz uchun yangilik emas. O'zbek dehqoni o'z boshidan qancha islohotlarni o'tkazmadi deysiz. Natijasichi? Sho'rolar zamonida «dehqonlar» termini o'z mohiyatini yo'qotdi. Uncha uzoq emas, 80-yillarda kolxozchilarning bajargan ishlariga xaq to'lash normativlarida bir ish kuni (yetti soat) 20 sotix yagana qilsa, bir norma ish hisoblanib, unga 3 so'm 27 tiyin haq belgilangan. Ko'z oldingizda keltiring 20 sotih yagana qilish uchun (qator orasi 60 sm bo'lganda) 3200 metr egat ustidan deyarli emaklab o'tish kerak. Urug'likning «klassiga» unuvchanligiga qarab, 1 metrga 30-35 dona chigit qadaladi. Shundan o'rtacha 25ta chigit unib chiqsa, 20 sotixda 80 ming ko'chat bo'ladi. Aslida 1 metrga 5tadan, jami 20 sotixda 16 ming ko'chat saqlanishi lozim. Yaganalash jarayonida ortiqcha 64 ming ko'chatni holatiga qarab olib tashlash kerak. Endi kolxozchi bir kunda 7 soat (430 minut) qonun bo'yicha ishlasa, har minutda 152 tadan ko'chatni yulib, etakka solib, ekin maydonidan chetga olib chiqib tashlashi kerak.

Yoki 15 sotix g'o'za birinchi chopiq qilinsa, 3 so'm 15 tiyin haq beriladi. 15 sotix-agar qatorlarning orasi 60 sm, uzunligi 100 metr bo'lsa, 25 qator yoki 2500 metr bo'ladi. Bundan tashqari, chopiqda qatorning har ikki tomoniga ketmon urish kerak. Demak, 5000 metr. Agrotexnika bo'yicha imkoni bo'yicha yaqin, chuqur qilib topish talab etiladi. Agar, har 10 sm yerga bittadan ketmon urilganda, 50 ming marta urish kerak. Bu bir minutda 119 martadan ketmonni ko'tarib tushirishini taqazo etadi. Yoki kolxozchining 159 marta urishiga 1 tiyindan ish haqi to'g'ri keladi.

Mana sizga jamoa xo'jaligida (kolxoz) ish haqi to'lash normativlari Bundan tashqari, 80-yillardagi «paxta ishi» o'zbek dehqonlarining obro'yini butunlay tushirib yubordigina emas, balki jamoa xo'jaligini hayotiy ekanligini, bu xo'jalikdagi mulk begonalashtirilganligini yaqqol ko'rsatib qo'ydi.

Shuning uchun ham, mustaqillikdan so'ng Respublikamiz qishloq xo'jaligida tub islohotlarni amalga oshirish eng asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga tezroq o'tishida, uning rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishida muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Islohotlarni huquqiy asoslarini yaratish maqsadida, Respublika Oliy Majlisining XI sessiyasida Prezidentimiz I. Karimov tashabbusi bilan «Yer kodeksi», «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida», «Fermer xo'jaligi to'g'risida», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Qonunlarning yaratilishida yurtboshimiz bevosita o'zlari ishtirok etib, shunday degan edilar: «Biz mana shu qonunlarni amalga oshirmoqchi bo'lsak, joylarda ularni targ'ib qilish ishlarini yaxshi yo'lga qo'yishimiz lozim. Toki, bu qonunlar bizga nima beradi, degan masala har bir insonning ongiga yetib borsin»(I.Karimov. Respublika Oliy Majlisi XI sessiyasi. SH.Mamanabiyev. Shirkat xo'jaligi nima? Qonun himoyasida. №1.-2000.-B.15).

Shu bilan birga yurtboshimiz mavjud ishlab turgan jamoa xo'jaliklarini yuritishning yangicha shakli-shirkat xo'jaliklariga aylantirish o'ta mas'uliyatli ish ekanligini, unda aslo shoshma-shosharlikka, yuzakichilikka yo'l qo'yib bo'lmasligini ham ta'kidlab o'tgandilar. Shu maqsadda Vazirlar Mahkamasi 1998 yil 15 iyul kuni «Qishloq xo'jaligini isloh qilishga oid qonun hujjatlariga qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari) tuzish chora-tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qilindi. Respublikamiz miqyosida 1998 yili 65ta jamoa xo'jaliklari shirkat xo'jaligiga aylantirildi. 1999 yilning birinchi choragida bu ko'rsatkich 432 tani tashqil qildi (I.Karimov. Respublika Oliy Majlisi XI sessiyasi. SH.Mamanabiyev. Shirkat xo'jaligi nima? Qonun himoyasida. №1.-2000.-B.15). Qishloq xo'jalik korxonalarini shirkat xo'jaliklariga aylantirish masalasining bir tomoni holos. Eng asosiy masala- shirkat xo'jaliklarida oila pudratini joriy etish orqali ichki xo'jalik munosabatlarini takomillashtirish, bevosita mahsulot ishlab chiqaruvchilarning manfaatdorligini oshirish orqali qishloq xo'jaligini rivojlantirish. Bu borada Buxoro, Andijon, Namangan viloyatlarida tahsinga sazovor ishlar olib borilmoqda.

O'tkazilayotgan islohotlar natijalaridan dastlabki xulosalar shundan iboratki, hamma yerda ham bu masalaga ko'ngildagidek e'tibor berilmayapti. Aholi orasida ba'zan «shirkat xo'jaliklari tuzilmoqda, lekin ularning jamoa xo'jaliklaridan farqi sezilmayapti» degan gaplarni eshitib qolamiz.

O'zbekiston Respublikasining «Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida»gi qonunga ko'ra, qishloq xo'jaligi shirkati qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirishga mo'ljallangan, mulkiy pay usuliga hamda oila (jamoalar) pudratiga asoslangan fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashtirilgan yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektidir. Shirkat xo'jaliklaridan farqli o'laroq, jamoa xo'jaliklari asosiy ishlab chiqarish vositalari umumiy bo'lgan, jamoa mehnatiga asoslangan qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni birgalikda yuritish maqsadida ixtiyoriy ravishda birlashgan dehqonlarning tashqilotidir.

Shirkat xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- shirkat a'zolariga ixtiyoriy ravishda kirish va chiqish;
- shirkatning ish faoliyatida a'zolarining o'z mehnati bilan ishtirok etishining shart ekanligi;
- ichki xo'jalik munosabatlarini shartnomalar tuzish yo'li bilan, tenglik tamoyiliga amal qilib, oila pudratiga asosida

tashqil etish;

- shirkat a'zolari bilan hisob-kitob qilishda amalda bajarilgan ishlarning hajmi va sifatiga chek usulida haq to'lashni

tashqil etish;

- yakuniy daromadni shirkat a'zolari o'rtasida ularning mulkiy paylariga muvofiq taqsimlash;
- yer uchastkalaridan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanish, yerlarni muhofaza qilinishi va tuproq unumdorligining

oshirilishini ta'minlash;

- shirkatning bir a'zosi bir ovozga ega;
- shirkat xo'jaligining ish faoliyati ustidan shirkat a'zolari tomonidan shirkat nizomida nazarda tutilgan tartibda nazorat

qilish.

Shirkat xo'jaligining mulk shakli bo'yicha ham jamoa xo'jaliklaridan farqi va afzalliklari mavjud bo'lib, ular quyidagilar: Shirkat xo'jaligining mulki uning a'zolari mulkidan tashqil topadi. Bunda har bir a'zoning mulki umumiy mulkning qismidan iborat, mulk egalari-paychilar boshqaruvda ishtirok etadi, boqimandalik tugatiladi, real manfaatdorlik ortadi va yil yakunida a'zolar xo'jalik daromadidan dividend olish huquqiga ega bo'ladi. Jamoa xo'jaligida esa, mulk jamoaniki, ammo egasi noma'lum.

2000 yilga kelib respublikada davlatga qarashli bo'lmagan sektor mustahkamlandi va yetakchi o'rinni egallab, 1991 yil 63%ni tashkil qilgan bo'lsa, 1999 yil sentabr oyiga kelib qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmining 98,4%ini egalladi.

Hozirgi paytda respublikamizda 190 mingga yaqin fermer xo'jaligi faoliyat yuritmoqda va ularda salkam 1,4 mln kishi mehnat qilmoqda. Agar 2000 yilda yetishtirilgan paxta hosilining 21%i fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2006 yilda bu ko'rsatkich 86%dan oshib ketdi.

**Xulosa:** Qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan islohotlarning maqsadi-qishloqda mulkdorlar sinfini shakllantirish. Qishloq xo'jaligi respublika iqtisodiyotini taraqqiy ettirishda ustivor soha hisoblanganligi uchun ham bu sohaga katta e'tibor berilmoqda. Aholining daromadlarini bozor bilan bog'liq bo'lgan yangidn-yangi manbaalari ochilmoqda. Masalan, tadbirkorlik, aksiyadorlik dividendlari, tomorqa mahsulotlarini sotish va h.k.

Milliy bank, moliya tizimi rivojlanib bormoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. - Toshkent: O'zbekiston, 1993 y.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent: O'zbekiston, 1993 y.
3. Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Toshkent, O'zbekiston, 1996 y.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. Namangan haqiqati.-2000.-26 yanv.
5. Karimov I.A. 2006 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi //Xalq so'zi.-2007.-13 fev.
6. Abdurasulov R. Peshonangda bori shumi? Mushtum.-1989.-№10.
7. Mamanboyev SH. Shirkat xo'jaligi nima? Qonun himoyasida.-2000.-№1.-B.15
8. O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis fakultetlari talabalri uchun darslik /R.Murtazayevaningumuiy tahriri ostida.-T.: Yangi asr avlodi, 2003.-676b.

#### **16-MAVZU: O`ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATI.**

**MAQCAD:** Mustaqillik yillarida O`zbekistonning jahon hamjamiyatira qo`shilishi, uning tashqi siyosatining asosiy tamoyillari, xalqaro hamkorlik aloqalari haqida talabalarra kengroq ma'lumotlar berish.

#### **Ƣ Ā J A:**

1. Mustaqil Ƣaspublikaning mustaqil tashqi siyosat uritishining huquqiy asislari va asisiy tamoyillari.
2. O`zbakistonning o`lqari va mintaqaviy tashkilatlarga a`zi bo`lib kirishi.
3. O`zbakistonning Mustaqil davlatlar hamdo`stligidagi o`rni va mavqai.
4. Jahonning nufuzli davlatlari bilan hamkorlik aloqalari.

Xalqimiz mustaqillik dab atalmish ezgu va muqaddas irzuning ruyobga chiqishi uchun asrlar mibaynidà intilib, kurashib kaldì.

1991 yil 31 avgustdan bishlab o`lqimiz taqdiridà kaskin burilish yasagan, butunlay yangi taraqqiyot davrini bishlab bargin istiqbil davri tarioi bishlandi.

130 yillik Ƣissiya mustamlakasiga mahkum etilgan davrning ilgari zamindardan farqi shuki, shu vaqtdà ayniqsa, sho`rlar hukmrinligi yillaridà o`lqimiz tashqi dunyodan butunlay uzib quyildi(Karimov I.A. Tarioiy o`tirasis kalajak yo`q.-Tishkant: Sharq,1998.-B.19).

Garchi kattà mamlakatning asisiy qinuni hisblangan «SSSD Kinstitusiyasi» dà O`zbakiston bishqa o`n to`rtta «qardish va jindish» milliy raspublikalar singari «tang huquqli», «mustaqil», «suvaran» davlat sifatidà tarifu-tavsif etilsa-dà, amaldà ko`zga ko`rinmas, ming va millin oil ustalik bilan «to`qilgan», to`rlar bilan qo`l-iyog`i bandi etilib quyilgan edi.

Mustabid sivat tuzumi davridà O`zbakiston tashqi iqtisodiy aloqalarni asisan sisialistik mamlakatlàr bilan, sibiq markazning yo`l-yo`riqlari bilan amalgà ishirar, raspublikaning o`zi tashqi bizirga mustaqil ravishdà chiqish huquqiga egà emàs edi.

Ƣaspublikaga ilib kalinadigan mahsulftlar, raspublikadan chiqariladigan mahsulft hajmiga nisbatan ancha irtiq edi. 1990 yil raspublikaga 14661,8 mln. so`mlik mahsulft ilib kalingan bo`lsa, chatga chiqarilgan mahsulft hajmi 9351,5 mln. so`mga tang bo`lgan.

XXI asr bo`sa`asidà O`zbakiston davlat mustaqilligini qo`lgà kiritib jahn hamjamiyatga kirish, intagrasiyalashish timin uz tutdi.

Jahn amaliyotidan malumki, har bir mustaqil davlat, ayniqsa mustaqil taraqqiyot yo`liga kirgan mamlakatlàr, hach qachin o`z qibig`iga o`ralib rivjlanmagan. Aksinchà, mustaqil rivjlanish yo`lini tanlashi bilaniq jahn hamjamiyatga qo`shilish irqali o`z taqdirini balgilagan (Usminov Q. va bishqalar. O`zbakiston qaramlk va mustaqillik yillaridà.-Tishkant: O`qituvchi, 1996.-B.92).

O`zbakistonning jahn hamjamiyatga qo`shilish davri g`iyat bir murakkab va qaltis davrgà to`g`ri kaldì. Sibiq ittifiq tarqalib katgach dunyo asisan ikki qutbli (SSSD va AQSh) bo`lgan bo`lsa, endi ko`p qutbli bo`lib qilgan edi. XX asr o`z g`avg`ilari, to`pallinlarini, qirg`inlarini biz yashayotgan XXI asrgà maris qilib qildirib oayr mazur qilayotgan bir davrgà to`g`ri kaldì.

O`zbakiston gaisiyosiy jihadan qulaylik tug`diruvchi imkinyatlàr bilan birgà, bu biradà kiyinchiliklar tug`diruvchi bir qanchà imillar ham mavjud edi. Garchi, tashqi siyosat shahsidagi an`analarimizning ildizlari uzic miziyga birib taqalsà-dà, mustamlakà davridagi yo`qitishlar natijasidà, dastlabki paytlardà raspublikamiz tashqi siyosat uritish tajribasiga ham, jahn diplmatiyasini biladigan kadrlargà ham egà emàs edi.

Tàshqi siyosiy diplòmàtik, iqtisidiy va màdàniy àlìqàlàrni o`zi mustàqil bishlashgà to`g`ri kàlsàdà, ràspublikà ràhbàriyati bu bìràdàgi muàmmlàrni àchishgà dàdil kirishdi, uqìridà tà`kidlàb o`tilgàn kiyinchiliklàrni àngib o`tib, qisqà dàvr mibàynidà o`z o`rni va màvqàigà egà bo`ldi.

Pràzidànt I.Kàrimiv o`zining «O`zbàkistinning o`z istiqilil va tàràqqiyot yo`li» va bishqà àsàrlàridà mustàqil tàshqi siyosàt uritish qìidàlàrini nàzàriy va àmàliy jihàtdàn àsìslàb bàrdi. 1991 yil 31 àvgustdà Oliy Kàngàsh VI sàssiyasidà qàbul qilingàn «Mustàqillik hàqidàgi Bàyonit»dà O`zbàkistinning tàshqi siyosàtdàgi yo`li àniq qilib bàlgilàngàn edi. Jumlàdàn, undà: «Xàlqàrì hámjàmiyatning to`là huquqli à`zisi bo`lgàn O`zbàkistín Đàspublikàsi Xàlqàrì munisabàtlàrdà mustàqil dàvlàt, òàlqàrì huquq sub`àkti sifàtidà qàtnàshhàdi, uning maqsadlàri mustahkam tinchlik, qurìlsizlànish, o`z hududini qurìl-yarog`làrdàn òili qilish, yadrìviy qurìlni va boshqà ìmmàviy qirg`in qurìllàrini yo`qìtish, suvàràn dàvlàtlàr o`rtasidàgi nìzi va ziddiyatlàrni hàl etishdà kuch ishlàtish va tàzyiqqà yo`l qo`ymàslikdàn ibiràt».

O`zbàkistín Đàspublikàsi Kìnstitusiyasining 17-middàsida màmlàkàtimiz tàshqi siyosàt qìidàlàri qìnunlàstirildi va u jàhìndàgi ko`plàb màmlàkàtlàr bilàn hámkìrlik jàràyonlàri ìrtgà qàytmasligining huquqiy kàfilliti bo`lib òizmàt qilmìqdà. O`zbàkistinni òàlqàrì huquq sub`àkti sifàtidà bàlgilàydigàn, ràspublikàning tàshqi siyosiy va tàshqi iqtisidiy àlìqàlàrini tàrtibgà silàdigàn qìnunlàr qàbul qilindi.

«O`zbàkistín Đàspublikàsi tàshqi siyosiy fàiliyatining àsìsiy prinsiplàri tug`risidà»gi, «Chàt el invàstisiyalàri», «Xìrijiy invàstìrlàr fàiliyatining kàfillitlàri to`g`risidà»gi, «Tàshqi iqtisidiy fàiliyat to`g`risidà» va boshqà qìnunlàr hámmdà nìrmàtiv hujjàtlàr anà shulàr jumlasidàndir. Bulàr fàil va kàng ko`làmlì hámkìrlik uchun mustahkam huquqiy kàfillit yaràtib bàràdi.

Xàlqàrì huquq nìrmàlàrining ichki qìnunlàrdàn ustunligi ràspublikà qìnunchilik fàiliyatidà o`z ifidàsini tìpmìqdà. Birinchidàn, ràspublikà qìnunlàri òàlqàrì huquq nìrmàlàrigà dèimi muvifiqlàstirilmòqdà va yaqinlàstirilmòqdà.

Ikkinchidàn, màmlàkàtimiz òàlqàrì nìrmàlàrning bjàrìlìshini kàfillitlàydigàn hámmdà màjburiyatlàrni o`z zimmàsiga ìldi.

Tàshqi àlìqàlàrni tà`minlàydigàn vèzirliklàr va muàssàsàlàr tàshkil etildi: Tàshqi ishlàr vèzirìligi, Tàshqi iqtisidiy àlìqàlàr vèzirìligi, Tàshqi iqtisidiy fàiliyat milliy bànkì. 1992 yildà Tìshkàntdà «Jahon iqtisidi va diplòmàtiya univàrsitèti» ìchildi.

I.Kàrimiv o`zining àsàrlàri, mà`ruzà va nutqlàridà màmlàkàtimiz tàshqi siyosiy va tàshqi iqtisidiy àlìqàlàrining àsìsiy tàmiyillàrini nàzàriy àmàliy jihàtdàn puòtà àsìslàb bàrdi. Tàshqi siyosiy va tàshqi iqtisidiy yo`lni bàlgilàshdà jàhìn tàjribàsìdàn fiydàlànildi, màmlàkàtimiz, òàlqimìz òususiyatlàri va mànfààtlàri hisibgà ìlindi. Tàshqi siyosàtgà tinchlik, bàrqàrìrlik, hámkìrlik yo`li àsìs qilib ìlindi.

O`zbàkistín Đàspublikàsi tàshqi siyosàtining àsìsiy qìidàlàri quyidàgilàrdàn ibiràt:

- Màfkuràviy qàràshlàrdàn qàt`iy nàzàr hámkìrlik uchun ìchiqlik, umuminsiniy qàdriyatlàrgà, tinchlik va òàvfsizlikni sàqlàshgà sidiqlik;
- Dàvlàtlàrning suvàràn tàngligi va chàgàràlàr dàhlsizligini hurmàt qilish;
- boshqà dàvlàtlàrning ichki ishlàrigà àràlshmàslik;
- Nizilàrni tinch yo`l bilàn hàl etish;
- Kuch ishlàtmàslik va kuch bilàn tàhdid qilmàslik;
- Insìn huquqlàri va erkinliklàrini hurmàtlàsh;
- Ichki milliy qìnunlàr va huquqiy nìrmàlàrdàn òàlqàrì huquqning umum e`tirif etilgàn qìidàlàri va nìrmàlàrining ustivìrligi;
- Dàvlàtning, òàlqning ìliy mànfààtlàri, fàrìvinligi va òàvfsizligini tà`minlàsh maqsadidà ittifiqlàr tuzish, hámddò`stliklàrgà kirish va ulàrdàn àjràlib chiqish;
- Tàjàvuzkìr hàrbìy blìklàr va uushmàlàrgà kirmàslik;
- Dàvlàtlàr àlìqàlàrdà tàng huquqlilik va o`zàrì mànfààtdìrlik, dàvlàt milliy mànfààtlàrining ustunligi;
- Tàshqi àlìqàlàrni hám ikki tìminlàrà, hám ko`p tìminlàrà kàlishuvlàr àsìsidà rivìjlàntirish, bir dàvlàt bilàn yaqinlàshish hisibgà boshqasidàn uzìqlàshmàslik.

Màmlàkàtimizning jàhìn òàlqlàri tinchligi va òàvfsizligigà mìs bo`lib to`tgàn tinchliksàvàr tàshqi siyosàti, uni jàhìndà mustàqil dàvlàt sifàtidà tàzdà tàn ìlinishini tà`minlàdi.

O`zbàkistinni dunyodàgi 180 dan ortiq<sup>1</sup> bàrchà nufuzli dàvlàtlàr tàn ìldi, ulàrning 120 tàsi bilàn diplòmàtik siyosiy, iqtisidiy, ilmiy- tàònikàviy va màdàniy àlìqàlàr o`rnatildi. Tìshkàntdà 40 gà yaqin màmlàkàtning elchiòinàsì ìchildi. O`zbàkistindà 88 tà òìrijiy vəkìlatòinà, 24 tà hukumàtlàràri va 13 tà hukumàtgà qàràshli bo`lmàgàn tàshkilitlàr fàiliyat ko`rsàtmoqdà. Jàhìning 20 dàn ìrtiq màmlàkàtidà O`zbàkistinning elchiòinàlàri, 9 tà màmlàkàtdà kìnsulòinàlàri fàiliyat ko`rsàtmoqdà.

2. Mustàqil dàvlàt òàlqàrì tàshkilitlàrdà qànchàlik kàng qàtnàshsà, u òàlqàrì hámjàmiyatgà shu dàràjàdà kàng kirib bìràdi, jàhìndà tinchlik, ìsiyishtàlik, o`zàrì hámkìrlik uchun kuràshdà tàgishli dàràjàdà fàil qàtnàshà ìladi, imkìniyat tàràqqiyotigà qo`shàytogàn o`z ulushini yanàdà ìshirib bìràdi, jàhìning ilg`ir dàvlàtlàri bilàn tìbirà yaqinlàshdi, ulàrning fàn-tàònikà va tàònìlgiya sìhàsìdàgi yangiliklàrini sàràlìriq qàbul kilib ìladi. Shu nuqtài-nàzàrdàn mustàqil O`zbàkistinning òàlqàrì tàshkilitlàr bilàn àlìqàlàrini yil sàyin kàngàytirishi judà kàttà àhàmìyatgà egàdir.

Xàlqàrì tàshkilitlàrdà fàil qàtnàshish -mustàqil O`zbàkistinni jàhìn miqyosidà tànitishning, uning òàlqàrì màvqàining ìshirishning muhim va sàmàràli yo`lidir. Hìzirgi kundà jàhìndà 350 dàn ìrtiq hukumàtlàràri tàshkilitlàr màvjud.

O`zbàkistín, o`z mustàqilligini e`lìn qilgàndàn so`ng, 50 dàn ìrtiq jàhìning eng nufuzli tàshkilitlàrigà à`zi bo`ldi. Bu - BMT, UNÀSKO, Ovrupàdà Xàvfsizlik va Hámkìrlik tàshkiliti, Xàlqàrì valutà jàmg`armàsì, Xàlqàrì mìliya kìrpìràsiyasi, Xàlqàrì màhnàt tàshkiliti, jàhìn sig`liqni sàqlàsh tàshkiliti va boshqà òàlqàrì-mintàqàviy tàshkilitlàr hámmdà àssiùàsiyalàrdir.

1992 yil 29 yanvàrdà BMT òàvfsizlik kàngàshì o`zining 737 -qàrìrini ìvizgà qo`ymàsàn qàbul qildi va Bìsh Assàmblàyagà O`zbàkistín Đàspublikàsini BMT gà qàbul qilishni tàvsiya etdi.

<sup>1</sup> O'zbekiston tarixi. Oliy o'quv yurtlarining nomutaxassis fakultetlari talabalari uchun darslik /R.Murtazayevaningumuiy tahriri ostida.-T.: Yangi asr avlodi, 2003.-676b.

1992 yil 2 martda BMT Bish Assamblayasining 46-sassiyasida O'zbekiston i'ziga quyilmadani, yakdillik bilan ma'qullash asosida BMT ga qabul qilindi.

O'zbekiston Daspublikasi o'z tarioida birinchi bir Xalqari Uamjamiyatning tang huquqli sub'akti sifatida BMT a'ziligiga qabul qilindi.

Bu tarioiy viga O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida olqari hamjamiyatdan munisib o'rin ilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Mamlakatimiz Prazidanti I.Karimivning BMT Bish Assamblayasining 1993 yilda bo'lgan 48-sassiyasida ishtirik etishi va unda qilgan ma'ruzasi O'zbekistinni jahingga ko'hna va navqirin davlat sifatida tanitdi.

O'zbekiston BMT minbaridan Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarirlikni mustahkamlash, qo'shni Afg'nistinda biridarkushlik urushini to'otatish, Markaziy Osiyoni yadri qurilidan izid zinaga aylantirish, narkibiznashga qarshi kurashda barcha davlatlar otati-harakatlarini muvifiqlashtirish, Markaziy Osiyoda ekilogik vaziyatni sig'limlashtirish maqsadlarida, ya'ni umummanfaat yo'lida fiydalanmoqda. 1993 yil favralida Tishkantdagi BMT ning vakilatoinasi ta'sis etildi va u ish bishladi.

O'zbekiston Daspublikasi va BMT rahbarlarining sa'yi-harakatlari natijasida raspublikamizdagi BMT vakolatoinasi BMT ning Taraqqiyot dasturi, Qichqlar ishi bo'yicha ilib qo'mita kimitari, Jahin sig'liqni saqlash tashkiliti, Ahili jiyilashish jamg'armasi, narkitik muddallarni nazirat qilish dasturi, Saniat taraqqiyoti dasturi, «Bilalar jamg'armasi» singari iotisislashgan muassasalarni o'z tarkibiga birlashtirishga muvifiq bo'ldi. Xususan, uning bishligi (sibiq) Xilid Malikning fail ishtirikida O'zbekistinda ko'plab olqari tadbirlar o'tkazildi.

O'zbekistonning jahin hamjamiyat bilan intagrallashuvida BMT diirasidagi iotisislashgan tashkiltlar bilan hamkirlilik muhim ahamiyatga ega.

1993 yil 29 iktyarda BMT ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha qo'mitasi (UNASKO) ning Parijdagi qarirghida O'zbekiston UNASKO a'ziligiga qabul qilindi. O'zbekiston BMT diirasidagi iotisislashgan muassasalar -jahin sig'liqni saqlash tashkiliti, olqari mahnat tashkiliti, jahin intalaktuval mulk tashkiliti, BMT ning bilalar findi, olqari pichta ittifiqi, Xalqari Olimpiada qo'mitasi va ko'plab boshqa tashkiltlarning a'zisi bo'ldi.

O'zbekiston BMT ning 50 yilligiga bag'ishlangan tantanalarda fail qatnashdi. Mamlakatimiz Prazidanti I.A.Karimiv BMT Bish Assamblayasining 1995 yil santyabr-nyabr iylarida bo'lib o'tgan 50-ubilay sassiyasida qatnashib bu nufuzli tashkilt failiyatini yo'shilashga diir o'z takliflarini bayon qildi.

Prazidant I.Karimiv bu ulkan minbardan turib, davlat arboblari va siyosatdinlar diqqatini quyidagi masalalarga qaradi :

Birinchidan-milliy oavfsizlik masalasi hizirgi zamn talab va ehtiyolari nazaridan qaytadan ko'rib chiqish:

Ikkinchi masala BMT Bish kitibi vakolatlarini kangaytirish, uning jahin mamlakatlari taraqqiyotiga qo'shadigan hissasidan kalib chiqib, o'z maqimini kuchaytirish masalasi:

Uchinchi masala qatir mamlakatlari failiyat ko'rsatayotgan olqari tashkiltlar maqimini bir iz o'zgartirib, uni BMT diirasiga kiritish zarur.

Prazidant I.Karimiv olqari tashkiltlar yagina tizimini vujudga kaltirish XXI asr taqdirini balgilaydigani muhim imil ekaneligini ko'rsatib bard. O'zbekiston 1992 yil favral iyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, insin huquqlarini himiya qilish bo'yicha katta tadbirlar amalga ishirayotgan nufuzli olqari tashkilt -Avripada oavfsizlik va hamkirlilik tashkilitiga a'zi bo'lib kirdi. I.Karimivning 1992 yil 9-10 iulda bo'lgan Avripada oavfsizlik va hamkirlilik tashkilitining majlisida ishtirik etib, unda nutq so'zlashi va Kangashning 10 iulda bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekistonning jahin hamjamiyatda munisib o'rin egallayotganligini dalildir.

1995 yil iulda Tishkantdagi A.X.H.Tning alifqalar bo'yicha mintaqaviy burisi ichildi va failiyat ko'rsatmoqda. EXHTning 1996 yil dakabrdagi Lissabinda bo'lgan samitida I.Karimiv mijarilar uz bargan hududlarga yashirincha quril-yarig' atkazib barishni to'otatish, 1999 yil 12-12 nyabr kunlari Stambuldagi bo'lgan samitida taririzmgaga qarshi kurash olqari markazini tashkil etish to'g'risida muhim takliflarni ilgari surdi va ular sammit ishtirikchilari timinidan ma'qullandi.

O'zbekiston ko'pgina mintaqaviy tashkiltlar, chuninchi Avripa ittifiqi, NATO, EKO, Islm kinfaransiyasi tashkiliti, qo'shilmalik harakati va boshqalar bilan samarali hamkirlilik qilmoqda.

1996 iul iyida Fliransiya shahrida Avripa ittifiqi bilan O'zbekiston o'rtasida sharikchilik va hamkirlilik to'g'risida Bitim imzilandi. Bu hujjat O'zbekiston, Avripa ittifiqi va unga a'zi bo'lgan mamlakatlari o'rtasidagi o'zari munisabatlarining huquqiy nagingi bo'lib, siyosiy, iqtisidiy, ilmiy-teonikaviy, madaniy alifqalar uchun kang imkiniyatlari ichdi.

O'zbekiston bilan Shimiliy Atlantika shartnimesi tashkiltlari -NATO o'rtasida o'zari tushunish va hamkirlilik mavjud. 1995 yil iul iyida O'zbekiston NATO ning «Tinchlik yo'lida hamkirlilik» dasturi timinidan 1995 yilda AQShda, 1997 yilda Qizig'istin va O'zbekistinda o'tkazilgan harbiy mashqlarida O'zbekiston harbiy qismlarining ishtiriki zibit va askarlarning harbiy taonik tayyorgarligini yanada ko'tarishga oizmata qildi.

O'zbekiston tariolan qisqa bir davrdagi olqari va mintaqaviy muammillarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy oavfsizlikni mustahkamlashda fail qatnashayotgan nufuzli davlat darajasi ga ko'tarildi.

3.Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) - bir butun davlat, fadarasiya yoki mamlakat emas, harbiy blik ham emas, davlatlar hamdo'stligining yangicha shakli. Unga kiruvchi har bir davlat olqari huquqning mustaqil va tang huquqli sub'aktidir.

MDH 1991 yil 8 dakabrdagi Minsk shahrida, SSSD ning barham tipishi munisabati bilan shakllandi. O'sha kuni Balivajskia - Pushchada Dissiya, Ukraina, Balirusiya rahbarlari -B.Alsin, L. Kravchuk S. Shushkavichlar MDH ni tuzish to'g'risida shartnima imziladilar. 1991 yil 13 dakabrdagi Ashgabadda O'zbekiston, Qizig'istin, Qirg'izistin, Tjikistin va Turkmanistin Prazidantlari uchrashib MDHga, uni ta'sis etuvchilar maqimida kirishga tayyor ekanelklarini bildirib, Bayonit e'lin qildilar.

1991 yil 21 dakabrdagi Almatida 11 davlat-Dissiya, Ukraina, Balirus, Qizig'istin, O'zbekiston, Qirg'izistin, Tjikistin, Turkmanistin, Ozarbayjin, Armanistin, Mildaviya bishliqlarining kangashi bo'ldi. O'sha kuni ular Balivajskia-Pushcha

sharhnamasi uzasidan pritikal imzilab, «Tang huquqli va ahdlashayotgan iliy timinlar» maqimida MDH muassisi bo'ldilar.

MDH ning tashkil topishi XX asrning muhim vizaalardan biri sifatida tarioga kirdi.

1991-2000 yillarda MDH davlatlari bishliqlarining 30ga yaqin kangashlari bo'lib o'tdi. Ularda umumiy manfaatlarga diir 1400 ga yaqin sharhnama, bitim va boshqa hujjatlari imzilandi. Ularning barchasi uzig yillar bir davlat bo'lib kalgan mamlakatlari iqtisidiy, madaniy, harbiy va boshqa aliqalarni yangi shariitlarda-mustaqil davlatlari munisabatlar tarzida davim ettirishga qaratiladi.

Istiqil yillarda O'zbekistin o'zining qat'iy mustaqil tarqqiyot yo'lidan birish, puota ishlab chiqilgan tashqi siyosat tamiyillariga to'liq amal qilish bilan MDH da o'zining munisib va qat'iy nuqtai nazariga eg bo'ldi.

Buni quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. O'zbekistin avval bishdan MDH tarafdiri bo'lib chiqdi. Chunki, sibiq Ittifiq davridagi raspublikalari an'anaviy munisabatlar yangi vaziyatga mis ravishda davim ettirilishi karak edi.
2. Bunday Uamdo'stlik mamlakatlari iqtisidiy aliqalarni yanada mustahkamlab, bu davlatlarning siyosiy mustaqilligiga dahil qilmaligi lizim. O'tish davri qiyinchiliklarini MDH davlatlarining barchasi o'z bishidan kachirdi.

Bu esa iqtisidiy bo'hrinlarni bartaraf etish, bizir munisabatlarini shakllantirish jarayonida yillar mibaynida bir-biriga o'zari chambarchas big'liq ishlab chiqarish va o'jalik munisabatlarini yanada yaoshilash zarur edi. Bu kabi masalalarni hal etishga oizmät qiluvchi ko'plab mayoriy hujjatlarni ishlab chiqish va jiri etishda O'zbekistin alihida o'ringa eg bo'ldi.

O'zbekistin MDH ga a'zi davlatlar bilan o'zari ikki tara uchun ham fiydali hamkirklik qilishga hamisha tayyor va o'z tashqi siyosatida shunga intilib kalayapti. MDH ga a'zi ko'p mamlakatlar bilan ana shunday hamkirklikda ish ilib birilmoqda.

1991-2001 yillarda Dsiya, Ukraina, Balirus, Mildava, Gruziya, Ozarbayjin, Litva, Latviya va Markaziy Osiyo raspublikalari bilan diplomatik, iqtisidiy, madaniy, ilmiy-taonikaviy aliqalar ornatildi va u rivijlanib birmoqda.

Xususän, O'zbekistin va Dsiya ortasida o'zari manfaatli hamkirklik aliqalari rivijlanib birmoqda. Dsiya Fadarasiyasi Prazidanti V.V.Putinning 2000 yil 18-19 may kunlari O'zbekistin Daspublikasiga davlat tashrifi, savdi iqtisidiy va harbiy hamkirklik qilish to'grisida imzilangan bitimlar ikki davlat ortasidagi aliqalarning yangi bisqichga ko'tarilishiga oizmät qilmoqda.

2000 yil 20 iun kuni Miskvada bo'lib o'tgan MDH mamlakatlari davlat rahbarlari Kangashi samarali bo'ldi. Sammitda 2000 yilgacha bo'lgan muddatda Uamdo'stlikni rivijlantirish birasidagi ishlr dasturi muhkama qilindi. Qabul qilingan mazkur hujjat MDH diirasida erkin savdi zinasi bardi etish birasidagi to'livlar va siliqlar tartibini muvifiqlashtirishga kalishib ilindi. Sammitda MDH ning tarirchilikka qarshi kurash markazini tashkil etish, shuningdäk MDH davlatlarining 2003 yilgacha oalqari tarirchilik va ekstramizmga qarshi kurash birasidagi dasturi to'grisidagi masalalar muhkama qilindi va tagishli qarirlar qabul qilindi.

O'zbekistin Prazidanti I.Karimivning Avripada oavsizlik va hamkirklik tashkilatining 1999 yil niyabdagi Istambul sammitida ilgari surgan tarirchilikka qarshi davlatlari miqyosdagi kurashni muvifiqlashtiruvchi markaz tuzish giyasi amalgä ishi. Miskva sammiti MDH mamlakatlari ortasidagi malum darajada yakdillik paydi bo'lganligidan guvulik bardi.

Malumki, dakabr iyida MDH tashkil topganiga 10 yil to'ldi. Shu munisabat bilan 2001 yil 30 niyabr yakuniy ubilay sammiti bo'lib o'tdi. Prazidantlar o'tgan davr mibaynida qilingan ishlarni sarhisib qildilar. MDH ning bugungi ahvili va kalajagi osusida fikr almashdilar. Mamlakatimiz rahbari I.Karimiv hamdo'stlik failiyatida birgalikda o'zari fiydali hamkirklikni rivijlantirish, iqtisidiy intagrasiya masalalariga e'tibirni yanada kuchaytirmoq karakligini har oil harbiy-siyosiy mavzularga chalg'imay, o'zari manfaatli munisabatlarini ravnaq tiptirishga intilishi maqsadga muvifiqligini takidladi. Zitan, MDH ni tuzishdan maqsad ham mavjud iqtisidiy rishtalarni saqlab kilish va rivijlantirishdan ibirat edi.

MDH osusidagi qisqacha fikrlarga yakun yasab shuni aytish mumkinki, u o'zining qisqa bisib o'tgan failiyat yo'lidä, zilvirli qadamlar tashlayotganligini hamda iqtisidiy intagrasiya va mintaqaviy mijarilarni achishga qidir tuzima ekänligini ko'rsatdi. Shak-shubhasiz o'tgan yillardagi MDH failiyatida O'zbekistin o'z'orni va alihida mavqaga eg ekänligini isbit etdi.

4. Har bir davlatning ibro'si va qudrati uning qancha va qaysi davlatlar bilan ilib birayotgan tashqi aliqalariga ham bavisita big'liqdir.

O'zbekistin bugungi kunda dunyoning barcha mintaqalarida ishinchli hamkir sifatida o'z mavqaini to'la nimiyon eta ildi.

1. O'zbekistin va O'rtä Osiyo davlatlari: O'zbekistin tashqi siyosatining asisiy yunalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar - Qizig'istin, Qirg'izistin, Tjikistin va Turkmänistin bilan hamkirklik, do'stlik rishtalarini mustahkamlashga qaratilgan. Markaziy Osiyodagi bu bashta davlatning qadimiy tarioi, madaniyati, tili va dilining birligi, timirlarining tutashib katganligi shuni taqizi etadi.

O'zbekistin rahbariyati bu hududdagi davlatlar, oalqlar manfaatlarga mis tushadigan tang huquqli hamkirklik ko'laminu tibirä kangaytirib, mustahkamlab birmoqda. Tjikistin fiyaasini bartaraf etishda O'zbekistinning siyosiy va iqtisidiy ko'magi, qardish bash mamlakatning O'rtä ar dangizi, Hind ikani, Tinch ikani bilan big'livchi tamir yo'llar qurilishida hamda irfni qutqarish harakatida O'zbekistinning fail ishtiriki buning yorqin misilidir.

Markaziy Osiyo davlatlarining 1990 yil iundagi Almata uchrashuvida o'zari do'stlik va hamkirklikning muhimligi ko'rsatildi. Bu uchrashuv, iqtisidiy inqirizdan chiqish uchun bash davlat o'z iqtisidiy rasurslarini birlashtirishi zaruriyatini ko'rsatdi. Bu davlat rahbarlari har yili uchrashish to'grisida kalishib ildilar. Bu an'ana davim etib, har yili 2-3 maritaba Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari kangashlari bo'lib o'tmoqda.

1994 yil 30 apraldä Qirg'izistinning Cho'pinita shahridä O'zbekistin, Qizig'istin va Qirg'izistin ortasida tivarlär, oizmätlar, sarmiyalar va ishchi kuchlarining erkin o'tib turishini nazarda tutuvchi hamda o'zari kalishilgan krädit hisib-kitib, budjat, siliq, narö, bij va valutä siyosatini taminklivi yagina iqtisidiy makinni tashkil etish to'grisidagi sharhnamaning imzilinishi bu mamlakatlar ortasidagi hamkirklikni yangi pig'inaga ko'tardi.

1994 yil iul iyi bishida Qozog'iston, O'zbekistin va Qirg'iziston Prazidantlarining uchrashuvida o'zari intagrasiyani

kuchaytirish bo'yicha bitimlar imzilandi.

Timinlar Davlatari Kangash hamda uning diimi jriya organini, shuningdâk, Bish vazirlar Kangashi, Tashqi Ishlar vazirligi, Mudifaa vazirligining Kâgâshini t`sis etdilâr.

Ayniqsâ, 1996 yil 12 yanvardâ Ko`kchâtvâdâ, 1997 yil 9-10 yanvardâ Bishkâkdâ, 1997 yil 12 yanvardâ Oqmîlidâ bo`lib o`tgân O`zbâkistîn, Qirg`iziston Prâzidântlarining, 1998 yil Ashgâbiddâ Turkmanistîn, O`zbâkistîn, Qirg`iziston va Qozog`iston Prâzidântlarining nihiyat, 1998 yil 26 mârtdâ Tishkântdâ O`zbâkistîn, Qozog`iston, Qirg`iziston, Tjikistîn Prâzidântlarining o`zarî uchrâshuvlari hamdâ 2000 yil 14 iun kuni Dushânbâdâ Mârkâziy iqtisîdiy hâmjâmiyat davlatlârari kangâshining nâvbâtdâgi mâjlisi va boshqalâr Mârkâziy Osiyo râspublikâlari hâyetidâ kâttâ âhâmiyatgâ egâ bo`ldi.

3. Yaqin Shârq va O`rtâ Shârq mâmlâkâtlari bilân âlîqâlâr: 1991-1999 yillâr davîmidâ O`zbâkistîn Prâzidânti I.Kârimîv bishliq davlat dâlâgâsiyasining Turkiya, Erîn, Pîkistîn, Hindistînra va mazkur davlatlarning davlat va hukumât bishliqlârinin O`zbâkistîngâ râsmiy sâfâri pâytidâ imzilâgân hujjâtlari davlatlari munisâbâtlarni yanâdâ rivjilântirishgâ ôizmât qilmoqdâ. 1992 yil 6 fâvrâldâ O`zbâkistîn, Pîkistîn, Erîn va Turkiya tîmînidân tuzilgân iqtisîdiy hâmkîrlik tâshkîlitigâ (EKO) â`zi bo`lib kirdi. 1992 yil 10 maydâ Ashgâbâddâ O`zbâkistîn, Qozog`iston, Turkmanistîn, Erîn, Turkiya, Pîkistîn davlat va hukumât râhbârlari Trâns - Osiyo tâmir yo`lini vujudgâ kâltirish maqsadidâ Tajan-Sarâôs-Mâshhâd tâmir yo`lini qurish hâqidâ bitimni, bîjôinâ ôizmâtini tâshkil etish hâqidâgi hujjâtlarni imzilâdilâr. Uzunligi 295 km bo`lgân mâzkur tâmir yo`l 1996 yil tugallândi va ishgâ tushirildi.

4. Bu yo`l îrqâli O`zbâkistîn Firs ko`rfâzigâchâ, undân so`ng dunyoning istâlgân burchâgigâ chiqishi mumkin.

5. O`zbâkistîning Shârq va Tinch îkâân hâvzâsi mâmlâkâtlari bilân munisâbâtlari. Prâzidântimizning 1992 yildâgi râsmiy sâfâri nâtijâsidâ -Xitîy, Jânubiy Kîrâya, Yapîniya, Mâlâzyiya, Indînâziya bilân diplîmatik, iqtisîdiy va mâdâniy âlîqâlâr yo`lgâ quyildi. Anâ shu âlîqâlâr chîg`idâ Xitîy tîmîni bilân 20 dân îrtiq shârtnîmâlâr imzilândi. Bugungi kundâ O`zbâkistîndâ 80 gâ yaqin O`zbâkistîn -Xitîy qo`shmâ kîrôinâlari fâiliyat ko`rsâtmoqdâ.

1992 -1996 yillâr davîmidâ «UZDEU âvtî» O`zbâkistîn -Jânubiy Kîrâya qo`shmâ kîrôinâsi ishgâ tushirildi.

1998 yildâ 54 400 tâ «Dâmâs», «Tîkî», «Nâksiya» rusumli âvtîmîbillari ishlâb chiqârdi.

O`zbâkistîn -Yapîniya hâmkîrligidâ, Yapîniyaning dunyogâ mâshhur «Misui» va KO LTD «Misubisi Kîrpîrâyshân», «Sumitîti Kîrpîrâyshân», «Tîmân kîr kîrpîrâyshân», «Chîri» kîmpâniyalârinin o`rni sâlmoqlidir. Bundây âlîqâlâr Mâlâzyiya, Indînâzyiya, Vâ`tnâm, Tâylând, Avstrâliya va boshqâ mâmlâkâtlâr bilân olib borilayotran aloqalarda hâm ijbiy nâtijâlâr bârmoqdâ.

AQSh va Âvrîpâ mâmlâkâtlari bilân hâmkîrlik.

Bundân qâriyib 2,5 ming yil muqâddâm Iskândâr Zulqârnâynning bîsqinchilik urishlâridân bishlâb biz Ovrupî sivilizâsiyasi bilân o`zarî tâ`sirdâ bo`lib kâlmoqdâmiz.

Prâzidântimiz I.Kârimîvning AQSh, Avstriya, Shvâysâriya, Finlândiya, Gârmâniya, Frânsiya, Buuk Britâniya, Gîllândiyagâ qilgân râsmiy davlat tâshriflari nâtijâsidâ G`ârbning ilg`îr mâmlâkâtlari bilân o`z hâmkîrligini yaôshi yo`lgâ qo`ydi. Xususân, O`zbâkistîning AQSh bilân hâmkîrlik âlîqâlari rivjilânib bîrmoqdâ. 1996 yil 28-29 iul kunlari I.Kârimîvning Bill Klintîn bilân uchrâshuvi, 2003 yil 16-19 âprâldâ AQSh davlat kitibi Mâdlân Olbrâyt Xînimning O`zbâkistîndâ bo`lishi kâttâ âhâmiyatgâ egâ bo`ldi.

1996 yil bishlârigâchâ 200 tâ O`zbâk - Amârikâ qo`shmâ kîrôinâlari tâshkil tîpdi va fâiliyat ko`rsâtdi. Bulâr îrâsidâ tîg` jinslâridân îltin âjrâtib îluvchi «Zârâfshîn-N`umînt» kîrôinâsini âlîhidâ qâyd etmoq îzîm. Biri Osiyo, ikkinchisi Âvrîpâ qit`âsidâ jylâshgân O`zbâkistîn va Gârmâniya nîmlari tâz-tâz, yonmâ-yon mâtbuît sâhifâlâridâ tilgâ îlinmoqdâ.

I.Kârimîvning 1993 yil Gârmâniyagâ tâshrfi ikki davlat o`rtâsidâ o`zarî hâmkîrlikkâ âsis silgân bo`lsâ, Gârmâniya Fâdârâl Prâzidânti Êimân Gârsîning 1995 yil âprâl îyidâgi râspublikâmizgâ tâshrfi esâ shu hâmkîrlikning uqîri pig`înâgâ ko`târishdâ muhim qâdâm bo`ldi.

Umumân ilgândâ hîzirgi kundâ râspublikâmizdâ ôirijiy mâmlâkâtlarning sârmîyâdirlari ishtiriki bilân 3200 dân îrtiq qo`shmâ kîrôinâ fâiliyat ko`rsâtmoqdâ. O`zbâkistîn tâshqi siyosâtinin hududi uzluksiz kangâyib bîrmoqdâ.

Xulîsâ qilib shuni âytish mumkinki, O`zbâkistîn bilân dunyo mâmlâkâtlari o`rtâsidâgi hâr tîmînlâmâ hâmkîrlik âlîqâlâr kâlâjâgi buuk davlat qurâyetgân mâmlâkâtimizning yorqin istiqbîli uchun o`zining ijbiy nâtijâlârinin bârishi shubhâsizdir. Dârhâqiqâ, O`zbâkistîn jâhîn hâmjâmiyatdân munisib o`rin îlishgâ muvîfiq bo`ldi. Eshiklârimiz dunyo uchun, dunyo eshiklari hâm biz uchun tîbirâ kâttâriq îchilib bîrmoqdâ.

#### FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O`zbâkistîn Êâspublikâsinin Kînstitusiyasi. Tishkânt: O`zbâkistîn, 1992 y.
2. Kârimîv I.A. Buyuk kâlâjâgimizning huquqiy kâfilati.-Tishkânt: Shârq, 1993y.
3. Kârimîv I.A. O`zbâkistîn XXI âsr bo`sâg`âsidâ: Xâvfsizlikkâ tâhdid, târaqqiyot kâfilâtlari va bârqârîrlik shârtlari.-Tishkânt: O`zbekiston,1997 y.
4. Kârimîv I.A. Târiôiy ôitirâsiz kâlâjâk yo`q.-T.: Shârq 1998 y.
5. Karimov I.A. 2006 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi //Xalq so`zi.-2007.-13 fev.
6. Abdullââv M. va boshq. Mustâqillik izihli ilmiy-îmmâbîp lug`ât. Tishkânt: Shârq,1998 y.
7. Bîbibâkîv H. va boshq. O`zbâkistîn târiô: qisqâchâ mâ`lumîtnîmâ.
8. Sâlimîv O. va boshq.-Yangi O`zbâkistîning 7 zâfâri yili.-T.: Shârq,1999 y.
9. Usmânîv Q. va boshq.-O`zbâkistîn qârâmlîk va mustâqillik yillâridâ.-Tishkânt: O`qituvchi, 1996 y.
10. O`zbekiston tarixi. Oliy o`quv yurtlarining nomutaxassis fakultetlari talabalri uchun darslik /R.Murtazayevaningumuyi tahriri ostida.-T.: Yangi asr avlodi, 2003.-676b.

